

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**TAHRIRIYAT HAY‘ATI**

**Bosh muharrir:** prof. Nabiyev D. H.

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

f.-m.f.d. Bekpulatov I.R.

**Mas‘ul kotib:** dots. Ne‘matova Y. O.

**Tahririyat hay‘ati a‘zolari:**

prof. Bahriddinova B.M.

prof. Bo‘riyev O.B.

prof. Yoziyev L.Y.

prof. Jabborov A.M.

prof. Jumayev T.J.

f.-m.f.d. Imomov A.A.

k.f.d. Kamolov L.S.

prof. Kuchboyev A.E.

prof. Mengliyev B.R.

prof. Normurodov M.T.

prof. Nurillayeva Sh.N.

prof. Nurmanov S.E.

p.f.d. Oripova N.X.

prof. Ochilov A.O.

prof. Tojiyeva G.N.

prof. To‘rayev D.T.

prof. Umirzakov B.Ye.

prof. Xayriddinov B.X.

prof. Xolmurodov A.E.

prof. Choriyev S.A.

prof. Shodiyev R.D.

prof. Shodmonov N.N.

prof. Erkayev A.P.

prof. Ernazarova G.X.

prof. Eshov B.J.

prof. Qurbonov Sh.Q.

prof. Qo‘liyev B.T.

prof. Bekmurodova G.H.

dots. Ro‘ziyev B.X.

dots. Eshqorayeva N.G‘

dots. Xolmirzayev N.S.

dots. Hamrayeva Y.N.

prof. Bobonazarov G‘.Y.

prof. Shukurov O.M.

**2024  
(1)1**

**QarDU xabarlari**

Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

**Muassis:** Qarshi davlat universiteti

**Jurnal Qashqadaryo viloyati**

**Matbuot va axborot boshqarmasi**

**tomonidan 2010.17.09 da**

**№ 14–061 raqamli guvohnoma**

**bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan.**

**Musahhihlar:**

Shodmonova D.E.

Bazarova D.B.

Tursunboyev B.N.

Ubojenko A.S

**Sahifalovchi**

Yuldoshev D.N.

**Texnik muharrir:**

Rahmatov M.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining qarorlari bilan fizika-  
matematika, kimyo, biologiya, tarix,  
falsafa, siyosatshunoslik, filologiya,  
pedagogika-psixologiya va iqtisod  
fanlari bo‘yicha doktorlik  
dissertatsiyalari asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan  
ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



**Jurnal 2009-yilda tashkil  
etilgan.**

**Yiliga 4 marta  
chop etiladi.**

**MUROJAAT UCHUN MANZIL:**

**Pochta manzili:** 180003, Qarshi,  
Ko‘chabog‘, 17. Qarshi davlat universiteti,  
Filologiya fakulteti binosi, 107-xona.

**Telefon:** 97-222-10-80

**TelegramID:**

[https://t.me/Qardu\\_Xabarlari2024](https://t.me/Qardu_Xabarlari2024)

**Elektron pochta:** qardu\_xabarlari@mail.ru

**Veb-sayt:**

<https://qarshidu.uz/oz/page/ilmiy-jurnal-NEW>

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlar**

Jurnaldan olingan materiallarga “QarDU  
xabarlari” jurnalidan olindi”, degan havola  
berilishi shart. Mualliflardan kelgan  
materiallar egalariga qaytarilmaydi.

## MUNDARIJA

### TARIX

<b>Toshturov Sh.E.</b> BMT va O‘zbekiston: ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalaridagi hamkorlik.....	4
<b>Ernazarov A.X., Amirqulov Sh.Q.</b> Buxoro amirligidagi ijtimoiy munosabatlar ( <i>G‘uzor bekligi misolida</i> ).....	10
<b>Karimov K.S.</b> Turkistonda qozilar va biylarning faoliyati tarixidan.....	15

### FALSAFA

<b>Turdiyev B.S.</b> Antik faylasuflar qarashlarida jamiyat ideosferasi transformatsiyasi.....	20
<b>Hayitov J.M.</b> Xalqaro darajada ekologik xavfsizlikni ta‘minlash tizimining O‘zbekiston ekologik siyosatiga ta‘siri.....	24
<b>Хакимов Н.Х.</b> Развитие учеными Узбекистана экономической мысли в условиях первого ренессанса.....	31
<b>Бурнашев Р.Ф.</b> Философский анализ эволюции цифровой коммуникации в информационном обществе.....	38
<b>Asatulloev A.A.</b> Characteristics of the enlightenment of Turkestan and distinctive features of moral thoughts.....	44
<b>Tursunova Sh.B.</b> Innovatsion tafakkurni ijtimoiy taraqqiyotning zarur vositasiga aylantirishda OAV ning roli ( <i>ijtimoiy tahlil</i> ).....	48
<b>Sagdullayeva D.Sh.</b> Ijtimoiy-siyosiy modernizatsiya jarayonining determinantlari.....	55
<b>Boyqobilova R., Egamberdiyev J.</b> Globallashuv jarayonida yoshlar ma‘naviyatiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ta‘siri.....	62
<b>Qurbonov A.B.</b> Badiiy adabiyotning shaxs ma‘naviy yuksalishidagi roli.....	67
<b>Qarshiyev N.O.</b> Siyosiy partiyalar mafkuralarining shakllanishi va rivojlanishi xorijiy tajriba misolida.....	73
<b>Muydinov D.N.</b> Germaniyaning migratsiya masaladagi tashqi va ichki siyosati.....	80
<b>Sunatov D.H.</b> Madaniy makon – madaniy borliqning mavjudlik shakli.....	87
<b>Rasulov H.M.</b> Rahbar boshqaruv madaniyati muammosi: qo‘l boshqaruvimi yoki tizimli boshqaruv.....	92
<b>Rizayev N.S.</b> Abdurauf Fitratning “Hind sayyohi qissasi” va undagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar tahlili.....	97
<b>Kurbonova S.A.</b> Jadid ma‘rifatparvarlarning ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarining Yangi O‘zbekiston taraqqiyotidagi ahamiyati.....	101
<b>Isaxova Sh. M.</b> Islom bioetikasida biotibbiy axloq me‘yorlari.....	109

### FILOLOGIYA

<b>O‘rinova O.T.</b> Qashqadaryo shevalarida chorvaning bosh tuzilishiga ko‘ra nomlanishi...	113
<b>Kulatova G‘.J.</b> O‘zbekistondagi qozoq diasporasi tilidagi dialektal xususiyatlarning tasnifi (Navoiy viloyati misolida).....	120
<b>Qo‘yliyeva G.N.</b> Tetralogiyada tarixiy obrazlar tasviri va qiyofasining ifodalanishi.....	124
<b>To‘rayev D.</b> Jadidchilik va hozirgi siyosiy-ma‘rifiy jarayon.....	131
<b>Yo‘ldoshev D.N.</b> Muammo nazariy talqinida munaqqid mahorati (Matyoqub Qo‘shjonov asarlari misolida).....	135
<b>Абдурауфова К.Т.</b> Черты этнографизма в очерках А.П. Чехова «Из Сибири».....	140

## **PEDAGOGIKA**

<b>Axmedov A.T.</b> Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining barqarorligini ta'minlashda rag'batlantirish tizimining o'rni.....	146
<b>Жураева Г.</b> Важность компетенций в лингво-коучинговом подходе.....	149
<b>Ochilov R.</b> Malakali futbolchilarning jismoniy rivojlanish darajasini baholash.....	154
<b>Kurbonov Z.M.</b> O'qituvchilarning infokommunikatsion faoliyatini oshirishda Google Drive ning imkoniyatlaridan foydalanish.....	159
<b>Jo'rayeva N.J.</b> Zamonaviy maktab menejeri faoliyatining tuzilmaviy tarkibi.....	167
<b>Nabiyeva M.S.</b> Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning texnologik ta'lim vositasida ijodiy fikrlashini rivojlantirish .....	174

## **PSIXOLOGIYA**

<b>Ag'ayeva D. Z.</b> O'qituvchini kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlashga doir nazariy-metodologik yondashuvlar.....	180
<b>Abdiazizov E.I.</b> Bojxona xizmatining samaradorligini oshirishda profaylingdan foydalanish istiqbollari.....	184
<b>Maxatova N.I.</b> Ijtimoiy-madaniy sohadagi boshqaruv faoliyatining gender xususiyatlari.	188

---

**BMT VA O‘ZBEKISTON: EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI  
MASALALARIDAGI HAMKORLIK****Toshturov Sh.E.**

Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent v.b.

[tosturovsuhra@gmail.com](mailto:tosturovsuhra@gmail.com)

ORCID: 0009-0009-5215-4144

UDK: 364.94(575.1)

**Annotatsiya.** XXI asrda iqlim o‘zgarishlari global muammolardan biriga aylandi. Dunyo miqyosida global isish natijasida atmosferada azon qatlamining yemirilishi, shimoliy qutb muzlarining erishi oqibatida okeanlar sathining ko‘tarilishi, mavsumiy yog‘ingarchiliklarning o‘zgarib ketishi, suv resurslarining taqchilligi, cho‘llanish kabi iqlim o‘zgarishlari yuz bermoqda. Mazkur iqlim o‘zgarishlari jahonning barcha mamlakatlari kabi O‘zbekistonda ham bir qator salbiy oqibatlarni namoyon etmoqda va muammolarning yechimi sifatida xalqaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Shu asnda O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) bilan ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida, ayniqsa hozirgi davrda dolzarb bo‘lgan ekologik barqarorlikni ta‘minlash masalalarida keng ko‘lamli hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘ydi. Maqolada BMT bilan hamkorlik aloqalari doirasida O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi “Parij bitimi” va Kioto protokolini ratifikatsiya qilinishi, biologik xilma-xillikni saqlash, agroiklimiy va suv resurslaridagi o‘zgarishlar hamda Orolbo‘yida ekologik vaziyatni yumshatish, atmosferada metan emissiyasini kamaytirish bo‘yicha global majburiyatlardan kelib chiqib ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvni tejovchi texnologiyalar joriy qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yoritilgan. Shuningdek, maqolada O‘zbekistonda ekologiya, atrof-muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlarini yumshatishga oid xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil etilib, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro tajribani atroflicha o‘rganish va ularni amaliyotga joriy qilish yuzasidan bir qator takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM), Parij bitimi, Kioto protokoli, Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘psherikli Trast fond, Global yashil o‘shish instituti, “yashil belbog‘”, “yashil iqtisodiyot”, “bug‘xona hodisasi”.

**UN AND UZBEKISTAN: COOPERATION IN ECOLOGICAL AND  
ENVIRONMENTAL PROTECTION ISSUES**

**Abstract.** In the 21<sup>st</sup> century, climate change has become one of the global problems. Climate change events such as global warming, erosion of the ozone layer, melting of the Arctic ice, rising ocean levels, changes in seasonal precipitation, shortage of water resources, and desertification are taking place worldwide. Climate change is showing several negative consequences in Uzbekistan as well as in all countries of the world. Wide-scale and deep cooperation relations are being implemented between Uzbekistan and the UN in areas such as economic-social and ecological stability. In the article, the ratification of the “Paris Agreement” and the Kyoto Protocol on climate change by the Republic of Uzbekistan within the framework of cooperation with the United Nations, the preservation of biological diversity, changes in agroclimatic and water resources and the ecological situation of the Aral Sea, practical activities regarding the global commitment to reduce methane emissions, water saving the work carried out on the introduction of technologies is highlighted. Also, the article analyzes the practical work

carried out in international cooperation on issues related to ecology, environmental protection and mitigating the negative consequences of climate change. To eliminate the problems in this regard, several proposals have been put forward regarding the detailed study of international experience and their wide implementation.

**Keywords:** United Nations (UN), Sustainable Development Goals (SDGs), Paris Agreement, Kyoto Protocol, Multistakeholder Trust Fund for Human Security, Global Green Growth Institute, “green belt”, “green economy”, “greenhouse effect”

**Kirish.** XXI asrda iqlim o‘zgarishlari global muammolardan biriga aylandi. Dunyo miqyosida global isish, azon qatlamining yemirilishi, shimoliy qutb muzliklarining erishi natijasida okeanlar sathining ko‘tarilishi, mavsumiy yog‘ingarchiliklarning o‘zgarib ketishi, suv resurslarining taqchilligi, cho‘llanish kabi iqlim o‘zgarishi hodisalari yuz bermoqda. Yuqorida tilga olingan iqlim o‘zgarishlari jahonning barcha mamlakatlari kabi O‘zbekistonda ham bir qator salbiy oqibatlarini namoyon etmoqda va muammolarning yechimi sifatida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida, qolaversa bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangan ekologik barqarorlikni ta‘minlash yo‘nalishlarida keng ko‘lamli hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan. Shu o‘rinda O‘zbekistonda BMT tomonidan qabul qilingan “Mingyillik rivojlanish maqsadlari” (MRM) va “Barqaror rivojlanish maqsadlari” (BRM) global dasturlari doirasida ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalarida amalga oshirilayotgan islohotlarni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik kabi metod va tamoyillari asosida yoritilib, unda O‘zbekiston Respublikasida ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalarida BMT global dasturlarida belgilangan takliflar asosida amalga oshirilayotgan islohotlar, mamlakatda “yashil taraqqiyot” tamoyillarining joriy etilishi kabi masalalar yoritilgan.

**Tadqiqot natijalari va muhokama.** Hozirgi davrda insoniyat duch kelayotgan ekologiya va atrof-muhit muhofazasi kabi global muammolarning mohiyatini anglagan holda BMT tomonidan har yili 15-may - Xalqaro iqlim kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. Iqlim o‘zgarishlarning global xavfini anglagan holda 2015-yil 12-dekabrda iqlim o‘zgarishi bo‘yicha “Parij bitimi” imzolandi. O‘zbekiston Respublikasi 1993-yilning 20-iyunida BMTning “Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida”gi Konvensiyasi, 1999-yilda Kioto protokolini ratifikatsiya qilgan va 2017-yil 19-aprelida BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida O‘zbekiston Parij Bitimiga qo‘shilishi haqidagi shartnomani imzoladi. Bitimni imzolash uchun BMT Iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha Konvensiya kotibiyatiga issiqxona gazlar tashlanmalaridagi milliy miqyosda belgilanadigan hissasini kamaytirish to‘g‘risida hujjat taqdim etildi va mazkur bitim 2018-yili 3-oktabrda ratifikatsiya qilindi. 2030-yilgacha uzoq muddatli istiqbolda O‘zbekiston Respublikasi iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish borasidagi harakatlarni kuchaytirishni – 2030-yilga kelib issiqxona gazlari solishtirma tashlanmalarini 2010-yildagi darajaga nisbatan yalpi ichki mahsulot birligiga 35 foizga qisqartirishni mo‘ljallamoqda [1]. Yuqorida nomlari keltirilgan xalqaro hujjatlar asosida O‘zbekiston Respublikasida sohaga oid huquqiy-me‘yoriy baza mustahkamlanib, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, “yashil maydonlar”ni kengaytirish ishlari davlat siyosati darajasida ko‘tarildi. Xususan, O‘zbekistonda 2019-2028-yillar davomida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydonlarini bugun 7 foizdan 12 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, o‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘rmon fondi yerlari maydonini bugungi 11,2 million gektardan 14 million gektarga yetkazish vazifasi

belgilangan [2].

O'zbekiston va unga tutash mintaqalarda iqlim o'zgarishlari va uning oqibatlariga birinchi navbatda agroiqlimiy va suv resurslari o'zgarishlarini kiritish mumkin. Ulardagi o'zgarishlar respublikada tuproqlar xossa-xususiyatlarining yomonlashuvida, yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi ekinlari o'sib-rivojlanishining sustlashishida hamda Orolbo'yi ekologik holati, xususan, Orol dengizida yuzaga kelayotgan salbiy ko'rinishlarda aks etmoqda. Respublikada iqlimning mintaqaviy o'zgarishlari ekstremal ob-havo hodisalarining ortishiga turtki bo'ldi, ya'ni qurg'oqchilik davrlari va yozgi yuqori darajalarning ortib ketishi, suv resurslarining shakllanish rejimi, yerlarning degradatsiyasi (buzilishi) holatlari bularga misol [3]. Mamlakat hududlarining 76 foizi kenglik tuproq-iqlim zonasi tizimidagi cho'l mintaqasiga kirib, ushbu hududlarda qurg'oqchilik, cho'llanish va sho'rlanish xavfining ortib borishi, kuchli issiq, qurg'oqchilik va suv yetishmovchiligi natijasida ekinlar unumdorligi pasayib ketdi. Mamlakat hududining 23,4 foizi balandlik mintaqalari tashkil etib, iqlim o'zgarishlari mazkur zonalarda mevali ekinlar uchun sovuq urishi xavfi, qurg'oqchilik xavfining yuqoriligi, qor erishining tezligi va o'zgarish davrining ortishi eroziya yoki sel urish holatlariga olib kelmoqda. Shu bois, bu mintaqada tuproq eroziyasiga qarshi kurash, tuproq unumdorligini oshirish muhim vazifa sanaladi. Iqlim o'zgarishlari sharoitlarida eng katta muammolardan biri bu tuproq sho'rlanishi hisoblanadi. 2012-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning 49 foizi sho'rlangan yer maydonlariga to'g'ri kelib, eng katta maydonlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Xorazm, Sirdaryo, Jizzax va Farg'ona viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi [4]. Shu sababli tuproq sho'rlanishini vaqtida oldi olinmasa, kuchli sho'rlangan yerlarda hosildorlik 70-80 foizgacha qisqarib ketishi mumkin.

O'zbekiston BMT Bosh Assambleyasidan turib iqlim o'zgarishlariga qarshi bir qator xalqaro tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yil BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish, Orol dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etish masalalariga to'xtaldi [5]. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev jahon hamjamiyatini ekologik masalalarda, jumladan, Orol dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etishda xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faol birlashtirishga da'vat qildi. Ta'kidlash kerakki, BMT shafeligida 2015-yil Orol mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'psherikli Trast fondi [6] tashkil etildi. Bu fondning tashkil etilganini BMT Bosh kotibi A.Guterrish qo'llab-quvvatlab, donorlarni faol moliyalashtirishga chaqirdi. Tarixga nazar tashlansa, 1911-1962-yillarda Orol dengizi suv sathi eng yuqori nuqtada bo'lib 53,4 metrni, suv hajmi - 1064 kub km.ni, suv yuzasi – 66 ming kv.km.ni va minerallashuv darajasi 1 metr kub suvda 10-11 grammni tashkil qilgan [7]. Sobiq Sovet davlatida rejali iqtisodiyotning avtoritar tamoyillari Markaziy Osiyodagi aksariyat hududlarda ekologik tanazzulning kelib chiqishiga asosiy sabab bo'ldi. Oqibatda qachonlardir jahondagi eng katta ko'llarning to'rtinchisi bo'lgan Orol dengizini qurishi dunyodagi eng yirik ekologik fojialardan biriga aylandi. So'nggi 50 yil mobaynida Amudaryo va Sirdaryoning Orolga quyiladigan suv miqdori besh karra qisqardi va dengiz hajmi 14 marotabaga kichraydi. Dengiz suvining sho'rlanish darajasi 25 marotabaga oshib jahon okeanlari minerallashuv darajasidan ham oshib ketdi. Bir paytlar ovchilik taraqqiy etgan suv havzasi o'rnida bugun maydoni 3,5 million gektarga teng bo'lgan qum-tuz cho'li yuzaga keldi va 1,5 mlrd. tonna atrofida tuz qatlami hosil bo'ldi. Doimiy esadigan shamollar tufayli har yili 100 million tonna qum va tuz havoga ko'tarilib mintaqqa, balki dunyo ekologiyasiga jiddiy tahdid solmoqda. Cho'llanish sababli ko'chma qumlar bilan dengiz tubining to'lishi bilan birga xo'jalik faoliyati zonasiga tuzli qum ko'chishida

namoyon bo'lmoqda [8]. Orolning qurigan qismi 6 million gektar bo'lib, shundan 3,2 million gektari O'zbekiston hududiga to'g'ri keladi va yuqoridagi salbiy holatlarning oldini olish maqsadida bugungi kunga kelib Orolbo'yi hududlarida 1,2 million gektar maydonda o'rmonzorlar, yashil qoplamalar barpo etildi. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil noyabr oyidagi Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi doirasida Mo'ynoq tumanida bo'lib, Orolning qurigan maydoniga saksovul ekish vazifasi belgilab berildi. Shu yili kuz-qish mavsumida 411 ming gektar maydonga saksovul, qandim, cherkez va tuzga chidamli boshqa o'simliklar ekildi [9]. Qo'shimcha 1,7 million gektar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etilib, "yashil Orol dengizi" dasturi doirasida 742 ming gektar yerda yashil qoplamali o'rmonzor, Nukus, Urganch va Xiva shaharlari atroflari daraxtzorlardan iborat "yashil belbog"lar barpo etildi. 2021-yil yakunlariga kelib Orol dengizining qurigan hududlarida 458 ming gektar maydonda, mazkur mintaqaga kiruvchi Xorazm, Buxoro, Navoiy viloyatlarida 148 ming gektar saksovul hamda boshqa cho'l o'simliklari urug' va ko'chatlari ekilib, himoya o'rmonzorlari yaratildi [10].

Iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrda "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Bundan tashqari 2020-yil oktabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish masalalari qo'mitasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi 75-sessiyasida "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida"gi maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi 75-sessiyasida "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida"gi maxsus rezolyutsiyasini amalga oshirish choralari to'g'risida"gi Qarori asosida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha Idoralararo komissiya tashkil etildi [11]. Bundan tashqari, 2021-yil 21-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasida qator global va mintaqaviy muammolar, ularni oldini olish to'g'risida bir nechta tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, Prezident kelgusida bioxilma-xillik Konvensiyasi ishtirokchilarining yig'ilishlaridan birini O'zbekistonda qabul qilish, BMT shafeligida global ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlarini batafsil muhokama qilish maqsadida 2023-yili O'zbekistonda Atrof-muhit bo'yicha BMTning yuqori darajadagi 6-Assambleyasini o'tkazishni taklif qildi hamda BMTning yangi ekologik siyosati asoslarini tashkil etishga qaratilgan Butunjahon ekologiya Xartiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi [12].

O'zbekistonda Global yashil o'sish institutining (GGGI) O'zbekistondagi vakolatxonasini ochilishi ham ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalari borasidagi faoliyatlarga zamonaviy ilm-fan yutuqlarini sohaga joriy qilishni ko'zda tutadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, har yili atmosferaga 100 million tonnadan ortiq uglevodorod chiqariladi. Olimlarning fikricha, o'rmon yong'inlari tufayli atmosferaga chiqayotgan karbonat kislotasi sanoat chiqindilarining 50 foiziga teng bo'lib, yerda "bug'xona hodisasi"ni keltirib chiqarmoqda. 2021-yil 9-noyabr kuni Glazgo (Shotlandiya)da bo'lib o'tgan BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha asosiy Konvensiyasining 26-sessiyasida Metan emissiyasini kamaytirish bo'yicha global majburiyat to'g'risidagi tashabbus ilgari surildi. Ushbu tashabbusga qo'shilganlar 2030-yilgacha global metan emissiyasini 2020-yil darajasidan kamida 30 foizga kamaytirish bo'yicha jamoaviy sa'y-harakatlarga hissa qo'shish uchun ixtiyoriy harakatlar qilishga roziligini bildiradi. Metan atmosferada

karbonat anhidrididan keyin ikkinchi eng ko'p tarqalgan modda bo'lib, harorat ko'tarilishiga katta ta'sirga ega. Metan atmosferada karbonat anhidridga qaraganda 80 baravar ko'proq issiqlikni ushlab turadi. Bugungi kunda ushbu tashabbusga 120 ga yaqin davlat qo'shilgan bo'lib, ular jahon iqtisodiyotining 70 foizi va metan emissiyalarining yarmi ularning hissasiga to'g'ri keladi. O'z navbatida O'zbekiston ham ushbu tashabbusda ishtirok etish orqali global isishga qarshi kurash bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarga o'z hissasini qo'shishni maqsad qildi. 2022-yil 26-may kuni O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish xalqaro forumi doirasida O'zbekistonning Metan emissiyasini kamaytirish bo'yicha global majburiyat to'g'risidagi tashabbusga qo'shilishi bo'yicha tadbir bo'lib o'tdi [13].

Mutaxassislarining fikricha, 2040-yilga kelib, jahonning 33 davlati suvning o'ta darajada tanqisligi muammosi bilan to'qnashadi. Bu 33 mamlakat orasida Markaziy Osiyo davlatlarining barchasi mavjud. O'zbekiston ham, albatta, ular orasida. O'zbekistonda suvning asosiy qismi, ya'ni 84,2 foizi qishloq xo'jaligi va irrigatsiya tizimiga sarflanadi. O'zbekiston aholisining yarmi qishloqlarda yashashi inobatga olinsa, qishloq xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida suv resurslaridan samarali foydalanish, sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etish zarurdir [14]. Keyingi yillarda sanoat tarmoqlari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi suv resurslaridan yanada ko'p foylanishga olib kelmoqda. Qolaversa, urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi ham muqarrar toza ichimlik suviga bo'lgan talabni yildan yilga oshib borishni taqozo etmoqda. Bu esa sohaga suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini keng qo'llashni joriy etishni ustuvor vazifaga aylantirdi. Strategik ahamiyatidan kelib chiqib Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyoti banki, Saudiya rivojlanish fondi, OPEK fondi, Quvayt fondi, Xitoy Xalq Respublikasi Eksimbanki singari yirik moliya institutlari, Yaponiya, Shveysariya, Germaniya va boshqa davlatlar, hamkor tashkilot va agentliklar kabi donorlarning investitsiyalari ishtirokida sohada yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Ular tomonidan umumiy qiymati qariyb 1,5 mlrd. AQSH dollariga teng investitsiya mablag'lari jalb etildi. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa fondlarning bahosiga ko'ra, O'zbekiston suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini keng qo'llashni joriy etish borasida mintaqada tan olingan peshqadam hisoblanadi [15]. Raqamlarga nazar tashlansa, O'zbekiston sug'oriladigan maydonlarga nisbatan suvni tejoychi texnologiyalarni joriy etish ko'lami bo'yicha dunyoda 16-o'ringa, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida esa 1-o'ringa chiqdi. So'nggi besh yilda 643 ming gektar maydonlarga suvni tejoychi texnologiyalar joriy qilindi [16].

Bundan tashqari cho'llanishga qarshi kurash, yemirilgan yerlarni, shu jumladan, saholanish, qurg'oqchilik, suv toshqiniga uchragan yerlarni tiklash va yemirilishining neytral balansiga erishish borasida olib borilgan chora-tadbirlar natijasida birgina 2020-yilda 101,8 ming gektar yer maydonlari qayta foydalanishga kiritildi. Respublika bo'yicha 640 km sug'orish tarmoqlari qurish, 114 km kollektor tarmoqlarini ta'mirlash, 884 ta sug'orish quduqlarini qazish, 90 ta nasos agregatlari o'rnatish hamda 1532 km elektr uzatish tarmoqlarini tortish ishlari amalga oshirildi. Yer usti va ichki chuchuk suvli ekotizimlar, jumladan, o'rmonlar, suvli-botqoqli hududlar, tog'lar va qurg'oqchil yerlarni saqlash, tiklash va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash maqsadida so'nggi uch yilda 1742 ming gektarda o'rmonzorlar barpo etildi. 2020-yilda 4300 gektar va 2021-yilda 3174 gektar maydonda dorivor va oziq-ovqatbop o'simliklarning madaniy plantatsiyalari tashkil etildi. 2020-yilda jami 5800 tonna dorivor va oziq-ovqatbop o'simliklar xom-ashyosi tayyorlangan. Shuningdek, qishloq xo'jaligiga qarashli sug'oriladigan yerlarda shamol eroziyasiga hamda suv xo'jaligi obyektlarini qum bosishiga qarshi o'rmon xo'jaliklari tomonidan shartnoma asosida 2020-yilda 2 ming gektarda, 2021-yilning I choragida 1,2



ming gektar maydonda yangi ixota daraxtzorlari barpo etildi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda 1 million 220 ming gektar o'rmonzorlar yaratilib, shundan 400 ming gektardan ortig'i Orolbo'yi hududida barpo etildi [17]. Mamlakatda 2016-2021-yillar davomida umumiy maydoni 2 420 586,3 gektarga teng bo'lgan 5 ta muhofazalangan tabiiy hududlar ("Janubiy Ustyurt" milliy tabiiy parki, Xorazm milliy tabiiy parki, "Sudoche-Akpetki" davlat qo'riqxonasi, "Saygachiy" kompleks (landshaft) qo'riqxonasi va Ugom-Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi) tashkil etildi [18].

**Xulosa va takliflar.** Iqlim o'zgarishlari jahonning barcha mamlakatlari qator O'zbekistonda ham bir necha salbiy oqibatlarni namoyon etmoqda. So'nggi yillarda respublikada havo harorati ko'tarilishi oqibatida suv bug'lanishi hajmining oshishi, mavjud suv resurslarining kamayishi, yog'ingarchiliklar mavsumida yog'inlar juda kam bo'lishi natijasida tuproq namligining kamayishi va havoda chang miqdorining ortishi, qurg'oqchilik, hosildorlikning pasayishi, ob-havoning keskin o'zgarishi tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosilga to'liq kirmay nobud bo'lishi kabi holatlar tez-tez kuzatilmoqda. Shu sababli ekologiya va atrof-muhit muhofazasidagi muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro tajribani keng o'rganish, qazib olinuvchi yoqilg'iga nisbatan qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni ko'paytirish, hududlarda ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, xususan, cho'l hududlarida suvsizlikka chidamli daraxt va butalar ekishni ko'paytirish, yirik shaharlar atrofida o'rmon xo'jaliklari, yashil belbog'larni tashkil etish, ekologik toza transport vositalariga bosqichma-bosqich o'tish, tabiiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni rag'batlantirish kabilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'afforov X. Iqlim o'zgarishining oldini olish uchun nimalar qilish kerak? <https://xs.uz/uzkr/post/iqlim-ozgarishining-oldini-olish-uchun-nimalar-qilish-kerak> (15.05.2020)
2. Xo'jayeva M. Soxta raqamlardan xoli real natijalarga erishish kerak // Xalq so'zi, 2022-yil 18-may. №102 (8164) – B.4.
3. Iqlim o'zgarishlari to'g'risidagi BMTning Hadli Konvensiyasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Birinchi Milliy axboroti, 1999.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish bo'yicha o'quv qo'llanma [Matn] –Toshkent: "Ma'naviyat". 2021. – B.196-201.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // Xalq so'zi. 2017-yil, 20- sentabr.
6. UN Multi-Partner Human Security Trust fund for the Aral Sea region in Uzbekistan Terms of Reference. Tashkent. United Nations Office in Uzbekistan. 2019. P. 56
7. Orifxo'jayev S. O'zbekiston tabiati: muammo va yechimlar // Jamiyat va boshqaruv, - Toshkent: 2000. №2.– B. 71.
8. Gafurova L.A., Abduraxmanov T.A., Jabborov Z.A., Saidova M.E. Tuproqlar degradatsiyasi. –Toshkent: 2012. – B. 218.
9. Ulug'murodov D. Orolbo'yi hududi: armonga aylangan to'lqinlar // Xalq so'zi. 2022-yil 21-yanvar. №14 (8076) –B.2.
10. Qorjovov A. Orolbo'yi: innovatsiya va texnologiyalar hududining yangi davri //Yangi O'zbekiston, 2022-yil 18-fevral. № 36 (558) –B. 1-4.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi 75-sessiyasida «Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida»gi

maxsus rezolyutsiyasini amalga oshirish choralari to'g'risida"gi Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.07.2021 y., 07/21/5202/0726-son.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqi //Yangi O'zbekiston. 2021-yil 22-sentabr. № 189 (445), –B.1.

13. O'zbekiston Metan emissiyasini kamaytirish bo'yicha global majburiyat to'g'risidagi tashabbusga qo'shildi // <https://telegra.ph/Ozbekiston-metan-chiqindilarini-kamaytirish-boyicha-global-majburiyatga-qoshildi-05-26> (26.05.2022)

14. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU. 2017. –B. 21.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqini o'rganish bo'yicha ilmiy-ommabop risola [Matn]. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2017. – B.98.

16. Bozorov F. Suv resurslari kelajak uchun //Xalq so'zi, 2022 yil 19 may. №103 (8165) –B.1-3.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU. 2019. – B.54.

18. Юквалиш общенациональное движение. Итоги реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2020 годах [Текст]: информационный бюллетень/ Б.Бекмуродов [и др.].–Ташкент: Baktria press. 2021. – С. 143.

## BUXORO AMIRLIGIDAGI IJTIMOYIY MUNOSABATLAR

(G'uzor bekligi misolida)

**Ernazarov Azim Xudoyqulovich.**

Qarshi davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi dots v.b., t.f.f.d (PhD),  
[ernazarov.85@bk.ru](mailto:ernazarov.85@bk.ru)

**Amirqulov Sharofiddin Qobil o'g'li**

Qashqadaryo viloyati Qo'riqlash boshqarmasi mas'ul xodimi  
[sharofiddin1997@gmail.com](mailto:sharofiddin1997@gmail.com)

ORCID: 0009-0001-2825-8068

UDK: 950:911(021)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif Buxoro amirligi beklilari, xususan, G'uzor bekligining amirlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'rni va mavqeyini, turli ilmiy adabiyotlar hamda arxiv ma'lumotlari asosida beklilikning siyosiy hamda madaniy hayotdagi tutgan o'rni masalalari bo'yicha o'z xulosalarini bergan. G'uzor bekligining aynan XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida amirlikning muhim harbiy strategik, siyosiy, iqtisodiy tayanch markazi darajasiga ko'tarilishiga shaharning himoya devorlari bilan o'ralganligi, shaharning ichki va tashqi savdo markazi bo'lganligi kabi omillar sabab bo'lganligi dalillangan. G'uzor bekligi hududidan o'tgan, amirlik poytaxtini Afg'oniston, Eron, Hindiston hamda uning Shahrizabz, Denov, Hisor kabi sharqiy hududlari bilan bog'laydigan asosiy savdo yo'llari Buxoro amirligi yo'nalishlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida katta o'rin tutganligi yangi xaritalar orqali ko'rsatib berilgan. G'uzor bekligining siyosiy ma'muriy hududiy bo'linmalari, mansablari, 10 ta amlolik va 178 ta qishloq hamda manzillar aniqlashtirilib, Qushbegi arxivining I-126 fondidagi G'uzor bekligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida G'uzor bekligining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari haqidagi ma'lumotlar muomalaga kiritilgan.

**Kalit so'zlar:** Amirlik hududlari, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy tabaqalar, savdo-sotiq aloqalari, savdo bozorlari, bozorlar boshqaruvi, shariat qonunlari, ichki va tashqi

savdo, yirik savdo shaharlari.

### **SOCIAL RELATIONS IN THE EMIRATE OF BUKHARA (In the case of Guzor noble-province)**

**Abstract:** In this article, the author gives his conclusions on the socio-economic position and position of the principalities of the Bukhara Emirate, especially the Guzor noble-province in the emirate, based on various scientific literature and archival data, on the issues of the role of the principality in political and cultural life. The rise of Guzor noble-province to the level of an important military-strategic, political, and economic center of the emirate in the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century was caused by factors such as the fact that the city was surrounded by protective walls, and that the city was the center of internal and external trade proven. The main trade routes passing through the territory of Guzor noble-province, connecting the capital of the emirate with Afghanistan, Iran, India and its eastern regions such as Shahrisabz, Denov, Hisar, play an important role in the socio-economic development of the directions of the Bukhara Emirate. is shown by new maps. The political administrative territorial divisions of Guzor noble-province, positions, 10 estates and 178 villages and addresses have been determined, reflecting the socio-economic life of Guzor noble-province in the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century in the I-126 fund of the Kushbegi archive. Information about the socio-economic and cultural processes of Guzor noble-province is included in circulation.

**Key words:** Emirate territories, social relations, social classes, trade relations, auto markets, market management, Sharia law, internal and external trade, major trading cities.

**Kirish. (Introduction).** Tarixiy manbalardan ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi ma'muriy-hududiy jihatdan beklklar, tumanlarga bo'lingan holda boshqarilar edi. G'uzor bekligi amirlikda eng ko'zga ko'ringan hududlardan biri bo'lib, savdo-sotiq munosabatlari yuqori darajaga ko'tarilganligi bilan katta ahamiyatga ega bo'lib, beklk amirlikning g'arbiy sharqiy viloyatlarini bir-biri bilan bog'lab turgan" [1]. G'uzor bekligi Buxoro amirligining savdo-sotiq markazi bo'lishi bilan birga, u harbiy istehkom vazifasini ham o'tagan, amirlikning janubiy viloyatlarini boshqarib turardi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** XIX asrning oxirgi choragida Buxoro amirligidagi 23 ta katta va kichik shaharlaridan biri G'uzor [2] shahri edi. Shahar harbiy ahamiyatga egaligi va mustahkam qo'rg'ondan iborat ekanligi bilan boshqa shaharlardan tubdan farq qilib turgan. Kitob, Shahrisabz, G'uzor, Hisor va Qo'rg'ontepadan turli yo'llar o'tgan bo'lib, jamiki harbiy harajatlar ushbu yo'llardan tushgan foyda evaziga qoplangan [2]. Bu yo'llar Buxoro va chor Rossiyasi uchun harbiy ahamiyatga ega bo'lib, muhim strategik o'rin tutgan. Rus-afg'on chegarasida vaziyat o'zgargan holatlarda Sherobod, Qarshi, Shahrisabz, Hisor, Saroy, Ko'lob, G'arm beklklari bilan birga G'uzor bekligi ham Termiz va Kerki garnizonlari uchun zaxira vazifasini o'tagan [3]. Bundan tashqari janubiy viloyatlarda yuz berayotgan voqealar, qo'zg'olonlar Buxoro xonligidan kelgan yangi harbiy kuchlar ko'magida bevosita G'uzor bekligi tomonidan bartaraf etilgan.

Janubiy beklklardan yig'ib olingan soliqlar G'uzor bekligi orqali Buxoro amirligiga jo'natib turilgan. Shu boisdan, G'uzor bekligini boshqarish Buxoro amirligining eng ishonchli kishilari, asosan, taxt vorislari bo'lgan o'g'illariga yuklatilgan. Shuning uchun ham Buxoro amirligining Chorjo'y, Qabodiyon, Nurota, Karmana, Ziyovuddin, Kitob, Yakkabog', Qarshi bekliklari kabi, G'uzor bekligini ham taxt vorislari boshqarganligini

ko'rishimiz mumkin [4].

**Natijalar va muhokama (Results and Discussions).** Buxoroda amalda bo'lgan shariat qonunlari barcha bekliklarga taalluqli bo'lgan. Buxoro amirlari o'zlari istagan har qanday g'ayriqonuniy xatti-harakatga ulamolardan fatvo talab etardilar.

Xonlikning moliya boshqarmasiga Devonbegi boshchilik qilib, u asosan yer solig'i (xiroj)ni undirish ishlarini olib borardi. Undan tashqari, bu boshqarmaga qushbegi poyon, ya'ni quyi qushbegi deb atalgan zakotchi-kalon ham boshchilik qilardi. Uning zimmasiga chorva mollaridan va jamiki ot-ulovdan soliq undirish vazifasi yuklangan edi. Qushbegi poyonning ikki yordamchisi bo'lib, biri Sharqiy Buxoroda, ikkinchisi esa G'arbiy Buxoroda turardi. Shu bilan birga, uning qaramog'idagi 25 nafar zakotchi butun xonlikda zakot undirish bilan shug'ullanardi.

Biroq N.Mayev boshqacharoq ma'lumotni keltirib o'tadi: [5] XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro va Samarqand shaharlari Afg'oniston, Eron, Hindiston bilan olib borgan barcha savdo-sotiq munosabatlari G'uzor bekligi orqali amalga oshirilgan [6]. Bu davrda G'uzor bekligi amirlikda Shahrisabz, G'arm bekliklari bilan Termiz, Samarqand, Ko'lob, Yangi Marg'ilon shaharlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarda ko'prik vazifasini bajarib turgan.

G'uzor bekligining Buxoro amirligida tutgan o'rni u amirlikda eng yirik savdo-sotiq markazi bo'lganligi bilan ham izohlanadi. G'uzor shahriga uzoq o'lkalardan va yirik savdo shaharlaridan savdogarlarning tez-tez kelib turishi yangidan-yangi karvonsaroylar va bozorlarga talabni yuzaga keltirgan. G'uzor to'rasi Sultonxon 1912-yilda savdogarlar uchun "Oq saroy" karvonsaroyini qurib ishga tushirdi. Bu davrda shaharda usti yopiq bozor ham mavjud bo'lgan" [7].

XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar, ya'ni Buxoro xonligining chor Rossiyasi qo'shinlari tomonidan ishg'ol qilinishi va Buxoro amirining Rossiya hukumati to'belikni tan olishi G'uzor bekligi hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Amirlikning sharqiy qismida joylashgan Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Chiroqchi bekliklari bilan bir qatorda G'uzor bekligidan ham rus hukumati uning avvalgi iqtisodiy va siyosiy mavqeyidan foydalangan holda ish yuritdi. G'uzor bekligining joylashgan o'rni katta harbiy ahamiyatga ega ekanligini yaxshi tushunib yetgan rus hukumati bu beklikka o'z e'tiborini qaratdi.

1876-yilning bahorida rus podshosi maxfiy ravishda muhandis mayor Chernyavskiyga Buxoro amirligidagi Kogon, Qarshi, G'uzor, Yakkabog', Kitob, Kelif, Termiz shaharlari hududlarining geografik kartasini chizib kelishni va u joylarni suratini olish lozimligini unga topshiradi. Bu ishlar qisman bo'lsa-da, Chernyavskiy tomonidan bajariladi. 1880-yilning sentabrida muhandis polkovnik N.Mayev boshliq turli mutaxassislardan iborat bo'lgan temir yo'l quruvchi muhandislarni Qashqadaryo, Surxondaryo hududlarida temir yo'l qurish ishlarini amalga oshirish maqsadida bu o'lkalarni yanada batafsilroq o'rganib uning kartasini chizib kelish ishlarini amalga oshirishga yuboriladi [8].

1913-yilga kelib Buxoro amirligi hududidan Kogon, Qarshi-G'uzor, Kelif, Termiz shaharlari oralig'ida quriladigan temir yo'li loyihasi ishlab chiqildi. Kavaleriya generali A.Suxomlinov, injener Kovalevlar chizgan loyihaga Peterburg temir yo'l qurish ishlarini loyihalash ilmiy tekshirish instituti xodimlari tomonidan ma'lum bir o'zgartirishlar kiritilgani holda u nihoyasiga yetkazilgan edi [9]. Uchinchi navbatda Qarshi-Kitob oralig'ida 122 kilometrlik masofa 1914-1917-yillarda qurib ishga tushirilishi mo'ljallangan edi. Bu shaharlar orasida G'uzor, Qarshi, Yakkabog', Kitob temir yo'l bekatlari va bir qancha razyezdlar qurilishi rejalashtirilgan edi [10].

Temir yo'l quruvchilari 1915-yilning 15-dekabrigacha Qarshida yo'lovchilar uchun

107, Muborakda 38, Kosonda 75, Nishonda 37, Samsanotda 107, Kitobda 60 kvadrat metrlik kutish zallari, xonalari qurib berdilar [11]. Bunday katta ishlar Termiz va boshqa bekatlarda ham amalga oshirildi. Bundan tashqari, Qarshi, Termizda to'qqiztadan hajmi 100 kvadrat metrlik turar joy binolari qurib bitkazildi. G'uzor, Qamay, Yakkabog' bekatlarida ham ularning har biriga 37 kvadrat metrlik kutish zallari va 114 kvadrat metrlik turar joy binolari qurib berildi. Ishchilarga, muhandis, texnik xodimlarga, bo'lg'usi yo'lovchilarga qisman bo'lsa-da, sharoitlar yaratila boshlandi [8].

Qashqadaryo temir yo'li ko'prigini qurish uchun 11142 pud, Sho'radaryoga 2004, Qorasuvga 5770, G'uzorga 3288, Qizildaryoga 7707, Tezobdaryoga 5184 pud, Shahrisabz daryoga 3313 pudlik turli xil metall ehtiyot qismlari, materiallar Amiroboddan keltirildi [12].

Temir yo'l qurilishi muvaffaqiyatli amalga oshishi tufayli 1915-yilning 26-martida Qarshiga, 17-sentabrda G'uzorga, 1916-yilning 17-iyulida Qamayga, 1916-yilning oxirida esa Kitobgacha bo'lgan ushbu yo'l qurib tugallandi. Bu yo'llardan kuniga 2 marta yuk tashuvchi, ikki marotaba yo'lovchilar tashuvchi poyezdlarning qatnovi tashkil qilindi. Yo'lovchilar tashuvchi parovozga ikkita vagon va bitta pochta yuklarini eltuvchi vagonlar tirkab qo'yilgan edi. Bu magistral yo'lining yonidagi tosh yo'ldan avtomobil qatnovi ham yo'lga qo'yildi. U pochta va yo'lning ishchi xizmatchilarini ish manzillariga olib borib qo'yishga mo'ljallangan edi [8].

1892-yilda Buxoro-Termiz shaharlari o'rtasida temir yo'l qurila boshlaganda bu yo'lni G'uzor-Shahrisabz beklklarigacha uzaytirish rejasi ishlab chiqildi. Shu davrda G'uzor bekligidagi Qarshi va Shahrisabzdan keyin uchinchi bo'lib pochta aloqa tarmog'i ishga tushirildi [4].

XIX asrning oxirida Kitob, Qarshi, Samarqand, G'uzor, Sherobod, Termiz shaharlari o'rtasida yangi qurilgan savdo yo'llarining vujudga kelishi G'uzor bekligidagi yuz bergan katta ijtimoiy voqealardan biri bo'lgandi. Endi rivojlanib kelayotgan rus sanoati uchun savdo munosabatlarini avj oldirishga talab va ehtiyoj katta edi. Eski yo'llar talabga javob bermay qoldi. Shu talabni hisobga olgan rus hukumati Buxoro amirligi bilan birgalikda yangi yo'l qurishda ishtirok etdilar. Yo'l tez fursatda qurib ishga tushirildi. Buxoro amirligi bu yo'ldan har yili katta miqdorda foyda olib, shu foydadan 6000 rublni rus hukumatiga to'lab turardi. Foydaning bir qismi esa yo'l qurilishiga ketardi. Yo'l qurilishi va tuzatish ishlari yo'l atrofida yashovchi mahalliy aholi zimmasiga yuklatildi [4].

Samarqand-G'uzor-Termiz yo'lining qurib ishga tushirilishi amirlikda G'uzor bekligining mavqeyi yana ham oshishiga olib keldi. Chunki G'uzor bekligidagi avvaldan ham savdo munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, yangi savdo yo'llarining qurilishi u yerda yanada ko'proq savdo-sotiq qilish imkonini berar edi.

1913-yil iyun oyida G'uzordan Termiz shahrigacha 207 km masofada ikkita kuzatuv punkti bor edi. Bu kuzatuv punktining biri G'uzor shahrida bo'lgan. Chunki bu yerlarda pochta-telegraf idoralari joylashgan bo'lib, kuzatuv uchun qulay hisoblanardi.

1912-yilda muhandis Kovalevskiy Kogon stansiyasidan Qarshi, Kerki, Kelef, Termizga boradigan, Qarshidan G'uzor, Kitobgacha shaxobchasi bo'lgan, umumiy uzunligi qariyb 585 chaqirimdan iborat temir yo'lni qurishga amirning roziligini oladi.

1912-yil 15-iyunda Buxorodagi Rossiya imperiyasining agenti A.S.Samov Turkiston general-gubernatori Aleksandr Sergeevichga quyidagilarni ma'lum qiladi: "Men sizga shuni ma'lum qilamanki, amir injener Kovalevskiyga G'uzor-Kitob yo'li qurilishiga ketadigan barcha xarajatlarni o'z zimmasiga olganligini bildirdi" [13], 26-sentabrda komissiya Qarshi-G'uzor-Kitob shaharlari o'rtasida qurilajak temir yo'l loyihasi ko'rib chiqadi.

Buxoro shahridan Qarshi-G'uzor-Kitob shaharlarigacha 114 kilometr uzunlikdagi

temir yo‘l qurilish ishlari 1912-yilda boshlanib, 1915-yilda yo‘l foydalanishga topshirilgan [13]. Temir yo‘l ishga tushgach, 1912-yil G‘uzorga temir yo‘l vokzali va temir yo‘l xodimlari uchun turar joy binosi qurib bitkaziladi.

G‘uzor temir yo‘li ishga tushirilishi natijasida bu yerda bojxona xizmati vujudga keldi, beklik hududidan o‘tadigan va shu yerdan chetga chiqariladigan mahsulotlar ro‘yxatdan o‘tkaziladigan bo‘ldi. Shu sababdan ham G‘uzor bekligi nafaqat Buxoro amirligi, balki chor Rossiyasi uchun ham e‘tiborli hududlardan biriga aylandi.

1899-yil Samarqand-Termiz shaharlari o‘rtasida pochta va aloqa tarmoqlarini qurish ishlari boshlandi. Yo‘l uchun ketadigan asosiy xarajatlar Kitob, Shahrisabz, G‘uzor va Sherobod bekliklaridan yo‘l o‘tishi munosabati bilan yo‘l qurilishiga ketadigan barcha xarajatlar shu bekliklar aholisi zimmasiga yuklatildi. Bundan tashqari yo‘l qurilishiga ketadigan barcha mablag‘lar rus injenerlari tomonidan harbiy maqsadlarni nazarda tutgan holda amalga oshirildi [14].

**Xulosa va takliflar.** G‘uzor bekligi XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Buxoro amirligida harbiy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan yuqori o‘ringa ko‘tarildi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, XIX asrning oxirlariga qadar ham G‘uzor bekligi amirlikda mavjud bekliklar orasida savdo-iqtisodiy mavqeyini saqlab qoldi. Chor Rossiyasi xonliklar va amirlik ustidan vassallik o‘rnatganidan so‘ng bu hududlarda harbiy-iqtisodiy manfaatdorlik nuqtayi nazaridan siyosat olib bordi. 1890-yillardan boshlab Buxoro amirligini Toshkent-Orenburg orqali Rossiya shaharlari bilan bog‘laydigan temir yo‘llar qurilishi rejalari ishlab chiqildi. Ushbu rejalarda asosida 1915-yilga kelib Toshkent-Samarqand-Buxoro-Qarshi-G‘uzor-Shahrisabz-Kitob yo‘nalishlarida, Buxoro-Qarshi-G‘uzor-Termiz yo‘nalishlarida temir yo‘llar qurilib, G‘uzor bekligi Buxoro amirligining yetakchi bekliklaridan biri sifatida Rossiyaning harbiy-iqtisodiy-strategik makonlaridan biriga aylandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Логофет Д.Н. В горах и равнинах Бухары. –СПб., 1913. – С. 62.
2. Жўраев А. Ғузор тарихи. -Ташкент: “Turon zamin ziyo”. 2017. – Б.62.
3. Тухтаметов Т.П. Русско-Бухарские отношения в конце XIX – начале XX в. –Т., 1966. –С.115
4. Логофет Д.Н. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб: 1909. –С. 13-31.
5. Маев Н. Бухоро хонлиги очерклари. Ўзбек тилига И.Ботиров таржимаси. – Тошкент, “Fan va texnologiya”, 2012. – Б.68.
6. Бердиев Ж. Жанубий Ўзбекистондаги шаҳарсозлик ва урбанизация тарихи (XVIII-XX аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Қарши, 2021. – Б.87.
7. Чориев З., Жўраев А. Ғузор тарихидан лавҳалар. – Қарши: “Насаф”, 1997. – Б.9.
8. Абдурахмонов Э, Тўйчиев А. “Жанубий сарҳадларда” (Ўзбекистон жанубий вилоятлари темир йўл тарихи). –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2000. – Б.33.
9. Зияева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида. – Т.: 2013. – Б.338.
10. Мусаев Н.У. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг вужудга келиши ва ривожланиши тарихидан. – Тошкент: “Молия-иқтисод”, 2011. – Б.224.
11. О‘з МА. I-126 фонд, 1-ро‘ухат, 16-ish, 17-varaq.
12. О‘з МА. I-126 фонд, 1-ро‘ухат, 15a-ish, 20-varaq.
13. О‘з МА. I- 126 фонд, 1-ро‘ухат, 448-ish, 1-varaq.
14. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. 2. –СПб., 1911. – С. 190-191.

**TURKISTONDA QOZILAR VA BIYLARNING FAOLIYATI TARIXIDAN****Karimov Kaxramon Sadikovich**

Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti v.v.b.,

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

[qahramonjob876@umail.uz](mailto:qahramonjob876@umail.uz)

ORCID: 0009-0006-2397-8572

UDK: 94(575.1)"18/19":347.995

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinib, Turkiston general gubernatorligi tashkil etilgan hududlarda an‘anaviy qozilar va biylar faoliyatiga mustamlaka huquqiy tartiblarining joriy etilishi, sud tizimida xalqaro sudlar tashkil etilishi, mustamlaka hududiga umumiy imperial qonunlar joriy etilishi, qozi va biylar tomonidan rasmiylashtirilgan vasiqa meros vasiqasi, savdo vasiqasi, tortiq vasiqasi, vasiylik xati, iqrornoma yoxud iqrora xati, nikoh bitimlari to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot berilgan. Bundan tashqari, qozi va biylar tomonidan ko‘riladigan ishlar yuzasidan belgilangan normalar, fuqarolar arzlari va murojaat qilish ko‘rsatmalari keltirilgan. Da‘vo arzlari ijroga qabul qilish, ko‘rib chiqish va hukm chiqarishga oid tarixiy ma‘lumotlar ko‘rsatilgan. Qozilar va biylar syezdlari, mazkur syezdlar tarkibi, faoliyati bayon qilingan. Qozilar va biylar hukmi yuzasidan arz beruvchi va murojaatchilarning rozilik holatini maxsus daftarlarga rasmiylashtirish ishlari yuzasidan fikrlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** qozi, biy, syezd, arz, murojaat, muhr, imzo, gunoh va ayb ishlar, tergov.

**FROM THE HISTORY OF THE ACTIVITIES OF QADIS AND BEYS OF TURKESTAN**

**Abstract.** This article summarizes the introduction of colonial legal procedures to the activities of traditional qadis and beys, the establishment of international courts in the judicial system, the introduction of general imperial laws to the territory of the colony, the inheritance certificate issued by the qadis and beys in the territories occupied by the Russian Empire of Central Asia and the establishment of the general governorship of Turkestan, sales deed, towing deed, guardianship letter, affidavit or confession letter, brief information about marriage contracts. In addition, the established norms, citizens' applications and application instructions are given in connection with cases handled by qadis and beys. Historical information on the admission, processing and adjudication of claims is shown. The courts of qadis and beys, the composition and activities of these courts are described. Opinions are given on the matter of formalizing the consent of applicants in special notebooks regarding the verdict of qadis and beys.

**Keywords:** Qadi, bey, syezd, appeal, seal, signature, sin and guilt cases, investigation.

**Kirish.** Turkiston o‘lkasi aholi ijtimoiy, iqtisodiy va din ishlari bilan bog‘liq hayotiy jarayonda gunoh, ayb ishlarni taftish va tergov qilish uchun Rossiya imperiyasi mahalliy boshqaruvga o‘zining xalqaro sudyalarini kiritdi. Ularga noiblar va tergovchilar tayinlanadilar. Xalqaro sudyalar noiblari bo‘lgan uyezdlarda ta‘qiq va tergov ishlarini mazkur sudyalarning o‘zlari o‘tkazadilar. Har bir uyezd va Toshkent shahrida bir xalqaro sudya tayinlangan. Har bir viloyatda viloyatning sud mahkamasi bo‘lgan. Ammo an‘anaviy qozi va biy sudlov tizimi saqlab qolingan.

**Manbalar tahlili.** O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy

nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan qo'lyozma, toshbosma asarlar, materiallar tarixiy voqelikning o'zini emas, balki tarixiy voqelikni o'zida aks ettirgan manbalarni tadqiq qilishga yordam beradi. Bu manbalar ichida memuarlar, qo'lyozmalar, qonunlar, shariat, fiqh, odob-axloqqa oid to'plamlar, xotira va esdaliklar ham asosiy o'rin tutadi va ular birlamchi manbalar hisoblanadi. Tadqiqotni tayyorlashda fonda mavjud chig'atoy (eski o'zbek) yozuvidagi matnlar, fors tildagi manbalardan ham unumli foydalanildi. Bu manbalar masalaga bevosita aloqador, arxiv hujjatlarida aks ettirilgan voqealar tafsilotini mustahkamlaydi, masalaning tub mohiyatini oydinlashtiradi.

“Yangi hukmlar” (ينگی حوكلار) manbasi ruslar tomonidan bo'ysundirilgan qozoq xalqi yerlaridagi ijtimoiy holat to'g'risidagi kichik hajmdagi maqola. Ushbu maqolada o'quvchilarga ramazon oyida ro'za tutish taqiqlanganligi yozilgan [1].

“Kayfiyati muslimin” (كيفية مسلمين) risolasi taxminan XVIII asrga tegishli manba. Qo'qon qog'oziga qora siyoh bilan 15 qator hajmda ko'chirib yozilgan. Turkiy tilda yozilgan bu asarda poygilar izchillik bilan qo'yilgan. Asarda o'lka aholisi ijtimoiy kayfiyatiga baho berishga harakat qilingan [2].

“Diniy risola” (دينى رساله) nomli diniy-aqidaviy mazmundagi asar nasr ko'rinishida yozilgan. Ikki ustun shaklida nasta'liq xatida bitilgan asarda diniy-aqidaviy masalalar to'g'risida so'z yuritilgan [3].

“Turli hujjatlar” (حوختها) nomli turli yozuvlar va hujjatlar to'plami. Qo'qon qog'oziga nasta'liq xatida tezkorlik bilan ko'ichirib yozilgan ushbu manbada nasabni aniqlov, vaqf hujjatlari, birlashib ishlamoqqa takliflar va bag'ishlovlar keltirilgan [4].

“Nikoh hujjati” (حوخت نكاح) manbada esa musulmonchilik odatiga ko'ra nikohni rasmiylashtirish hujjatining namunasi, tartib-qoidalarini ko'rsatib o'tilgan. Mazkur qo'lyozma XIX asrga oid tarixiy manba hisoblanadi [4].

“Xat va vasiqalar majmuasi” (حظ و وشيقه لار مخدمعشى) risolasida turli hujjatlar, masalan, oilada er va xotinning moddiy ta'minotdagi o'rni, mahkumlikdan ozod qilish xati, nikoh va taloq hujjatlari namunalarini keltirilgan [5].

“Yer o'lchash to'g'risida risola” (دساله مسافه) Barufaq ismli muallifligidagi risolada yer o'lchash asoslari, to'g'ri, tekislik va notekis yerlarni o'lchash, uning yuzasi, tomonlari, chegaralarini belgilash tartiblariga oid to'plamdir [6].

“To'plam” (مجموعت) nomli XIX asrga oid tarixiy manba risolada shariat tartib-qoidalarini amalga oshirish bo'yicha yo'l-yo'riqlar, ularga oid sharhlar, voqea va hikoyalar bayon qilingan [7]. Mazkur fondida saqlanayotgan manbalar orasida yer-mulk [8] va turar joy-hovli [9] oldi-sotdisi bilan bog'liq hujjatlar aks etgan manbalar ham ko'plab uchraydi.

“Usuli din bayoni” (در بيان اصول دين) nomli Mir Abdullohshoh muallifligidagi risolasida Dini Islomning sakkiz asosi bo'yicha bir qator ma'lumot sharhi keltirilgan. Mazkur manba 12x26 sm hajmdagi Qo'qon qog'oziga nasta'liq xatida bitilgan [10].

“Qozi daftari” (قاضى دفترى) risolasi noma'lum qozi shaxsiy tashabbusi bilan jamlangan fiqh ilmiga oid turli asarlar va fatvolardan saralangan to'plamdir. Ushbu qo'lyozma XIX asrga oid bo'lib, tadqiqot ishimiz uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi [11].

“Meroz huquqiga oid risolalar to'plami” (جامع الر سايل فى الفر ابيض) nomli risolada musulmon huquqidan merosga oid masalalar bo'yicha yozilgan. Ushbu risola ketma-ketlik tartibida joylashtirilgan uch qismdan iborat [12].

“Mashru' va g'ayri mashru' navblar bayoni” (بيان انواع المشر و غير المشر و عات) nomli risolada shariat ahkomlarining bayoni, farz, vojib, sunnat, mustahab, harom, makruh, muboh amallarning ta'rifi berilgan [13].

**Tadqiqot va natijalar.** XIX asr ikkinchi yarmidan Rossiya imperiyasi hududida



amalda joriy qilingan umumimperial qonunlarga muvofiq, qat'iy tayin etilgan yer va mulk xususidagi vasiqalardan tashqari, qozilar va biylar o'zlariga tobe fuqarolar uchun har xil vasiqa va shartnomalarga muhrlarini bosib tasdiqlashlari mumkin bo'lgan [14].

Qozi va biylar tomonidan rasmiylashtirilgan vasiqa meros vasiqasi\*, savdo vasiqasi\*, tortiq vasiqasi\*, vasiylik xati\*, iqrornoma yoxud iqrora xati\*, nikoh bitim\*lariga ikki taraf, ya'ni vasiqa oluvchi va beruvchi shaxslar o'z qo'llari bilan tasdiqlagan. Agar yozishni bilmasalar, ularning vakillari ikki kishidan kam bo'lmagan guvoh kuzatuvida qo'l qo'yib tasdiqlashlari lozim edi. Imzolar ustiga qozi yoki biylar shu vasiqalarga o'zlarining mansabdorlik muhrlarini bosgan. Murojaatchilarning barcha guvohnomalarini qoldirmay poshdohlik muhri bosilgan daftarga yozib, raqamlarini tartib va navbat bilan qo'yishlari kerak bo'ladi [14].

Sartiya (mahalliy hudud) fuqarolari qozilarining syezd bo'ladigan vaqtini, joyini va syezd qatnashchilari soni, ular qancha volost fuqarolarining da'volarini ko'rib chiqish sanog'ini janob harbiy gubernator tayinlagan. Mazkur syezdlarni chaqirish va o'tkazish uyezd hokimi zimmasiga yuklatilgan. Mazkur volost fuqarolarining da'volarini ko'rib chiqish uchun syezdga tayinlangan qozilarning uchdan ikki qismi ishtirok etsa, ushbu syezd o'tkazilishi mumkin va bu qonunga to'g'ri kelgan.

Ko'chmanchi o'lka fuqarolarining syezdlari har bir volostning o'z biylaridan tashkil topadi. Shu tarkib topgan biylar uch kishidan kam bo'lmagan hollarda qonunga muvofiq syezd deb qabul qilingan. Mazkur syezdlar zaruratga qarab uyezd hokimining avval tayin qilgan vakolatli faoliyat muddat vaqtlarida chaqirilgan. Shu syezdlar "oblast boshqaruvchisi"ning huzurida bo'lgan. Shu syezd yig'ilgan joyda syezd tartib bilan o'tkazilishini nazorat qilish mazkur volost boshliqlari zimmasida bo'lgan [14].

Syezdga qatnashish uchun kelgan qozi va biylar ko'riladigan da'vo ishlarni so'roq qilish uchun jamoa orasidan bir kishini mas'ul qilib tayinlaganlar. Qozilar syezdida chiqarilgan hukmlarni daftarga yozib turish ularning sadrnashinlari (tayinlangan mas'ul) zimmasida bo'lgan.

Qozi va biydagi notamom (tugallanmagan) da'volarni qozilar va biylar syezdlari ko'rib chiqqan. Syezd qozilari va biylarning o'z sheriklarining ba'zi hukmlarida ochiqdan ochiq xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, shu sheriklarini vazifalaridan ozod qilish holatidan tashqari, boshqa o'rinlarda syezd qozilari hukmlari ustidan qilingan arz e'tiborga olinmagan.

Syezd qozilari va biylarning o'z sheriklarining ba'zi hukmlarida ochiqdan ochiq xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, bu sheriklarini vazifalaridan ozod qilish haqida hukm chiqarish xususida ish ochish shu syezd qozilari va biylari zimmasida bo'lgan. Bu arizalarni uyezd hokimi "volost boshliqlari"ga yuboradi.

Syezd qozilari va biylari chaqirtirgan (moddiy aliyalar) javobgarlarni va guvohlarni syezdga yetkazib keltirish volost boshliqlari, starshinalar va ularning noiblari vasifasi sifatida belgilangan [14].

Bir qozi va bir biyning qilgan notamom (tugallanmagan) hukmi ustidan shu hukm

---

\*Muayyan bir mulkni oila a'zolariga meros qoldirish haqida hujjat.

\*Muayyan bir mulkni sotish va xarid qilish haqida hujjat. Unga sotuvchi ham, sotib oluvchi ham, guvohlar ham imzolarini qo'yib, muhrlari bo'lsa, muhr bosganlar

\*Muayyan bir mulkni o'z oila a'zolaridan tashqari boshqa bir kishiga tortiq qilinganligi haqida hujjat.

\*O'z mulklarini vafotidan so'ng tasarruf qilish hamda merosxo'ring mulkiy huquqlarini himoya qiladigan shaxs-vasiy tayinlash haqida hujjat.

\*Biror kishining boshqa bir kishidan qarz olganligi haqida hamda qarzni to'lash muddati ko'rsatilgan hujjat

\*Ko'pgina nikohlanuvchilarning nikohi og'zaki tarzda amalga oshirilsa-da, musulmon huquqi bo'yicha nikoh shartnoma

e'lon qilingandan keyin bir hafta muhlat ichida agar da'vogarlar sartiya fuqarolari bo'lsa, uyezd hokimiga, aylotia (ايلاتيه), yani ko'chmanchi fuqarolar bo'lsa, volost boshliqlariga arz qilinardi. Bu ikki holatda murojaatlarni syezdga topshirishi lozim bo'lgan. Syezd o'z ishini ko'rayotgan vaqtda to'g'ridan to'g'ri mazkur arzlarni syezdga taqdim etishi mumkin edi.

Da'vogar va javobgar o'zaro kelishib qozi va biyga arz qilmay, da'volarini so'roq qilish uchun to'g'ridan to'g'ri syezdga yoki mutlaqo xolis odamlarga ruju' – (دجوی) (da'volarini qaytarib olishlari) qilishlari mumkin bo'lgan. Gunoh ishda da'vo ko'p, ammo sodir etilgan gunoh oz bo'lsa ham, guvohlik bergan xolis odamlarning guvohliklari boricha qabul qilinadi.

Har ikki taraf o'zaro kelishib, da'vo ishlarida xolis shaxsni guvoh qilganlari haqida volostda yuritiladigan qaydlar daftariga yozib, imzolarini chekadilar. Mazkur xolis guvohlar ham ushbu daftarga o'z ko'rsatmalarini yozadilar, da'vogarlar esa imzo qo'ygach, muhr bosilardi [14].

Qozi va biylarning da'vo yuzasidan so'roq qilishlari va hukm qilishlari oshkora va xalq ichida bo'lishi belgilangan.

Qozilarning va biylarning katta syezdlarini harbiy general-gubernator tayinlagan. Har xil uyezdga qaragan yoki har xil volostga qaragan fuqarolarning da'volarini, qozilar, biylar va ularning syezdlari biror odamni jamoadan chiqarish (badarg'a) qilish uchun qilgan arzlarni shu katta syezdda ko'rib chiqilgan. O'troq aholi fuqarolarining katta syezdi da'vogar va javobgar, hukm ostiga tushganlarning yashash joylari qozilaridan tashkil topgan. Ammo ko'chmanchi fuqarolarning katta syezdlari da'vogar va javobgar hamda hukm ostiga tushganlarning yashash volostlarining biylaridan tarkib topgan. Bu tarkibga bir volostdan hech bo'lmaganda, albatta, bir biy tarkibga kiritilgan. Ko'chmanchi fuqarolarining katta syezdlariga da'vogar va javobgarlarning so'roq qilgan biylardan boshqa biylarni uyezd hokimi o'zi tayinlagan [14].

Ko'chmanchi o'lka fuqarolarining katta syezdi uyezd hokimi yoki ushbu g'araz uchun (niyatda) yurtda tayinlanadigan to'ra huzurida bo'lgan. Lekin bu hokim va to'rada faqatgina syezdni tartib bilan nizom asosida o'tkazilishini nazorat qilish mas'uliyati bo'lgan [14].

Qozi va biylardan tarkib topgan katta syezd rasmiy syezd uchun qo'yilgan talab va qoidaga muvofiq da'volarni ko'rib chiqadilar.

Rasmiy syezd yoki katta syezdga sababsiz, uzrsiz kelmagan qozi yoki biy uyezd hokimining amri bilan o'n so'm miqdorida jarimaga tortilgan. Bu jarimaga tortilgan qozi yoki biy bu hukmdan rozi bo'lmasa, bir oy muhlat ichida harbiy gubernatorga arz qilishi mumkin bo'lgan. Shu undirilgan jarima pullari hibsonaga sarf qilinadi.

Turkistonda sudlov tizimini qayta tuzishdan maqsad, uni chor Rossiyasidagi shunday tizimga moslashtirish va nisbatan ma'muriyatdan mustaqil qilishdan iborat edi. Biroq yuqorida ta'rifi keltirilgan, mohiyat e'tibori bilan mustamlaka tuzimining so'nggi kunlariga qadar amalda bo'lgan kuchaytirilgan va favqulodda qo'riqlov to'g'risidagi "nizomlar" tufayli sudning ma'muriyatdan ajratilishi faqat rasmiy xarakterga ega bo'ldi. Shunga qaramay XIX asr oxiridagi sud tuzilishi oldingisidan farq qilardi.

**Xulosa.** Islomiy hujjatlar, xususan, qozilik mahkamasi hujjatlari ma'lum bir an'analar asosida rasmiylashtirilgan va ularda qozining muhri, yozma qarori, masala yuzasidan dalili keltirilgan bo'lishi shart qilingan. Turkistonda xalq sudya (qozi)larining huquqiy me'yorlar legalizatsiyasi jarayonida ushbu holatlar saqlanib qolingan bo'lsa-da, ayrim o'zgarishlar ham kuzatiladi. Masalan, hujjatlar qo'lyozma shaklda yoki yozuv mashinkasida maxsus kotiblar tomonidan yozilgan. Xat va xabarlar pochta xizmati orqali maxsus markalar yopishtirilgan holda jo'natilgan va jiddiy mazmundagi xabarnomalar

so'rg'ichlangan. Rus imperiyasi ma'muriyatiga tegishli hujjat va qog'ozlarda bosma gerb, naqshlar, hudud va tashkilot nomlari, tipografik elementlar uchraydi.

Xullas, Turkiston o'lkasida mahalliy boshqaruv tizimining taraqqiyot yo'li, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, tarixiy merosi, ularning g'oyaviy yo'nalishlari, qozilik mahkamalari notarial laboratoriyasini chuqur o'rganish o'zbek davlatchilik tarixi, xususan, XIX asr oxiri – XX asr boshlari o'zbek xalqining huquqiy boshqaruvida milliy ruh aks etish manzarasini teran tasavvur qilish imkonini beradi.

### Fodalanilgan adaiyotlar ro'yxati

1. Yangi hukmlar (ينگی حوكلار). Qozon. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. 1913. № 401/III. 2-varaq.
2. Kayfiyati musulmin (كيفية مسلمين). O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. XVIII. № 615. 23-varaq.
3. "Diniy risola" (دينى ريساله). O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. 1149/1736. № 756. 374-varaq.
4. "Turli hujjatlar" (حوختها). O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. XIX-XX. № 358/X. 2-varaq.
5. "Nikoh hujjati" (حوخت نکاح). O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. XIX. № 353/III. 1-varaq.
6. "Xat va vasifalar majmuasi" (خط و وشيقه لار محمدعشى). Qo'qon. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. 1897. № 358/VI. 5-varaq.
7. "Yer o'lchash to'g'risida risola" (دساله مسافه). Qo'qon. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. XIX-XX. № 407/VIII. 5-varaq.
8. "To'plam" (مجموعت). O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. XIX-XX. № 710/III. 21-varaq.
9. "Hujjat" (حجت). O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. XIX. № 313/II. 2-varaq.
10. "Usuli din bayoni" (در بيان اصول دين). O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. 1138/1725. № 284/IV. 2-varaq.
11. "Qozi daftari" (قاضى دفترى). O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. XIX. № 405. 232-varaq.
12. "Meroz huquqiga oid risolalar to'plami" (جامع الر سايل فى الفر ايض). O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. XIX. № 407/V-VII. 64-varaq.
13. "Mashru' va g'ayri mashru' navblar bayoni" (بيان انواع المشر و غير المشر و عات). O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. № 366/I. 5-varaq.
14. Qonun. (قهنون) – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 730. – V.6.

## ANTIK FAYLASUFLAR QARASHLARIDA JAMIYAT IDEOSFERASI TRANSFORMATSIYASI

**Bexruz Sobirovich Turdiyev**

Buxoro davlat universiteti, Yurisprudensiya va  
ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası dotsenti

[b.s.turdiyev@buxdu.uz](mailto:b.s.turdiyev@buxdu.uz)

ORCID: 0000-0003-3260-3327

UDK: 321.7:323.004.69(575.1)

**Annotatsiya:** Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotida jamiyat ideosferasining yangilanishi to'g'risidagi turli g'oya va qarashlarni chuqur va atroflicha tahlil etmay, ulardan tegishlicha xulosa va saboq chiqarmay, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari degan eng ulug' maqsad sari bora olmaymiz. Bugungi kunda jamiyat ideosferasi yangilanishi to'g'risidagi turli g'oya va qarashlar evolyutsiyasining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini o'rganishda Sharq va G'arb mutafakkirlarining jamiyat ongi va tafakkurini yangilash to'g'risidagi konsepsiyalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular tomonidan ilgari surilgan qarashlar jahon xalqlari ma'naviy yuksalish tarixining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu g'oyalar ijtimoiy muhit, inson munosabatlarini o'rganish, mavjud olamni bilish va uni o'zgartirishga bo'lgan uzluksiz intilish jarayonida shakllanib, rivojlanib borganini va xalqlarning ilmiy tafakkurining o'sib borishi, ma'naviy yuksalib borishi, demokratik jamiyat rivoji va ideosferasi yangilanishi haqidagi g'oyalarni olg'a surish va amalga oshirish uchun xizmat qilmoqda. Maqolada buyuk mutafakkir, alloma va jamoat arboblari Zardusht, Konfutsiy, Suqrot, Platon va Aristotel kabi antik faylasuflar asarlarida ilgari surilgan jamiyat ideosferasini yangilanishi to'g'risidagi ilmiy-falsafiy qarashlari chuqur tadqiq etilib, birinchi navbatda, bu yangilanishlarni inson ongida amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** ideosfera, umuminsoniy qadriyatlar, evolyutsiya, falsafa, axloq, fuqaro, qonun, tarbiya, adolat.

## TRANSFORMATION OF THE IDEASPHERE OF SOCIETY IN THE VIEWS OF ANCIENT PHILOSOPHERS

**Annotation:** At present, in the development of society, we cannot achieve the greatest goals of national revival and progress without conducting a deep and comprehensive analysis of various ideas and perspectives aimed at renewing the ideological framework of society, and without drawing corresponding conclusions and lessons from them. Studying the socio-philosophical essence of the evolution of diverse ideas and viewpoints on the renewal of the ideological framework of society, particularly examining the concepts put forth by Eastern and Western thinkers regarding the renewal of consciousness and thinking in society, is of utmost importance. The views they expressed became an integral part of the history of the spiritual growth of the peoples of the world. These ideas were formed and developed in the process of studying the social environment, human relations, knowledge of the existing world and the constant desire to change it, the growth of scientific thinking of peoples, spiritual progress, the development of a democratic society and serves to promote and implement the ideas of updating the ideasphere. This article delves deeply into the scientific and philosophical views of prominent thinkers, scientists, and public figures regarding the renewal of the ideological framework of society as presented in the works of ancient philosophers such as Zoroaster, Confucius, Socrates, Plato, and Aristotle. The article emphasizes the necessity of implementing these renewals, primarily through individual consciousness.

**Key words:** ideasphere, universal values, evolution, philosophy, morality, citizen, law, education, justice.

**Kirish.** Agar ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixiga nazar tashlasak, jamiyat ideosferasining yangilanishi mamlakat taraqqiyoti rivojiga ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy merosning ta'siri beqiyos ekanligining guvohi bo'lamiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida e'tirof etganidek: "Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz" [1]. Buyuk allomalar, tarixiy shaxslar va siyosiy arboblarning o'zlarining hayot saboqlari, tarixiy tajriba va o'z oldlariga qo'ygan maqsadlari orqali jamiyat ideosferasini yangilash yoki ma'naviy bo'hronni chuqurlashtirish orqali jamiyat va millat taraqqiyotiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishga harakat qilganlari diqqatga sazovor.

Shuning uchun buyuk faylasuf, mutafakkir olimlar va adolatli davlat arboblari millatni mahdudlik holatidan chiqarib, taraqqiyotni rivojlantirish maqsadida, birinchi navbatda, jamiyat ideosferasini shakllantirish omiliga e'tibor qaratganlar, jamiyat a'zolarini umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanga daxldorlik mas'uliyati, insonni e'zozlash, adolat uchun kurash, halol mehnat, jamoaviylik, oilaga sadoqat, do'st va yaqin birodarlarni hurmat qilish ruhida kamol toptirishga, ularda milliy g'urur, iftixor, burch va mas'uliyat tuyg'ularini kuchaytirishga harakat qilganlar. Chunki millatning o'zligini anglashi, sha'ni va qadr-qimmatining yerga urilishiga yo'l qo'ymasligi, milliy hamjihatlik, ahillik, hamkorlik va birdamlikka intilishi ham milliy ma'naviyat rivojlanishi darajasini belgilovchi mezon ekanligi tushunib yetilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jamiyat ideosferasining yangilanishi to'g'risidagi Sharq va G'arb mutafakkirlari qarashlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati o'rganilishida analiz va sintez, retrospektiv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Natijalar va muhokama.** Fikrimizcha, jamiyat ideosferasining yangilanishi xalqlar o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga ham imkon tug'dirgan. O'zligini odilona anglagan millat boshqa xalqlarning ham qadriga yetgan, ular bilan teng huquqli, do'stona aloqalarni mustahkamlashga harakat qilgan. Chunki milliy o'zligini anglash faqat milliy manfaatlarni bilishgina bo'lib qolmay, taraqqiyot istiqbollari ham to'g'ri tasavvur etib, hamkorlikda rivojlanishni yo'lidan borishni ta'minlaydi. Shu sabab xalqning dono mutafakkir va yetuk allomalari milliy ideosferasini yuksaltirish yo'lidagi harakatlarida boshqa xalqlarni hurmat qilish, ular bilan do'stlik munosabatlarini o'rnatish mamlakat taraqqiyotining muhim ma'naviy omili ekanligini e'tirof etganlar.

Markaziy Osiyo xalqlarining falsafiy merosi umumjahon falsafasi tarixida o'zining salmoqli hissasini qo'shdi. Ushbu xalqlar falsafasi Hindiston, Xitoy, Misr, Yunoniston falsafasi kabi qadimiyligi bilan emas, balki o'z taraqqiyoti yo'lida jahon xalqlari ma'naviyatiga kuchli ta'sir etgan falsafiy-diniy g'oyalar evolyutsiyasidan iboratligi bilan ajralib turadi. Shundan kelib chiqib, jamiyat ideosferasi yangilanishlarining jamiyat rivojida tutgan o'rnini qadimgi Sharq va G'arb faylasuf olimlarining ijodlaridan namunalar asosida ilmiy tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bejizga Sharq qadimdan ma'naviyat va sivilizatsiya o'chog'i sifatida ta'riflanmagan. Qadimgi Sharq faylasuflari ezgu g'oyalarning yuksalishi, shaxsning o'zligini anglashi va kamol topishiga qaratilgan konsepsiyalarda, avvalo, zardushtiylik, buddizm, konfutsiychilik falsafasida ko'plab noyob g'oyalar ilgari surilganligini ko'rishimiz mumkin.

Jamiyat ideosferasining yuksalishida Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi **Zardushtiylik** falsafasining ezgu g'oyalari alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Unda hududimizdagi qadimgi xalqlarining ma'naviyati, madaniyati, urf-odat va an'analari, axloqiy qadriyatlari mujassam. Unda jamiyat ideosferasi yuksalishiga xizmat qiladigan tinchlik va barqarorlik, insonlarning bir-biri bilan halol mehnatda kamol topishi g'oyalari ilgari surilgan. Taniqli faylasuf olimi Nigina Shermuxamedova ta'kidlashicha, Zardushtiylik falsafasida farzand ko'rish, bolalarni bilimli, odobli, jamiyat uchun foydali insonlar qilib tarbiyalash, kelajakni o'ylab ish tutish umuminsoniy ma'naviyat ekanligi ta'kidlanadi [2]. Zardusht falsafasidagi "O'zgalarga yorug'lik istagan kimsalarga yorug'lik nasib etadi. Haqiqat nurlari ostida, Ezgu Niyatdan yaralgan ma'rifatingdan bizlarga hadya qil, toki tirikligimizning har lahza, har soat, har bir kunida shodmonlikdan bahramand bo'laylik" yoxud "Olam obodligi uchun g'ayrat ko'rsatmoq lozim, uni yaxshilik bilan asramoq va yorug'lik sari eltmoq kerak" [3] singari fikrlar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U o'z davrida xalqni ezgulik va adolat g'oyalariga da'vat etish, hayotbaxsh an'analarni shakllantirish, dehqonchilik va shahar madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, uning g'oyalari bilan bog'liq qadriyatlar bugungi kungacha yashab kelmoqda va xalqimiz turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlarini belgilashda ulkan qimmat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ushbu qadimiy falsafiy yodgorlik namunasining insoniyat oldidagi xizmatini e'tirof etish maqsadida 2000-yil oktyabr oyida zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" yaratilganligining 2700-yilligi katta tantana bilan nishonlandi [4]. Ushbu ma'naviy ishlarimiz ajdodlarimiz va ular tomonidan qoldirilgan merosga nisbatan hurmat va ehtirom tuyg'ularining yorqin misolidir.

Qadimgi Xitoydagi ijtimoiy-falsafiy fikr tarixida **Konfutsiyning (551-479)** qarashlari alohida o'rin tutadi. Faylasuf qadimgi Xitoy ijtimoiy-falsafiy tafakkuri rivojiga katta hissa qo'shdi. Uning "Aforizmlar"i butun jahon xalqlari ma'naviyatining ajralmas sarchashmasidir. Uning falsafiy qarashlarida har bir jamiyat a'zosi ideosferasining yangilanishga daxldor ekanligi, insonlarning hayoti taqdirga bog'liq ekanligi, inson ezgu maqsadlar sari intilsa, unga, albatta, boylik va ulug'lik nasib etishini ilgari suradi.

Konfutsiyning falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar markaziy o'rin tutadi. Qadimgi ajdodlarning urf-odatlarini, marosimlari, tariqatiga tayangan Konfutsiy o'tganlarning shuhrati ularning avlodlarini yuksaltiradi, deb jamiyatning haqiqiy negizi, poydevorini yanada mustahkamlash uchun qadimgi urf-odatlar, marosimlar, an'analarni tiklash va ularga amal qilish zarurligini uqtirdi [5].

Bugungi kunda Konfutsiy tomonidan yaratilgan ta'limotning maqsadga muvofiqligini mamlakatimizda qadimgi urf-odat, an'ana, milliy marosim va bayramlarimizning, ajdodlarimiz tarixiy xotiralarining tiklanishi borasidagi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarimizda ko'rishimiz mumkin.

Insoniyat sivilizatsiyasida dastlabki ijtimoiy-falsafiy g'oyalar avval Sharqda vujudga kelishiga qaramay G'arbda, ayniqsa, Qadimgi Gretsiya va Rimda tom ma'noda yuksak cho'qqiga erishdi. Bu borada qadimgi Yunonistondagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar alohida ajralib turadi.

Qadimgi Yunonistonda Suqrot, Platon va Aristotel asos solgan falsafiy maktab vakillari jamiyatning ideosferasi yangilanishi haqidagi qarashlari nafaqat G'arbda, shuningdek, Sharq falsafasining yuksalishiga xizmat qiladi.

Yunon falsafasida hayoti davomida hech qanday asar yozmagan bo'lishiga qaramasdan, falsafa rivojlanishini tubdan o'zgartirgan faylasuflardan biri **Suqrot (mil.avv. 469-399)** edi. Inson zoti uning hozirgi holati emas, balki bo'lishi kutiladigan mavjudotdir, tugallanganlik emas, balki xohish, muvaffaqiyat emas, va'da va urinishdir.

Biroq mazkur salohiyatni chiqarish uchun u bilimning yo'riq beradigan nuri bilan yoritilishi kerak. Suqrotning fikricha, ta'lim ezgu niyatni inson ichida ekishga ko'maklashadi.

Suqrotga ko'ra, bilimni o'quvchiga yetkazish emas, balki mavjud ichki bilimni ochib berishdir. Bilim uni yetkazish orqali olinmaydi, balki u tadqiqot orqali olib borilib bu hayot davomida oshirilib boriladi. Suqrot o'zini donishmand emas, faylasuf deb ataganini inobatga olsak, ta'kidlash joizki, bilimning orqasidan quvish va uni izlash hayot davomida kechadi.

Jahon falsafasi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk alloma, faylasuf, san'atshunos olim bu **Platondir**. Platonning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti uning dunyoqarashida markaziy o'rinlardan birini tashkil etadi. Platon ijtimoiy-siyosiy masalalarga doir "Davlat", "Qonunlar", "Siyosat" va "Kritiy" nomli asarlar yozib qoldirgan.

Faylasuf "Qonunlar" asarida jamiyat haqida, uning ideal siyosiy tuzumi to'g'risidagi qarashlarini markaziy ta'limoti - g'oyalar nazariyasi bilan uzviy bog'liq holda ilgari surgan. Uning fikricha, "Kimki, davlatlarga jamiyat va umumxalq muomalasida bo'ladigan axloqning hayotiy qoidalari to'g'risida qonunlar berishni o'ylab, ammo xususiy hayotga e'tibor berishni zarur deb hisoblamagan bo'lsa, bu bilan hammaga hamda har kimga o'zi xohlaganicha kun o'tkazishiga imkoniyat yaratib bergan bo'lsa; fuqarolar, o'zlarining xususiy hayotlari qonunlashtirilmaganiga qaramay, jamiyat va umumxalq hayotida qonunlarga mos yashaydilar, deb hisoblasa, u noto'g'ri mulohaza yuritgan bo'ladi" [6].

Platonning ideal davlat to'g'risidagi orzulari negizida adolat g'oyasi yotadi. Platon aytganidek, jamiyat barcha a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo'ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir.

O'zining qomusiy merosi bilan jahonni lol qoldirgan, ilmiy-falsafiy g'oyalari bilan sharqda "Birinci muallim" sifatida e'tirof etilgan buyuk faylasuf **Aristoteldir** (miloddan avvalgi 384-322-yillar). Aristotelning jamiyat yuksalishi to'g'risidagi fikrlari alloma ta'limotining markazida turadi. Faylasufning jamiyat taraqqiyoti va rivoji haqidagi qarashlari "Davlat", "Ritorika", "Siyosat", "Fizika" kabi asarlarida tahlil etilgan. U davlatning yashashi uchun zaruriy elementlarni batafsil sanab o'tadi va bularni sifat va miqdor elementlariga ajratadi. Sifat elementlariga u erkinlik, tarbiya, tug'ilish va oliyanoblikni kiritisa, miqdor elementlariga ommaning miqdoriy ustunligini kiritadi [7]. Shuning uchun turli siyosiy tuzumlar bir-birini almashtiradilar va yangilar paydo bo'ladi. Davlat o'zgarsa ham, insonlar o'zgarmay, qanday bo'lsalar shunday qoladilar, faqat boshqaruv shakli o'zgaradi.

Aristotel talqinicha, insoniyat jamoasining maqsadi faqat yashashdan iborat bo'lmay, balki undan oliyroq, ya'ni baxtli yashashdan iborat bo'lishi kerak, shuning uchun davlatning maqsadi baxtli hayot yaratishdir. Shunday qilib, davlatning vazifasi, maqsadi oilalarga va bir qancha avlodlarga baxtli hayot yaratishdan iborat. Davlat teng huquqli kishilar jamiyati bo'lib, ular o'zaro eng yaxshi hayot qurish maqsadida birlashishlari mumkin. Aristotel uchun davlat hayotning eng mukammal shaklidir. Bunday shaklda ijtimoiy hayot eng oliy farovonlikka erishadi.

Davlat umumiy adolatga xizmat qiladi. Lekin adolat nisbiy tushunchadir, shunga qaramay, adolatni umumiy baxt-saodat, deb biladi. Baxt-saodat faqat siyosiy hayotda bo'lishi mumkin. Adolat siyosatning maqsadidir. Adolat umumiy baxt-saodat bo'lishi bilan birga umumiylikka tegishli adolatli qismlarga mos kelishi lozim. Teng adolatlilik butun davlatga foydali bo'lishi bilan birga uning barcha fuqarolariga ham foyda keltiradi. Faylasuf ta'kidlashicha, eng yaxshi davlat baxtlidir, eng yaxshi—eng yaxshi siyosiy

tuzumdır. Davlat boshqaruvining eng yaxshi shakli—eng yaxshi hayot uchun xizmat qilish. Eng yaxshi baxt baxtli hayotdir, ya'ni hayot fazilatlariga, qudratga to'la va bu fazilatlarini hayotning barcha voqealariga to'g'ri qo'llay bilish kerak [7]. Aristotelning siyosiy ta'limotlari nihoyatda ulkan nazariy va shuningdek, katta tarixiy qimmatga ega. Uning ideal davlat to'g'risidagi ixcham loyihasi, har qanday xayoliy davlat kabi uydırma xayoliy xususiyatlari real jamiyatning tarixiy munosabatlarini aks ettiruvchi qorishmadan iborat bo'lgan. Arastuning ijtimoiy-siyosiy ta'limotlari va ayniqsa, uning ideal davlat haqidagi nazariyalari nafaqat uning vatandoshlari tomonidan rivojlantirilibgina qolmay, balki o'rta asr markaziy osiyolik mutafakkirlarning ideal jamoaning fozil kishilari to'g'risidagi qarashlariga, shuningdek, XVI-XVII asrlarda G'arbiy Yevropada yashab ijod etgan mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ham katta ta'sir etgan va o'chmas iz qoldirgan.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish joizki, qadimgi Sharq va G'arb mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida jamiyatning ma'nan va g'oyaviy yuksalishi masalalari yetakchilik qilgan. Ushbu faylasuflar qarashlarining turfa xilligi, ular tomonidan ilgari surilgan insonparvarlik, ma'rifatparvarlik ruhida g'oyalarining inson, uning erkinligi, manfaatlarining ustuvorligi bilan bog'liq qarashlari hozirgi kunda demokratik jamiyat rivoji va jamiyat ideosferasi yangilanishi bilan aloqadorligini ko'rsatmoqda. Zotan, buyuk mutafakkir va faylasuflar tomonidan ilgari surilgan bunday konsepsiya va ta'limotlar bugungi kunda ham butun insoniyatni mulohazaga chorlashi bilan diqqatga sazovordır.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. //“Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 20 сентябрь
2. Шермухамедова Н. Фалсафа. –Т.: Ношир, 2012. – 1215 б.
3. Жўраев Н. Авесто: тарихий-адабий ёдгорлик. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б.700.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Авесто” яратилганининг 2700 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги 2000 йил 29 мартдаги 110-сонли қарори. // <https://lex.uz/docs/1672588>
5. Конфуций. Ҳикматлар. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – 164 б.
6. Афлотун. Қонунлар (Масъул муҳаррир: Ўткир Ҳошимов, Таржимон: Урфон Отажон) –Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – Б.450.
7. Назаров Қ, Фарб фалсафаси. –Тошкент: Шарқ, 2004. – Б.720.

#### XALQARO DARAJADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH TIZIMINING O'ZBEKISTON EKOLOGIK SIYOSATIGA TA'SIRI

**Hayitov Jo'rabek Muhammad o'g'li**

O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

[j.hayitov@mail.ru](mailto:j.hayitov@mail.ru)

ORCID: 0009-0000-3364-1822

UDK: 504.75(575.1)

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kundagi ekologik xavfsizlik borasida xalqaro darajada amalga oshirilayotgan ishlar, ularning davlatlar ichki va tashqi siyosatiga ta'siri, xususan, O'zbekistonning ekologik siyosatiga ta'siri ijtimoiy-siyosiy diskursdan tahlil qilinadi. Bunda xalqaro munosabatlar tashabbuskori sifatida BMT ning YUNESKO



tashkiloti, YuNEP dasturi, XMTlarning xalqaro ekologik xavfsizlikka oid faoliyati ko'rib chiqiladi. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida qabul qilingan xalqaro darajadagi hujjatlardan ko'rish mumkinki, bugungi kunga kelib yirik siyosiy-iqtisodiy tashkilotlar mazkur masalaga jiddiy e'tibor qaratayotgani hamda o'z tarkibiga kirgan a'zo davlatlarni ham ekologik va atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish va milliy qonunchilikda aks etishini ta'minlash talabini qo'ymoqda. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'zining global darajadagi faoliyati doirasida ekologik barqarorlikni asosiy yo'nalish sifatida belgilamagan bir qator xalqaro tashkilotlar davr taqozosi va ekologik muhitning izdan chiqishi sababidan mazkur masalaga alohida e'tibor qaratishmoqda.

**Kalit so'zlar:** ekologik xavfsizlik, tizim, ekologik siyosat, ekologiya, global muammolar, xalqaro munosabatlar, xalqaro ekologik xavfsizlik tizimi

### **THE EFFECT OF THE ENVIRONMENTAL SECURITY SYSTEM AT THE INTERNATIONAL LEVEL ON THE ECOLOGICAL POLICY OF UZBEKISTAN**

**Abstract:** The article analyzes today's environmental security activities at the international level, their impact on the domestic and foreign policies of states, in particular, the impact on the environmental policy of Uzbekistan from the socio-political discourse. As an initiator of international relations, the activities of the UN UNESCO organization, the UNEP program, and the international environmental security organizations are considered. It can be seen from the accepted international level documents on ensuring environmental safety that today major political and economic organizations are paying serious attention to this issue and their member states demanding the ratification of the documents and ensuring that they are reflected in the national legislation are also involved in international environmental and environmental protection. Scientific research shows that a number of international organizations that have not identified environmental sustainability as a main direction in their global activities are paying special attention to this issue due to the need of the times and the deterioration of the ecological environment.

**Key words:** environmental security, system, environmental policy, ecology, global problems, international relations, international environmental security system.

**Kirish.** Jahonda kechayotgan integratsiya va transformatsiya jarayonlari xalqaro darajadagi hamkorlikning yangi qirralarini ochish va amaliyotga joriy etishni taqozo etmoqda. Zero, bugungi davrda hech bir mamlakat tashqi dunyoga integratsiyalashmasdan turib o'zining barqaror va xavfsiz kelajagini barpo eta olmaydi. Yer sayyorasining bir qator global muammolar qurshovida qolib ketishi mazkur muammolarni hal etishning o'zaro hamkorlikdagi yechimlarini ta'minlash zaruratini keltirib chiqarishi tabiiy. Tadqiqotimiz obyekti hisoblangan ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalasi ham ekologik xavf-xatar ko'lamining ortib borishi sharoitida davlatlararo integratsiyani yanada kuchaytirish o'z navbatida, xalqaro tashkilotlar atrofida birlashish va ushbu tashkilotlar tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy va boshqa ko'rinishdagi hujjatlarni o'z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta'minlash mas'uliyatini yuklaydi. Quyida keltiriladigan jihatlar fikrlarimiz uchun asos bo'lib xizmat qiladi:

Birinchidan, ekologik xavfsizlik masalasi umumbashariy muammo sifatida muayyan mintaqa yoki hudud bilan chegaralanmaydi. Demak, uning yechimlari ham global masshtabda ko'rib chiqilishi va tegishli qarorlar qabul qilinishi hamda mazkur qarorlarning ijrosini ta'minlashni ham o'zaro hamkorlikda amalga oshirishni taqozo etadi;

Ikkinchidan, ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida muayyan natijalarga erishgan

davlatlar tajribasining eng muhim, o'ziga xos va mintaqaviy xususiyatlarga mos keluvchi jihatlarni o'zlashtirish va milliy amaliyotda qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi;

Uchinchidan, xalqaro ekologik xavfsizlikni ta'minlash tizimida mavjud ilg'or ilmiy ishlanmalar, nazariy tavsiyalar va amaliy yutuqlarni tahlil qilish, xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilayotgan o'zaro hamkorlik prinsiplarini siyosiy jihatdan tadqiq etish ehtiyojini shartlab qo'yadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ta'kidlangan jihatlardan shuni anglash mumkinki, xalqaro ekologik xavfsizlikni ta'minlash xalqaro hamkorlikning zamonaviy tamoyillarini o'zlashtirishdan boshlanadi. Mazkur jarayon birinchi navbatda mamlakatning tashqi global makonga ochiqligi bilan xarakterlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida "Yangi O'zbekistonning tashqi siyosati – barqaror, adolatli va demokratik davlat qurishga, mamlakatimizning tashqi dunyoga ochiqlik tamoyilini ilgari surishga hamda mintaqaviy va ko'p tomonlama o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratiladi" [1] deb ta'kidlashi O'zbekistonning bugungi kundagi rasmiy pozitsiyasini ko'rsatadi. Mazkur mavzu tadqiqotchilar A.Q.Aymatov "Shaxsning tabiatga estetik munosabatini shakllantirishda ekologik ongning roli" – bunda kishilarning tabiatga, ekologiyaga munosabati uning ekologik ongining qay darajada shakllanganligi masalasi [2], Z.Y.Adilovning "Diniy manbalarda ekologik muammolarning yechimi" avtoreferatida esa, ekologik muammolarga yechim din va diniy manbalar orqali taqdim etilishi masalasi [3], B.Omonovning "O'zbekistonning orolbo'yi mintaqasidagi ekologik siyosati" asarida mamlakatimizning ekologik siyosatidagi ustuvor masalalardan biri Orolbo'yi muammosi [4], Z.A.Artukmetovning "Suv resurslari va suvdan foydalanish" kitobida bugungi kundagi global muammolardan biri suv resurslari masalasi [6], A.Axmedovning "Ekologik nazorat: nazariya, metodologiya va amaliyot" nomli maqolasida ekologik nazoratning nazariy, metodologik va amaliy tomonlari [7], U.Bozorov "Ekologik ofat oqibatlarini yumshatish dolzarb vazifa" asarida ekologik ofatlarning oqibatlari bilan kurashish masalasi [8], V.V.Волик, О.В.Беспалова "Роль международных организаций в сфере поддержания экологической безопасности" [9], З.Абдуллаев "Экологическое отношение и экологическое сознание" [10], В.Н.Антонов, В.В.Баркова "Философские проблемы экологии как науки" [11] va boshqa bir qancha tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot ishlarida turli jihat va xususiyatlari ochib berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv, strukturaviy-funksional tahlil, institutsional yondashuv, qiyosiy tahlil, strategik tahlil, tarixiylik metodlaridan foydalanilgan. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida qabul qilingan xalqaro darajadagi hujjatlardan ko'rish mumkinki, bugungi kunga kelib yirik siyosiy-iqtisodiy tashkilotlar mazkur masalaga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Shu bilan birga, o'z tarkibiga kirgan a'zo davlatlarni ham ekologik va atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish va milliy qonunchilikda aks etishini ta'minlash talabini qo'ymoqda. Bunga asosiy sabab esa oldingi fasllarda ta'kidlaganimizdek ekologik xavfsizlik global masala sifatida xalqaro munosabatlarga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatishi bilan bevosita bog'liq. O'z navbatida, ushbu masala bir davlatning iqtisodiy va boshqa manfaatlari yo'lida mintaqadagi boshqa bir davlatga ekologik zarar yetkazishini oldini olish bilan ham xarakterlanadi. Shu sababli, mazkur masalalar xalqaro hujjatlar bilan tasdiqlab qo'yilishi va unga barcha davlatlarning so'zsiz rioya qilishi mintaqalar, davlatlar va siyosiy subyektlar o'rtasidagi ixtiloflar kelib chiqishini oldini oladi. Va shu bilan birga, mintaqaviy va global masshtabda ekologik barqarorlik ta'minlanishiga zamin yaratadi.

Xalqaro ekologik xavfsizlik tizimi tobora chuqurlashib borayotgan ekologik

muammolarni yechishning yangi va zamonaviy vositalarini taqdim etish bilan bir qatorda rivojlangan davlatlar tajribasidagi asosiy jihatlarni namoyon bo'lishini ta'minlamoqda. O'zbekistonlik olim B.Omonovning quyidagi qarashlari fikrimizni tasdiqlaydi: "Dunyo davlatlarining sivilizatsiya-lashgan bozor munosabatlariga o'tishida milliy taraqqiyot yo'lini tanlashi, uning strategiyasini belgilovchi ichki va tashqi milliy ekologik siyosati umumiy qonuniyatlarga asoslanadi hamda nisbatan bir tartibdagi muammolar tizimiga ega" [4].

Rivojlangan davlatlar tomonidan bosib o'tilgan yo'llardan biri bu shubhasiz, iqtisodiy korxonalar, yirik sanoat obyektlarining foyda olish yo'lida ekologik xavf-xatarlarni vujudga keltirishi bilan xarakterlanadi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradigan sanoatning rivojlanishi aksariyat hollarda mintqa ekotizimlarining inqiroziga keng yo'l ochadi, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisini o'z hududida (ba'zida global makonda) ekologik halokatni keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatning yechimi sifatida xalqaro tajriba yirik sanoat obyektlarini umume'tirof etilgan tamoyil, xalqaro pakt va kelishuvlar hamda milliy qonunchilikka to'la rioya qilish talabini qo'yadi.

**Natijalar va muhokama.** Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki davrlaridan boshlab hozirgi davrga qadar ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlar asosida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lidan bormoqda. Fikrimizcha mazkur tendensiya quyidagi ikki yo'nalishni o'z ichiga olib, birinchisi, iqtisodiyotning atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan yangi qiyofasini shakllantirish bo'lsa, ikkinchisi, jamiyat a'zolarining ekologik ongi va madaniyatini oshirish bilan bog'liq.

Har ikki yo'nalishda qabul qilingan va qilinayotgan umumsayyoraviy me'yorlar O'zbekiston ekologik xavfsizlik tizimida o'z aksini topayotgani mamlakatimiz ekologik barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun birinchi navbatda yuqorida keltirilgan ikki yo'nalishning takomilini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy va amaliy harakatlarni jadallashtirish zaruratini paydo qiladi. Faylasuf olim, professor S. Mamashokirovning qayd etishicha: "Har qanday tarixiy davrda insonning ekologik dunyoqarashini o'zgartirish, uning turli rivojlanish bosqichlarida umumiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa ham o'ziga xos uslublariga, vositalariga ega bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda, insonning tabiiy resurslarni o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'zgartirish, o'zlashtirish va muhofaza qilish faoliyati ko'lami usullar va vositalar takomillashuviga bog'liqdir" [5].



1-rasm. Ekologik muammolar bilan shug'ullanadigan xalqaro tashkilotlar klassifikatsiyasi

"Bugungi kunda dunyoda ekologik muammolar bilan shug'ullanadigan yuzdan ortiq turli xalqaro tashkilotlar mavjud. Shakllanish predmetiga qarab olimlar ularni quyidagi turlarga ajratadilar" [12]:

O'zbekiston va jahonning boshqa davlatlari faoliyatiga ta'sir o'tkazishga vakolatli eng yirik xalqaro uyushma sifatida BMT ekologik xavfsizlik masalalariga katta e'tibor qaratmoqda. Mazkur e'tiborni tashkilot negizidagi yuqorida keltirilgan ekologik faoliyatga bevosita aloqador uyushmalarning soni va ko'lami bilan belgilash mumkin. Paragraf mazmunidan kelib chiqib mazkur uyushmalarning ayrimlari faoliyatiga e'tibor qaratishni

joiz deb hisoblaymiz. Chunki, O‘zbekiston ham boshqa jahonning teng huquqli davlatlari kabi xalqaro ekologik xavfsizlik tizimining subyektidir.

BMTning fan, ta’lim, madaniyat, turizm, madaniy meros va boshqa yo‘nalishlarda faoliyat olib boruvchi tuzilmasi hisoblangan YuNESKO tashkilotining so‘nggi yillardagi faoliyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, tashkilot jahonda ekologik muvozanatni barqarorlash-tirish masalalariga alohida e’tibor qaratayotganini ko‘rish mumkin. Aslida, mazkur tashkilot insoniyatning umumiy rivojlanishi, barqaror taraqqiyot, o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlikka erishish bilan bog‘liq jarayonlarni muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanishi belgilangan. Biroq, ayni davrga kelib insoniyat halokatli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ekologik xavf-xatarlar bilan kurashmoqda.

Shu boisdan, YuNESKO o‘zining kelajak rejalarida ekologik xavfsizlik masalalariga ham keng e’tibor qaratmoqda. Faoliyati profili ekologik muammolarni hal qilishdan iborat bo‘lgan asosiy xalqaro hukumatlararo va nodavlat tashkilotlar faoliyatini tanlangan tasnifga muvofiq tavsiflashni zarur deb hisoblaymiz.

Xalqaro darajadagi ekologik xavfsizlikni ta’minlash yer sayyorasidagi barcha mintaqalarda insoniyatning hayoti va kelajagiga tahdid soluvchi hodisalarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuyidir. Ushbu yo‘nalishda xalqaro tashkilotlarning faoliyati va unda O‘zbekistonning ishtiroki o‘zaro manfaatlar uyg‘unligiga asoslanadi. Mamlakatimiz yirik tuzilmalardan biri bo‘lgan 1948-yilda YuNESKO tomonidan tashkil etilgan “Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi”ga Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi bo‘lib integratsiya-lashgan birinchi davlat hisoblanadi. Tashkilot va O‘zbekistonning atrof-muhit muhofazasiga mas’ul tuzilmalari o‘rtasidagi hamkorlik kengayib bormoqda. Xalqaro ittifoq va O‘zbekiston o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik quyidagi yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

Tabiatni muhofaza qilishda o‘zaro va hamfikir siyosatning tashkil etilishi;

Qo‘riqlanadigan tabiiy muhitlarning hududi va tarmog‘ini kengaytirish;

“Qizil ro‘yxat” indekslarini ishlab chiqish;

Yerdan kompleks foydalanishda ekotizimlar degradatsiyasini oldini oluvchi vositalardan foydalanish.

Mamlakatimizda faoliyat olib boruvchi rasmiy nashrlardan biri gazeta.uz. ning ma’lum qilishicha, “Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi” “O‘zbekistonni tabiiy resurslardan barqaror foydalanish, jumladan, biologik xilma-xillikni saqlash va ekotizimlarni tiklashda qo‘llab-quvvatlashda davom etadi, bu esa iqlim o‘zgarishlarini yumshatish va moslashishga hissa qo‘shish bilan birga milliy ekologik maqsadlarga erishishga yordam beradi” [13].

Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘zining global darajadagi faoliyati doirasida ekologik barqarorlikni asosiy yo‘nalish sifatida belgilamagan bir qator xalqaro tashkilotlar davr taqozosi va ekologik muhitning izdan chiqishi sababidan mazkur masalaga alohida e’tibor qaratishmoqda.

Shunday tashkilotlardan biri XMT, “Xalqaro mehnat tashkiloti”dir. Ushbu tuzilma tashkil topgan davrdan boshlab xalqaro mehnat standartlarini joriy etish, ish o‘rinlari yaratish, mehnatga haq to‘lash, majburiy mehnatga butunlay chek qo‘yish kabi masalalar bilan jiddiy shug‘ullunib kelgani ma’lum.


Biroq, XMTda so‘nggi yillarda tendensiya muayyan darajada o‘zgarib borayotganini kuzatish mumkin. Tashkilotning zamonaviy davr talablaridan kelib chiqib yangi tadqiqotlarga e’tibor qaratayotgani atrof-muhit muhofazasining global xarakterini ko‘rsatib beruvchi yana bir jihatdir.

XMTda shakllanayotgan yangi qarashlar tarkibiga yashil iqtisodiyotni barpo etish,

mamlakatlarda mehnat taqsimotini yo'lga qo'yish jarayonida yashil energetika vositalaridan keng foydalanish, ishchilar uchun sog'lom mehnat sharoitlarini barpo etish kabi vazifalarning ijrosiga katta e'tibor qaratilayotganligini kuzatish mumkin. Mualliflarga ko'ra, "XMT mehnatni muhofaza qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib boradi, yashil ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari bo'yicha maslahatlar beradi va o'quv dasturlarini tashkil qiladi. Eng so'nggi shakllangan va amalga oshirilgan ekologik tashabbuslar orasida quyidagilar alohida o'rinni egallaydi: Yashil tashabbus - yashil iqtisodiyotga adolatli o'tishni ta'minlash uchun XMTning bilimlari, siyosati va salohiyatini kengaytirish v h.k" [9].

Xalqaro ekologik xavfsizlik masalalari bilan alohida shug'ullanuvchi BMTning alohida dasturi YuNEPning (Atrof-muhit dasturi) bugungi faoliyati va unda O'zbekiston ishtiroki ham umumiy hamkorlik qoidalariga asoslanadi. Hozirgi davrda ekologik tartibotning zamonaviy tendensiyalarini jahonga ko'rsatish va har bir hudud, mintaqaning atrof-muhit bo'yicha faoliyatiga ta'sir o'tkazish orqali jahonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash ko'p jihatdan mazkur tuzilma faoliyatida ko'rinadi.

Bir so'z bilan aytganda, BMT doirasida a'zo davlatlarning ekologik xavfsizlik bilan bog'liq reja va dasturlarini muvofiqlashtiradi. Doimiylik kasb etuvchi sharhlar, atrof-muhit muhofazasini kuchaytirishga daxldor tavsiyalar berib boradi. Bugungi kunda YuNEP quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratmoqda [9]:



2-rasm. YuNEP tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlar

YuNEPning O'zbekistondagi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, sohaga mas'ul tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikning yuqori darajasini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, tuzilma tomonidan taqdim etilgan hujjatga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi BMT YeIK hamda YuNEP bilan hamkorlikda xalqaro rahbariy hujjatlar va ilg'or tajriba asosida Atrof-muhit holati to'g'risida Milliy hisobotni (Milliy hisobot) tayyorlash metodologiyasini ishlab chiqish va uni muntazam ravishda tayyorlash uchun milliy salohiyatni rivojlantirish ishlarini amalga oshirmoqda" [14].

Hisobot bo'yicha ma'lumotlar 2023-yilning 1-fevralida Toshkent shahrida o'tkazilgan seminar-trening doirasida ko'rib chiqilgan bo'lib quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- 1) Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlat va nodavlat tuzilmalarining o'zaro hamkorlikdagi ishtirokini kuchaytirish va rag'batlantirish holati;
- 2) Atrof-muhit holati tahlili va unga bo'layotgan ichki va tashqi ta'sirlarning ko'lamini baholash;

3) Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlatning mas'ulligi, siyosiy irodani ko'rsata olish imkoniyatlari, mavjud muammolarning potensial yechimlarining mavjudligi, jarayonlarning siyosiy qarorlar qabul qilish orqali natijadorlikning ta'minlanishi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytish mumkinki, xalqaro darajadagi ekologik xavfsizlikni ta'minlash tizimining O'zbekiston ekologik siyosatiga ta'siri globallashtirish jarayonlari jadal kechayotgan hozirgi davrning ajralmas qismidir. Bu borada, O'zbekiston xalqaro tashkilotlar, nodavlat va notijorat tuzilmalari tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy va boshqa ko'rinishdagi hujjatlarni mamlakatimizda amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2018-2022 yillar oralig'ida atrof-muhit muhofazasini ko'zda tutuvchi o'ndan ortiq qabul qilingan huquqiy hujjatlarni keltirish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5863-son Farmoni, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", "O'zbekiston-2030 strategiyasi" va boshqa qator hujjatlarda mamlakatimizda ekologik vaziyatni barqarorlashtirish bilan bog'liq ustuvor vazifalar belgilangan.

Xalqaro maydonda soha vakillarining ishtiroki ham son va ko'lam jihatdan ortib borayotganini ham ayrim raqamlarda keltirib o'tish joiz. 2021-yil 18-22 - oktabr kunlari Davlat ekologiya qo'mitasi delegatsiyasi Jeneva shahridagi BMTning Millatlar Saroyida bo'lib o'tgan Atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish, uning ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati to'g'risidagi Konvensiyasida ishtirok etishi va mamlakatimizning rasmiy pozitsiyasini yig'ilganlarga bildirishi O'zbekistonning jahon ekologiya tizimi barqarorligini ta'minlashdagi o'rnini ko'rsatdi. O'z navbatida, soha mas'ullarining xalqaro ekologik tadbirlarni O'zbekistonda o'tkazish tashabbuslari ham xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy qabul qilinmoqda. 2023 yilning 13-17 noyabr kunlari BMTning "Cho'llanishga qarshi kurash konvensiyasi" CRIC-21 ijrosini ko'rib chiqish qo'mitasining 21-yig'ilishiga Samarqand shahri mezbonlik qilishi BMT tomonidan yuqori darajada e'tirof etildi. Mazkur konvensiyaning mamlakatimizda o'tkazilishining asosiy sabablaridan biri O'zbekiston mazkur hujjatni 1995-yilda MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib ratifikatsiya qilganligi bilan bog'liqdir.

O'zbekistonning xalqaro ekologik xavfsizlik tizimining muhim subyektiga aylanib borishi fikrimizcha quyidagi jarayonlarda o'z aksini topmoqda:

1) O'zbekiston hukumati tomonidan xalqaro kelishuvlarni ratifikatsiya qilish, ularga to'la amal qilish va xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti bo'lish jarayonlarida amalga oshmoqda;

2) Xalqaro darajadagi ekologik tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan yirik anjumanlar, forumlarda faol ishtirok etish, mamlakatimizning rasmiy pozitsiyasini bildirish, qabul qilingan hujjatlarning O'zbekistondagi ijrosiga mas'uliyat bilan yondashishda ko'rinadi;

3) Milliy taraqqiyotni belgilab beruvchi davlat darajasidagi qarorlar, strategiyalarda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning alohida ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanishida namoyon bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: "O'zbekiston" нашриёти. 2021. – Б.373.

2. Айматов А.Қ. Шахснинг табиатга эстетик муносабатини шакллантиришда экологик онгининг роли: Фалс.ф.д. (DSc) дисс. автореф. – Самарқанд: СамДУ, 2019. –Б.52.

3. Адилов З.Ю. Диний манбаларда экологик муаммоларнинг ечими: Фалс. ф.бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Бухоро: БухДУ, 2021. –Б.48.
4. Омонов Б. Ўзбекистоннинг оролбўйи минтақасидаги экологик сиёсати. Т.: Фан нашриёти. 2014. –Б.51.
5. Мамашокиров С. Ваҳимами ёки ҳақиқат. Т.: “IQTISOD-MOLIYA” нашриёти. 2012. – Б.5.
6. Артуқметов З.А. Сув ресурслари ва сувдан фойдаланиш. – Т.: 2007. –Б.146.
7. Аҳмедов А. Экологик назорат: назария, методология ва амалиёт. – Т.: Адабиёт учқунлари, 2017. –Б.231.
8. Бозоров У. Экологик офат оқибатларини юмшатиш долзарб вазифа// Ҳуқуқ ва бурч, 2014, № 11. –Б.88.
9. Волик В.В., Беспалова О.В. Роль международных организаций в сфере поддержания экологической безопасности. <https://orcid.org/0000-0002-1344-9486>. – М.: 2014, № 6. –С.46.
10. Абдуллаев З. Экологическое отношение и экологическое сознание. – Т.: Ўзбекистон, 1990.
11. Антонов В.Н., Баркова В.В. Философские проблемы экологии как науки. Современная высшая школа: инновационный аспект. 2013. № 3. –С.18.
12. Sarapina. M.V. Zabezpechennya ekologichnoyi bezpeki: pidruchnik. Н.: NUTsZU. 2019. С-45.
13. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/10/30/iucn>.
14. [chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://unece.org/sites/default/files/2023-02/uzb\\_Agenda\\_NSOER\\_UZB\\_Inception\\_and\\_Training\\_final.pdf](chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://unece.org/sites/default/files/2023-02/uzb_Agenda_NSOER_UZB_Inception_and_Training_final.pdf)

## РАЗВИТИЕ УЧЕНЫМИ УЗБЕКИСТАНА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ МЫСЛИ В УСЛОВИЯХ ПЕРВОГО РЕНЕССАНСА

**Хакимов Назар Хакимович. д. ф. н., профессор,**  
заведующий кафедрой общественно-гуманитарных и точных наук  
Ташкентского государственного экономического университета.

[hakimovnazar@rambler.ru](mailto:hakimovnazar@rambler.ru)

ORCID: 0000-0001-9670-7673

UDK:330.180:7.034(045)

**Аннотация.** В статье исследуется роль экономических идей в концепции развития общества и национальной государственности ученых-энциклопедистов, мыслителей, живших в период Первого Ренессанса в Узбекистане. Подчеркивается также, что работы, посвященные исследованию экономических знаний и социальных процессов, занимают важное место в научном наследии наших соотечественников-энциклопедистов. Следует отметить, что в трудах этих ученых рассмотрены и исследованы содержание и сущность экономической мысли. В частности, отмечается, что, изучая научное наследие основоположников Первого Ренессанса, можно ускорить национальное развитие, развивать современные социально-экономические системы, использовать его в качестве научного ресурса при реализации определенных стратегических целей, задач нового этапа развития общества. В частности, в трудах Фараби, Авиценны и Беруни изучена проблема отношения человека к частной собственности, его роль в ее формировании. В исследованиях ученых-энциклопедистов экономические взгляды трактовались в тесной связи с философскими идеями и социально значимыми подходами.

**Ключевые слова:** государство, период Ренессанса, мыслитель, экономическая мысль, общественное мнение, человеческие потребности.

## DEVELOPMENT OF ECONOMIC THOUGHT BY SCIENTISTS OF UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF THE FIRST RENAISSANCE

**Abstract.** The article examines the issues of the formation of national statehood and its relationship with the emergence of economic ideas put forward by encyclopedist scientists of Uzbekistan during the first Renaissance. It is also emphasized that the works devoted to the study of economic knowledge and social processes have an important place in the scientific heritage of our encyclopedist compatriots. It should be noted that in the works of learned encyclopedists the content and essence of economic thought are examined and explored. In particular, it is mentioned that by studying the scientific heritage of the founders of the first renaissance, it is possible to further strengthen national development, develop modern socio-economic networks, and use it as a scientific resource in the implementation of the defined strategic tasks of the new stage of development of the society. The works of Farabi, Avicena, and Biruni studied the problem of human attitudes and their role in the formation of private property. In the scientific research of scientific encyclopedists, conceptual economic ideas and philosophical ideas of social significance have been put forward.

**Keywords:** states, renaissance period, thought, economic thought, public opinion, human needs.

**Введение.** Образование самостоятельных государств на территории нашей страны дало серьезный толчок дальнейшему развитию их науки и культуры. Территория нынешнего Узбекистана в X-XII вв. превратилась в один из крупных центров передовой общественно-экономической мысли Востока. В этот период здесь появляются ученые с мировым именем, такие как Фараби, Ибн Сина, Беруни и многие другие. В их научных трудах нашли отражение и экономические идеи. Правда, они еще не отделились от философских взглядов и всей совокупности общественных знаний, но представляют значительный интерес.

**Обзор литературы по теме.** В изучение научного наследия ученых-энциклопедистов Востока большой вклад внесли зарубежные ученые, в том числе Р.Д. Ардакани. Ученый назвал свою работу «Фараби – основоположник исламской философии» [1]. Крупный вклад в изучение трудов ученых-энциклопедистов внесли академик М.М. Хайруллаев [2] и Г.Б. Шаймухамбетова [3]. М.Н. Болтаев глубоко исследовал научные труды Авиценны [4], Л.Б. Алаев [5], Е.А. Фролова [6] изучали научные труды Беруни. Среди работ по истории экономических учений, предназначенных для студентов, ценные материалы об ученых-энциклопедистах периода Первого Ренессанса имеются в учебнике Н.Х. Хакимова [7].

**Методология исследования.** Методологически исследование трудов мыслителей Первого Ренессанса опирается на *прогрессивные методы экономического анализа социально-экономической жизни*. К их числу можно отнести следующие методы: исторический, индукции, логической абстракции, каузальный, функциональный, системный, математического моделирования. Экономические учения развивались в условиях Первого Ренессанса, т.е. с появления самостоятельных государственных образований. С древнейших времен и до настоящего времени осуществляются попытки систематизировать экономические воззрения в экономические учения, принимаемые обществом в качестве практического руководства к действию в осуществлении самостоятельной экономической политики. Изучение исторических источников, трудов мыслителей периода Первого Ренессанса является важным подспорьем для выявления объективных закономерностей как в развитии мировой, региональной экономики,



так и экономики Республики Узбекистан. Необходимо отметить, что специальные знания в области эволюции экономической мысли формируют у будущего экономиста необходимую эрудицию и творческие навыки, которые позволят ему свободно ориентироваться в проблемах экономики, сравнивать альтернативные теоретические подходы и принимать самостоятельные решения по практической реализации инновационных экономических задач.

Значительным вкладом в изучение проблем периода Первого Ренессанса на территории нашей родины являются труды Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева, где раскрыты теоретические и научно-методологические основы экономической мысли в условиях нового этапа развития общества [8]. Важнейшим источником в изучении экономического процесса в условиях формирования основ Третьего Ренессанса являются Законы Республики Узбекистан.

**Анализ и результаты.** Среди ученых периода Первого Ренессанса на территории нашей родины особое место принадлежит трудам, научному наследию Аль-Фараби. Великий мыслитель Абу Наср Мухаммад ибн Мухаммад аль-Фараби (870-950) особое внимание уделял потребностям, которые являются первопричиной формирования человеческого общества [9]. Ученый утверждал, что у людей есть такие нужды, для достижения которых необходимо сообщество. При этом он особо подчеркивал роль труда и орудий труда в производстве материальных благ. А для достижения счастья необходимы взаимопомощь и дружба, на основе которых возможно справедливое распределение продуктов. Но Фараби не смог раскрыть, как и на какой основе будет происходить обмен этими благами. В учении Фараби центральное место занимало учение о потребностях человека. По мнению Фараби, последователя Аристотеля, потребности человека являются первопричиной формирования общества. Ученый отмечал, что «по природе своей каждый человек устроен так, что для собственного существования и достижения совершенствования он нуждается во многих вещах, которые он не может доставать себе один и для достижения, которых он нуждается в некоем сообществе людей, доставляющих ему каждый в отдельности какую-либо вещь из совокупности того, в чем он испытывает потребности. При этом каждый человек по отношению к другому находится точно в таком же положении» - этот тезис о значении материальных потребностей для формирования общества, безусловно, имел прогрессивное значение по сравнению с религиозными взглядами на происхождение людей, объединенных в общество единством предка или рода [10]. Подчеркивая при этом роль труда и орудий труда в производстве материальных благ, наличие различных видов ремесла, он резко выступал против рабства.

Фараби отмечал решающую роль трудовой деятельности человека в возникновении общества. Мечтая о будущем, он считал тот город идеальным, который существует благодаря взаимопомощи и дружбе, составляющих необходимое и первичное условие достижения счастья; высказывал мысль о возможности создания на земле единого общества на основе взаимной помощи всех народов, о справедливом распределении продуктов. Важно отметить, что Фараби связывал экономические вопросы с формированием городской жизни. Это особенно заметно в его трактовке государства, основными функциями которого признавались установление справедливости и просвещение народа. Ряд социально-этических трактатов Фараби посвящён учению об общественной жизни («Трактат о взглядах жителей добродетельного города», «Книга о достижении счастья», «Указание путей счастья», «Гражданская политика», «Книга о войне и мирной жизни», «Книга изучения общества», «О добродетельных нравах»). Опираясь на

политические и этические идеи греческих философов, прежде всего Платона и Аристотеля, и используя социальные идеи Древнего Востока, Фараби разработал стройную теорию общественного устройства [11].

Во главе добродетельных городов находятся правители-философы, выступающие одновременно и в роли предводителей религиозной общины. В добродетельных городах стремятся к достижению истинного счастья для всех жителей, господствует добро и справедливость, осуждаются несправедливость и зло. Добродетельным городам Фараби противопоставляет невежественные города, правители и жители которых не имеют представления об истинном счастье и не стремятся к нему, а уделяют внимание только телесному здоровью, наслаждениям и богатству [12].

Крупный вклад в развитии экономической мысли внес Абу Али Ибн Сина (Авиценна) (980-1037) - один из выдающихся мыслителей средневекового Узбекистана, величайший ученый-энциклопедист и гуманист - родился близ Бухары, жил и занимал должность врача и визиря при различных правителях. Он известен во всем мире, прежде всего, как гениальный ученый в области медицины. Однако его огромное научное наследие охватывает почти все отрасли знаний, в том числе экономические вопросы. Из 450 известных до сих пор его работ 185 трактатов посвящены философии, логике, психологии, этике и социально-политическим наукам, в них он продолжает традиции восточного аристотелизма. Ибн Сина интересовался и экономическими вопросами. Его экономические воззрения наряду с такими сочинениями, как «Трактат о домоводстве», «Психология», изложены во многих философских произведениях [13]. Интересными являются рассуждения о человеческих потребностях, о значении труда и его решающей роли в материальном производстве. Наиболее любопытны его рассуждения о балансе доходов и расходов в рамках не только семьи, но и города, государства. Как отмечает великий ученый, необходимо достижение сбалансированности доходов и расходов с учетом выделения средств для образования резервов на случай стихийных бедствий или войны. По мнению Ибн Сины, «животное довольствуется дарами природы, а человеку даров природы недостаточно, он нуждается в пище, одежде, жилище. Животное просто присваивает себе дары природы, а человек своим трудом производит себе пищу, одежду и жилище. Для этой цели человек должен заниматься земледелием и ремеслом. Животные хотя и живут стадами, но могут жить и в одиночку, люди же не могут в одиночку добыть себе все средства к жизни, поэтому люди нуждаются в общении и взаимопомощи; для общения людям служат язык и мышление» [14].

Ибн Сина интересовался многими вопросами экономики общества. Предметом его особого внимания было ремесло, которое он считал основой существования общества. «Нужда человека, - писал он, - в поддержании своих сил и в пище обусловила стремление всех к приобретению ремесла». Он понимал ремесло в широком смысле. В «Трактате о домоводстве» Ибн Сина дает следующую классификацию ремесленников: 1) разумные ремесла (политики и правители); 2) ремесла высокого искусства (писатели, астрономы, врачи и т. д.); 3) художественные ремесла (живописцы, скульпторы и др.). В трудах «Трактат о домоводстве», «Психология» решающее место в материальном производстве отводится труду. Человек, по его мнению, не довольствуется, как животное, дарами природы, а с помощью труда создает себе такие блага как пища, одежда, жилье. Для этого люди должны заниматься земледелием и ремеслами. Именно поддержание своих сил и нужда в пище обуславливают стремление человека к

освоению ремесла. Особого внимания заслуживают рассуждения Ибн Сины о балансе доходов и расходов не только в рамках семьи, но и государства. В идеальном, по Ибн Сине, государстве все будут обязаны трудиться на собственное благо, материальные блага будут распределяться государством равномерно, дабы не было баснословного богатства и ужасающей нищеты, не будет необходимости воевать, поскольку все люди будут заниматься честным трудом и честно торговать, все межгосударственные споры будут решаться исключительно мирными способами и в итоге люди долго не будут стареть.

Взгляды Ибн Сины на идеальное государство характеризуются следующими признаками: 1) все обязаны трудиться для собственной пользы; 2) все материальные блага в этом государстве должны распределяться равномерно, таким образом, чтобы не было баснословного богатства и ужасающей нищеты; 3) поскольку все люди будут заниматься честным трудом и честно торговать, то некому и незачем будет воевать и войны исчезнут, а политические споры между государствами будут решаться мирным путем; 4) в идеальном государстве люди будут всем обеспечены и поэтому перестанут противодействовать друг другу, возлюбят жизнерадостные песни и мелодии и долго не будут стареть.

Во взглядах Ибн Сины на идеальное государство много общего с высказываниями Платона в «Законах», Аристотеля в «Афинской Политике», Фараби в «Трактате о взглядах жителей добродетельного города». Однако внимательный анализ показывает, что Ибн Сина во многом преодолел влияние Платона и Аристотеля. Он отвергает рабовладельческий иерархический порядок государства Платона и не принимает рабовладельческой демократии Аристотеля. По своим государственно-правовым взглядам он ближе к Фараби. В то же время Ибн Сина недооценивал значение земле-делия, придерживался метафизических взглядов относительно деления общества на слои и группы. «Различие по [имущественному] положению и по занимаемой должности, - писал он, - является причиной незыблемости [общественной] жизни людей» [15].

Значительный вклад в развития экономических идей в условиях Первого Ренессанса внес Аль-Беруни. Великий мыслитель Абу Райхан Беруни (973-1048), один из крупнейших ученых-энциклопедистов, родился в Хорезме, но большую часть жизни провел в Газни. В самом первом сочинении «Хронология, или памятники минувших поколений» (1000 год) Беруни собрал и описал все известные в его время системы календаря, применявшиеся у различных народов мира, и составил хронологическую таблицу всех эпох, начиная от библейских патриархов. В завершённом в 1030 году труде «Индия, или Книга, содержащая разъяснение принадлежащих индийцам учений, приемлемых разумом или отвергаемых» Беруни дал детальное научно-критическое описание быта, культуры и науки индийцев, изложил их религиозно-философские системы, достаточно точно переложив учение классической санхьи, теорию космической эволюции, учение о связи души с «тонким телом» и др. Здесь же изложена знаменитая легенда о создателе игры в шахматы. Астрономии Беруни посвятил 45 сочинений. В 1038 году Беруни написал «Минералогию, или Книгу сводок для познания драгоценностей», в которой определён удельный вес многих минералов и даны подробные сведения о более чем пятидесяти минералах, рудах, металлах, сплавах и др. Им же составлена «Фармакогнозия в медицине» - книга о медицинских препаратах, капитальный труд, имеющий большое значение и в наше время. В этой книге он подробно описал около 880 растений, их отдельных частей и продуктов выделения, привёл их точные признаки, упорядочил терминологию. Беруни собрал и объяснил около 4500

арабских, греческих, сирийских, индийских, персидских, хорезмийских, согдийских, тюркских и других названий растений; эти синонимы важны для современного исследования истории фармакологии [16]. Как исследователь, Беруни подчеркивал необходимость тщательной проверки знания опытом, противопоставляя экспериментальное знание умозрительному. С этих позиций он критиковал аристотелевскую и авиценновскую концепцию «естественного места» и аргументацию против существования пустоты [17].

В своих трудах, исходя из объективного факта взаимодействия человека с окружающим его миром, он показал решающее значение труда для человека. Поэтому «цена каждому человеку в том, что он превосходно делает свое дело». Ведь именно при помощи «усердного труда» человек обеспечивает себя средствами существования, распределяет их в соответствии со своими потребностями и тем гарантирует определенную продолжительность жизни. Беруни развивал учение Фараби и Ибн Сины о факторах формирования общества. Необходимость объединения людей он объяснял тем, что только сообща они могут противостоять силам природы. Как писал Беруни, «человек вследствие множества его потребностей и малости воздержанности при лишении средств защиты и обилии врагов неизбежно был вынужден объединяться со своими сородичами в целях взаимоподдержания и выполнения каждой работ, которые обеспечили бы и его, и других». Однако не все в обществе занимают «одинаковое положение, хотя и работают друг на друга; существует принудительный труд, который осуществляется посредством насилия и найма». При этом он осуждает принудительный труд. Заслуга великого ученого Беруни в развитии экономической мысли народов Узбекистана заключается в том, что он впервые исследовал происхождение, функции и значение денег, считая, что происхождение их связано с увеличением и одновременным возникновением потребностей в продуктах и работы производителей друг на друга. Это в свою очередь обуславливает обмен между ними. Но обмен требовал установления общего мерил для определения цен и эквивалентности. Этим мерилем стало золото, потому что оно встречается редко, сохраняется долго, восхищает людей своим видом, поддается укрупнению и уменьшению, используется для изделий разного рода «при неизменности его материи и сущности». Как отмечает Беруни, роль денег состоит в том, чтобы выразить отношение между затраченным трудом и произведенным продуктом. Такое понимание роли денег (больше труда - больше денег) значительно превосходит суждения Аристотеля, который видел в них меру стоимости и средство обращения, но не замечал связи между трудом и стоимостью. Трактую функции денег, Беруни особое внимание обращал на превращение их в сокровище, когда люди перестают ими пользоваться и они возвращаются к «их первоначальному положению в недра земли, что равносильно возвращению плода в материнское чрево» [18].

В то же время Беруни признавал необходимыми накопления в государственной казне и использование ее средств для выполнения функций государства. Беруни считал, что с помощью золота может быть достигнута любая цель, но осуждал «неестественное» обращение с ним, его боготворение. Большой научный интерес представляют его мысли о соотношении пропорций обмена золота и серебра, об определении цен драгоценных камней, по некоторым другим вопросам.

**Выводы.** Глубокое изучение научных парадигм, концепций, теорий, методов

познания первого этапа Ренессанса, появления новых экономических категорий и понятий, а также положений, выводов ученых-энциклопедистов прошлого: Фараби, Абу Али Ибн Сины, Беруни - помогает глубже понять и осмыслить наши действия, освободиться от устаревшего, сохранить и использовать все полезное, инновационное. Необходимо отметить, что экономические учения и научные теории сами развиваются, переживают периоды особой популярности, восстанавливают свою научность, эволюционируют и вместе с тем органично сохраняют связь с классиками экономической науки, иногда весьма прочную. Теоретическое и практическое значение изучения научного наследия ученых-энциклопедистов периода Первого Ренессанса заключается в том, что эти знания, с одной стороны, расширяют кругозор будущих экономистов, а с другой – позволяют ориентироваться в многообразии современных экономических концепций и создают надежную основу для выработки собственной позиции при решении сложных экономических проблем. Экономические доктрины и учения отражают процессы, совершающиеся в экономике, не пассивно, а оказывают на них определенное воздействие, способствуя общественному развитию, ускоряя или, наоборот, замедляя его.

### Список использованной литературы

1. Шавкат Мирзиёев. Уверенно продолжим путь национального развития на новом этапе. Том 1. Ташкент, «Узбекистан», 2018. -368 с.
2. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Ташкент, «Узбекистан», 2019-С. 368.
3. Аль-Фараби. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
4. Бируни / Л. Б. Алаев // «Банкетная кампания» 1904 - Большой Иргиз. - М.: Большая российская энциклопедия, 2005.- (Большая российская энциклопедия: [в 35 т.]/ гл. ред. Ю. С. Осипов; 2004-2017, т. 3).-ISBN 5-85270-331-1 Л. Б. Алаев
5. Бируни / Е.А. Фролова//Новая философская энциклопедия: в 4 т./ пред.науч.-ред. совета В. С. Стёпин. - 2-е изд., испр. и доп. -М.: Мысль, 2010. – С. 2816.
6. Хакимов Н.Х. История экономических учений. Учебник. Ташкент, «Иктисодиёт», 2022 – С. 345.
7. Ардакани, Р.Д.Фараби– основоположник исламской философии. Пер. с перс. А. Абсаликова. – М.: ООО «Садра», 2014.– С. 132 – ISBN 978-5-906016-37-9
8. Хайруллаев М. М. Абу Наср ал-Фараби: 873-950. М., 1982.
9. Шаймухамбетова Г. Б. Учение Платона об идеях и теория разума ал-Фараби. В кн.: Ал-Фараби. Научное творчество. М., 1975.
10. Ибн Сина. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
11. Болтаев М. Н. Абу Али Ибн Сина - великий мыслитель, ученый-энциклопедист средневекового Востока. Ташкент, 1980. С. 143-144.
12. Болтаев М. Н. Абу Али Ибн Сина - великий мыслитель, ученый-энциклопедист средневекового Востока. Ташкент, 1980. С. 144-145; Ибн Сина Рисолотадбириманзил. Тегеран. 1319. С. 6.
13. Аль Беруни. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%>
14. Беруни / Л.Б.Алаев// «Банкетная кампания» 1904- Большой Иргиз.-М.: Большая российская энциклопедия, 2005.- (Большая российская энциклопедия: [в 35 т.]/ гл. ред. Ю. С. Осипов; 2004-2017, т. 3).-ISBN 5-85270-331-1.Беруни/ Е. А. Фролова//Новая философская энциклопедия: в 4 т./ пред.науч.-ред. совета В. С.Стёпин.- 2-е изд., испр. и доп. М.: Мысль, 2010.- С. 2816.
15. Абу Райхан Бируни. Собрание сведений для познания драгоценностей. Минералогия. М., 1963. С. 12, 14; Он же. Избранные произведения. Ч. III. Геодезия. М., 1963. -С. 88, 83.

## ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ЭВОЛЮЦИИ ЦИФРОВОЙ КОММУНИКАЦИИ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

**Бурнашев Ринат Фаритович**

Самаркандский государственный институт  
иностранных языков, доцент

[burnashev1982@gmail.com](mailto:burnashev1982@gmail.com)

ORCID: 0000-0001-6134-6142

UDK: 1(091) + (316.6)

**Аннотация:** Научная статья представляет собой философский анализ эволюции цифровой коммуникации в информационном обществе. Проводится исследование изменений в способах взаимодействия и обмена информацией, вызванных развитием цифровых технологий, и обращается внимание на трансформацию социокультурных практик под воздействием цифровой революции, ее влияние на формирование новых коммуникативных моделей. В статье анализируются эти изменения с философской точки зрения, рассматриваются вопросы, связанные с идентичностью, пространством, временем и контролем. Особое внимание уделяется этическим и философским аспектам цифровой коммуникации, включая вопросы приватности, безопасности и свободы выражения. Для проведения анализа используются методы философского осмысления и интерпретации данных, полученных из социологических и технологических исследований. Результаты исследования помогают понять философские аспекты влияния цифровой коммуникации на человеческое общество, включая изменения во взаимоотношениях, культуре и самоидентификации. Обсуждаются этические и социальные вопросы, возникающие в контексте использования цифровых средств коммуникации, а также предлагаются рекомендации для улучшения понимания и эффективного использования цифровой коммуникации в информационном обществе.

**Ключевые слова:** философия, цифровая коммуникация, межличностные отношения, сетевое пространство, этические принципы, социальные вопросы.

## PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE EVOLUTION OF DIGITAL COMMUNICATION IN THE INFORMATION SOCIETY

**Abstract:** The scientific article presents a philosophical analysis of the evolution of digital communication in the information society. The study of changes caused by the development of digital technologies in the ways of interaction and information exchange is conducted and attention is drawn to the transformation of socio-cultural practices under the influence of the digital revolution and its impact on the formation of new communication models. The article analyzes these changes from a philosophical point of view, examines issues related to identity, space, time and control. Special attention is paid to the ethical and philosophical aspects of digital communication, including issues of privacy, security and freedom of expression. The analysis uses methods of philosophical understanding and interpretation of data obtained from sociological and technological research. The results of the study help to understand the philosophical aspects of the impact of digital communication on human society, including changes in relationships, culture and self-identification. The ethical and social issues arising in the context of the use of digital means of communication are discussed, as well as recommendations for improving the understanding and effective use of digital communication in the information society are proposed.

**Keywords:** philosophy, digital communication, interpersonal relations, network space, ethical principles, social issues.

**Введение:** В современном обществе цифровая коммуникация становится неотъемлемой частью повседневной жизни. С течением времени эта трансформация взаимодействия и обмена информацией приобретает все более сложные и глубокие измерения. Философский анализ цифровой коммуникации не только оправдан, но и является необходимым для понимания глубоких изменений в современной культуре и обществе, обусловленных развитием технологий. Он предоставляет инструменты для критического рассмотрения этических, социокультурных и интеллектуальных аспектов цифрового взаимодействия. Только через философский взгляд мы можем полностью осознать, как цифровая коммуникация формирует наше общество и нашу жизнь в целом.

**Обзор литературы по теме:** Существует значительное количество исследований в области философии цифровой коммуникации, которые охватывают разнообразные темы, начиная от воздействия технологий на межличностные отношения до этических вопросов, связанных с обработкой больших данных. Некоторые ключевые направления и результаты исследований можно рассмотреть кратко.

*Этика в цифровой коммуникации.* Исследования в этой области фокусируются на этических вопросах, таких как конфиденциальность данных, безопасность, и вопросы ответственного использования технологий в общении [1].

*Влияние социальных сетей на межличностные отношения.* Исследования поднимают вопросы о том, как использование социальных сетей формирует межличностные отношения, включая эффекты на эмоциональную связь, общение и самопредставление [2].

*Цифровая эстетика и восприятие.* Работы в этой области анализируют, как визуальные и звуковые аспекты цифровой коммуникации влияют на восприятие информации и эмоциональные реакции [3].

*Философские аспекты самоопределения в сетевом пространстве.* Исследования, касающиеся того, как цифровое пространство влияет на формирование личной идентичности, представление и восприятие самого себя в виртуальной среде [4].

*Феномен виртуальной реальности.* Работы в этой области исследуют философские аспекты использования виртуальной реальности, включая вопросы ее воздействия на ментальное состояние [5].

*Культурные и социальные аспекты цифровой коммуникации.* Исследования раскрывают, как технологии коммуникации формируют и изменяют культурные структуры, нормы и ценности в обществе [6].

*Эмпирический анализ эффективности цифровой коммуникации.* Исследования, сфокусированные на измерении и анализе эффективности цифровой коммуникации с использованием различных методов и метрик [7].

Эти исследования в совокупности предоставляют широкий философский взгляд на цифровую коммуникацию, открывая вопросы, требующие дальнейшего обсуждения и анализа в контексте быстро меняющегося информационного общества.

В литературе, посвященной философии цифровой коммуникации, выделяются несколько основных тенденций и проблем, которые активно обсуждаются и анализируются исследователями.

*Этические и моральные дилеммы.* Обсуждение этических аспектов использования цифровой коммуникации, включая конфиденциальность данных, цифровую этику и вопросы ответственности при обработке информации [8].

*Влияние технологий на межличностные отношения.* Исследование того, как использование социальных сетей, мессенджеров и других цифровых инструментов воздействует на качество межличностных отношений, эмоциональную связь и общение [9].

*Самоопределение и личная идентичность в цифровом пространстве.* Анализ того, как цифровые технологии формируют наше представление о себе, воздействуют на личную идентичность и взаимосвязь с виртуальной средой [10].

*Большие данные и приватность.* Исследование последствий использования больших данных в цифровой коммуникации, включая вопросы охраны личной жизни, безопасности и контроля над информацией [11].

*Цифровая эстетика и визуальная культура.* Анализ влияния цифровой коммуникации на эстетику визуального и звукового восприятия, включая эффекты на культуру визуального общения [12].

*Феномен виртуальной реальности.* Рассмотрение философских аспектов использования виртуальной реальности, включая вопросы реальности, воздействия на восприятие и проблемы этического характера [13].

*Влияние на культурные и социальные структуры.* Исследование того, как цифровая коммуникация изменяет культурные структуры, социальные нормы, ценности и формирует новые общественные практики [14].

Эти тенденции и проблемы представляют собой динамичное поле исследований, требующее постоянного обновления и адаптации под влиянием новых технологий и общественных изменений.

**Методология исследования** Философские методы, применяемые в исследованиях цифровой коммуникации, направлены на анализ фундаментальных аспектов человеческой деятельности, связанных с цифровыми технологиями и коммуникацией. Ниже приведены некоторые из основных философских методов, используемых в данной области.

*Онтологический анализ.* Философия цифровой коммуникации часто включает в себя онтологический анализ, направленный на выявление сущности и природы цифровой коммуникации.

*Семиотический анализ.* Философия цифровой коммуникации может применять семиотический анализ для изучения символических систем, используемых в цифровом общении.

*Феноменологический подход.* Феноменологические методы используются для анализа личного опыта цифровой коммуникации. Исследователи фокусируются на том, как люди воспринимают и осмысливают свой опыт в виртуальных средах, а также на том, какие смыслы они придают этим интеракциям.

*Герменевтический анализ* применяется для толкования текстов и интерпретации содержания цифровой коммуникации.

*Этический анализ* используется для изучения моральных аспектов цифровой коммуникации, включая вопросы конфиденциальности, прав человека в виртуальном пространстве и этические стандарты использования технологий.

*Критический анализ* применяется для исследования социокультурных и политических аспектов цифровой коммуникации. Исследователи стремятся выявить влияние технологий на социальные структуры и динамику общества.

Эти философские методы помогают создавать глубокий и фундаментальный



анализ цифровой коммуникации, проливающий свет на ее сущность, этику и влияние на чело-веческое общество.

**Обсуждения и результаты** *Взгляд философии на цифровую коммуникацию* формируется под воздействием различных ключевых моментов, отражающих изменения в технологиях, культуре и обществе. Ниже представлены некоторые из этих ключевых моментов.

*Технологическая революция.* Развитие цифровых технологий, начиная с появления интернета и компьютеров, создало основу для цифровой коммуникации. Технологическая революция стала отправной точкой для переосмысления способов общения и взаимодействия.

*Медиафилософия и средства массовой информации.* Философия средств массовой информации и медиафилософия помогли понять влияние средств коммуникации на формирование общественных представлений и структуру восприятия мира.

*Глобализация и сетевое общество.* Процессы глобализации и формирование сетевого общества изменили облик цифровой коммуникации, сделав ее более распределенной, глобальной и взаимосвязанной.

*Социальные сети и коллективное действие.* Появление социальных сетей изменило динамику общения, превратив его в более коллективный и интерактивный процесс. Философы обращают внимание на изменение динамик общественных отношений и формирование виртуальных сообществ.

*Приватность и этика.* Вопросы приватности и этики в цифровой коммуникации стали важным аспектом философских рассуждений. С расширением цифровых технологий возникают вопросы о защите личных данных и соблюдении этических норм в виртуальном пространстве.

*Технокультура и информационный поворот.* Философия технокультуры и информационного поворота предлагает фреймворк для понимания, как технологии формируют культурные ценности и влияют на способы передачи информации.

*Виртуальная реальность и иммерсивные технологии.* Развитие виртуальной реальности и иммерсивных технологий ставит под вопрос реальность в цифровой коммуникации, вызывая размышления о природе восприятия и взаимодействия в виртуальных мирах.

*Искусственный интеллект и автоматизация.* Философы обращают внимание на этические и социальные аспекты использования искусственного интеллекта в цифровой коммуникации, включая вопросы автономии, прозрачности и влияния на трудовые рынки.

Эти ключевые моменты формируют философский контекст, в котором рассматриваются цифровая коммуникация и ее воздействие на общество и человеческую деятельность.

**Современные тенденции в цифровой коммуникации** представляют собой динамичный и быстро меняющийся ландшафт, отражающий современные технологические, социокультурные и экономические изменения. Вот несколько ключевых тенденций.

*Мессенджеры и чат-приложения.* Рост популярности мессенджеров, таких как WhatsApp, Telegram, Signal и других, подчеркивает сдвиг от традиционных форм коммуникации в сторону мгновенного обмена сообщениями, аудио и видеозвонков.

*Видеокommunikация.* Усиление видеокommunikаций включает в себя расширенное использование видеоконференций, стриминговых сервисов и коротких видеоформатов. Платформы, такие как Zoom, Microsoft Teams и TikTok, становятся

важными средствами общения.

*Сетевые сообщества и социальные сети.* Социальные сети с акцентом на визуальном контенте, развлекательных форматах и персонализации остаются весьма популярными. Происходит рост влияния контента, создаваемого пользователями (user-generated content).

*Подкастинг.* Растущая популярность подкастов отражает тенденцию к аудиокоммуникации. Подкасты становятся платформой для обсуждения различных тем, начиная от новостей до развлекательного контента.

*Искусственный интеллект и чат-боты.* Внедрение искусственного интеллекта в цифровую коммуникацию приводит к появлению умных чат-ботов, обеспечивающих автоматизированный обмен информацией и услугами на веб-сайтах и мессенджерах.

*Голосовые технологии.* Голосовые устройства и технологии, такие как голосовые помощники (например, Siri, Alexa, Google Assistant), становятся все более востребованными, предоставляя новые способы взаимодействия с технологией.

*Эмоциональный дизайн и виртуальная реальность.* Внедрение эмоционального дизайна в цифровые продукты и виртуальную реальность создает более глубокие и эмоциональные взаимодействия в цифровом пространстве.

*Блокчейн и безопасность.* Рост интереса к технологии блокчейн поднимает вопросы о безопасности и прозрачности в цифровой коммуникации, особенно в отношении передачи информации и средств обмена.

Философский анализ позволяет понять глубокие изменения в человеческих отношениях и общественных процессах, происходящих под влиянием цифровой коммуникации. Он призван помочь в поиске баланса между новыми технологиями и традиционными ценностями, а также способствует развитию критического мышления в цифровую эпоху.

Философия играет важную роль в понимании и формировании будущего цифровой коммуникации. Влияние философии можно увидеть в следующих аспектах.

*Этические принципы.* Философия может помочь сформулировать этические принципы, которые должны лежать в основе цифровой коммуникации. Она может внести вклад в разработку этических норм и правил, касающихся приватности, свободы слова, справедливости и уважения к другим участникам цифрового пространства.

*Социальные вопросы.* Философия помогает поставить вопросы о влиянии цифровой коммуникации на наши межличностные отношения, общественные структуры и культурные ценности. Она способствует анализу различных аспектов цифровой коммуникации: от манипуляции информацией до формирования личной идентичности в онлайн-мире.

*Философский взгляд на технологию.* Философия помогает задавать вопросы о сущности цифровых технологий, их влиянии на наше понимание реальности и информации, а также обсуждать этические и социальные последствия использования новых технологий в коммуникации.

*Сознательное использование.* Философия позволяет человеку более осознанно подходить к использованию цифровой коммуникации, развивать навыки критического мышления и этической ответственности в онлайн-среде.

Философия может влиять на будущее цифровой коммуникации, помогая развивать этику взаимодействия, обсуждать социальные и культурные вопросы, а также способствовать более глубокому пониманию технологических изменений и

их влияния на общество и человеческую жизнь.

**Выводы и предложения** Философский подход к цифровой коммуникации играет важную роль в осмыслении последствий и влияния современных технологий на общество, культуру и личность. Философский анализ позволяет глубже понять этические, культурные и социальные аспекты использования цифровых средств коммуникации. Он помогает выявить влияние цифровых технологий на наше мировоззрение, способность критического мышления и восприятие правдивой информации. Такой подход позволяет задавать важные вопросы о том, какие ценности и цели отражаются в различных формах цифровой коммуникации, и как это влияет на общественное развитие.

Философский подход к цифровой коммуникации также помогает понять важность свободы, приватности и безопасности в цифровом пространстве. Эти вопросы являются особенно актуальными в контексте развития цифровых технологий и способов их использования.

Кроме того, философский анализ способствует формированию осознанного и ответственного подхода к цифровой коммуникации, как со стороны отдельного индивида, так и со стороны общества в целом. Он помогает задавать важные вопросы о последствиях и целях использования цифровых технологий с точки зрения общественной пользы и благополучия.

Философский подход к цифровой коммуникации является важным инструментом для понимания глубоких изменений, происходящих в современном информационном обществе, а также является основой для развития адекватной этической и социальной реакции на эти изменения.

#### Список использованной литературы

1. Асеева И. А. Этические вызовы цифровой эпохи //Вестник Юго-Западного государственного университета. Серия: Экономика. Социология. Менеджмент. - 2019. - Т. 9. - №. 3. - С. 202-212.
2. Пугина В. И. Влияние социальных сетей на межличностные отношения и коммуникацию в современном обществе //Научный редактор. - 2023. - С. 30-34.
3. Ганиева Э. Р. Особенности эстетического восприятия кино в условиях новой цифровой реальности //Научный форум: Филология, искусствоведение и культурология. - 2018. - С. 24-30.
4. Хорольцева Е. Б., Федорова А. В. Коммуникационные аспекты самоопределения личности в онлайн-пространстве //Вестник Поволжского института управления. - 2021. - Т. 21. - №. 1. - С. 71-79.
5. Гаврилов А. А. Осмысление феномена виртуальной реальности в философском дискурсе //Омский научный вестник. - 2014. - №. 2. - С. 93-96.
6. Пильгун М. А., Дзялошинский И. М. Культура коммуникаций в условиях цифровой и социокультурной глобализации: глобальный и региональный аспекты //Вопросы психолингвистики. -2017. - №. 2. - С.134-144.
7. Попов Е. В. и др. Цифровой потенциал предприятия //Экономический анализ: теория и практика. - 2019. - Т. 18. - №. 12. - С. 2223-2236.
8. Согомонов А. Ю. Цифровая этика для цифрового образования в цифровом мире //Ведомости прикладной этики. - 2021. - №. 58. - С. 17-30.
9. Глухов А. П. Доместикация социальных медиа и ресоциализация межличностных отношений //Вестник Томского государственного университета. Философия. Социология. Политология. – 2019.-№.47.-С.149-157.
10. Устьянцев Н. Г. Становление множественной идентичности в цифровой среде //Вестник Саратовского университета. Новая серия. Серия Философия. Психология. Педагогика. - 2019. – Т. 19. - №. 1. - С. 39-42.

11. Платонова С. И. Большие данные и социальный контроль в повседневной жизни //Вестник Удмуртского университета. Серия «Философия. Психология. Педагогика».- 2022. - Т. 32. - №. 3. - С. 228-234.

12. Назаренко А. Н. Визуальный образ в контексте современных исследований медиа //Вестник Санкт-Петербургского государственного института культуры. - 2019. - №. 4 (41). - С. 93-97.

13. Лазинина Е. В. Цифровая реальность в контексте процессов коммуникации и экзистенции человека //Современные исследования социальных проблем. - 2019. - Т. 11. - №. 2-1. - С. 78-90.

14. Шевченко О. М., Штофер Л. Л. Влияние цифровой парадигмы социального развития на структуры здоровья человека //Гуманитарий Юга России. - 2022. - Т. 11. - №. 5. - С. 145-

## CHARACTERISTICS OF THE ENLIGHTENMENT OF TURKESTAN AND DISTINCTIVE FEATURES OF MORAL THOUGHTS

**Asatulloev Abrorkhon Asatulloevich,**

Gulistan State Pedagogical Institute

Head of the Education Quality Control Department

Doctor of philosophy on philosophical science (PhD)

[abshah.uz1992@gmail.com](mailto:abshah.uz1992@gmail.com)

ORCID: 0000-0003-4081-8715

*UDK: 1 (075) (378)*

**Abstract:** National renaissance was manifested in our region in the form of Jadidism. And it lasted until the mid-20s of the XX century. From 1926, the Soviets started a large-scale fight against it. From 1929, their physical liquidation was started. Therefore, the emergence of this process is directly related to the colonial policy and its results, and it is necessary to mark the period of its formation with the years 1865-1905. After the events of 1905, in particular, the October 17 Manifesto, it entered a phase of development. By 1916, our ancestors began to "whiten the black people and open their eyes" (Avloni).

Abdurahman Sayyoh, the representative of Jadid Enlightenment, expressed his opinions in the press at a high level through articles in each issue of the magazine. These articles are important in clarifying the relationship of the scientists of their time to the socio-political and cultural life in Turkestan. Therefore, the research of social and political events in Turkestan through the means of "Al-Isloh" magazine under the editorship of Abdurrahman Sayyah, which was the press of its time, was the basis for drawing clear conclusions and expressing an objective opinion.

In this article, we will see the influence of the socio-political and cultural environment in Turkestan on Abdurahman Tashkandi, as well as the attitude of Tashkandi to national moral issues in the land of Turkestan and its influence on the processes in it.

**Key words:** Modernism, office, national revival, reform, education, homeland and nation, independence, new school.

## TURKISTON MA'RIFATPARVARLIGINING XUSUSIYATLARI VA AXLOQIY FIKRLARNING O'ZIGA XOSLIGI

**Annotatsiya:** Milliy uyg'onish mintaqamizda jadidchilik shaklida namoyon bo'ldi. Va u XX asr 20-yillarining o'rtalarigacha davom etdi. 1926-yildan sovetlar unga qarshi keng ko'lamda kurash boshladi. 1929-yildan ularni jismoniy tugatish yo'lga qo'yildi. Binobarin, ushbu jarayonning paydo bo'lishi bevosita mustamlakachilik siyosati va uning

natijalari bilan aloqador bo'lib, uning shakllanish davrini 1865–1905-yillar bilan nishonalamoq kerak bo'ladi. 1905-yil voqealari, xususan, 17 oktabr Manifestidan keyin u rivojlanish bosqichiga kirdi. 1916-yilga kelib, jadidlarimiz “qora xalqni oqartirmoq va ko‘zin ochmoq chorasiga” (Avloniy) kirishdilar.

Jadid ma'rifatparvarligi vakili Abdurahmon Sayyoh o'z fikr-mulohazalarini jurnal tahririyati doirasida har bir sonidagi maqolalar orqali matbuotda yuksak darajada bayon etib bordi. Ushbu maqolalar o'z zamoni olimlarining Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotga bo'lgan munosabatlarini aniqlab berishda muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'z zamonasining matbuoti bo'lmish Abdurahmon Sayyoh muharrirligi ostidagi “Al-Isloh” jurnali vositasida tadqiq etish aniq xulosalar chiqarib, ob'ektiv fikr bildirishga asos bo'ladi.

Ushbu maqolada biz Abdurahmon Toshkandiyga Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhitning ta'sirini ko'rish barobarida Toshkandiyning Turkiston diyoridagi milliy axloqiy masalalariga bo'lgan munosabati va undagi jarayonlarga ta'sirini ko'ramiz.

**Kalit so'zlar:** Jadidchilik, idora, milliy uyg'onish, islohot, ta'lim, vatan va millat, istiqloq, yangi usul maktabi.

**Introduction** “Jadidism is reflected in the development of Turkestan social thought, as Fitrat noted, in the forms of Islamism (pan-Islamism), Turkism (pan-Turkism) and localism (Uzbekism), they have their own factors. For example, Islamism and Turkism arose as a response to the greater nationalist policy of the Shor administration towards non-Russian Muslims, and localism (Uzbekism) was the result of a “tort” formed in relation to the “catch” [1].

It should be said that a number of Turkish Ottoman officers sentenced to captivity in Russia during the First World War, who moved to Turkestan after the 1917 movement and actively participated in the field of education and culture, caused certain protests among the Uzbek intelligentsia. However, all these points of view sooner or later ended in the mid-20s of the 20th century.

Jadidism is a socio-political, educational and reform movement, and this movement began with the slogan of updating all spheres of life, and most importantly, updating the method of governance. Office? The office was in the wrong hands. So, to change it, you must first have it. This, in turn, led to independence and national independence [2].

But the point is that the people had to understand this idea. In 1789, the favorite phrase of the heroes of the French Bastille, often used by Nomik Kamal, Tavfik Fikrats, and later Behbudi, Munavvar Kari: “Rights are not given, they are taken away” was supposed to penetrate the heart and soul. In other words, Shinakam was supposed to become a national idea. Only then will it become a real jackpot.

**Research Methodology** It was a very difficult job. The nation had to wake up to understand this idea.

It was not in vain that Hamza's painful exclamation was: “A soulless man: if you stab him with a dagger, his blood will not flow”. For this reason, our enlightened intellectuals believed that the main goal of the Jadid movement at the beginning of this century was the awakening of the nation. For this reason, another name for the reformist views of this period was the “Enlightenment of the National Renaissance” [3].

“Jadidism has never been so face to face with his homeland and people. Never before has the fate of the Motherland and the Nation entered into modern enlightenment with such anger and pride, with shame and pride. It can be said without exaggeration that there is not a single intellectual who did not touch upon this topic in the period from 1865 to 1929. If we talk about the main theme of this movement, then it should be “Nation”.

When asked what his main pain is: “Independence!” it will be necessary to say” [4].

In fact, the problem is not always so clear-cut. It's also impossible to deliver.

Of course this is a joke. There are laws here. And, of course, the idea of independence comes from the general spirit of the movement, a meaning wrapped in symbols and symbols. We have to reckon with this.

But the fact is that it is full of national pain. From every modern image emerges a national idea, a national ideology. We cannot understand them calmly. At the heart of almost every educator and every movement is the pain of Independence. You just need to understand it, isolate it from the general process. Otherwise, it would be counterproductive to allow unilateralism. Let's not go far, let's look into the topic of enlightenment. Finally, the pressing issue is the basis of the rise [5].

Jadid's enlighteners wanted to see their people in an enlightened form; they sought to free themselves from all dumbness, superstition and national enslavement. At the very beginning of their activities, they offered the Turkestan people their way of becoming acquainted with the successes of world civilization. This path does not consist in abandoning the national and religious-spiritual wealth of the people, but in proposing a gradual transition to the path of change and cleansing from backward beliefs and superstitions, destructive for further development and development through them.

**Results and Discussions** Reformist views were supported by various representatives of the people. At the beginning of the 20th century, the construction movement was considered as a necessary factor in the main cities of Turkestan - Tashkent, Margilon, Andijan, Samarkand, Namangan, Kattakorgan, Kokan [6].

The first Russian revolution had a significant impact on the ideological and organizational growth of the reform movement. In 1905-1907, political views began to increase in the ideas of the Jadids, and changes occurred in their worldview. During the Russian Revolution of 1905-1907, the revolutionary movement in Turkestan strengthened structurally and ideologically.

“The activities of reformers in new situations are related to several areas. Jadidshi remains one of the leading trends. For example, in the face of the intrusion of Shariah policies, their enthusiasm for the creation of new schools has increased significantly. By 1910, about 50 schools had been established in different parts of the country. Tashkent and Kokan have become a unique center of new method schools” [7].

These views also had a positive influence on the modern enlightenment movement that emerged in the late 19th and early 20th centuries. In their activities, the Jadids relied to a certain extent on the views of Islamic reformism and tried to present Islamic principles in a modern form in the development of Jadid schools.

The creation of Uzbek publishing houses and the national theater was the main beneficial factor in the spread of modern education and national awakening. Reformers from Tashkent and Kokan, through publishing activities, brought to the people the works of poets and writers; Alisher Navoi received special respect in their work. Religious and philosophical works of such scientists as Sufi Olloyor, Khoja Ahmed Yassavi, Mirzo Bedil were purchased. They gave a new impetus to the development of reformism. The reformers also satisfied their fans with sources purchased in various countries of the Muslim East - Syria, Iran, Egypt, Turkey - which were experiencing a period of national revival [8].

During this period there was no single program that brought together all modern educators. Each of them proposed a path for national development from their own point of view. At this time, different views appeared, sometimes contradictory opinions and proposals, disagreements that influenced society in different ways. It should be said that

during this historical period the idea of celebrating one's own future did not arise. However, some signs in this area have begun to emerge.

Turkestan reformers are closely monitoring the political situation in Russia, studying the programs and activities of the emerging political parties there. They are based on the uniqueness of the national mentality, the peace-loving nature of the Uzbek people, the state of democratic processes in Russia, and sought to achieve these political compromises and create conditions that meet the objective requirements of national development. Turkestan.

During the Russian Revolution of 1905–1907, reformism was reflected as a leading political event. He contributed to the awakening of the local population in Turkestan and the emergence of the ideology of the national liberation movement.

During the work of 1908-1916, a political split occurred in the work of the reformers. Then such views as “modern”, “progressive”, “old” were born. At this time, the reform movement began to reflect political goals more clearly than cultural aspects [9].

The further organic development of the ideological views of the reformers coincided with the time of the First World War. As a result of the general moral crisis of the outbreak of war, changes occurred in many traditional forms of social consciousness. Adopting new thoughts and ideas was a process of revising the system. Some reformers were no longer satisfied with the backwardness of cultural and educational activities.

The reformist views of the Turkestan region lie in the religious, educational and socio-political spheres, with one of the important directions being the reform of the educational sphere, and the second - the press. In the emergence of the national press, the national press played an important role, especially a number of magazines and newspapers, which began to be bought in Istanbul, beyond the Caucasus, along the Volga and were formed on a national basis [10].

The Jadidism movement, which developed in the late 19th and early 20th centuries. and covering all aspects of public life, arose under the direct influence of the progressive movement of Russian Muslims, especially in the Caucasus and the Volga region. In addition, at the end of the 19<sup>th</sup> century, the influence of religious reformism, views on the national liberation struggle against tyranny, which were widespread in the countries of the East, became significant. For this reason, it is necessary in the activities of the Jadids, relying in a certain sense on the ideas of Islamic reformism, to express the views of Islam in the context of modern social demands, to orient the sphere of education, culture and the press with socio-political goals.

A national press was created. The propaganda of modern enlighteners through the magazine served as an important tool for reforming society in religious, moral and social aspects, and eradicating old heresies. So, modern Uzbek literature, rooted in the spiritual life of Turkestan in the 10 s of the 20<sup>th</sup> century, gave its excellent results in the difficult 20 s. With his poems, Sholpon laid a kind of foundation for new Uzbek poetry. Kadiri founded the Uzbek novel. Fitrat went down in history as the author of the best examples of Uzbek drama and the founder of new Uzbek literature.

In the cultural life of Turkestan in 1915, a need arose for reforms; school education began to be reformed. Through the media, modern enlightened people widely report that the main factor in the decline of the country is not religion, but ignorance, neglect, disunity in external relations, and the main culprits are careless scientists. For this reason, special attention was paid to the duties of the ulema along with education. After all, the enlightened intelligentsia of Turkestan fought against fanaticism, development and national independence.

**Conclusion** In conclusion, we can say that the great representatives of the

enlightened people, the reformers, told with a painful dream that the spiritual, religious life and standard of living of the nation, oppressed by the tyranny of Sharizism, had fallen into a deplorable state. and called on the people to awaken from this sleep of ignorance. For example, the enlightened scholar Behbudi: “If we do not pay attention to the reformed madrasah school needed today, that is, a reformed nation, religion will die in forty centuries, and the responsibility for its response will remain today.” ., in order to get rid of this responsibility, it is necessary to stimulate the nation to study religious and secular sciences,” he concludes. The enlighteners realized that the only way to solve the existing problems of their time was through educational reform, and for this reason Abdurahman Sayyah appears in almost every issue of the magazine raised issues such as training, duties of scientists and problems in madrassas.

### Reference

1. Абдивоҳидов С.А. Жади́дчилик ҳаракатининг ижтимоий – сиёсий жиҳатлари ва ҳозирги замон. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, СамДУ, 2020. –56 Б.
2. Маҳмудова Г.Т. Туркистонда жади́дчилик ҳаракати ва унинг ахлоқий-эстетик фикр тараққиётига таъсири: ф.ф.н дис.-Т., 1996. – Б.175.
3. Маҳмудов Ф. Жади́д адабиётида миллий истиқлол мавзуси. - Тошкент: Ўзбекистон, 1999. –Б.156.
4. Ризаев Ш.Т. Ўзбек жади́д драматургиясининг шаклланиши манбалари: фил. фан. номзоди. дисс. Автореф: - Т., 1995. –78 Б.
5. Алимова Д. А. “Джади́дизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьбы за независимость”. -Т.: “Ўзбекистон”, 2000. – С.267.
6. Автореферат Нишоновой Гулноры Усмоновны на тему «Место и роль журнала «Ойна» в формировании и развитии узбекской публицистики» на соискание учёной степени кандидата филологических наук. – Ташкент, 2008. – С.219.
7. O‘zR MDA, I-461 – fond, 1-ro‘uxat, 1021 – ish, 18-varaq.
8. Гафаров, Нуманджон Усманжонович. Джади́дизм в Средней Азии в конце XIX в. - начале XX в.: диссертация. Душанбе, 2014. – С.254.
9. Абдулла Авлоний. Бурунги ўзбек вақтли матбуотининг тарихи. Миллий уйғониш. Тошкент: Университет, 1993. – Б.153.
10. Зиё Саид. Танланган асарлар. – Тошкент, 1974. – Б.133.

## INNOVATSION TAFAKKURNI IJTIMOYIY TARAQQIYOTNING ZARUR VOSITASIGA AYLANTIRISHDA OAV NING ROLI (IJTIMOYIY TAHLIL)

**Tursunova Shahnoza Bekchanovna**

TATU Urganch filiali “O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar”

kafedrası dotsenti

[tursunovashahnoza534@gmail.com](mailto:tursunovashahnoza534@gmail.com)

ORCID: 0009-0008-9812-308X

UDK: 159.955:366.636

**Annotatsiya:** Maqolada milliy ommaviy axborot vositalari va markazlarning mediamakondagi faoliyati, innovatsion tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini yaratish, insonparvarlik tamoyillarini targ‘ib etishning ilmiy-ratsional hamda konstruktiv yo‘llarini ishlab chiqish va OAVdagi ijtimoiy fikrlar, taklif va tavsiyalar innovatsion izlanishlarga yo‘naltiruvchi u yoki bu sohaga yangilik olib kirish muhim ahamiyat kasb etilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion tafakkurga oid ilmiy yondashuvlar va ta‘riflarni o‘rganish, tahlil qilish uning quyidagi funksional tizimlari, ijtimoiy, klassifikatsion xususiyatlari mavjudligini ko‘rsatiladi. Innovatsion tafakkurning



funksional tizimlariga alohida e'tibor qaratiladi, bunga yangilik va yangi texnologiyalar joriy etiladigan ijtimoiy sohalar va institutlar, ularda kuzatiladigan o'zgarishlar, bu o'zgarishlarning ijtimoiy ahamiyati, vazifalari nazarda tutiladi. Maqolada OAV va mediamarkazlarda innovatsion tafakkurng yoritilishi tahlil qilinadi.

Innovatsion tafakkur yangi-yangi axborotlarga, ilmiy-texnik ishlanmalarni yoyuvchi OAVga ehtiyoj uyg'otadi. Uning yangilik izlanishga o'chligi insonni mudom yangilik topishga undab turadi. Hatto OAVdagi arziyas xabar yoki maqola ham yirik, innovatsion kashfiyotlarga yetaklashi mumkin. Innovatsion tafakkurni ommaviy voqelikka, ijtimoiy taraqqiyotning zarur vositasiga aylantirish ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi mexanizmlardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalari, mediamakon va innovatsion izlanishlarni qo'llab-quvvatlovchi ilmiy-texnik markazlar ana shunday mexanizmlar qatoriga kiradi. Agar innovatsion tafakkur va innovatsion izlanishlar ijodiy faoliyat bo'lsa, OAV va mediamarkazlar ushbu jarayonlarni targ'ib etadi va ularga jamiyat, keng jamoatchilik va davlatning diqqatini jalb etadi.

**Kalit so'zlar:** modernizatsiya, innovatsiya, innovatsion tafakkur, fikrlash, ijtimoiy rivojlanish, innovatsion rivojlanish, ommaviy axborot vositalari, mediamarkaz, axborotni yoritish.

### **THE ROLE OF MASS MEDIA IN TRANSFORMING INNOVATIVE THINKING INTO A NECESSARY TOOL OF SOCIAL DEVELOPMENT (SOCIAL ANALYSIS)**

**Abstract:** In this article, the activity of national mass media and centers in the media space, the creation of socio-legal mechanisms for the formation of innovative thinking, the development of scientific-rational and constructive ways of promoting the principles of humanitarianism, and the bringing of news to this or that field, which directs social opinions, suggestions and recommendations in the media to innovative research importance is analyzed. Also, the study and analysis of scientific approaches and definitions of innovative thinking will show the existence of its following functional systems, social and classification features. Special attention is paid to the functional systems of innovative thinking, which includes social spheres and institutions where innovation and new technologies are introduced, the changes observed in them, the social significance of these changes, and their tasks. The article analyzes the coverage of innovation thinking in mass media and media centers.

Innovative thinking creates a need for new information, mass media spreading scientific and technical developments. Its stimulation for new things motivates a person to constantly find new things. Even an insignificant article or news in the media can lead to major, innovative discoveries. Transforming innovative thinking into a public reality, a necessary tool of social development, requires the effective use of mechanisms that shape social thoughts. Mass information and communication tools, media space and scientific as well as technical centers supporting innovative research are among such mechanisms. If innovative thinking and innovative research are creative activities, mass media and media centers promote these processes and attract the attention of society, the general public and the state.

**Keywords:** modernization, innovation, thinking, social development, innovative development, mass media, media center, informative coverage.

**Kirish** (Introduction) Jahon ilm-fanida innovatsion tafakkurni shakllantirishda, barqaror taraqqiyotni ta'minlash va demokratik islohotlarning samaradorligiga erishishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirishga qaratilgan ilmiy-texnik, innovatsion va

eksperimental, maxsus, fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Innovatsion tafakkurni shakllantirishda ommaviy axborot vositalari rolini aniqlash hamda ularning ijtimoiy-madaniy integratsiyaga, jamiyat va inson munosabatlariga ta'sirini aniqlashning zamonaviy konseptual asoslarini aniqlash davr taqozosiga aylanmoqda. Shuning uchun innovatsion tafakkurning subyektiv, ijodiy, psixologik tamoyillarini hamda ilm-fanni rivojlantirish, texnik va texnologik yangilanish, xalqaro etnoturizm, innovatsiya zaxiralarini yaratish kabi ijtimoiy funksiyalarini aniqlash zarurati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida ommaviy axborot vositalarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ularning rolini oshirishga oid islohotlar olib borilmoqda. "Mamlakatimizda demokratik yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, ommaviy axborot vositalari faoliyati samaradorligini oshirish yo'lida davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan sohani qo'llab-quvvatlash, bu vakillarining mashaqqatli mehnatini har tomonlama rag'batlantirishga bundan buyon ham alohida e'tibor qaratiladi. Bu yo'lni davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri deb bilamiz va qat'iy davom ettiramiz" [1].

Shu nuqtayi nazardan, milliy ommaviy axborot vositalari va markazlarning mediamakondagi faoliyati, innovatsion tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-huquqiy mexa-nizmlarini yaratish, insonparvarlik tamoyillarini targ'ib etishning ilmiy-ratsional hamda konst-ruktiv yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili** Jahonda ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyoti, innovatsion tafakkur shakllanishi, inson tafakkurining ijtimoiy psixologik, sensitiv jihatlarining shakllanishi A. Smit, E. Dyurkgeym, G. Zimmel, Y. Shumpeter, J. Keyns E. Toffler, P. Sorokin, T. Kun, J. Bodriyyar, V. Leybin, A. Adler, A. Maslou tadqiqotlarida tahlil etilgan .

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlari N. Arister, I. Bestujev Lada, M. Valyana, Ya. Zasurskiy, A. Korshunov, V. Mantatov, O. Anisimov, G. Shedrovitskiy, G. Pochensov tadqiqot ishlarida innovatsion tafakkur, sivilizatsiyaviy taraqqiyot hamda ommaviy axborot vositalarining ulardagi o'rni tadqiq etilganini alohida qayd etish lozim .

Tafakkurning genezisi ibtidoiy davrdagi ilk tasavvurlar, savdo-sotiq va integratsion aloqalarga borib taqalgani uchun ham Yangi davrdagi ratsionalizm, aql-u idrok kuchiga ishonish, ilm-fan tafakkurning yangi bosqichi sifatida qaralishi darkor. Akademik A.F.Losev yozganidek, ibtidoiy davr mifologiyasidan har qanday tafakkur, yangi izlanish uchun manba, asos topsa bo'ladi [2]. Tafakkur ushbu an'anaga tayanishda davom etayotgan bo'lsa-da, unga mutlaq qaram emas, ko'p hollarda hatto unga ochiqdan ochiq qarshi chiqadi. Bu o'rinda B.Spinoza, Akosta, Feyerbax, Mansur Xalloy falsafiy merosini, ilmiy-texnik revolyutsiyalar davrlaridagi ijtimoiy ongda ro'y bergan tub o'zgarishlarni eslash mumkin. Bu o'zgarishlar innovatsion xususiyatga ega edi.

Jamiyatni modernizatsiyalash va uning innovatsion rivojlanishini ta'minlash ijtimoiy taraqqiyot talabidir. O'z taraqqiyotini o'ylagan jamiyat mudom modernizatsiyalash va innovatsiyaga ehtiyoj sezadi, ularni o'z hayotiga joriy etish mexanizmlari va vositalarini yaradi.

Innovatsion tafakkurga oid ilmiy yondashuvlar va ta'riflarni o'rganish, tahlil qilish uning quyidagi funksional tizimlari, ijtimoiy, klassifikatsion xususiyatlari mavjudligini ko'rsatadi:

- u, ya'ni innovatsion tafakkur ijtimoiy hayotga yangilik, kashfiyot olib kirishga qaratilgan ilmiy faoliyat turi, ilm-fan sifatida keladi;
- yangilikka, taraqqiyotga va o'zgarishlarga moyil dunyoqarashni ifoda etadi;
- insonning ratsional izlanishlari va faoliyatini aniq ijtimoiy maqsadlarga

yo'naltiruvchi ijodiy, psixologik ustanovka vazifasini bajaradi;

- ijtimoiy ong va ijtimoiy fikr bilan uyg'unlashib, ma'lum bir muhitga, jamiyatga, guruhga oid yangi konseptual g'oyani aks ettiradi;

- ijtimoiy determenistik xususiyatga ega;

- yangi ma'naviy voqelik, g'oyalar, qadriyatlar tarzida ijtimoiy borliqqa, jamiyat hayotiga ta'sir etadi;

- insonning barcha ongli, ratsional faoliyati yangilikka moyil tafakkur ta'sirining mahsullari sifatida qaralishi mumkin [3]. Mazkur tizimli yondashuv innovatsion tafakkurning ham ilmiy, ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berishga yordam beradi. Ammo buni esda tutish zarur, barcha tafakkur mahsullari ham innovatsion xususiyatga ega bo'lavermaydi, goho tafakkur konservativ, g'ayriilmiy bo'lishi mumkin. Shuning uchun biz tafakkurning yuqoridagi yo'nalishlarini innovatsion tafakkurga tatbiq etganimizda tafakkurdagi yangi izlanishlarga, ilmiy-texnik va texnologik yangilanishlarga moyil jihatlarini nazarda tutamiz. Tafakkurning barcha ko'rinishlari, mahsullari emas, balki yangilanishga moyil, yangicha yondashuvni qo'llab-quvvatlovchi jihatlarini biz innovatsion tafakkur tarzida tadqiq etamiz. Innovatsion tafakkurning funksional tizimlari deganda yangilik va yangi texnologiyalar joriy etiladigan ijtimoiy sohalar va institutlar, ularda kuzatiladigan o'zgarishlar, bu o'zgarishlarning ijtimoiy ahamiyati, vazifalari nazarda tutiladi. Bunday funksional tizimlar ijtimoiy sohalarning ichki funksiyalari va xususiyatlari orqali belgilanadi. Masalan, innovatsiyaning madaniyat sohasidagi funksiyalari bilan siyosat, iqtisod yoki tibbiyot sohasidagi funksiyalari o'rtasida ma'lum bir farqlar mavjud. Madaniyat sohasidagi innovatsiya moddiy va ma'naviy boyliklarni asrash va ko'paytirishga, bu boradagi xalqaro, yangi tajribalarni joriy etishga qaratiladi. Siyosat sohasidagi innovatsiya jamiyat va davlat hayotini boshqarishni samarali amalga oshirishga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasidagi innovatsiya esa mahsulotlar, ne'matlar ishlab chiqarish, bu jarayonni zamonaviy texnologiyaga asoslangan tarzda tashkil etishni nazarda tutadi. Innovatsion tafakkurning funksional tizimlari yangilik olib kiriladigan ijtimoiy soha xususiyatlarini, funksiyalarini yaxshi bilishni taqozo etadi. Mazkur sohalardagi muammolarni bilish va ularni yechishga intilish innovatsiyaning boshlang'ich bosqichi, ammo innovatsiya negizida sohaga jiddiy ta'sir etish, yangilikni ustuvor voqelikka aylantirish maqsadi yotadi. Innovatsiya sohaga tub o'zgartirishlar olib kirishi mumkinligini dunyodagi yirik korporatsiyalar va firmalar faoliyati tasdiqlaydi. Masalan, Apple, Microsoft, Macdonald kabi yirik korporatsiyalar bunga misol bo'lishi mumkin [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Innovatsion tafakkur, avvalo, ijtimoiy hayotga yangilik olib kirishga qaratilgan ilm-fan bilan bog'liq, ilmiy faoliyat turidir. Ilm-fan mohiyatan yangilik izlashga, ijtimoiy hayotni yangilikka muvofiq tashkil etishga, aql-u idrokni mudom yangilik izlashga da'vat etadigan hodisa hisoblanadi. Ilmiy izlanishlar hech qachon to'xtamagan, hatto inkvizitsiya, mutaassiblik va totalitarizm avj olgan davrlarda ham inson tafakkuri orom bilmagan, yangi-yangi narsalarni topishga intilishda davom etgan. Biroq ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichlari (masalan, "Sharq Renessansi" deb ataladigan IX-XIV asrlar, Yangi davr deb ataladigan XVI-XVII asrlar, Uyg'onish va Ma'rifatparvarlik davrlari)da tafakkurda, taniqli tarixchi L.N.Gumelev iborasi bilan aytganda, "passionarlik" (ya'ni jonlanish, kuchayish, zo'riqish) kuzatiladi. Jamiyatshunoslar ushbu davrlarni tafakkur, madaniyat, jamiyat taraqqiyotining alohida bosqichlari sifatida e'tirof etadilar. Bugun ilm-fan, ilmiy texnologik taraqqiyotning alohida bosqichi sifatida Yangi davr (XVI-XVII asrlar) e'tirof qilinadi [5]. Bu davrdan boshlab, inson intellektual izlanishlarga, ilmiy-texnik kashfiyotlar qilishga katta e'tibor bera boshladi. Ayniqsa, parovoz, tikuv mashinasi va yangi texnik vositalarning kashf

etilishi og'ir qo'l mehnatini yengillashtirish va samadorligini oshirish eng uzoq masofalarga ham tez, oson yetib borish imkoniyatini yaratdi. Har bir ilmiy yangilik inson aql-u tafakkurining mahsuli va yutug'i ediki, pirovard natijada jamiyat taraqqiyoti, sivilizatsiyaviy rivojlanish ilmiy yangiliklarga muvofiq baholanadigan bo'ldi. Bugun insoniyat erishgan va erishayotgan yutuqlarni ilmiy-texnik kashfiyotlar bilan baholash, o'lchash odatiy yondashuvga aylangan. Insoniyat, kishilik jamiyati dinamik xususiyatga ega, aynan ushbu xislatlari tufayli ular mudom yangilikka intiladi, yangi-yangi izlanishlarni qo'llab-quvvatlaydi. Rivojlanish, taraqqiyot, yangilik izlash ilmiy kashfiyotlar mahsuli demakdir.

Totalitar tuzumdan xalos bo'lgan mustaqil O'zbekiston uchun modernizatsiyalash jarayonlari 1991-yildayoq boshlangan. Ba'zi faylasuflar fikriga ko'ra, O'zbekistonda modernizatsiyalash 1990-yil iyunda qabul qilingan Mustaqillik Deklaratsiyasi bilan boshlanadi. Chunki "ushbu hujjat xalqimiz irodasi orzu-istaklarini ifoda etib, mamlakatni modernizatsiyalash hamda ijtimoiy taraqqiyotni yangi etnosiyosiy paradigmaga muvofiq ta'minlashni boshlab berdi". Modernizatsiya mohiyatan innovatsiya tomon yo'l, jamiyat hayotini, kishilar tafakkurini yangilash tomonga yo'naltirishdir. Bu jarayonlar inson kapitalini, tafakkurini rivojlantirish bilan bog'liq. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrda qabul qilingan "2019-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida mamlakatning xalqaro miqyosidagi raqobatdoshligi darajasini innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish bosh maqsad ekani qayd etilgan [6]. Mazkur hujjatda innovatsion rivojlantirish ta'lim sifati va uzluksiz ta'limni rivojlantirish, innovatsion ishlanma-larni qo'llab-quvvatlash, innovatsion tafakkurni targ'ib etishda ommaviy axborot vositalari roli katta ekani, shuningdek ularning keng imkoniyatlaridan, ijodiy kuchlaridan foydalanish davr talabi ekani uqtiriladi. Unda innovatsion rivojlanishni ta'minlash Ommaviy axborot vositalari (OAV), ilmiy doiralar vakillari va xorijiy ekspertlarni jalb etishga bog'liqligi ko'rsatiladi. Demak, innovatsion rivojlanish ilmiy-texnik ishlanmalarga qanchalik bog'liq bo'lmasin, ushbu ishlanmalarga qodir tafakkurni harakatga keltirish va uning ijodiy potentsialidan samarali foydalanish ham shunchalik muhimdir. OAV esa aynan shunday tafakkurni shakllantirishni o'zining bosh funksional xususiyati deb biladi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, "O'zbekiston xalqi o'zining ijtimoiy fikrini OAV orqali bildirishga va shakllantirishga odatlangan. Maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kishilar o'zlarini qiziqtirgan yoki o'zlari duch kelgan muammolar bilan maxsus idoralarga, organlar vakillariga emas, eng avvalo, OAVga murojaat etadilar". Demak, OAV jamiyat bilan, ijtimoiy fikrni shakllantirish bilan barqaror voqelik sifatida saqlanib qolmoqda. Aynan ushbu omil, aloqa OAVga innovatsion tafakkurni shakllantirishning eng ta'sirchan, samarali vosita sifatida qarashga undaydi.

**Natijalar va muhokama** "Innovatsion tafakkur" ijtimoiy ongdagi yangilikka bo'lgan intilishni ifodalovchi tushunchadir. U ijtimoiy ongni yangilik izlashga, yangilikni inson faoliyati va fikrlash tarziga aylantirishga qaratilgan subyektiv hodisadir. Barcha tafakkur, ong shakllari kabi innovatsion tafakkur ham olamni, yon-atrofnii va ulardagi yangiliklarni idrok etish hisoblanadi. In'ikos bilan bog'liq bu jarayon inson psixikasiga taalluqlidir. Uning negizida "axborotli in'ikos" yotadi.

Demak, innovatsion tafakkurga ham, subyektiv voqelik tarzida, oddiydan murakkab tomon borish jarayoni xos. Bu jarayon innovatsion tafakkurga tayyor qoidalar, sxemalar, xulosalar sifatida emas, balki oddiydan murakkab tomon boradigan murakkab subyektiv voqelik sifatida qarashni taqozo etadi.

Innovatsion tafakkur, ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga ko'ra, insonning fikrlashiga,

ratsional izlashiga oid subyektiv voqelik bo'lsa-da, u shunchaki fikrlash, ratsional izlash emas, balki mavjud hayot tarziga, usullar va yondashuvlarga ma'lum bir yangilik olib kirishga qaratilgani bilan farq qiladi. Bugungi ilmiy-texnik yangilanishlar, taraqqiyot innovatsion tafakkurga an'anaviy hayot tarzidan, mavjud usullar va yondashuvlardan farq qiluvchi yangilanish, ilmiy-texnologik izlanish, jarayon sifatida qarayotganini payqash qiyin emas. Mazkur yondashuv XX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Aslida esa ijtimoiy taraqqiyot innovatsion izlanishlar va faoliyat negizida ro'y bergan. Shuning uchun ijtimoiy taraqqiyot va innovatsiyaga bir-birini taqozo etadigan voqeliklar, biri-birini shart qilib qo'yadigan jarayonlar, deb qarash o'rinlidir. Bu esa tafakkur genezisini retrospektiv tahlil etishga, undagi innovatsion xususiyatlarni aniqlab olishga undaydi. Demak, ijtimoiy taraqqiyot o'zagini tafakkur va undagi innovatsiyaga moyil izlanishlar, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat tashkil etadi [8].

OAV o'zining ma'rifiy funksiyasiga muvofiq innovatsion ishlanmalar haqida xabarlar, ma'lumotlar, axborotlar tarqatadi. Ular har doim ham innovatsion tafakkurning yuqoridagi psixik, subyektiv jihatini nazarga olavermaydi. Bu jihatdan maxsus jurnallar va asarlarda yoritiladi. Ammo OAVdagi operativlik, ommaviylik va hozirjavoblik xabarlarini ta'sirchan, dolzarb qiladi. O'zimiz o'tkazgan savol-javoblar natijalaridan ma'lumki, ilmiy-texnik ishlanmalar va izlanishlar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning deyarli 62% asosiy g'oya, fikr va muammolarini ilmiy adabiyotlar, gazeta va jurnallar, informatsion mohiyatiga ega uchrashuv, fikr almashuv va byulletenlardan oladi. Ularning fikricha, OAVdagi ijtimoiy fikrlar, taklif va tavsiyalar innovatsion izlanishlarga yo'nalish beradi, u yoki bu sohaga yangilik olib kirishga yetaklaydi. Respondentlarning 38 % mutaxassislar, olimlar chiqishini uyushtiradigan maxsus jurnallar va konferensiyalar, mazkur konferensiyalar to'plamlari, informatsion byulletenlari bugun ilmiy-texnik ishlanmalarga yo'nalish bermoqda, mutaxassislarning diqqatini innovatsion izlanishlarga qaratmoqda. Qiziqarli jihati shundaki, innovatsion izlanishlarga g'oyaviy, ilmiy va ma'naviy jihatdan tayyor mutaxassislarning 71% ini o'ttiz beshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Bu hol ko'rsatadiki, yoshlar, yangilikka qalbi, o'yi va fikri moyil yoshlar innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini bildiradi. Mazkur yoshlarning aksariyati, ya'ni 86% i maxsus ilmiy-texnik ma'lumotga ega, ba'zilar esa ilmiy-texnik ixtiroolari uchun patent ham olishgan. "Xalq so'zi" gazetasida, 2019-yil mobaynida ana shunday izlanishlar haqida 28 ta, "Turkiston" gazetasida 81 ta, "Ma'rifat" gazetasida 64 ta, "Ishonch" gazetasida esa 48 ta maqola chop etilgan. "Tafakkur" jurnalida innovatsion ishlanmalarga oid 2018-2019 -yillar mobaynida 6 ta, "Sharq yulduzi" jurnalida 2 ta, "San'at" jurnalida 2 ta maqola berilgan. To'g'ri, ba'zi maqolalarda innovatsiya va innovatsion izlanishlar haqida ma'lumotlar sarlavhada emas, balki matn ichida keladi. Shu nuqtayi nazardan ularning innovatsion tafakkurni shakllantirishga oid fikrlari ochiqdan ochiq emas, balki boshqa mavzular va muammolar yechimida bildiriladi. Lekin savol-javobimizda qatnashgan respondentlarning 79% innovatsion tafakkurni shakllantirishda zamonaviy axborot vositalari, ayniqsa, internet, maxsus saytlar, blogerlar yetakchi o'rinda turadi. Internetdagi "G'aroyib dunyo" sayti jahondagi innovatsion ishlanmalar, goho odatiy hollarni ixtiroga aylantirgan yangiliklarni e'lon qilishi bilan ilmiy-texnik ijodga qiziqish uyg'otib keladi.

Bugungi kunda bevosita innovatsiya masalalariga oid maqolalarning ko'pchiligi "Ilm-fan va innovatsion rivojlanish" (7 va 12) "Fan va turmush" (4 va 8) va "XXI asr texnologiyalari" (2 va 8) jurnallarida berilgan. "Ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish" va "XXI asr texnologiyalari" jurnallarida tarmoq vazifalarini targ'ib etishga yo'naltirilgan. Shuning uchun ham ularda muammoga oid maqolalar o'z aksini topishi shart edi. Bu vazifaning bajarilishi muammoga bilvosita taalluqli maqolalar sonida, ayniqsa, yorqin

ko'zga tashlanadi.

**Xulosa va takliflar** Innovatsion tafakkur yangi-yangi axborotlarga, ilmiy-texnik ishlanmalarni yoyuvchi OAVga ehtiyoj uyg'otadi. Uning yangilik izlanishga o'chligi insonni mudom yangilik topishga undab turadi. Hatto OAVdagi arziyas xabar yoki maqola ham yirik, innovatsion kashfiyotlarga yetaklashi mumkin.

Innovatsion tafakkurni ommaviy voqelikka, ijtimoiy taraqqiyotning zarur vositasiga aylantirish ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi mexanizmlardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalari, mediamakon va innovatsion izlanishlarni qo'llab-quvvatlovchi ilmiy-texnik markazlar ana shunday mexanizmlar qatoriga kiradi. Agar innovatsion tafakkur va innovatsion izlanishlar ijodiy faoliyat bo'lsa, OAV va mediamarkazlar ushbu jarayonlarni targ'ib etadi va ularga jamiyat, keng jamoatchilik va davlatning diqqatini jalb etadi. Kommunikatsiya vositalari innovator bilan jamoatchilik, davlat o'rtasidagi aloqalarni, munosabatlarni uyushtiruvchi vosita rolini bajaradi, shu tariqa har bir ilmiy-texnik kashfiyotning kerakli darajada ommalashishini ta'minlash zarur.

Xullas, OAVning innovatsion rivojlantirishdagi o'rni kishilar ongida, tafakkurida yangilanishga ehtiyoj uyg'otish, ilmiy-texnik kashfiyotlarga jamiyat taraqqiyotining samarali vositasi sifatida qarashni shakllantiradi. Aynan shu joyda OAVning hozirjavoblik, ommaviylik, ma'rifiy funksiyalari bilan innovatsiyaning yangilikka o'chligi o'rtasida dialektik bog'liqlik mavjud. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq global taraqqiyot mamlakatimizni jahon bozoriga chiqishga, ilg'or davlatlar qatoridan joy olishga, zamonaviy ilmiy-texnik kashfiyotlar va texnologiyalardan keng foydalanishga undamoqda.

Shunday ekan, ushbu global da'vatga biz o'z imkoniyatlarimiz, ilmiy salohiyatimiz va intellektual kuchimiz bilan javob berishimiz, inson kapitalidan samarali foydalangan holda mamlakatimizni yangi bosqichga olib chiqishimiz zarur. Mamlakatimizda ro'y berayotgan innovatsion o'zgarishlar shunchalik mahobatli va tezki, goho biz ularni ilg'ash va baholashga ham ulgurolmayapmiz. Bu o'rinda OAV va mediamarkazlar tarqatayotgan axborotlarga tayanishimiz obyektiv hol va zaruriyatdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 121.
2. Лосев А.Ф. Мифология Культура Философия.– Москва: Республика, 1999. – С. 238.
3. Ерканиев А. Ма'naviyat va taraqqiyot modeli. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. – B. 6.
4. Боритко Н.М. Методология и методы психолого-педагогических исследований. – Москва: Академия, 2008. – С.46-47.; Иванова Е.О. Теория обучения в информационном обществе. – Москва: Просвещение, 2011. – С.131-134.; Саифназаров И., Никитченко В. Методология научного исследования. – Тошкент: Фан, 1997
5. Кокурин Д.И. Инновационная деятельность. –Москва: Экзамен, 2001. Умаров А.А. Инновационная деятельность научных учреждений в условиях модернизации экономики.– Тошкент: Фан ва технологиялар, 2016. – С 43
6. Ilm – fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020-yil 29-oktyabr // Xalq so'zi.–2020. 30-okt.
7. Schnaars S.P. Maanaging Innovation Strategies. – N.Y., Free Press, 1994; Berry L.L., Parasuraman A. Marketing Servieces. Competing Through Guality. –N.Y., Free Press, 1991.
8. Гекторн К. Тайные общества всех времен и всех народов. – Тошкент: Шарк, 1998. Rogers M.E. Diffusion of Innovations. – N.Y., Free Press, 1983.; Richard J.F. Innovation. – N.Y., Summit Books, 1986.; Cleiton M.K. Dilemmaof Innovator. – N.Y., 2008. –C.50-60.

## IJTIMOY-SIYOSIY MODERNIZATSIYA JARAYONINING DETERMINANTLARI

**Dilbar Shuxratovna Sagdullayeva**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

[sagdullaevadilbar14@gmail.com](mailto:sagdullaevadilbar14@gmail.com)

ORCID: 0000-0003-0847-9901

UDK: 141.2

**Annotatsiya:** Bugun mamlakatimizda jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish masalasi strategik vazifa bulib turibdi. So‘nggi yillarda jamiyatni siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya qilish, ma’naviy jihatdan tiklash va yuksaltirish, mavjud qonunlarni, davlat boshqaruvi, iqtisodiy tizimni qayta ko‘rib chiqish, bu borada ta’sirchan va samarali mexanizmlarni yaratish, demokratik tamoyil va me’yorlarni hayotga tatbiq etish bo‘yicha misli ko‘rilmagan keng ko‘lamli yangilanish va tub islohotlarga guvoh bo‘layapmiz. Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, qonun ustuvorligini ta’minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilgan hozirgi sharoitda qonun va adolat ustuvorligini ta’minlash – hayotiy zaruriyatdir. Fuqaro qonun hujjatlarida mustahkamlangan huquq, erkinliklarini anglab, ishlata olsagina, sud-huquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirish yulida amalga oshirilayotgan islohotlar samara beradi. Bu esa fuqarolar huquqiy ongi va madaniyatini yanada takomillashtirib borish masalasini dolzarblashtirmoqda. Ushbu maqolada huquqiy ong va madaniyat, uning demokratik, huquqiy, ijtimoiy davlat barpo etishdagi rolini o‘rganishni maqsad qildik. Unda huquqiy ong, huquqiy madaniyatning tarkibiy tuzilishi, mohiyati falsafiy tahlil etilib, ular elementlarining o‘zaro uzviy aloqasi asoslandi.

Ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo‘lgan huquqiy ong jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy turmush darajasiga aks ta’sir ko‘rsatib, odamlarni ma’lum tarzda o‘zlarini idora qilishga, qabul qilingan qonun va qoidalar doirasida faoliyat ko‘rsatishga undaydi. Shunday ekan, huquqiy madaniyatning samaradorligi, fuqaroda qonun doirasidagi xulq-atvorning shakllantirilishi uchun faqat huquqiy ongning o‘zi emas, balki huquqiy va axloqiy ongning uyg‘unligiga erishish lozimligiga urg‘u berildi.

Maqolada faylasuf olimlarning huquqiy madaniyatga doir qarashlari qiyosiy tahlil etilishi bilan birga muallifning ushbu masalaga doir chiqargan xulosalari hamda takliflari o‘rin olgan.

**Kalit so‘zlar:** modernizatsiya, demokratiya, liberallashtirish, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ijtimoiy ong shakllari, ma’naviyat, iqtisodiyot, madaniyat.

## DETERMINANTS OF THE SOCIO-POLITICAL MODERNIZATION PROCESS

**Abstract:** Today in our country, the issue of creating a new image of our society is a strategic task. In recent years, the political-legal and socio-economic modernization of the society, moral restoration and improvement, revision of existing laws, state administration, economic system, creation of effective and efficient mechanisms in this regard, democratic principle and we are witnessing an unprecedented wide-scale renewal and radical reform of the implementation of norms. In the present conditions, when the principles of democracy and the rule of law in our society have reached a new level in terms of quality, ensuring the rule of law and justice is a vital necessity. Reforms implemented in the direction of democratization and liberalization of the judicial system

will be effective only if the citizen can understand and use the rights and freedoms established in the legal documents. This makes the issue of improving the legal consciousness and culture of citizens more urgent. In this article, we aim to study legal consciousness and culture, its role in the establishment of a democratic, legal and social state. In it, the structural structure and essence of legal consciousness, legal culture were philosophically analyzed, and the interrelationship of their elements was justified.

Legal consciousness, which is a component of social consciousness, affects the development of society, the level of social life, encourages people to manage themselves in a certain way, to work within the framework of accepted laws and regulations. Therefore, for the effectiveness of legal culture and the formation of the behavior of the citizen within the framework of the law, it was emphasized that it is necessary to achieve the harmony of legal and moral consciousness, not only legal consciousness itself.

The article contains a comparative analysis of philosophers' views on legal culture, as well as the author's conclusions and suggestions on this issue.

**Key words:** modernization, democracy, liberalization, legal state, civil society, legal consciousness, legal culture, forms of social consciousness, spirituality, economy, culture.

**Kirish.** (O'zbekistonda demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishning hozirgi bosqichida fuqarolarning huquqiy madaniyatiga bo'lgan talab va ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Huquqiy madaniyat shaxsning siyosiy faolligi, demokratik islohotlarga intiluvchanligi, chinakam fuqaroviy munosabati, demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ko'rsatkichidir, jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. «Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!» [1].

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va erkinlashtirish, siyosiy-huquqiy va iqtisodiy tizimni demokratik yangilash vazifasi kishilarning dunyoqarashi, ongu tafakkuri, siyosiy-huquqiy saviyasi, madaniyatini va ijtimoiy faolligini yuksaltirishni, huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy savodxonligini yanada oshirish, huquqiy madaniyatini takomillashtirishni talab etmoqda.

Demokratik islohotlarning insonparvarlik xarakteri birinchi navbatda, kishilar haq-huquqlarini ta'minlash va amalda ro'yobga chiqarish uchun kerakli bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish bilan o'lchanadi. Huquqiy madaniyat va savodxonlik millat yetukligi, inson barkamolligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Fuqarolar qabul qilingan qonunlar, mavjud huquqiy mezonlarni bilmasdan turib, ma'naviy-axloqiy yetuklikka erisha olmaydilar. Zero, fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadi – millati, dini, irqi va jinsi, e'tiqodi va qarashlaridan qat'iy nazar, shu davlatda yashayotgan har qaysi insonning huquq va erkinliklarini himoyalash va hayotda ularning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratib berishdan iboratdir. Shuning uchun ham, bugungi kunda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yanada takomillashtirish mexanizmlarining falsafiy-huquqiy asoslarini tadqiq etish muhim.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichi xalqimiz hayotining barcha sohalarini qatori fuqarolarimizning ongi va dunyoqarashida ham jiddiy o'zgarishlar bo'lishini taqozo etayotgan ekan, ushbu maqolada jamiyatning barcha sohalarini modernizatsiyalashda muhim omil bo'lgan huquqiy ong va madaniyat mohiyatini tahlil etishni maqsad qildik. Faylasuf olimlarning huquqiy ong va madaniyatni takomillashtirish masalasiga doir qarashlari falsafiy tafakkurning qiyoslash,



umumlashtirish, tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi ilmiy usullariga tayangan holda tahlil etildi.'

**Natijalar va muhokama.** Ma'lumki, har bir jamiyatda amal qiluvchi ijtimoiy ong shakllarida millatning ruhiy, ma'naviy qiyofasi in'ikos etadi. Ijtimoiy ongning shakllari jamiyat a'zolarining tafakkuri, ruhiyati, ma'naviy dunyosi asta-sekinlik bilan o'zgarib borishiga olib keladi. Huquqiy ong jamiyatda demokratik tamoyillarning qaror topishi, ularning ijtimoiy munosabatlarga singib borishida katta kuchga egadir. O'z navbatida, jamiyat huquqiy ongining takomillashuvi yuksak huquqiy ong subyekti bo'lgan, demokratik taraqqiyotga monand yangi tipdagi insonning shakllanishi bilan uyg'unlikda kechadi.

Huquqiy ong inson ma'naviyatining asosiy bo'g'inlaridan biridir. Shu sababli inson ma'naviyatining mohiyati va darajasini huquqiy ongsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jamiyat rivojlangan sari huquqiy ong, huquqiy madaniyat bilan bog'lanib, ma'naviy qadriyatlar tizimida tobora muhimroq o'rin egallab boraveradi.

Ushbu masalani tadqiq etgan olimlarning bir guruhi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, huquqiy ong shaxs ongida, jamiyat g'oyalarida namoyon bo'lgan huquqdir. Huquqiy ong huquq va qonuniylikka munosabatdagi e'tiqodlar, tasavvurlar, baholar, his-tuyg'ular va ma'naviyatning boshqa tarkibiy qismlari tizimidir.

S.Otamurodov fikricha, huquqiy madaniyat – qonunni tushunish, bilish, hayotga tadbiiq etish, ijrosini ta'minlash va har bir shaxs, fuqaroning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki va bunday faollikni boshqalardan ham talab qilish jarayonidir. Huquqiy madaniyatni, avvalo, insonning ichki dunyosi, ichki madaniyati, umuminsoniy an'analarga va huquqiy bilimlarga bo'lgan munosabatlari belgilaydi [3].

Ushbu nuqtayi nazarda, eng avvalo, huquqiy madaniyat inson, uning ichki dunyosi, dunyoqarashidan kelib chiquvchi va uni belgilovchi faoliyatisiz, bunday faoliyat va tafakkurning taraqqiyparvar yo'nalishisiz mavjud bo'la olmasligiga urg'u beriladi. Zero, haqiqiy huquqiy madaniyat tarixiy ijobiy huquqiy tajribani e'tiborga olmasdan mavjud bo'la olmaydi.

Yuqorida ko'rilgan nuqtayi nazarning birida huquqiy ongning darajasi jamiyatning iqtisodiy ahvoliga taqalsa, ikkinchisida huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni insonning ichki dunyosi belgilashiga urg'u beriladi. Bizningcha, huquqiy ong va huquqiy madaniyat subyekti bo'lgan inson (fuqaro) iqtisodiy munosabatlar ta'siriga berilmay qolmasligidan kelib chiqib, bu ikki ijtimoiy fenomenning mohiyatini faqat inson ma'naviyatiga olib borib taqash mumkin emas.

Uchinchi nuqtayi nazarga ko'ra, huquqiy taraqqiyotni madaniy borliqning birgina elementi – xo'jalik madaniyatidan qidirish iqtisodiy materializmga, yoki uni faqat ma'naviyatga bog'lab qo'yish subyektivizmga olib kelishi ta'kidlanib, jamiyatning rivojlanish (xususan, huquqiy kamolot) mezoni sifatida madaniy borliqning sifat darajasi ko'rsatiladi [4].

S.Abduxoliqov fikricha, madaniy borliq yuzaga kelishi va amal qilishining asosiy funksiyasi anglangan ehtiyojlarni qondirib borishidir. Ehtiyoj va o'zlashtirish o'rtasidagi muvofiqlikning buzilishi, ya'ni o'zlashtirishning ehtiyojlarni qondira olmay qolishi yoki yangi-yangi ehtiyojlarning yuzaga kelishi madaniy borliqning o'zgarib, rivojlanib borishiga olib keladi. Madaniy borliq ko'lamining kengayib va rivojlanib borishi jamiyatning taraqqiyotiga – ijtimoiy, jumladan, huquqiy rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bunda madaniy borliqning u yoki bu qismlarining bir-biriga nisbatan ilgarilab ketishi yoki orqada qolishi yoxud parallel rivojlanishi tabiiy.

Uchinchi nuqtayi nazar huquqiy madaniyatni madaniy borliqning tarkibiy

qismlaridan biri sifatida baholaydi. “Huquqiy madaniyat huquqiy hayotning ishlov berib yaratilgan qismi, yadrosi, mavjudligi, rivojlanish va amal qilishining asosi. Huquqiy madaniyatning substansional elementlari: 1) inson va uning mikro va makro birliklarining huquqiy mavjudot – subyekt sifatida namoyon bo‘lishlari; 2) anglangan huquqiy ehtiyoj va manfaat; 3) huquqiy ong va bilish; 4) huquqiy faoliyatning birinchi bosqichi – huquq ijodkorligi; 5) huquqiy faoliyat natijalari - rasmiy manbasi va vositalari; 6) huquqni realizatsiya qilish (huquqiy faoliyatning ikkinchi bosqichi). Bu elementlarning yuzaga kelishiga ongli, maqsadli harakat xosdir, shuning uchun ham ular huquqiy madaniyatning tub mohiyatini tashkil etuvchi tomonlardir” [5].

Ushbu yondashuvda ilgari surilayotgan fikrga ko‘ra, huquqiy ong, bilish, baholash huquqiy borliq, jumladan, huquqiy madaniyatning gnoseologik asoslari va tizimni tashkil etuvchi substansional elementlaridir. Ushbu elementlar huquqiy borliq yuzaga kelishining motivi va yashash usuli o‘rtasidagi bog‘lovchi xalqa rolini o‘taydi. Bunga ko‘ra huquqiy ong madaniy hodisa bo‘lib, huquqiy hayotga ishlov berish jarayonining gnoseologik asosidir. Huquqiy ongning manbasi huquqiy ehtiyoj bo‘lib, uning o‘zi navbatdagi fikrlash jarayoni uchun manba vazifasini bajaradi.

To‘rtinchi nuqtayi-nazarga ko‘ra, huquqiy madaniyat ikki tarkibiy qism – huquqiy ong va huquqiy ijtimoiylashuvdan iboratdir [6]. Huquqiy madaniyatga nisbatan ushbu yondashuvni quyidagi nuqtayi nazar bilan asoslash mumkin. Ma’lumki, huquqiy ong asosini tashkil etuvchi huquqiy bilimlar insonga ijobat va ta’qiqlarni farqlash, o‘z qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qila olish imkoniyatini beradi. Biroq bu sohada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qonunga xilof faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar, jinoyatchilarning huquqiy savodxonlik darajasi, qonun doirasida faoliyat yurituvchi fuqarolar huquqiy bilimlaridan yuqoridir. Shundan kelib chiqib, shaxsning o‘z huquqiy ehtiyojlariga erishishda huquqiy madaniyat me’yorlari va an’analarini o‘zlashtirib, faoliyat yuritishi huquqiy madaniyatning asosini tashkil etadi. Bu yondashuvning mohiyati oldingi nuqtayi nazarlardan keskin farq qilmaydi.

Rossiyalik olimlar asarlarida huquqiy ong “ijtimoiy ong shakllaridan biri” yoki “huquqiy voqelikni aks ettiruvchi ma’naviy ong sohasi” sifatida talqin etiladi [7]. Huquqiy madaniyat esa xilma-xil omillar asosida o‘rganiladi. Mavjud manbalarni o‘rganish asosida aytishimiz mumkin-ki, huquqiy madaniyat kategoriyasining mohiyatiga doir haligacha aniq, yakdil yondashuv mavjud emas. Mutaxassislarining ko‘rsatishicha, huquqiy madaniyatga 250 dan ortiq ta’riflar berilgan. Bu esa ushbu ijtimoiy hodisaning qanchalik murakkab, serqirra ekanligidan dalolat beradi.

Ma’lumki, fuqaro tomonidan mavjud huquqiy talablarning anglab bajarilishi uning huquqiy madaniyatlilik darajasini namoyon qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mavjud yondashuvlarning biriga ko‘ra, “anglab yetilgan huquq – huquqiy madaniyatning asosi bo‘lib xizmat qiladi” [8]. A.Vengerov fikricha, huquqiy madaniyat “huquqiy ongning nisbatan yuksak va keng ko‘lamli shakli” [9] dir. Ushbu ikkita ta’rif o‘zaro yaqin bo‘lib, ularda huquqiy ongning yuqori darajasi huquqiy madaniyatning asosi sifatida e’tirof etiladi. Huquqiy madaniyat faqat ideal sohaga taalluqli deb ko‘rsatilib, bunda ijtimoiy huquqiy faoliyat va uning natijalari inobatga olinmaydi.

T.Sinyukova fikricha, huquqiy madaniyat inson amaliy faoliyatining “muayyan jamiyatda odamlarni ijtimoiy-huquqiy yo‘naltirish funksiyasini bajaruvchi me’yorlar, qadriyatlar, yuridik institutlar, jarayonlar va shakllarni o‘z ichiga oluvchi” [10] sohasidir.

R.Rusinov huquqiy madaniyatni tahlil etganda, unga ta’sir etuvchi omillar va uning elementlarini sanab o‘tgan. Huquqiy madaniyat “jamiyat huquqiy hayotining ma’naviy, siyosiy va iqtisodiy tuzum bilan belgilanuvchi, huquqiy faoliyat, yuridik hujjatlar va umuman, huquqiy ongning erishilgan rivojlanish darajasi, subyektning rivojlanish

darajasida o'z aksini topgan sifat holatidir" [11]. Ammo bu yondashuvni ham mukammal deb bo'lmaydi.

V.Salnikov esa huquqiy madaniyatni "shaxsning ham, jamiyatning ham muayyan asoslarga ko'ra tizimlashtirish lozim bo'lgan alohida huquqiy holati deb idrok etish mumkin" [12], - deydi. Bu yondashuvda shaxsning ham, jamiyatning ham huquqiy madaniyatiga umuminsoniy qadriyatlarining kategoriyalaridan biri, taraqqiyparvar insoniyat qo'liga kiritgan umumdemokratik yutuqlarning muhim natijasi sifatida baho beriladi.

**Xulosa.** Demak, o'rganilgan asarlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ularda huquqiy madaniyat huquqiy voqelikka daxldor ham ma'naviy, ham moddiy qadriyatlarni qamrab oluvchi umumiy madaniyatning o'ziga xos ko'rinishi sifatida talqin etilgan. Huquqiy madaniyat huquqning amal qilishi, uning inson tafakkuri va xatti-harakatida aks etishini ifodalashiga urg'u berilgan. Huquqiy madaniyat o'z vazifalarini to'liq bajarishi, fuqaroda qonun doirasidagi xulq-atvorning shakllantirilishi uchun faqat huquqiy ongning o'zi emas, balki huquqiy va axloqiy ongning uyg'unligiga erishish lozim. Zero, yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir.

Bizningcha, huquqiy madaniyat jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy davlatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Bizningcha, keng va faol huquqiy ong huquqiy madaniyatning bir qismi bo'lib, davlat va huquqiy voqealar haqidagi g'oyalar, qarashlar, his-tuyg'ular, fikrlar, kayfiyatlar tizimidir. Huquqiy ongda huquqiy ruhiyat va huquqiy mafkura muhim o'rin tutadi.

Huquqiy madaniyatning o'zagini shunchaki muayyan bilimlar yig'indisigina emas, balki irodaviy va mafkuraviy dastur, fuqarolik faoliyati ko'nikmalari, xulq-atvorning barqaror ko'rinishlari ham tashkil etadi. Z.Islomov fikriga ko'ra, huquqiy madaniyat shaxs kamolotida o'ziga xos sifat bosqichini namoyon etib, mafkuraviy (tafakkur madaniyati, ijtimoiy tajribani tahlil qilish va umumlashtirish, yangi ijtimoiy hodisalarni ijodiy mushohada etish), hissiy-ruhiy (bilimning chinligiga ishonch), amaliy xulq-atvor (siyosiy va huquqiy yechimlarni realizatsiya qilishga qodirlik va tayyorlik) kabi darajalarni qamrab oladi. Huquqiy madaniyatning o'zagini, ijtimoiylashuv va fuqaroviy madaniyatning shakllanishi tashkil etadi [13].

Fuqaroviy madaniyat fuqarolik jamiyatining muhim unsurlaridan biridir. Fuqarolik jamiyatining negizini tashkil etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va madaniy plyuralizm shaxs va fuqaro huquqlari hamda erkinliklari asosida o'rnatiladi. Demak, siyosiy va huquqiy madaniyat fuqaroviy madaniyatning negizini tashkil etib, u esa, o'z navbatida, yuqori darajadagi ma'naviy barkamollikning ifodasi bo'lib hisoblanadi.

Huquqiy ong huquqiy ruhiyat va huquqiy mafkuradan iborat bo'lgan murakkab tuzilmadir. Huquqiy xarakterdagi ruhiy his-tuyg'ularda insonning huquq tajribasi bilan bog'langan subyektiv kechinmalari o'z ifodasini topadi. Demak, huquqiy ong deformatsiyalari yoshlikdan berilgan tarbiyaning darajasi, fuqaroning huquqqa, amaldagi qonunchilikka munosabatidan kelib chiqadi.

Individual hamda ijtimoiy omillarning o'zaro ta'sirida yuzaga keluvchi huquqiy ong deformatsiyalarining oldini olishda jazolash choralarning kuchaytirilishi ham, huquqiy bilimlarning ko'r-ko'rona singdirilishi ham befoйда. Bu jarayonda hamma narsa yana tarbiyaga borib taqaladi. Zero, axloqsizlik, badxulqlilik o'z vaqtida ta'sir ko'rsatilmasa, nigilizmga, uning yuqori ko'rinishlarishga o'tadi. Har qanday bilim asosida qadriyatlarga

asoslangan tamoyillar, axloq yotsagina, u muayyan qimmatga ega bo'ladi.

O'zbekiston bugungi kunda insonparvar demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etmoqda. Jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida olamshumul ishlar amalga oshirilmoqda. Inson huquq va manfaatlar ustuvorligi barcha islohotlarning mohiyatini tashkil etadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiyaning, huquqiy targ'ibotning muayyan usul va vositalarini keng joriy etish, huquqiy madaniyatni takomillashtirish asosida huquqiy ong deformatsiyalari o'sib borishini kamaytirish davr talabidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lgan huquqiy ong jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy turmush darajasiga aks ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy g'oyalar, tasavvurlar, nazariyalar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib borib, fuqarolar ongida o'rin olib, ularning xulq-atvoriga, amaliy faoliyatiga mafkuraviy ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy ong odamlarni ma'lum tarzda o'zlarini idora qilishga, qabul qilingan qonun va qoidalar doirasida faoliyat ko'rsatishga undaydi. Kishilarning huquqiy ongi va bilimining darajasini ularning ijtimoiy-huquqiy faolligiga qarab aniqlash mumkin.

"Jamiyat hayotini modernizatsiyalash jarayonlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan fuqarolar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining takomillashuviga bog'liq. Chunki yuqori darajadagi huquqiy savodxonlikka, huquqiy madaniyatga ega bo'lgan fuqarogina iqtisodiy erkin, demokratik hamda ma'naviy o'zgarishlarning ishonchli tayanchi bo'la olishi mumkin. Shuning uchun ham, bugungi kunda har bir fuqaroda huquqiy madaniyat, huquqiy ong, bilimni davr zaruriyatidan kelib chiqib takomillashtirish masalasi katta ahamiyat kasb etmoqda.

Demak, huquqiy ong, eng avvalo, odamlarning qonunga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi qarashlari va e'tiqodlaridan, ularning huquq haqidagi tasavvurlaridan, intilishlari va tuyg'ularidan iboratdir. Huquqiy ongi, bilimi, madaniyati o'sgan xalq va millat o'zini o'zi anglab, kuchiga ishonib, bor imkoniyatlaridan ijobiy holda foydalanib kelajagi buyuk davlatni barpo eta oladi. Huquqiy ong, huquqiy bilim barcha fuqarolarni nafaqat bugungi kunning muammolarini hal qilishga, balki kelajakni o'ylab ish tutishga da'vat etadi" [14].

Demak, huquqni inson hayot faoliyatini tashkillashtirishning zaruriy bo'g'iniga aylantirish, inson huquqlari ruhida ta'lim-tarbiya berishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratish, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli keng ko'lamlı chora-tadbirlar dasturlarida ko'zlangan maqsadlarni amalga oshirish dolzarbdır. "Adolat – qonun ustuvorligida" shiorini amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni zamon bilan hamnafas ravishda olib borish, o'z navbatida fuqarolar huquqiy madaniyati takomillashib borishiga ko'maklashadi.

**Taklif va tavsiyalar.** Demokratlashuv jarayonlari aholi, ayniqsa, yoshlar huquqiy madaniyatini takomillashtirishni, huquqiy ta'lim-tarbiyani kuchaytirishni taqozo etmoqda. Ushbu yo'nalishda quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

-huquqiy ong buzilishlarining oldini olish, yoshlar huquqiy madaniyatini takomillashtirish borasida davlat tuzilmalari va jamoat birlashmalarining keng hamkorligini ta'minlash;

-huquqiy tarbiyani ta'lim-tarbiya muassasalari tomonidagina emas, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat tashkilotlari va korxonalarining, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmatlari xodimlari ishtirokida amalga oshirish;

-yoshlar huquqiy madaniyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi adabiyotlarni tayyorlash va nashr ettirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

-ta'lim-tarbiya muassasalariga daxldor bo'lmagan shaxslarning (ishchilar, xizmatchilar, uy bekalari, pensionerlar, harbiy xizmatchilar va boshqalarning) huquqiy

madaniyatini yuksalti-rishga qaratilgan huquqiy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish. Ushbu faoliyatga davlat yuridik o'quv yurtlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ilmiy-tadqiqot institutlari huquq-shunos olimlarini jalb etish;

-huquqiy targ'ibot ishlarida, siyosiy partiyalar, NNT, jamoat birlashmalari, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarning ta'sirini oshirish;

-mansabdor shaxslarning huquqiy bilimi va huquqiy madaniyati darajasiga nisbatan alo-hida talablar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ular qonunlarni qat'iy ijro etishga, huquqning so'zsiz amal qilishini ta'minlash, huquqiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga mas'uldir;

-jamiyat hayotini demokratlashitirish sharoitida aholi huquqiy ongi darajasini, huquqiy madaniyati takomillashuvi dinamikasini kuzatish sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish orqali jamiyatga aks ta'sir ko'rsatishning ahamiyati ortib bormoqda. OAV huquqiy mavzularga e'tiborini kuchaytirish, aholi o'rtasida ko'proq ko'tarilayotgan yuridik masalalarni davriy nashr-lar sahifalarida televideniye va radioeshittirishda tushuntirib borish borasidagi ishlar samara-dorligini oshirish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi. PF-5618-son /QHMMB: 06/19/5618/2452-son 10.01.2019 y.
2. Otamurodov S., Ramatov J., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent, 2000. 199-bet.
3. Qarang: Abduxolliqov S. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligi huquqining metodologik muammolari. Fals.fan.dok. ... diss. Avtoreferati. – Toshkent, 2002. 25-bet.
4. Abduxolliqov S. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligi huquqining metodologik muammolari. Fals.fan.dok. diss. Avtoreferati. - Toshkent, 2002. - 26-bet.
5. Adilova D. Некоторые философские вопросы правовой культуры // Ijtimoiy falsafaning dolzarb muammolari (2-kitob). - Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2009. 44-45-betlar.
6. Qarang: Лазарев В.В., Липен С.В. Правовое сознание // Теория государства и права.- М.:Спарк, 2000; Гранат Л.Н. Правосознание и правовая культура // Юрист. –Москва, 1998. – № 11/12.
7. Право и демократия. - Минск: БелГУ, 1995. – С.19.
8. Венгеров А.Б. Правосознание и правовая культура // Теория государства и права. – М.: Юриспруденция, 1999. – С.492.
9. Синюкова Т.В. Правовая культура // Теория государства и права. – Саратов, 1995. – С.473.
10. Русинов Р.К. Правовая культура // Теория государства и права. – М., 1997. –С.150-151.
11. Салников В.П. Правовая культура // Актуальные проблемы теории права. – Уфа, 1995. – С.150.
12. Qarang: Исламов З. Общество. Государство. Право. – Ташкент: Адолат, 2001. – С.421-422.
13. Jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi. PF-5618. QHMMB: 06/19/5618/2452- son 10.01.2019 y.
14. Sagdullayeva D. Huquqiy madaniyat – demokratik taraqqiyot omili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. 46-47 betlar.

## GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MA'NAVIYATIGA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING TA'SIRI

**Boyqobilova Rohat**

Xalqaro innovatsion universitet dotsenti

**Egamberdiyev Javlonbek**

Xalqaro innovatsion universitet o'qituvchisi

[javlonbekegamberdiyev1994@gmail.com](mailto:javlonbekegamberdiyev1994@gmail.com)

ORCID: 0009-0002-7346-4853

UDK: 130.3

**Annotatsiya:** Maqolada globallashuv jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning turlarining inson ma'naviyatiga ta'siri haqida fikr yuritilgan. Milliy an'analar va urf-odatlar bilan uyg'unlashib borayotgan umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishimiz bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Istiqlof tufayli odamlar ongi, dunyoqarashida yangilanish boshlandi. Tarixiy milliy qadriyatlar, urf-odatlarining tiklanishi xalqning milliy ruhiga kuchli ta'sir etdi. Ona tilimiz va dinimizga bo'lgan yangicha munosabat, vatanga va istiqlof g'oyalariga sadoqat milliy g'urur, iftixor tuyg'ularining o'sishida katta rol o'ynaydi. Vatan tushunchasi, vatanparvarlik tuyg'usi yangicha ma'no kasb etdi. Milliy an'analar, bayramlar, Ro'za va Qurbon hayitlari xalqimiz qadri, izzat-hurmati, g'ururining oshishiga olib keldi. Ozodlik, erkinlik, hurfikrlilik, diniy bag'rikenglik ham umuminsoniy qadriyatlardir. Barkamol insonni tarbiyalash va ularning ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unlashishi, ularning bugungi jahon sivilizatsiyasiga, ayniqsa, xalqaro demokratiya talablariga mos tushishi yangi mazmun, yangi ma'no kasb etmoqda. Mazkur maqolada milliy qadriyatlarimiz bilan yangidan tanishuv, ularni tiklash va boyitish har birimizda milliy o'zligimizni, tarixiy merosimizga e'tiqod va faxrlanish tuyg'ularini mustahkamlovchi omil ekanligi ilmiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, ma'naviyat, vatan, xalq, yoshlar, mustaqilik, demokratiya, qadriyat, milliy qadriyatlar va umumbashariy qadriyatlar.

### THE INFLUENCE OF NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES ON THE SPIRITUALITY OF YOUTH IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

**Abstract:** The article discusses the influence of national and universal values and their types on human spirituality in the process of globalization. It is one of the main tasks of today to inculcate in the minds of young people the universal values that harmonize with national traditions and customs. Thanks to independence, people's consciousness and worldview began to be renewed. The revival of historical national values and traditions had a strong impact on the national spirit of the people. A new attitude towards our mother tongue and religion, loyalty to the homeland and the ideas of independence play a major role in the growth of national pride. The concept of homeland, the feeling of patriotism acquired a new meaning. National traditions, holidays, Lent and Eid al-Adha have increased the value, honor and pride of our people. Freedom, religious tolerance are also universal human values. Educating a perfect person and instilling national and universal values into their minds is of great educational importance. The combination of national and universal values, their adaptation to today's world civilization, especially to the requirements of international democracy, is gaining a new meaning. In this article, it is scientifically analyzed that reacquainting with our national values, restoring and enriching them is a factor that strengthens our national identity, faith and pride in our historical

heritage.

**Key words:** globalization, spirituality, homeland, people, youth, independence, democracy, value, national values and universal values.

**Kirish.** Hozirgi globallashuv jarayonida barkamol insonni tarbiyalashda, uning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda jamiyatdagi qadriyatlar muhim rol o'ynaydi.

Hech kimga sir emas, hozirgi globallashuv davrida dunyo maydonida hamma sohalarda keskin kurash va raqobat tobora ayovsiz tus olmoqda. Ayrim davlatlar, siyosiy markazlar tomonidan boshqa mamlakatlarni o'z ta'sir doirasiga olish, ozodlik ruhini sindirish, musta-qilligini tizginlash, ayniqsa, yoshlarning ongu tafakkurini egallash orqali taraqqiyot va barqarorlik, milliy birlik va hamjihatlik ildizlariga bolta uruvchi manqurtlarga aylantirmoqda. Bu yo'lda havoyi yorliqlar yopishtirilgan yolg'on va puch da'volar asosida turli usul va vositalarni qo'llashga, juda katta kuch, mablag' va imkoniyatlar safarbar etilyapti.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik, tarixiylik va umumiylik usulidan foydalanildi. Shuningdek, globallashuv jarayonida yoshlar ma'naviyatiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ta'siri tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Sh.M.Mirziyoyevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz", "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" asarlari va boshqa adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan mualliflarning nazariy-falsafiy qarashlari ilgari surilgan ilmiy maqolalar metodologik manba bo'lib belgilandi.

**Natijalar va muhokama.** Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur'atlari shiddatli tus olgani, o'ta ziddiyatli jarayonlarning ta'siri mamlakatimizda ham sezilayotgani qayd etildi.

Tarixdan ma'lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg'och qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur, – deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishar ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ma'naviyat shu'lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashga da'vat etib turishi zarur" [4].

Jamiyatdagi ma'naviy yangilanishlar har bir insonni qalban-ruhan ezgu maqsadlar yo'lida birlashtirishga xizmat qiladi. Bu yo'lda milliy g'oya, milliy ma'naviyat har bir xalqning amaliy dasturiga aylanadi. Birlashgan jamiyat yuksak metin qoyadek sobit turadi, birlasholmagan jamiyat qumday sochilib ketishi mumkin. Har bir mamlakatni, avvalo, birlashgan fidoyilar yuksaltiradi! Yangi yilning dastlabki kunlari ana shunday oydin niyatlar bilan boshlandi. O'tayotgan kunlar hayotimizni har tomonlama tahlil qilishni taqozo etmoqda. Shukronalar bo'lsinki, bizning sarhisob qiladigan, xulosa chiqaradigan, ibrat oladigan qadriyatlarimiz yetarli. Ayniqsa, keyingi yillar mustaqil yurtimiz tarixida alohida qayd etiladigan yorqin voqealarga boy bo'ldi.

Odatda inson shaxsidagi ijobiy fazilatlar avlodlardan avlodlarga o'tishi, e'zozlanishi bilan qadriyatga aylanadi [5]. Qadriyatlar o'z navbatida inson aqli, tafakkuri, xarakteri, tuyg'u hissini shakllantiradi. Shu asno ma'naviyatning jamiyatdagi yetakchi g'oyalarga ham bog'liqligi anglashiladi. Jamiyatimizda kelajagi buyuk huquqiy demokratik davlat yaratish davrning yetakchi g'oyasi sanaladiki, buyuk kelajak yaratish uchun komil avlodni ma'naviy yetuk, ahloqiy yuksak, ruhan va jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash hayotiy

ehtiyoj hisoblanadi. Shu bilan birga, komil inson komil jamiyatda voyaga yetishi ham ma'lum.

Qadriyatlar kishilarning turli sohalaridagi faoliyati, ishlab chiqarishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan narsalar, hodisalar majmuasi bilan bog'liq holatda yuzaga keladi va asta-sekin inson turmush tarzining turli jabhalarida amal qila boshlaydi.

Qadriyatlar mazmunida inson manfaatlarini himoya qilish, umumbashariy muammolarning yechimini topish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan oq qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mushtarakligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Eng oliy qadriyatlarimizdan biri bu vatanparvarlikdir. Vatanni sevish vatanparvar bo'lish demakdir. Inson uchun Vatandan yuksakroq boylik yo'q.

Vatan – Ona kabi aziz va mukarramdir. Vatan insonga baxt-iqbol beradigan zamindir. Vatan – bu xalqning o'tmishi, buguni va kelajagidir.

Vatan – muqaddas qadriyat. Taraqqiyot Vatandan boshlanadi.

Kishilar ongida vatanparvarlik e'tiqodini shakllantirish va mustahkamlashda To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najimiddin Kubro, Amir Temur va boshqa buyuk vatanparvarlarning Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun ko'rsatgan jasoratlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy singari allomalarning ham Vatan, xalq, millat manfaatlarini yo'lida fidokorlik ko'rsatganliklari ham bugun yoshlarimiz uchun katta ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik – yolg'iz o'z Vatanga mehr qo'yishdangina iborat bo'lmay, balki boshqa xalqlar va millatlarni hurmat qilish, ularning ilmi, fani, texnikasi, madaniyati yutuqlaridan ijodiy foydalanish ham demakdir.

Haqiqiy barkamol vatanparvar inson Vatani kamoloti va istiqboli, el-yurtining ozodligi va mustahkamligi uchun hamma narsani, hatto shirin jonini ham ayamaydi [2]. Bu haqda Mavlono Fuzuliyning, mening bitta hayotim bor, bordi-yu mingta hayotga ega bo'lgan taqdirimda ham, hammasini Vatan uchun sarflagan bo'lur edim, deb aytgan so'zlari har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlarimiz uchun bebaho o'g'itdir.

Taassuf bilan tan olish kerak, diniy aqidaparastlik va terrorism, «demokratiyani olg'a siljitish»ga urinishlar, axborot xurujlari, g'arbona turmush tarzini tiqishtirish, ma'naviy qashshoqlashtirish harakatlari, buyuk davlatchilik tafakkuri va imperiyacha fikrlash xurujlari davlatimiz suverenitetiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Ha, gegemoniya dunyo kabi ko'hna. Biroq bugungi kunda hududlarni harbiy kuch bilan zabt etish o'rniga jahonda yetakchilik qilishning noan'anaviy usullari, ancha zamonaviylashtirilgan, birmuncha madaniylashtirilgan usullari keng urf bo'lmoqda. Dunyoga hukmronlik qilishning eng oson va qisqa yo'llarini izlayotgan kuchlar tinchlikni oliy ne'mat deb biladigan, saxiy zamini tabiiy boyliklarga to'la, xalqi soddadil va mehnatkash O'zbekistonni o'z ta'sir doirasiga olishga intilayotganligini payqamaslik mumkin emas. Shuning uchun ham mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor vazifasi etib belgilangan [9].

Davlatlar mustaqilligini kemiruvchi xavf-xatarlarga yuzaki qarash, ularni tahdid manbasi sifatida e'tirof etmaslik insoniyat boshiga yana ko'plab kulfatlar solishi muqarrar. Shu bois, bugungi kunda suverenitetimizga tahdid solayotgan bunday hodisalarning mafkuraviy poydevorini hosil qiluvchi vayronkor g'oyalarni fosh etish birlamchi vazifaga aylanadi.

Umuminsoniy qadriyatlardan yana biri demokratiyadir.

Demokratiya xalq hokimiyatining manbasi, fuqarolar erkinligini va teng huquqliligini e'tirof qiluvchi jamiyat boshqaruvining adolatli shakllaridan biridir.



Demokratik jamiyat o'zining xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillariga egadir. Bularga o'z xohish irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikni ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, davlatning asosiy organlarining saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishlari, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar kiradi.

Globalashuv jarayonida demokratik qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirmasdan turib, demokratik institutlarning faoliyatini samarali tashkil etib bo'lmaydi.

Demokratiyaning barcha davrlar va xalqlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlari va tamoyillari mavjud. Jumladan "Erkinlik", "Tenglik", "Inson huquqlari", "Shaxsiy mustaqillik", "Qonunlarga itoat qilish", "Davlat boshqaruviga faol ishtirok etish", "Mas'uliyat" kabi g'oyalar demokratik qatoriga kiritiladi.

Tarixga nazar tashlaganimizda, bobokalonimiz Amir Temur o'rnatgan markazlashgan davlatda amalga oshirilgan ayrim siyosiy o'zgarishlar mamlakatda demokratiyaga intilish bo'lganini ko'rsatadi.

Bobokalonimiz o'rnatgan davlat tomonidan qonunchilikka katta e'tibor qaratilganligi, fuqarolarning huquqlari, erkinliklarini himoyalashda qonunlar kuchidan foydalanishga harakat qilinganligining o'ziy oq Markaziy Osiyo xalqlari tarixida o'sha davrlarda demokratiyalashtirish jarayoni qanday kechganligi to'g'risida aniq ma'lumot beradi: Masalan: Amir Temurning "Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi", degan so'zlarida uning demokratiyaga bo'lgan munosabatini payqash mumkin.

Biz bu umuminsoniy qadriyatni milliy an'analar va urf-odatlar bilan uyg'unlashib borayotganligini yoshlar ongiga singdirishimiz bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Diniy bag'rikenglik ham umuminsoniy qadriyatdir. Diniy bag'rikenglik xilma-xil diniy e'tiqod va ishonchga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda oliyjanob goya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. O'zbekiston ham mustaqillik yillarida turli dinlar va din vakillari o'rtasidagi hamkorlik umuminsoniy qadriyatlarlar asosida tobora mustahkamlanmoqda [8].

Mustaqillik biz uchun jamiyat taraqqiyotining butunlay yangi davrini boshlab berdi. U O'zbekistonimizni, o'zbek millatini jahonga tanitdi. Milliy manfaatlarimizga, ma'naviy qadriyatlarimizga, demokratik mezonlarga tamomila muvofiq yangi jamiyat qurishga kirishdik.

Milliy davlatchilik poydevori, uning huquqiy asoslari yaratildi. Davlat islohotlarining bosh tashabbuskori, ularni muvofiqlashtiruvchi asosiy kuchga aylandi. Konstitutsiyamiz davlatni qonuniy huquqiy takomillashtirishning demokratik asosi bo'lib xizmat qilmoqda [6].

Istiqlol tufayli odamlar ongi, dunyoqarashida yangilanish boshlandi. Tarixiy milliy qadriyatlar, urf-odatlarining tiklanishi xalqning milliy ruhiga kuchli ta'sir etdi. Ona tilimiz va dinimizga bo'lgan yangicha munosabat, vatanga va istiqol g'oyalariga sadoqat milliy g'urur, iftixor tuyg'ularining o'sishida katta rol o'ynaydi. Vatan tushunchasi, vatanparvarlik tuyg'usi yangicha ma'no kasb etdi. Milliy an'analar, bayramlar, Ro'za va Qurbon hayitlari xalqimiz qadri, izzat-hurmati, g'ururining oshishiga olib keldi.

Tarixiy milliy qadriyatlarimiz bilan yangidan tanishuv, ularni tiklash va boyitish har birimizda milliy o'zligimizni, tarixiy merosimizga e'tiqod va faxrlanish tuyg'ularini mustahkamladi. Biz ko'proq boy tariximiz, qadriyatlarimiz, an'alarimizni o'rgana boshladik. Odamlardagi boqimandalik, loqaydlik, mutelik ruhiyati o'rnini tadbirkorlik, ishbilarmonlik, fidoyilik egallay boshladi [3]. Ularda Vatan oldidagi, el-yurt oldidagi o'z burchini e'zozlash tuyg'usi ancha kuchaydi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 16 ta konfessiyaga mansub diniy birlashmalar faoliyat

ko'rsatayapti. Ularning mamlakatimiz hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Tarixga nazar tashlaganimizda ming yillar davomida turli millat va diniy e'tiqodga ega bo'lgan odamlar totuvlikda yashaganliklaridan guvoh beradi. Bizning ajdodlarimiz ham diniy bag'rikenglikka katta e'tibor qaratganlar. Misol uchun qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy eng tolerant mutafakkirlarimizdan biri edi.

Mashhur rus sharqshunosi V.R.Rozen Beruniyning "Hindistonning kashf etilishi" asarini tahlil qilar ekan, shunday deydi: "U mutaassiblikni yoqtirmaydi, u diniy ayirmachilik, irqiy kamsitishlik, millatchilik va kastachilik odatlarini keskin tanqid qiladi" [7]. Beruniyning diniy bag'rikengligi uning bir nechta dinlar mohiyatini yoritganida yaqqol namoyon bo'lgan. U "Hindiston" asarida yozadi: "Mukammal hayot tarzi dinda bayon qilib berilgan. Din ulamolari diniy oqimlar ko'p bo'lishiga qaramasdan yagona qoidalarni yozib qoldirishgan". "Mineralogiya" asarida Beruniy dinning ahamiyati haqida yanada konkretrroq fikrlarni keltirib o'tadi: "Din adolatli tenglikka chorlaydi, o'zingga va o'zgalarga zulm qilmaslikka o'rgatadi"[1]. Buyuk alloma Jaloliddin Rumiyni ham bag'rikenglik g'oyasini timsoli deb atasak xato qilmaymiz. Butun umri davomida alloma odamlarni tenglikka, do'stlikka, birodarlikka, qalban yaqinlikka, mehr-shavqatli bo'lishga undagan.

Rumiy fikricha, dunyo dinlari mohiyatan birdir, ularning maqsadi ham bir, haqqa yetishmoqdir.

Uning fikricha, har bir valiy yoki nabiyning o'z maslagi bor, ammo Haq oldiga borganda hammasi bir bo'ladi. Bundan Rumiyning barcha insonlarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lganligi ko'rinib turibdi. Bu esa Jaloliddin Rumiyning o'zi ham bag'rikeng inson bo'lib, uning ta'limoti ham bag'rikenglikka da'vat etganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash borasida juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Globallashuv jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizning tarbiyaviy qudratini, yoshlarimiz ongiga singdirish uchun ularni bugungi zamon talablariga javob beradiganlarini, zamon sinovidan o'tgan eng progressiv tomonlarini saqlab qolishiga va uni har tomonlama rivojlantirishga alohida etibor berish darkor.

**Xulosa va takliflar.** Shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, barkamol insonni tarbiyalashda ularning ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi milliy qadriyatlarga bugungi jahon sivilizatsiyasi, ayniqsa, xalqaro demokratiya talablariga mos tushuvchi yangi mazmun, yangi ma'no kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abu Rayxon Beruniy. Mineralogiya. Tan.asarlar. Toshkent: Fan. 1963. 12-b.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B.488.
3. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – B.592.
4. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2020. –B.148.
5. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqi.
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. 52-b.
7. Розен В.Н. записки Восточного отд. Русского Археологического общества Спб, III (1888) 1889. –С.147.
8. Egamberdiyev Javlonbek. (2023). Socio-historical genesis of ideas that form the spiritual image of youth. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 426–432.

**BADIIY ADABIYOTNING SHAXS MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI ROLI****Qurbonov Asqar Bahodir o'g'li**

Qarshi davlat universiteti

"Falsafa va sotsiologiya" kafedrası

mustaqil izlanuvchisi,

[asqarqurbonov079@gmail.com](mailto:asqarqurbonov079@gmail.com)

ORCID: 0009-0006-5552-1235

UDK: 8:100.62:17(045)

**Annotatsiya.** Maqolada shaxs "ma'naviy yuksalishi" tushunchasining mazmuni to'liq yoritib bergan. Ma'naviy yuksalish – shaxsning yuksak ma'naviy ideallar sari intilishi jarayoni ekanligi ilmiy asoslab berilgan. Shaxs ma'naviy ideallarini shakllanishida badiiy adabiyot asosiy omillardan biri ekanligi haqidagi fikr ilgari suriladi. Badiiy adabiyotning shaxs ma'naviy yuksalishidagi rolining ijtimoiy-falsafiy aspektlari tahlil qilinadi. Badiiy adabiyot durdonalari, uning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar qulaylashgani, shaxsning ma'naviy yuksalishi ham intensivlashishi ilmiy asoslab berilgan.

Badiiy adabiyotning ma'naviy-tarbiyaviy potensialini tushirayotgan omillar aniqlangan bo'lib, bu natijalar tegishli mavzularda ma'naviy targ'ibot va tashviqot ishlarini yo'lga qo'yishda qo'llanilganligi ko'rsatib berilgan. Badiiy adabiyotdan ma'naviy yuksalish omili sifatida oqilona foydalanishga doir taklif va tavsiyalar majmuyi ko'rsatib berilgan. Badiiy adabiyot mazmunini o'rganishga zamonaviy badiiy adabiyotning xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari, uning shaxs ma'naviy yuksalishini ta'minlashdagi imkoniyatlari ochib berilgan. Soha bo'yicha barcha imkoniyatlardan oqilona foydalanish yo'llari, malakali mutaxassislar xulosalari hamda sotsiologik so'rov natijalari asosida aniqlanganligi ko'rsatilgan. Bunday yondashuv tadqiqotning yaxlitligi va tizimlilikini, nazariy xulosalarning obyektivligi va ishonchliligini ta'minlagan.

**Kalit so'zlar:** shaxs ma'naviy olami, ma'naviy yuksalish, ma'naviy yetuklik, ma'naviy ideal, hayotiy pozitsiya, hayotiy maqsad, o'zlikni anglash, o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini nazorat qilish.

**THE ROLE OF ARTISTIC LITERATURE IN PERSONAL SPIRITUAL GROWTH**

**Abstract:** The article fully explains the meaning of the concept of "spiritual growth" of a person. It has been scientifically proven that spiritual growth is the process of a person's striving towards high spiritual ideals. The idea that fiction is one of the main factors in the formation of personal spiritual ideals is put forward. The socio-philosophical aspects of the role of fiction in the spiritual growth of a person are analyzed. It has been scientifically proven that the masterpieces of fiction, the conditions for its development, and the spiritual growth of the individual are intensified. The factors that lower the spiritual and educational potential of fiction have been identified, and it has been shown that these results are used in the establishment of spiritual promotion and propaganda work on relevant topics. A set of suggestions and recommendations on the rational use of fiction as a factor of spiritual growth is shown. The characteristics and development trends of modern fiction, its possibilities to ensure the spiritual growth of a person are revealed to the study of the content of fiction. It is shown that the ways of rational use of all opportunities in the field are determined based on the conclusions of qualified experts and the results of a sociological survey. This approach ensured the integrity and systematicity of the research, the objectivity and reliability of the theoretical conclusions.

**Keywords:** personal spiritual world, spiritual growth, spiritual maturity, spiritual ideal, life position, life goal, self-awareness, self-education, self-control.

**Kirish.** Badiiy adabiyot obyektiv reallikning o'ziga xos in'ikosi, nodir bilimlar va g'oyalar tajassumi sifatida ma'naviy madaniyatning ajralmas qismidir. Binobarin, ma'naviy madaniyatning barcha qismlari kabi u ham shaxsning ma'naviy jihatdan kamol topishi jarayo-niga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatda badiiy adabiyot durdonalari konsentratsiyalashgani, uning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar qulaylashgani, uning yutuqlaridan bahramand bo'lish imkoniyatlari kengaygani sayin shaxsning ma'naviy yuksalishi ham intensivlashadi. Biroq badiiy adabiyotning shaxs ma'naviy yuksalishidagi rolini tizimli ravishda ifodalab berish uchun avvalo "ma'naviy yuksalish" tushunchasi mazmuniga bir qadar to'xtalib o'tishimiz kerak bo'ladi.

Insonning shaxs sifatida kamol topishi uning butun umri mobaynida davom etadigan murakkab jarayondir. Bu jarayonda obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar ta'sirida uning e'tiqodi, fazilatlarini, ijtimoiy jarayonlarga munosabati, boshqa jamiyat a'zolariga munosabati asta-sekinlik bilan o'zgarib, evrilib, rivojlanib boradi. Biroq bu rivojlanishning hamma vektorlarini ham ma'naviy yuksalishga yo'yib bo'lmaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Insoniyat tarixiy taraqqiyotidan ma'lumki, shaxs ma'naviy olami, ma'naviy yuksalish va ma'naviy tanazzul muammolari faylasuflarning diqqat markazida turadi [1]. Shaxs ma'naviy yuksalishida ma'naviy ideallar muhim o'rin tutadi. Masalan, qator xalq maqollari, afsonalarida insonni ezgu ishlari, faoliyati ulug'lanadi, o'rnak qilib ko'rsatiladi [2]. Ma'naviy ideallarning shaxs kamolotiga ta'siri [3], shaxs ma'naviy yuksalishi mazmuni va jarayonining yo'nalishlari, o'zlikni anglash [4], o'z-o'zini tarbiyalash [5], o'z-o'zini nazorat qilish [6] masalalari ilmiy falsafiy manbalarda tahlil qilinadi. Badiiy adabiyotning barcha shakllarida insonni ma'naviy yuksalishga chorlovchi g'oyalar ustuvorlik qiladi. Masalan, buyuk mutafakkirlar Alisher Navoiy, Abulqosim Firdavsiy, fransuz adibi Onore de Balzak [10], [11], [11] asarlarida ma'naviy yuksalishga xizmat qiladigan g'oyalar mavjud.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani tayyorlash jarayonida sistemaviylik, tarixiylik tamoyillari, analiz, sintez, kuzatish, abstraksiya, deduksiya, induksiya kabi uslub va usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Faqat ma'naviy yuksalishgina insondagi insoniylik me'yorini oshiradi, uning hayotiga muayyan g'oyaviy va axloqiy yo'nalganlik baxsh qiladi. Ma'naviy yuksalishning aksi esa ma'naviy tanazzuldir. Ma'naviy tanazzul shaxs e'tiqodining zaiflashuvi, uning turli illatlar girdobiga tushib qolishi, nomaqbul va g'ayriijtimoiy hayotiy pozitsiyaning qaror topishi jarayonidir. Ma'naviy tanazzul pirovardida shaxsning ma'naviy qashshoqligi bilan intiho topadi.

Shaxs ma'naviy yuksalishida ma'naviy ideallar muhim o'rin tutadi. Ma'naviy ideallar shaxsning ma'naviy yuksalishi uchun o'ziga xos mayoq vazifasini o'taydi. Chunki muhabbat, go'zallik, ezgulik, erkinlik, adolat kabi oliy ideallar insonni kamolotga undaydi, ularga intilishga chorlaydi. "Bir kishi ariq qazar, ming kishi suv ichar" kabi maqollarda mujassam bo'lgan. Mazkur ma'naviy ideallar inson ruhiyatiga muayyan yaxlitlik baxsh etadi, uning irodasini mustahkamlaydi, qadriyatlarini, bilimlari va tasavvurlari xarakterini belgilab beradi. Ma'naviy ideallarsiz, ularga bo'lgan intilishsiz ma'naviy yuksalishning o'zi bo'lishi mumkin emas. Chunki bunday vaziyatda shaxsning ma'naviy jihatdan shakllanishi jarayoni o'z maqsadini, ustuvor yo'nalishini, natijada esa mazmunini yo'qotadi.

- Shaxs ma'naviy yuksalishi jarayonining uch yo'nalishi mavjud:

• o'zlikni anglash; ma'naviy yuksalish insonning o'zini anglashga bo'lgan intilishlarida namoyon bo'ladi. O'zlikni anglash – “insonning o'zini alohida vujud sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, baholashi va qadriyat sifatida anglashini ifodalovchi tushunchadir. O'zlikni anglash shaxsning o'zini haqiqiy inson, muayyan moddiy va ma'naviy boylklarning egasi va ular uchun mas'ul ekanini, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishi jarayonida shakllanadi”. Ayni paytda o'zlikni anglash shaxs ma'naviy yuksalishi mezoni hamdir. Unga qarab, shaxs ma'naviy kamoloti samaradorligi va barqarorligini aniqlash mumkin;

• o'z-o'zini tarbiyalash; ma'naviy yuksalish insonning o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan intilishlarida namoyon bo'ladi. O'z-o'zini tarbiyalash – “shaxsning kamolotga intilishi va o'zini nazorat qilishi shaklidir. O'z-o'zini tarbiyalash shaxsning ijobiy sifatlarini maqsadga yo'naltirgan tarzda rivojlantirish, salbiy sifatlardan xalos bo'lishga qaratilgan faoliyati bo'lib, uni amalga oshirish uchun muayyan iroda talab qilinadi. Irodasiz odam o'zini-o'zi tarbiyalay olmaydi”. Ayni paytda o'z-o'zini tarbiyalash shaxs ma'naviy yuksalishi mezoni hamdir. Unga qarab, shaxs ma'naviy yuksalishi jarayonining sifatini belgilash mumkin;

• o'z-o'zini nazorat qilish; ma'naviy yuksalish insonning o'z-o'zini nazorat qilishga bo'lgan intilishlarida namoyon bo'ladi. “O'z-o'zini nazorat qilish deganda o'z kognitiv faoliyatini, shuningdek tashqi stimullarga javoban xulq-atvori va kechinmalarini muvofiqlashtirish qobiliyati tushuniladi”. Bu qobiliyat ham muayyan iroda va samarali tarbiya negizida shakllanadi. Ayni paytda o'z-o'zini nazorat shaxs ma'naviy yuksalishi mezoni hamdir. Uning yordamida nafaqat shaxsning ma'naviy yuksalishi sifatini, balki tarbiyalanganligi darajasini ham aniqlash mumkin.

Ko'rinib turibdiki, shaxsning ma'naviy yuksalishi o'z maqsadiga (ma'naviy ideallarga yetishish) va yo'nalishlariga (o'zlikni anglash, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini nazorat qilish) ega bo'lgan murakkab jarayondir. Ushbu jarayonning samarali kechishida badiiy adabiyotning o'z o'rnini va roli bor. U shaxsning yuqorida tilga olingan barcha yo'nalishlardagi ma'naviy yuksalishida muhim manba vazifasini o'taydi.

Birinchi, badiiy adabiyot shaxsni eng oliy ma'naviy ideallar bilan tanishtiradi. Jahon adabiyoti durdonalari insonning Allohga, boshqa insonga muhabbatining yuksak namunalari tasvirlab beradi. Masalan, Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr”, so'ngra esa Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarida shayx San'on qissasi misolida Allohga muhabbat ma'naviy yuksalishga undashi, undan bebahra qolish esa insonni o'tkinchi hoyu-havaslar, turfa illatlar girdobiga tushirishi mahorat bilan tasvirlab beriladi. To'lan Nizomning “Devonaman shekilli” nomli she'rida esa oshiqning mahlubiga muhabbati eng oliy tuyg'u sifatida ifodalanadi:

Badiiy asarlar go'zallik haqidagi yuksak ideallarni yorituvchi nodir manbalar hamdir. Bunday tavsiflarni ko'proq lirik asarlarda uchratish mumkin.

Ko'pgina yozuvchi va shoirlarning asarlarida yana bir ma'naviy ideal ezgulikning qadr-qimmatini bayon etiladi. Ularda ezgulik insonni bunyodkorlikka undovchi qudrat sifatida tavsiflanadi, uning ijtimoiy ahamiyati esa yovuzlik bilan qiyoslash orqali ochib beriladi. Badiiy adabiyot manbalari erkinlik g'oyasi tafsilotlari bilan ham to'lib toshgan. Ularda shaxs, jamiyat, millat erkinligining qadr-qimmatini batafsil yoritiladi.

Badiiy adabiyot shaxsni hayotning maqsadi haqida fikrlashga undaydi. Badiiy adabiyot orqali shaxs hayotda o'z o'rniga, maqomiga ega bo'lishi kerakligini anglab yetadi. Bu o'rin, maqom, albatta, insonparvarlik, vatanparvarlik bilan yo'g'rilgan bo'lmog'i kerak, deya uqtiradi jahon adabiyoti durdonalari. Badiiy adabiyot shaxsni o'z

ehtiyojlarini tushunib yetishga, ularni nazoratda saqlashga odatlantiradi. Insonning ehtiyojlari bitmas tuganmasdir. Buning ustiga, u muttasil o'zgarib, inson imkoniyatlariga nomutanosib tarzda o'sib boradi. O'z ehtiyojlari tabiatini tushunib yetmagan, ularni nazorat qilmagan inson oxir-oqibatda ularning quliga aylanib qolishi, ayrim holatlarda esa tubanlikka yuz tutishi mumkin. Ushbu o'ziga xos qonuniyat fransuz yozuvchisi Onore de Balzakning "Sag'ri teri tilsimi" nomli romanida yorqin ifodalab beriladi. Rafael de Valenten o'ta kambag'alligi bois o'zining eng oddiy ehtiyojlarini qondira olmasligidan aziyat chekadi. Nihoyat u fursat topib o'zini o'ldirishga va bu mashaqqatlardan xalos bo'lishga qaror qiladi. Lekin o'limidan oldin u qadimiy buyumlar do'koniga tashrif buyuradi va kutilmaganda sag'ri terisiga duch keladi. Terida sanskrit tilida shunday deb yozilgandi: "Mening egam hamma narsaga ega bo'ladi, ammo uning joniga men ega bo'laman. Tangri irodasi shu. Istaganingni tila. Ijobat bo'lg'ay. Lekin tilagingni hayotingga mosla. Joning menda. Har bir tilagingdan umring kunlari kamaygani singari men ham kamayaman. Menga ega bo'lishni istaysanmi? Ol. Senga Tangri yor bo'lg'ay. Omin!" [11]. Shu ondan boshlab uning barcha tilaklari ro'yobga chiqa boshladi, biroq bu ijobat uning hayoti evaziga amalga oshar, sag'ri teri esa har bir tilak sayin qisqarib borar edi. Rafael o'z ehtiyojlari va tilaklarini qat'iy cheklashga, ortiqcha narsalar istamaslikka behad urinib ko'radi. Biroq buning uddasidan chiqa olmadi va nihoyat jon taslim qiladi. Aminmizki, bu toifa asarlar bilan tanishgan har bir kishi bitmas-tuganmas ehtiyojlari xususida fikr yuritishga, ularni imkoniyat darajasida nazorat qilishga intila boshlaydi.

Xullas, badiiy asarlarda ko'plab nodir g'oyalar va syujetlar uchraydiki, ular shaxsni o'z ruhiyati, hayotiy maqsadlari, ehtiyoj va manfaatlari xarakteri, taqdirining Vatan taqdiri bilan uyg'unligi haqida fikr yuritishga undaydi. Binobarin, badiiy adabiyot shaxsni turfa g'oyalar bilan tanishtirar ekan, uning uchun o'zlikni anglash manbayi vazifasini o'taydi.

Uchinchidan, badiiy adabiyot shaxs uchun o'z-o'zini tarbiyalash manbayi bo'lib xizmat qiladi. Yuksak mahorat bilan bitilgan, ezgu g'oyalarni tarannum etgan, original syujetga ega bo'lgan epik, lirik yoki dramatik asar shaxsiga o'zini tarbiyalash imkonini beradigan o'ziga xos qo'llanmadir. Bu asarlarda qahramonlarning so'nmas e'tiqodi, yuksak fazilatlar, odamiylik bilan sug'orilgan hayotiy prinsiplari, mustahkam irodasi tasvirlanadi. Mazkur badiiy obrazlar shaxs uchun o'ziga xos ibrat maktabi bo'lib xizmat qildi, uni insonparvar e'tiqod, ijtimoiy ahamiyatli fazilat, axloqiy prinsiplar hamda qat'iyat sari yo'naltiradi. Masalan, ko'plab asarlarda insonparvar e'tiqod namunalari ko'rsatiladi. "Hotamnoma" asaridagi Hotami Toyi obrazi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Odamlarni ulug'lash, ularni e'zozlash, xayru-saxovat ko'rsatish, mushkulini oson qilish zarurligiga bo'lgan qat'iy ishonch Hotam e'tiqodining mazmunini tashkil etadi. Asar syujeti ham Hotamning o'zgalarga ko'rsatgan himmati, saxovatiga doir hikoyalardan tarkib topadi. U madad so'ragan biror insonni umidsiz qoldirmaydi, muhtojlarga, hayotning turli qiyinchiliklari oldida qolgan kimsalarga yordam qo'lini cho'zishdan charchamaydi. Albatta, bunday insonparvarlik, serhimmatlilik kitobxonni undan o'rnak olishga, o'zini shu ruhda tarbiyalashga chorlaydi. Shaxsni eng olijanob fazilatlar bilan tanishtiruvchi asarlar ham talaygina. Jumladan, atoqli adib Oybekning 1938-yilda yozilgan "Qutlug' qon" nomli romanidagi bosh qahramon Yo'lchi mard va halolligi bilan e'tiborni tortadi. Uning sevgilisi, o'sha davrdagi nomaqbul ijtimoiy munosabatlar qurboni bo'lgan Gulorning ma'sumaligi ehtirom uyg'otmasdan qolmaydi. Uzzukun mehnatdan bosh ko'tarmaydigan etikdo'z Shokir otaning xalqona donishmandligi, bag'rikengligi, toqatliligi har qanday kitobxonni hayratga solishi aniq. Asarda Mirzakarimboy xonadonida halol ishlagan bo'lsada, kosasi oqarmagan Shoqosimning bardoshi mahorat bilan chizib beriladi. Yo'lchining qirg'iz do'sti O'rozning himmatlilik, uning singlisi Unsinning mehribonligi ham darhol nazarga tushadi. Qahramonlarning olijanob fazilatlar

har qanday kishida katta taassurot uyg'otishi, shunday fazilatli insonga aylanish istagini tug'dirishi, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonini shu maqsad sari yo'naltirishi tabiiy hol. Ko'pgina badiiy asarlar shaxsni oqilona hayotiy tamoyillar bilan tanishtiradi. Masalan, taniqli yozuvchi O'ktam Usmonovning "Girdob" romani qahramoni Aziz Qosimov haqiqiy olim o'z izlanishlari va kashfiyotlari bilan jamiyatga naf keltirishi zarur, u o'z hayotiy faoliyatini adolatparvarlik va axloqiy qoidalar asosida tashkil etishi lozim, deb hisoblaydi. Yosh aspirant hayotning turli qiyinchiliklari, oilaviy muammolar, ishdagi ziddiyatlar girdobida qolganiga qaramasdan o'z hayotiy qoidalariga sodiq qoladi va shu yo'lni eng to'g'ri yo'l deb biladi. Bunday asarlar bilan tanishuv shaxsni o'z hayot yo'lini, hayotiy tamoyillarini shakllantirishga, bu tamoyillarni axloq normalari, ratsionallik mezonlari va ijtimoiy manfaatlarga moslashtirishga undaydi.

Badiiy asarlar shaxsni mustahkam iroda namunalari bilan tanishtiruvchi manba hamdir. Ko'zlangan hayotiy maqsadlarga erishish uchun inson o'zini muayyan amallarni bajarishga majburlashi, turfa mayllardan tiyilishi kerak. Mustahkam irodagina buning uddasidan chiqish imkonini beradi. Bunday irodani shakllantirishda esa turli asar qahramonlarining irodasi, sobitligi, o'zini ezgu maqsadlar sari undash qobiliyati ibrat vazifasini o'taydi. Masalan, Aleksandr Dyumaning "Graf Monte-Kristo" nomli romaning bosh qahramoni Edmon Dantes "do'stlarining" hasadi va tuhmati tufayli If qal'asi mahbusiga aylanadi. Vaqt o'tib, u abbat Faria yordami bilan o'zini tushkunlikdan xalos qilishga muvaffaq bo'ladi hamda o'z ozodligi uchun kurashishga kirishadi. Aynan mustahkam iroda unga ayanchli damlarda o'zini qo'lga olish, kelgusida o'z hayotiy maqsadlariga erishish imkonini berdi. Romanni o'qigan kitobxon uning ozodlikka chiqishga, adolatni tiklashga bo'lgan bukilmis irodasini e'tirof etmasdan qolmaydi hamda shunday iroda sohibi bo'lishga intila boshlaydi. Masalaning yana bir tomoniga e'tibor berish kerak. Badiiy asarlar nafaqat shaxsni ibrat namunasi bo'lgan e'tiqod shakllari, ijtimoiy fazilatlar, hayotiy tamoyillar bilan tanishtiradi, balki uni turli g'ayriinsoniy e'tiqodlar, ijtimoiy illatlar, jamiyatdagi axloqiy normalarga mutanosib bo'lmagan tamoyillar xavfidan ham voqif qiladi. Masalan, Ne'mat Aminovning "Yelvizak" nomli romanini o'qigan kitobxon uning bosh qahramoni Bashirjonning subutsizligi, xushomad-go'yiligi, axloqsizligi, poraxo'rliigi, xudbinligi, o'zgalarning manfaatlariga e'tiborsizligidan nafratlana boshlaydi, bunday illatlardan o'zini tiyishi kerakligiga amin bo'ladi.

Xullas, badiiy adabiyot asarlarida insonparvar e'tiqod, olijanob fazilatlar, axloq bilan yo'g'rilgan hayotiy tamoyillarning ko'plab nodir namunalari tasvirlanadiki, ular shaxsning o'z-o'zini tarbiyalashi jarayonida ibrat vazifasini o'taydi. Binobarin, badiiy adabiyot shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash jarayonini tashkil qilish va uni ezgulik sari yo'naltirish manbayi vazifasini o'taydi.

To'rtinchidan, badiiy adabiyot shaxsni o'zini nazoratda tutishga o'rgatadi. Epik, lirik va dramatik asarlar qahramonlarini kuzatar, ulardagi voqealarga ergashar ekan, inson o'z xulq-atvorini nazorat qilishga, yaxshi xulqli kimsalarga ergashishga, yomon xulq-atvordan tiyilishga, o'zgalarga hurmat va ehtirom, andisha va insof bilan munosabatda bo'lishga, o'z kechinmalarini taftish qilib borishga, kognitiv faoliyatini ratsional tarzda tashkil etishga odatlanadi.

Ko'plab badiiy asarlar xulq-atvorni qat'iy nazoratga olish naqadar ahamiyatli ekanini yorqin isbotlab beradi. Ularda asar qahramonlari maqbul xulqlari tufayli ko'zlangan maqsadlariga erishishga muyassar bo'ladilar, nomaqbul xatti-harakatlari ayanchli oqibatlariga, ba'zan esa fojeaga sabab bo'ladi.

Badiiy adabiyot shaxsni o'z ruhiy kechinmalarini nazoratda saqlashga odatlantiradi. Inson umri davomida turli kechinmalarni boshidan kechiradi: kimlargadir mehr qo'yadi, boshqalarga ro'yxushlik bermaydi, uchinchilaridan nafratlanadi. Undan bu kechinmalarni

imkon qadar nazoratda tutish, zaruriyat taqozosida esa maqbul tarzda namoyon qilish talab etiladi. Bunda badiiy adabiyot sahifalarida keltirilgan obrazlar, epizodlar namuna vazifasini o'taydi.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romaniga murojaat qilaylik [16]. Romandagi voqealar davomida Otabek turfa kechinmalarni boshidan kechiradi. Kumushbibiga muhabbat qo'yadi, ota-onasining ikkinchi xotin olib berish niyatidan og'rinadi, Zaynabga astoydil rahmi keladi, Hamidboyning qilmishlaridan nafratlanadi, xonning adolatsizligidan norizo bo'ladi, xalqning ayanchli ahvolidan o'ksinadi. Biroq har safar u o'z ruhiy kechinmalarini nazoratda tutish, o'rin-siz ehtirolarga berilmaslik, ularni axloq mezonlari doirasida bayon qilishning uddasidan chiqadi. Bu kabi romanlar shaxsga ruhiy kechinmalarni nazoratda tutishni o'rgatuvchi noyob manbadir.

**Xulosa.** Xulosa qiladigan bo'lsak, badiiy adabiyot ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida shaxsning ma'naviy jihatdan kamol topishi jarayoniga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, epik, lirik va dramatik asarlar shaxsni eng oliy ma'naviy ideallar bilan tanishtiradi, unga o'zligini anglash imkonini taqdim etadi, o'z-o'zini tarbiyalash manbasi bo'lib xizmat qiladi, o'zini nazoratda tutishga o'rgatadi. Binobarin, badiiy adabiyotni shaxs ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi eng qudratli omil sifatida baholamoq darkor. Ushbu omildan mosuvollik esa pirovardida shaxsning ma'naviy tanazzuliga, yuksak ma'naviy ideallardan va insonparvar g'oyalardan uzilib qolishiga sabab bo'ladi.

#### Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Choriyev A. Inson falsafasi. Mustaqil shaxs. Ikkinchi kitob. – Toshkent: Chinor, 2002.
2. Yaxshilik va ezgulik haqida maqollar.// ziyouz.uz.
3. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. J.2. – Toshkent: O'zb.fayl.milliy jam. nashr., 2019. – B.633.
4. Zorilova L.S. Duxovniye ideali lichnosti: teoriya, istoriya i sovremenniye problemi formirovaniya: Avtoref. diss. ... dokt. kulturolog. n. –M.:MGUK, 1999.
5. Kuznetsova V.B., Kozlova YE.A. Sovremenniye predstavleniya o samokontrole: obzor zarubejnoj literaturi.// Teoreticheskaya i eksperimentalnaya psixologiya, 2016, №3. – S.84-94.
6. To'lan Nizom. Devonaman shekilli.// teletype.in.
7. Alisher Navoiy. Xazoyinul maoniy.// Mukammal asarlar to'plami. – Toshkent: Fan, 1989. – B.349.
8. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma (saylanma). – Toshkent: O'zb.milliy kutubx. Nashr., 2012. – B.10.
9. Normatov U. "Otamdan qolgan dalalar" haqida. //http://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/maqolalar/1322-maqola.pdf.
10. Balzak O. Sag'ri teri tilsimi. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adab. va san'at nashr, 1981. – B.84.
11. Hotamnoma. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adab. va san'at nashr, 1988.
12. Oybek. Qutlug' qon. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adab. va san'at nashr, 2019.
13. Usmonov O'. Girdob. – Toshkent: Qaldirg'och, 2018.
14. Dyuma A. Graf Monte-kristo. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.
15. Aminov N. Yelvizak.//Qahqaha.–Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adab. va san'at nashr, 2017
16. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adab. va san'at nashr, 1994.



## SIYOSIY PARTIYALAR MAFKURALARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI XORIJIY TAJRIBA MISOLIDA

**Qarshiyev Nurmuhammad Olimjonovich,**

O'zMU: Siyosatshunoslik kafedrası v.b.dotsent.

[nurmuxammad.qarshiev@mail.ru](mailto:nurmuxammad.qarshiev@mail.ru) [boburmajid@mail.ru](mailto:boburmajid@mail.ru)

ORCID: 0009 – 0009 – 0277 – 7052

UDK: (329.735(575.1))

**Annotatsiya.** Dunyoda demokratiya geografiasining kengayib borishi asnosida uning asosiy instituti bo'lgan siyosiy partiyalarning ham jamiyatlardagi o'rni va ahamiyati ortib bormoqda. Siyosiy partiyalar mohiyatan aholining muayyan qatlami va guruhlarining manfaatlarini ifodalalar ekan, ularning asosiy harakatlantiruvchi, ergashtiruvchi kuchi – bu mafkurasi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan siyosiy partiyalar mafkuralarining shakllanishi va rivojlanishini xorijiy ilg'or tajribalar asosida o'rganishimiz hamda tadqiqotlar natijasida kelingan xulosa va takliflarni mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar faoliyatiga targ'ib qilishimiz dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda siyosiy partiyalar faoliyatining yangi bosqichga olib chiqish, ularni fuqarolik jamiyatining tom ma'nodagi institutiga aylantirish borasida ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Ularga jamiyatimizda erkin faoliyat yuritishlari uchun barcha tashkiliy, huquqiy sharoitlar yaratib berilgan. Mazkur imkoniyatlardan foydalangan holda partiyalarimiz o'zlarining mafkuraviy sohadagi faoliyatlarini yanada takomillashtirishi zarur, bunda xorij tajribasining ahamiyati beqiyosdir. Zero, ularning mohiyati asosini tashkil etuvchi, shuningdek, faoliyat yo'nalishini belgilab beruvchi, uning tarafdorlari safining kengayishiga sabab bo'luvchi kuch uning mafkurasidir.

**Kalit so'zlar:** siyosiy partiya, mafkura, demokratiya, fuqarolik jamiyati, siyosiy madaniyat, siyosiy ong, elektorat, siyosiy tizim, saylov, parlament, davlat.

## FORMATION AND DEVELOPMENT OF IDEOLOGIES OF POLITICAL PARTIES AS AN EXAMPLE OF FOREIGN EXPERIENCE

**Abstract.** During the expansion of the geography of democracy in the world, the role and importance of political parties, which are its main institution, is also increasing in societies. As political parties essentially represent the interests of certain strata and groups of the population, their main driving force is their ideology. From this point of view, it is of urgent importance to study the formation and development of the ideologies of political parties on the basis of foreign best practices and to promote the conclusions and suggestions made as a result of the research to the activities of the political parties operating in our country.

Many reforms have been carried out in recent years in our country to bring the activities of political parties to a new level, to turn them into a full-fledged institution of civil society. Taking advantage of these opportunities, it is necessary for our parties to further improve their activities in the ideological field, where the importance of foreign experience is incomparable. After all, the force that forms the basis of their essence, determines the direction of activity, and causes the expansion of the ranks of its supporters is its ideology.

**Key words:** political party, ideology, democracy, civil society, political culture, political consciousness, electorate, political system, election, parliament, state.

**Kirish.** Dunyoda globallashuvning tobora jadallashib borayotganligi siyosiy

partiyalar faoliyatini ham transformatsiyalashuviga, shu nuqtayi nazardan ularning mafkuralari ham yangicha ko‘rinishga kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Siyosiy partiyalar o‘z mafkuralari orqali elektoratini o‘zining ortidan ergashtiradi. Shu sababli siyosiy partiyalar mafkuralarining shakllanishi va rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarni xorijiy tajribalar misolida o‘rganishimiz mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning mazkur yo‘nalishdagi faoliyatini takomillashtirishda qaysi jihatlariga e‘tibor qaratishimiz lozimligini ko‘rsatib beradi.

Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda siyosiy partiyalarning jamiyatdagi rolini oshirish ularning mafkuraviy faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish yo‘lida amaliy ishlar qilib kelinmoqda. Siyosiy partiyalarning faoliyatini tartibga solish va uni takomillashtirishga doir ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o‘zining “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” deb nomlangan kitobida siyosiy partiyalarning mafkuraviy faoliyatini tanqidiy tahlil qilgan holda “Partiyalar fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning g‘oyaviy, mafkuraviy ehtiyoj-larini qondirishi shart. Agar partiyalar bunga erisholmasa, bu bo‘shliqni g‘araz niyatli kuchlar to‘ldirishga harakat qilishi shubhasiz. Ayrim hollarda to‘ldiryapti ham–buni yashirishning hojati yo‘q” deb ta‘kidlab o‘tganlar [1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot ishimizda bilishning dialektik, tarixiylik, tizimli-tarkibiy, funksional, institutsional, obyektivlik va boshqa ilmiy usullardan, shuningdek, kompleks yondashuv metodologiyalaridan foydalanildi.

**Natijalar va muhokamalar.** Dunyoda ilmiy tadqiqotlarning taraqqiy etishi yangi fan tarmoqlarining vujudga kelishiga, shu jumladan, siyosiy fanlarda yangi yo‘nalishlardan biri sifatida partologiyaning ham rivojining yangi bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘lmoqda. Umuman, siyosiy partiyalarni g‘oyaviy, mafkuraviy jihatlarini juda ko‘plab olimlar o‘rganishgan, ularning mafkuraviy faoliyati asosiy haratlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Siyosiy partiyalar tarafdorlari, ya‘ni elektorati uning g‘oyalari, mafkuraviy jozibadorligiga e‘tibor qaratgan holda unga ergashadi.

Jahon ilm-fanida siyosiy partiyalar faoliyatini turli nuqtayi nazardan o‘rgangan olimlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Biz shartli ravishda siyosiy partiyalar faoliyatini, xususan, uning mafkuraviy jihatini o‘rgangan olimlar guruhini uch guruhga bo‘lib o‘rgandik. Birinchi guruh mazkur yo‘nalishni o‘rgangan g‘arb olimlariga M.Veber, T.Parsons, V.Pareto, J.Sartori, T.Gobss, R.Mixels, P.Meyr, J.Brays, K.fon Beyme, Antuan Destut de Trasi va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Ikkinchi guruhga siyosiy partiyalarni, xususan, ularning mafkuraviy faoliyatini tadqiq qilgan rus olimlariga M.Ostrogorskiy, V.Pugachyov, A.Solovev, B.Isaev, S.Lansov, V.Malsev, B.Krilov O.Tolpigina, M.Brandes, L.Dzaxova, Dj.Byazrova kabi olimlarni kiritishimiz mumkin.

Siyosiy partiyalar faoliyatiga doir ilmiy tadqiqotlar olib borgan mamlakatimiz olimlariga Q.Nazarov, M.Qirg‘izboyev, Sh.Paxrutdinov, N.Jo‘rayev, I. Ergashev, V.Qo‘chqorov, X.Odilqoriyev, B.Amanov, B.Yakubov, U.Tilavov, X.Axmedov, U.Bo‘tayev kabilarni kiritishimiz mumkin.

Qadimdan jamiyatning shakllanishi va rivojlanishida, unda turli institutlarning paydo bo‘lishi va faoliyat yuritishida mafkuralarning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Mafkura insonlarni birlashtirib aksariyat hollarda ularni taraqqiyot sari yetaklovchi kuch hisoblanadi, ayrim buzg‘unchi, vayronkor mafkuralar bundan mustasno, albatta. Jamiyatda mafkuralarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi to‘g‘risida turli olimlarning turlicha qarashlari mavjud.

Bugungi kunda ham dolzarb bo‘lgan mafkurani chuqur tahlil qilgan birinchi tadqiqot-chilardan biri fransuz faylasufi va iqtisodchisi Antuan Destut de Trasidir. Uning

tushunchasiga ko'ra, mafkura g'oyalar haqidagi fan bo'lib, u "inson tafakkurining mohiyatini o'rganib, nima to'g'ri, nima noto'g'ri ekanligini ayta oladi..." [5]. Shuningdek, mafkuraning vujudga kelishida madaniy qadriyatlarining, an'analarning ta'siri juda katta hisoblanadi.

O'tgan asrning ko'plab nazariyotchilari (T.Parsons, V.Pareto va boshqalar) tadqiqotlarida mafkuraning mustahkamlovchi, birlashtiruvchi, safarbar qiluvchi roli haqidagi g'oya ifodalangan.

Ularning tushunchasida mafkura jamiyatda barqarorlikni saqlashga hissa qo'shadigan ma'lum bir konstruksiya sifatida tushuniladi, chunki u qadriyatlarga asoslanadi va shaxslar, guruhlarning faoliyatini belgilaydi. Mafkura yaratadigan modellar tanqidiy vaziyatlarni, tarqoqlik, qarama-qarshilik va dushmanlik holatlarini yengishga yordam beradi [6]. Mafkuraning yuqoridagi xususiyatlari jamiyatning siyosiylikni instituti siyosiy partiyalarning mohiyati bilan uyg'un ekanligini ko'rishimiz mumkin, buning sababi, fikrimizcha, ular ham mafkuraviy asosga qurilganligidadir.

Siyosiy partiyalar tarix davomida xalqlar taraqqiyotini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynagan. Mohiyati mafkuraviy tafovutlar asosiga qurilgan ushbu institutlar chuqur evolyutsiyani boshdan kechirib, hozirgi zamonaviy shaklda muayyan guruh, qatlam siyosiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan, ularning siyosiy irodasini ifodalovchi, maqsadi hokimiyat bo'lgan kuchli siyosiy institut sifatida qarab kelinadi.

Siyosiy partiyalarning vujudga kelishida asosiy omillardan biri sifatida mafkuraning paydo bo'lishi va uning xilma-xilligi alohida ahamiyat kasb etadi. B.Yakubovga ko'ra, ommaviy siyosiy partiyalarning vujudga kelishiga turtki bergan muhim asoslardan biri o'zida jamiyat taraqqiyotiga doir konseptual yondashuvlarni jam qilgan mafkuralarning (liberalizm, konser-vatizm, sotsializm, anarxiya va h.k) yuzaga kelishi bilan bog'liq [2].

Siyosiy partiyalar paydo bo'libdiki, ular o'rtasida o'zaro va hokimiyatga nisbatan mafkuraviy qarama-qarshiliklar mavjud va ularning mohiyatiga mos normal holat hisoblanadi.

Masalan, Qo'shma Shtatlarda federalistlar va antifederalistlar federal hokimiyat va shtatlar huquqlarining roli haqida bahslashgan bo'lsa, Yevropada konservatorlar va liberallar o'rtasidagi bo'linish monarxiya, individual huquqlar va demokratiya tushunchalari atrofida sodir bo'ldi [9].

Umuman olganda, siyosiy partiya mafkuralarining shakllanishi va rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida gap ketganda, eng avvalo, siyosiy partiya mafkurasini tushunchasiga ta'rif berishimiz lozim. Siyosiy partiyalar mafkurasiga siyosatshunos olimlarning turlicha yondashuvlari mavjud. Masalan, I.Meleshkin o'zining tadqiqotida "partiya mafkurasini – siyosiy partiyaning ijtimoiy jarayonlari va maqsadlariga oid qarashlarni aks ettiruvchi hamda shu partiyaning (ham elita, ham oddiy partiya a'zolari) ma'naviy va moddiy manfaatlarini ifodalovchi g'oyalar tizimi" [7] deb ta'rif berib o'tgan.

Izlanishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pchilik taraqqiy etgan mamlakatlarda jamiyatning siyosiy, iqtisodiy asoslarini saqlab qolishda muhim rol o'ynovchi, hukmron doiralarning asosiy mafkura tashuvchisi sifatida siyosiy partiyalar (hukmron siyosiy partiyalar) qaraladi. Buning asosiy sabablaridan biri hukmron siyosiy partiyalar va elitaning mafkuralari bir-biriga aksariyat hollarda yaqin va mos tushadi.

B.Krilovga ko'ra, xorijiy mamlakatlarning aksariyatidagi siyosiy partiyalarning dasturlari ham murakkab hodisa sifatida qaraladi. Ular, bir tomondan, ushbu partiyalar vakillari bo'lgan aholi qatlamlarining manfaatlarini va mafkurasini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, ular aholi orasida va shu orqali davlat organlari tomonidan olib borilayotgan siyosatga ta'sirini kuchaytirish maqsadida saylovchilar orasida eng ko'p tarafdorlarni jalb qilishga qaratilgan.

Tabiiyki, bunda davlat manfaatlari ham, siyosiy partiyalarning yetakchi arboblarning shaxsiy qarashlari va manfaatlari ham ko'proq uyg'unlashadi [4]. Ayrim siyosatshunos olimlar tomonidan siyosiy partiyalar jamiyatda asosiy fikr va g'oyalarni ishlab chiquvchi institut sifatida qaraladi. Jamiyatni taraqqiyot sari boshlovchi mafkuralar g'oyalar majmuyidan tashkil topadi, g'oyalarning vujudga kelishida makon, zamon, siyosiy vaziyatlar bilan bir qatorda aholining asrlar davomida shakllanib kelgan ma'naviy qadriyatlarini muhim ahamiyat kasb etadi.

<https://ssau.ru/staff/339558-tolpygina-olga-anatolevna> Olga Tolpigina fikricha, siyosiy partiyalar jamiyatdagi asosiy "fikr, g'oya yaratuv-chi"lardan biri: aslida bu ularning normativ demokratik ideal nuqtayi nazaridan asosiy vazifasi – partiyalar ijtimoiy manfaatlarini ifodalaydi va ularni siyosiy platformalarga aylantiradi, ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarni (g'oyalar) qo'yadi, siyosiy kun tartibini shakllantiradi va shu bilan siyosatga ta'sir qiladi. Albatta, demokratik tizimlarda bu yondashuv ideal-tipik sxema bo'lib, voqelikka u yoki bu darajada mos keladi. Biroq rejimning yuqori darajadagi raqobatbardoshligi va plyuralizm hamda mafkuraviy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlovchi institutsional xususiyatlari, albatta, partiyalarning mafkuraviy ijodkorligini rag'batlantiradi [8].

Siyosiy partiya mafkuralarining shakllanishi to'g'risida gap ketganda siyosatshunos olimlar tomonidan "partiya spektri" degan tushuncha ham ilmiy tadqiqot ishlarida qo'llanilgan. Bunda "Mafkuraviy spektr" tushunchasining sinonimi sifatida "partiya spektri" tushunchasi qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin.

Partiya spektri deganda biz partiyalarning ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishning asosiy masalalari, siyosiy tizim iqtisodiyoti, milliy taraqqiyot, xalqaro munosabatlar va boshqalar bo'yicha mafkuraviy pozitsiyalarining yig'indisini, boshqa siyosiy subyektlar (partiyalar, siyosiy institutlar, hokimiyat va boshqalar), siyosiy tizim va butun jamiyat bilan munosabatlarni ifodalashini tushunamiz [8].

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, siyosiy partiyalar mafkuralarsiz mavjud bo'la olmaydi, o'z navbatida mafkuralarni yaratuvchi, rivojlantiruvchi ularning harakatlarini ta'minlovchi siyosiy tashkilotlar ham siyosiy partiyalardir. Siyosiy partiya mafkurasi, uning shakllanishi va rivojlanishi to'g'risida gap ketganda, eng avvalo, siyosiy mafkura, uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar to'g'risida bilimga ega bo'lishimiz lozim. Chunki siyosiy mafkuraning tarkibiy qismi sifatida partiya mafkuralari tadqiq etiladi.

Siyosiy mafkura – bu muayyan ijtimoiy qatlamlarning muhim, ustuvor manfaatlarini aks ettiruvchi, ularni davlat hokimiyati yordamida amalga oshirishga intiladigan g'oyalar, ideallar, qadriyatlar majmuyidir. Siyosiy mafkuralar mavjud ijtimoiy munosabatlarni saqlashga yoki ularni o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi [2].

Siyosiy partiya mafkuralarining shakllanishida g'oyalar, g'oyalarning shakllanishiga madaniy qadriyatlar, shuningdek, an'analar katta ta'sir ko'rsatadi. Siyosiy partiyaning jamiyatni yetaklovchi, boshqaruvni shakllantiruvchi kuch sifatida shakllanishini uning mafkurasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Siyosiy partiyalarning mafkuralari muayyan guruhning siyosiy qadriyatlarini targ'ib qiladi va uning yetakchilikni amalga oshirishda pozitsiyasini namoyon qiladi.

Siyosiy partiyalarning mafkuralari shakllanishi va rivojlanishi hamda unga ta'sir etuvchi omillarni dunyoda eng taraqqiy etgan mamlakatlardan biri AQSh misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, mamlakatda muayyan bir mafkuraning "davlat mafkurasi" sifatida qaralmasligini, ya'ni yagona mafkura ustuvorligi o'rnatilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur qoida jamiyatda so'z erkinligi, mafkuraviy xilma-xillik kabi demokratiya tamoyillarini mustahkamlaydi.

Amerika siyosiy hayotida yetakchi hisoblangan ikki partiya respublikachilar va demokratlarning mafkuraviy platformalari bir-biridan farq qiladi. AQSh Respublikachilar partiyasi (Republican Party) 1854-yilda tashkil topgan, o'z dasturlarini konservatizm, neokonservatizm, milliy demokratiya, iqtisodiy liberalizm, neoliberalizm va federalizm kabi g'oya, mafkuralar asosida shakllantirgan [10].

2000-yillar boshida Respublikachilar partiyasi faqat konservativ Amerika qadriyatlariga tayanishni boshladi. Respublikachilar erkin bozor iqtisodiyoti tarafdori bo'lib, bu partiya dasturiy hujjatlarida aks etgan [12]. AQSh da ushbu partiya tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida ko'plab islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Tadbirkorlik subyektini qo'llab-quvvatlash, ularga solinadigan soliq yukining keskin kamaytirilishi jismoniy shaxslar, fuqarolarning ham iqtisodiy ahvolidan ko'tarilishiga olib keldi.

Respublikachilar partiyasi tarixiga nazar tashlasak, u ko'proq AQSh shimolidagi sanoat egalari manfaatlarini ifodalab, quldorlikka qarshi pozitsiyada bo'lgan. Ular konservativ mafkura tarafdori hisoblanib, davlatning iqtisodiyotga aralashuviga hamda kuchli ijtimoiy himoya tizimini joriy qilish unda davlatning faol ishtirokiga qarshi chiqadi. Ammo shunga qaramasdan, u faoliyatining ayrim davrlarida davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotga faol aralashuvini tan olgan.

Hozirgi kunda mazkur partiya erkin bozor iqtisodiyoti tarafdori bo'lib, AQSh milliy mudofaa qobiliyatini, energetika mustaqilligini mustahkamlash, shuningdek, abortga qarshi aholi qatlami, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash tarafdorlari manfaatlarini himoyalaydi. Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz zarurki, mazkur partiya noqonuniy migrantlarga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish tarafdoridir.

AQSh Demokratik partiyasining rasmiy tashkil etilgan sanasi 1828-yil 8-yanvar [14]. Demokratlar dastavval agrar jamiyat, ya'ni qishloq jamiyatining shahar jamiyatidan afzal ekanligini undan o'tib ketishini ta'kidlashgan.

1890-yillardan boshlab va undan keyin partiya mafkurasida liberal va progressiv tenden-siyalar kuchaya boshladi. Demokratlar tarixan ishchilar, fermerlar, etnik va diniy ozchiliklar, kasaba uyushmalari vakillari bo'lgan. Tashqi siyosatda internatsionalizm ustunlik qilgan. Sotsiologlar va tadqiqotchilarning fikricha, Demokratik partiya mafkurada XX asrning 40–50-yillarida chap tomondan markazga, keyin esa 70–80-yillarda yanada o'ng markazga o'tgan. Respublikachilar avval markazdan o'ngroqqa, so'ngra yana o'ngga o'tishdi [14].

Demokratlar, asosan, sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida qulay xizmatlar uchun kurashuvchi, aholining nochor qatlamlarini himoyalovchi va yordam ko'rsatadigan, xalqaro do'stlik (internatsionalizm) siyosatini himoya qiluvchi ijtimoiy yo'naltirilgan siyosiy partiyadir [3]. Ammo shuni ham aytib o'tishimiz kerakki, mazkur partiyaning rivojlanish tarixiga qaraydigan bo'lsak, demokratlar dastlabki faoliyatining ilk davrlarida qullikni saqlab qolish, shuningdek, shtat qonunchiligi federal qonunchilikdan yuqori turishi tarafdori bo'lgan. Demokratlar partiyasi bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga davlat instituti faol aralashishi zarurligini ta'kidlab keladi. Ayniqsa, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun, uning aholiga qulay bo'lishi yo'lida davlat keng imkoniyatlar yaratib, katta mablag'larni yo'naltirish zarurligiga e'tibor qaratadi.

Demokratik partiyaning mafkuraviy oqimlari "Demokratik partiya" ichidagi asosiy oqimlar: 1. Amerikaning progressiv demokratlari (liberal qarashlarga ega). 2. Libertar demokratlar (Libertarlarga yaqin qarashlarga ega). 3. Konservativ demokratlar yoki ko'k it demokratlari (mo'tadil konservativ qarashlarga ega). 4. Yangi demokratlar yoki mo'tadil demokratlar (liberal qanot va konservativ qanot o'rtasidagi pozitsiyani egallagan partiyadagi eng nufuzli harakat) [11].

Umuman, AQSh saylovlarida siyosiy partiyalarning platformalari prezidentlik saylovlarida shakllantiriladi va ular keng qamrovli bo'ladi. Masalan, 2020-yilgi saylovlarda siyosiy partiyalar platformalari ikki qismdan muhokama etilmaydigan "Axloqiy masalalar" va muhokama etiladigan "Siyosiy masalalar"dan tarkib topganligini ko'rishimiz mumkin.

Muhokama etilmaydigan "Axloqiy masalalar"ga: 1. Tug'ilishdan tabiiy o'limgacha bo'lgan inson hayotining qadr-qimmat. 2. Tabiiy nikoh va oilaning qadr-qimmat. 3. Din erkinligi, erkinlik.

Muhokama etiladigan "Siyosiy masalalar" ga: A. Urush va tinchlik.

B. O'lim jazosi. C. Sog'liqni saqlash. D. Iqtisodiy siyosat. E. Immigratsiya. F. Ekologik siyosat [16].

Demokratlar partiyasi platformasida: "Demokratlar reproduktiv salomatlik, huquqlar va adolatni himoya qilish va rivojlantirish tarafdori. Biz, ko'pchilik amerikaliklar singari, har bir ayol yuqori sifatli reproduktiv salomatlik xizmatlaridan, shu jumladan, xavfsiz va qonuniy abortdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerakligiga aniq ishonamiz", deyilgan. Respublikachilar partiyasi platformasiga ko'ra, "Konstitutsiyaning hech kim "hayotidan, ozodligidan va mulkidan mahrum etilishi" mumkin emasligi haqidagi kafolati Mustaqillik Deklaratsiyasining "barchaga" "Yaratgan" tomonidan ajralmas yashash huquqi berilganligi haqidagi moddasiga moslangan. Shunga ko'ra, biz inson hayotining muqaddasligini ta'kidlaymiz va tug'ilmagan bolaning hayotga bo'lgan asosiy huquqiga ega ekanligini tasdiqlaymiz, uni buzib bo'lmaydi [16] deyilgan. Shuningdek, ular davlat mablag'laridan abortni amalga oshirishga qarshi chiqishganligini ko'rishimiz mumkin.

AQShda bo'lib o'tgan 2020-yilgi prezidentlik saylovlari dunyo hamjamiyati uchun murakkab davrda, barcha sohalar, shu jumladan, sog'liqni saqlash tizimi inqirozi sharoitida bo'lib o'tdi.

Koronavirus pandemiyasi sababli 2020-yilgi AQSh prezidentlik saylovlarida yangi platformani tayyorlash, muhokamaga qo'yish hamda qabul qilib, tasdiqlash mushkul ekanligi hisobga olinib, Respublikachilar partiyasi tomonidan 2016-yilgi saylovlarda ilgari surilgan saylovoldi platformasidan foydalanishni, prezidentlikka nomzod sifatida partiyadan yagona nomzod sifatida D.Tramp ko'rsatilishini ma'lum qildi [17].

Shu o'rinda, AQShda bo'lib o'tgan 2016-yilgi prezidentlik saylovlarda Respublikachilar partiyasi saylovoldi platformasi qabul qilingan bo'lib unda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratilgan edi: Amerika orzusini qayta tiklash; Konstitutsiyaviy hukumat faoliyatini qayta yo'lga qo'yish; Amerika tabiiy boyliklari: qishloq xo'jaligi, energetika va tabiatini asrash; Hukumat islohoti; Buyuk Amerika oilasi, ta'limi va sog'liqni saqlash tizimini yuksaltirish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish; AQSh qudratini tiklash [13] kabilar.

Shuningdek, 2016-yilgi saylovlarda quyidagi yo'nalishlar Demokratlar partiyasi saylovoldi platformasi asosiy yo'nalishlarini tashkil etdi: O'rta sinf uchun daromadlarni oshirish va iqtisodiy xavfsizlikni tiklash; yaxshi maoshli ish o'rinlarini yaratish; iqtisodiy adolat va tengsizlikka qarshi kurash; amerikaliklarni birlashtirish va imkoniyatlar oldidagi to'siqlarni olib tashlash; saylov huquqlarini himoya qilish; moliya tizimi va demokratiyani barqarorligini ta'minlash; iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, toza energiya yaratish; iqtisodiy va ekologik xavfsizlik huquqi; sifatli va arzon ta'limni taqdim etish; barcha amerikaliklarning salomatligi va xavfsizligini ta'minlash; prinsipial yetakchilik; harbiylarni qo'llab-quvvatlash va faxriylarni asrab-avaylash; global tahdidlarga qarshi kurashish; qadriyatlarini asrash; dunyoda yetakchilikni ta'minlash [15].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, AQSh da mavjud siyosiy partiyalar mafkuralari

shakllanishi jarayoni murakkab va shu bilan birgalikda uning rivojini na'muna sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Mazkur jamiyat siyosiy hayoti mafkuraviy xilma-xillikka asoslanganligi va unda siyosiy partiyalarning o'rni beqiyosligi ya'ni, ular mafkura yaratuvchisi, tashuvchisi hamda ularni rivojini ta'minlashda asosiy siyosiy institut ekanligiga guvoh bo'ldik. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda siyosiy partiyalarning mafkuraviy faoliyatini rivojlantirishda AQSh tajribasining ijobiy jihatlari o'zimizga moslab o'zlashtirishimiz lozimdir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, siyosiy partiyalar mafkuralarining shakllanishi va rivojlanishiga doir nazariya va siyosiy amaliyotni ilg'or xorij tajribalari asosida tadqiq etishimiz mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning mafkuraviy yo'nalishdagi faoliyatini yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy partiyalar mafkuralarini shakllantirish va rivojini ta'minlashda asrlar mobaynida shakllanib kelgan an'ana, qadriyatlar omiliga urg'u berish, shuningdek, aholining siyosiy madaniyatini oshirishdagi ahamiyati beqiyosdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Siyosiy partiyalar mafkuralarining shakllanishi va rivojlanishini ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'rganishni davom ettirish;

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar mafkuraviy faoliyatini muntazam ravishda monitoring qilish, ularga ta'sir etuvchi omillarni guruhlariga bo'lib o'rganish tizimini joriy qilish;

Tadqiqot markazlari va siyosiy partiyalar hamkorligida mafkuraviy targ'ibotning samarali texnologiyalarini ishlab chiqishni yo'lga qo'yish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Тошкент:Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б.592.
2. Bo'taev U.X., Siyosatshunoslik [Matn]: darslik/ U.X.Bo'taev – Toshkent: Info Kapital Books, 2024. –B.480.
3. Алексеев Р.А., Прохоров Э.Т. Идеология в политических программах республиканской и демократической партий США: сравнительный анализ. Азимут научных исследований: экономика и управление. 2023. Т. 12. № 1(42).
4. Борис Крылов. Вопросы политической идеологии в зарубежных странах. Сравнительное Конституционное Обозрение. 2011.№6 (85). –С.71.
5. Брандес М.Э. Идеология и миф: общие черты // Политическая наука. Политическая идеология в современном мире. 2003. № 4. – С.45.
6. Дзахова Л.Х., Бязрова Дж. Б. Государственное и муниципальное управление. Ученые записки СКАГС. 2017. № 1. –С.151.
7. Мелешкин И.Г. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. Санкт-Петербург. 2008. – С.25.
8. Толпыгина О.А. Идеино-политические контуры партийного ландшафта современной России: Монография / РАН. ИНИОН. Центр социал. науч.-информ. исслед. Отд. полит. науки. – М., 2014. – С.174.
- Emma. The Evolution of Political Parties: From Ideology to Identity. <https://medium.com/@EmmaTJ/the-evolution-of-political-parties-from-ideology-to-identity-962d347f7e39>.
9. Wagner, H.L. The History of the Republican Party. – New York: Chelsea House, 2007. – P. 72.
10. Политические партии в США: истории возникновения, место в политической жизни. [https://studbooks.net/578592/politologiya/ideologicheskie\\_techeniya\\_demokraticeskoy\\_partii](https://studbooks.net/578592/politologiya/ideologicheskie_techeniya_demokraticeskoy_partii)

11. Republican platform URL. <https://int.nyt.com/data/documenthelper/7019-republicaplatform/>
12. Republican Platform 2016. URL: <https://prod-cdn-static.gop.com/static/home/data/platform.pdf>
13. US Democratic Party: history, symbol, leaders <https://fashionrebelsbook.com/17288870-democratic-party-of-the-usa-history-symbol-leaders#menu-2> 2016 Democratic Party Platform. URL: <https://prod-cdn-static.gop.com/static/home/data/platform.pdf>
14. 2020 General Election of the United States Major Party Platforms In Comparison with Catholic. Teaching On the Non-Negotiable Moral Issues And the Negotiable Policy Issues. Eternal Word. Television Network © 2020 (may be non-commercially distributed). <https://www.ewtn.com/img/catholicism/downloads/voting/2020-platforms.pdf>.
15. 2020 Republican Party Platform Resolution. Retrieved from: [https://ballotpedia.org/The\\_Republican\\_Party\\_Platform,\\_2020](https://ballotpedia.org/The_Republican_Party_Platform,_2020).

## GERMANIYANING MIGRATSIYA MASALADAGI TASHQI VA ICHKI SIYOSATI

**s.f.b.f.d, dotsent Muydinov Dilshod Najmiddinovich,**

O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

[muydinov86@list.ru](mailto:muydinov86@list.ru)

ORSID: 0000-0001-8408-2813

UDK: 325.11:327 (584.4)

**Annotatsiya.** Maqolada Germaniyaning Yevropa mintaqasida eng ko‘p migrant qabul qiluvchi davlat sifatida ahamiyati va hukumatni migratsiya masalasida olib borgan tashqi va ichki siyosati, xususan, hukumat boshliqlarining qo‘llagan loyihalari yoki Germaniyaning YEI doirasida ushbu masala yuzasidagi kelishuvlari, Germaniya aholisining migrantlar va qochoqlarga bildirilgan munosabatlari, ko‘plab insonlar jamoasining kirib kelishi sabab Germa-niya kelajakda qanday masalalar bilan yuzlashishi mumkin va migrantlarning qochoqlarning ushbu davlatdagi ulushi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Germaniya ishchi dasturlari doirasida mehnat migrantlarini dastlab Janubiy Yevropa mintaqasi davlatlaridan jalb qilgan bo‘lsa, keyinchalik Sharqiy Yevropa mintaqasidan, Afrika va Yaqin Sharq mintaqalaridan migrant va qochoqlarning ommaviy kirib kelishi yuz berdi. Natijada Germaniya ichki ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, ijtimoiy-madaniy muammolar bilan birga, siyosiy va xavfsizlik muammolarini ham kuchaytirdi. Mamlakat ichki hayotida immigrantlarga qarshi kayfiyat jiddiy ma’noda ortdi. Bu Germaniya ichki va tashqi siyosatida migratsiya masalasini dolzarb darajadagi kun tartibiga olib chiqdi.

**Kalit so‘zlar:** Repatriatsiya, Aussiedler, Vertriebener, Fluchtling, jus sanguinis, qochoqlar, migrantlar, migratsiya

## EXTERNAL AND INTERNAL MIGRATION POLICY OF GERMANY

**Abstract.** The article examines the importance of Germany as a country receiving the largest number of migrants in the European region, as well as the foreign and domestic policies of the German government on the issue of migration, the features of projects used by heads of government or agreements on this issue within the E–U, the attitude of the German population towards migrants and refugees. What problems Germany may face in the future due to the influx of migrants and the proportion of migrants and refugees in this country. As part of Germany's work programs, labor migrants were first attracted from the countries of the southern European region, and later there was a mass influx of migrants



and refugees from the Eastern European region, Africa and the Middle East. As a result, serious changes took place in the internal socio-political life of Germany, along with socio-cultural problems, political and security problems also increased. In the internal life of the country, the mood against immigrants has seriously increased. This brought the issue of migration to the top of the agenda in German internal and foreign policy.

**Key words:** Repatriation, Aussiedler, Vertriebener, Flüchtling, jus sanguinis, refugees, migrants, migration

**Kirish.** Mintaqadagi eng ko'p migrantga ega bo'lgan Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) tashqi va ichki siyosatida migratsiya masalasi muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Xususan, Germaniya migratsiya borasida ichki siyosatida federal miqyosda qabul qilingan qonunlar bilan birga, federal okruglarining (viloyatlari) ham o'zining migratsiya borasida ichki tartib-qoidalari mavjud va unga ko'ra immigrantlarni boshqaradi. Tashqi siyosatida esa Germaniya asosan Yevropa Hamjamiyati, keyinchalik Yevropa Ittifoqi doirasida migratsiya va qochoqlarga nisbatan siyosatini olib bordi.

Albatta, bunday ko'plab insonlar oqimining kirib kelishiga tarixda ham sabablar bo'lgan, shu bilan birga, yaqin yillarga ham qaraydigan bo'lsak, 2011-yilda boshlangan Yaqin Sharqdagi urushlar va 2022-yilda Rossiyaning Ukrainaga hujumi natijasida Yevropa qit'asiga, xususan, Germaniyaga ham ko'chish sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, Germaniya Yevropa markazida joylashgan yirik sanoat ishlab chiqarishiga ega, Yevropa davlatlarida o'rtacha farovonlik hayoti darajasidan yuqorida turishi bilan har doim migrantlarni diqqat-e'tiborida bo'lgan davlat hisoblangan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** XX asr oxiriga kelib Germaniya migrantlar orasida uzoq vaqtlardan beri Germaniyada yashagan odamlar nemis qonunlari bo'yicha "xorijlik" maqomida qolayotgan tendensiyaga duch kelgan. Bu davlat uzoq vaqt migratsion o'sish ahamiyatini ro'yxatga olmagan va tushunmaganligini bildiradi. Hatto ko'chib kelgan etnik nemislar ham uyga qaytib kelganlar sifatida qabul qilingan. Ko'p holatlarda xorijliklar fuqarolikni olishga harakat qilmagan. Chunki fuqarolik olish jarayoni qiyin va uzoq vaqtni talab qilgan, ikkinchidan, fuqarolikka ega bo'lmaslik davlatda yaxshi bir hayot kechirishiga, ta'lim olishi va biznes yuritishiga to'siq bo'lmagan. Shuningdek, fuqarolikni olish xorijliklarni har doim ham nemis jamiyatiga tezda integratsiyalashuvini bildirmagan [1].

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, Germaniyada an'anaviy shaklda migratsiyaning 3 manbasi mavjuddir: eski Germaniya tuproqlaridan, sobiq Sovet o'lkalaridan va Sharqiy Yevropadan surilgan, quvilgan yoki eskidan u yerlarda asirda qolgan etnik nemislar (Aussiedler, Vertriebener, Flüchtling), O'rtayer dengizi davlatlaridan kelgan musofir ishchilar (Gastarbeiter) va boshpana izlab kelgan – iltijochilar (Asylant) [2]. Demak, shu uch manbani tashkil etuvchi migratsiyalarga nisbatan Germaniya ham uch xil siyosat yuritgan.

1953-yilda chiqarilgan Federal qochoqlar va surgundagilar qonuniga ko'ra, etnik nemislarga [3] ba'zi sotsial xizmatlarda alohida haq va imtiyozlar berildi. Bular orasida mutaxassislikka o'qish va til kurslari, yoshiga nisbatan 2000-3000 yevro integratsiyalashuvi uchun yordam, sog'liq sug'urtalari bilan kafolatlash, ish yerlarini topib berish va boshqa bir qancha imtiyozlarga ega bo'ldi. Eng ahamiyatlisi, boshqa (uzoq vaqtdan beri Germaniyada yashagan bo'lsa-da) immigrantlarga berilmaydigan fuqarolik etnik nemislarga hech qanday to'siqlarsiz va muammosiz darhol berildi. Ushbu holatni o'rgangan olim Kasles quyidagilarni keltirgan edi: "Qon bog'i (jus sanguinis) tamoyili hali ham Germaniya millatchiligining asosiy tamoyilidir. Faqat nemis qonidan bo'lsangiz nemis sifatida qabul qilinassiz. Kimyoviy o'laroq nemis qoni boshqa qonlardan farqli

bo'lmaganiga qaraganda, buning isboti sotsial bir masaladir. Masalan, bunga nemis oilasidan tug'ilgan va uylanganlik guvohnomasini ko'rsatib nemis jamiyatiga oid bo'lish va nemis tilini ishlatish yo'li bilan nemis millatiga tegishlilikini bildirish orqali erishish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, Germaniya bir madaniy-millatdir (kulturna-tion) va bu holat 1871-yilda kechroq bir millat davlat sifatida o'rta chiqishi va u yaratgan vaziyatning bir natijasidir. Yuz yillardir nemis millati siyosiy bo'lishdan ziyoda madaniydir" [3].

Ushbu "repatriatsiya" (orqaga qaytish) siyosati bir tomondan nemis millatini yuqorida aytib o'tganimizdek, orqaga o'z ona-vatani Germaniyaga qaytib kelishni ta'minlagan bo'lsa, boshqa tomondan musofir ishchilarni (Gastarbeiter) o'z vatanlariga qisqa vaqtlarda qaytib ketishini ham bildirar edi. Lekin repatriatsiya siyosati musofir ishchilar uchun to'liq muvaf-faqiyatli amalga oshmadi. Albatta, ushbu siyosat natijasida 1950-yildan 2000-yillargacha kelgan 30 million ishchi-migrantdan 22 millioni o'z yurtlariga qaytib ketgan edi. Turli sabablarga ko'ra, Germaniyada qolayotgan ishchilarning siyosiy va huquqiy maqomlari esa noaniq bo'lib qolayotgandi. Shu bois, 1990-yillarga kelib, mamlakatda uzoq vaqtlardan beri yurgan xorijliklarning siyosiy-huquqiy maqomini aniqlashtirish masalasi dolzarb mavzuga aylandi.

O'sha paytlarda Germaniyadagi xorijiy immigrantlarning siyosiy-huquqiy masalalariga doir bahs-munozaralarini tahlil qilgan nemis olimi Kanstrum shunday deb yozgandi: "Germaniya migratsiya qonunlari bir-biri bilan raqobat holatidagi ikki tushuncha orasida kuchli qarama-qarshilikni aks ettirmoqdadir. Bir tomondan, Germaniya urushdan keyin shakllantirgan liberal, erkinlik va inson haqlari konstitutsiya bilan mustahkam bir shaklda himoyalangan ochiq bir jamiyat idealiga ega.

Ammo boshqa tarafdin, bu qarashga qarshi bir shaklda Germaniyada migratsiya siyosati iqtisodiy xavotirlar, yagona madaniyatni saqlab qolish harakatlari, etnik va qon bog'iga aloqador fuqarolik chegaralarini shakllantirmoqda. Bu ikki qarash orasidagi bosim, ya'ni inson haqlariga asoslangan ochiq, ko'p madaniyatli bir jamiyat ideali bilan etnik millatchilikka qadar boradigan yopiq, yagona madaniy jamiyat ideali – urushdan keyingi davrdan beri Germaniyaning immigratsiya qonunlarida haligacha aksini topmoqda" [4].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Xorijliklar to'g'risidagi qonun 2000-yil 1-yanvarda yangi Fuqarolik qonuni bilan qaytadan o'zgartirildi. Islohotda asos qilib olingan "qon tamoyili" o'zgartirilib, uning o'rniga fuqarolikni tug'ilish bilan (tuproq tamoyili) qo'lga kiritilishi belgilab qo'yildi. Qonun fuqarolikni olmoqchi bo'lganlarni 1993-yil 1-iyuldan avval va keyin tug'ilganlar shaklida ikkiga ayirdi. Agar bola 1993-yil 1-iyuldan keyin tug'ilgan bo'lsa, Germaniya tuproqlarida tug'ilgan bola hisoblanadi va ota-onasi xorijlik bo'lsa-da, fuqarolikni qo'lga kiritish huquqiga ega bo'ladi. Buning uchun yagona shart oila eng kamida 8 yil Germaniyada yashagan bo'lishi va 3 yillik propiskaga ega bo'lishi kerak edi. Fuqarolik haqqini shaxs 23 yoshga kelganda o'z xohishiga ko'ra o'zgartirishi mumkin edi. Germaniya fuqaroligini tug'ilishdan qo'lga kiritgan ushbu shaxslar 23 yoshga kelganda yo o'z vatanini yoki Germaniya fuqaroligini, ya'ni ikkisidan birini tanlashga majbur edi. Ammo bu "opsion majburiyat" 2014-yilda fuqarolik to'g'risidagi qonunchilikdagi islohotlar natijasida bekor qilindi. Chunki Germaniya 2014-yildan "ikki fuqarolik" (dvoynoe grajdanstvo) haqlarini tan oldi [5].

Germaniyaning migratsiya davlati bo'lish-bo'lmasligi to'g'risidagi tortishuvlar 2000-yilda Shryoder hukumati tomonidan chiqarilgan va bilimlari xorijliklarni mamlakatga olib kelishni maqsad qilgan "Green card" (Yashil karta) dasturi bilan boshlandi. Bu bo'yicha tegishli qonun qabul qilishda u paytda hukumatdagi kaolitsion Sotsial demokratlar (SPD) malakali xorijlik olimlarni Germaniyaga kelishini istagan bo'lsa,

Ozodlik demokratik partiyasi (FDP) esa mehnat bozori talabidan kelib chiqish tarafdori edi. Xristian birlik partiyalari (CDU va CSU) avval boshidan buyon migratsiyani chegaralash va xavfsizlik jihatlariga katta ahamiyat qaratish kerakligini ta'kidladi [6].

2004-yil 25-mayda o'sha davr hukumat kansleri Gerxard Shryoder boshchiligida hukumat va muxolifat o'rtasida o'rtoqlik kelishuviga erishilgan holda qabul qilingan va 2005-yil 1-yanvardan kuchga kirgan "Immigratsiya qonuni" (Zuwanderungsgesetz – ZuWG) Germaniyada migratsiyaning nazoratini va kirib kelishni chegaralash va saralash bilan Yevropa Ittifoqi fuqarolari va xorijliklarni Germaniyada yashash va moslashishiga oid talablari belgilandi. Qonunning birinchi moddasi shu ifodalarni ilgari surgandi: "Qonun, Germaniya Federatsiyasiga xorijliklarning kelishini nazorat va chegaralash uchun xizmat qilmoqda. Bilimli va moslasha olish qobiliyatiga ega shaxslarni iqtisodiy va mehnat bozori siyosatlarining manfaatlariga mos shaklda migratsiya qilishini shakllantirish va imkoniyat berishni maqsad qilmoqda" [6].

Mehnat bozori talablaridan, insoniy talablarga tayangan migratsiya va ayni paytda milliy migratsiya siyosatigacha Germaniya migratsiya siyosatidagi juda ko'p sohalarga oid o'zgartirish-larni bildiruvchi yangi Migratsiya qonuni endigina kuchga kirish paytida YEI tamoyillari bilan zid kelgan jihatlarini ko'zdan kechirib chiqish maqsadida 2005-yil noyabrdan hukumatni boshqarib kelayotgan Angela Merkel boshchiligidagi Xristian Birlik partiyalari va Sotsial-demokratlar partiyasining shakllantirgan "Katta kaolitsion hukumati" "Migratsiya qonunini o'zgartirish to'g'risida"gi qonunini tayyorladi. Shu munosabat bilan, xorijliklar va yashash huquqi bilan bog'liq ba'zi moddalar ko'zdan kechirilib yanada aniqlashtirildi. 2007-yil 14-iyunda Federal Majlis (Bundestag), 6-iyulda Federal viloyat vakillari majlisida (Bundesrat) qabul qilingan va 2007-yil 28-avgustda kuchga kirgan bu yangi o'zgarishlarning asosiy xatlari shulardir: Qochoqlar ariza topshirgan paytda boshlang'ich darajada nemischa bilimiga ega bo'lishi, yetarlicha katta uyda yashashi va maktab paytidagi bolalari bor bo'lsa, maktabga yuborilganligi hujjatlari taqdim etilganida vaqtincha yashash ruxsati berilishi belgilandi. Shuningdek, jinoiy javobgarliklari bo'lmasligi, radikal va terrorist tashkilotlar bilan ham aloqada bo'lmasliklari kerak. Bu yashash ruxsatini uzaytirish bilan bog'liq holatda shaxslarning o'z boshiga tirikchilik vositalarini ta'minlagan bo'lishi sharti bilan belgilanadigan bo'ldi.

"Differensial ayirmachilik migrantlarning jamiyatni ma'lum bir sohalorida (hammasidan oldin ishchi kuchi bozoriga) qabul qilinib, boshqa sohalarga (sotsial yordam tizimi, fuqarolik va siyosiy ishtirok kabi) kirishlarining rad etilishi ma'nosini bermoqda. Migrantlar, fuqarolik jamiyatining – ishchi, iste'molchi va ota-ona sifatida bir parchasi bo'lgan, ammo iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy aloqalarida to'liq ishtirok etish huquqidan mahrum bo'lgan etnik kamchilik holiga aylanmoqda. Etnik kamchiliklar odatda sotsio-ekonomik jihatdan befoyda bo'lganligi uchun sinf va etnik kelib chiqishi orasida kuchli va doimiy bir aloqa bordir", deb yozgandi [7].

Kansler Angela Merkelning qochoqlar inqirozida "ochiq eshiklar" siyosatini olib borib "nazoratni yo'qotib qo'rganini" va buni "biz to'g'irlaymiz" deb ta'kidlab o'tdi. Bu yerda aytib o'tilishi kerak bo'lgan masala, aslida A.Merkelning qochoqlar bo'yicha "ochiq eshiklar" siyosati tushunarsiz bo'lgan. Chunki A.Merkelning o'zi migratsiyaga qarshi bo'lgan va 2005-yilda hokimiyatga kelgan paytdan boshlab "ko'p madaniyatlilik muvaffaqiyatsizlik" bo'lganini doim ta'kidlab kelgan. Shuningdek, G.Shryoderning "yumshatilgan" fuqarolik berish talablarini A.Merkel qat'iyashtirgan edi. Buning asosiy sabablari A.Merkelning qo'llab-quvvatlovchilari xristian-demokratik partiya tarafdorlari, ya'ni nemis an'ana va qadriyatlariga juda sodiq bo'lgan qadimchilar edi. Shu bois, A.Merkelning "ochiq eshiklar" siyosati birinchi navbatda, iqtisodiy asoslarga borib taqaladi. Chunki nemis xalqi demografik o'sishda dunyodagi eng past darajada bo'lib,

aholi qarishi yiliga ortib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, Germaniyada yiliga 300 ming atrofida odamlar o'z mehnat faoliyatini tugatib, pensiyaga chiqmoqda [8].

Aholining o'sishi buni ta'minlay olmaydi. Oxirgi migratsiya oqimidan ishsizlik ortib, nemis iqtisodiyoti jiddiy zarar ko'rishini ta'kidlagan bo'lsa, rasmiy ma'lumotlar buning aksini ko'rsatdi. 2016-yil ish bilan bandlik o'rtacha 36 ming odamga ortib, umumiy hisobda 43,5 mln.ga yetib rekord darajani qayd etdi. Qochoqlar orasida ham bandlik o'tgan yilga nisbatan 10 ming insonga ko'paydi. Bu borada Bloomberg bu yil ishsizlik darajasi past darajada saqlanib qolib, 6,1%ni, lekin kelasi yil 6,2%ga o'sishini bashorat qilgan bo'lsa, Germaniya Markaziy banki (Bundesbank) bu borada optimist bo'lib, ularning ekspertlari ishsizlik 2018-yil 5,8% gacha tushushiga ishonch bildirgan [9].

Umuman olganda, qochoqlar oqimi cho'qqiga chiqqan paytda 2016-yil ish bilan bandlik va ishsizlik 25 yil davomida kuzatilmagan darajani qayd etgan bo'lsa, ishlab chiqarish qochoqlar hisobiga shaxsiy iste'molning ortishi bilan oxirgi besh yilda eng tez o'sishni ko'rsatdi [10].

Shu bois, yuqoridagilardan kelib chiqib, A.Merkelning "ochiq eshiklar" siyosati ostida iqtisodiy asoslar yotganini ko'rishimiz mumkin. Chunki boshqa yo'l bilan bunday miqiyosdagi immigrantlarning qabul qilinishi juda qiyin masala bo'lib, immigrantlarni qabul qilish nafaqat mamlakat ichidagi siyosiy guruhlar bilan kompromisga borish balki, YEI doirasida ham tegishli qaror va qonunlar qabul qilinishi kerak bo'ladigan uzoq protseduralarni o'z ichiga olardi.

Boshqa tarafdin, A.Merkel "ochiq eshiklar" siyosatining sabablari sifatida doim ta'kidlab kelayotgan Jeneva shartlarini bajarish bo'ldi. Chunki 1951-yil qabul qilingan Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Jeneva konvensiyasiga ko'ra, davlatlar urushdan qochganlarni va siyosiy ta'qibga uchraganlarni himoya qilish va ularga yordam berish majburiyatini zimmlariga olgan.

Shunday bo'lsa-da, Germaniya hukumati, xususan, A.Merkel konservativ nemis xalqini bu boradagi qarashlarini to'g'ri baholay olmagan. Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, qochoqlar uchun byudjet xarajatlari va jinoyatchilikning ortishi bilan mahalliy aholining juda qattiq qarshiligiga va noroziligiga uchradi. Bu ayniqsa, 2017-yilda parlamentga saylovlarda A.Merkel-ga jiddiy muammo chiqardi va avvalgi saylovga ko'ra, 8 foiz kam ovoz oldi. Uning 8 foizlik ovozini antimigrant va qochoqlarga qarshi ultra-radikal partiya AfD qo'lga kiritdi.

Natijada, A.Merkel hukumat qurishda katta qiyinchilikga duch keldi. Birinchi urinish natija bermadi, qayta saylovlarga qolishi muhokama qilina boshlandi. Lekin, keyingi urinishla-rida Sosial-demokratlar bilan koalisiya tuzishga erishdi [11].

Bunday bo'lishini A.Merkel kutmagandi. Lekin saylovlardan keyin ham vaziyat iziga tushmadi, balki ichki qarama-qarshilik kuchayib bordi. Ayniqsa, qochoq va migrantlarga qarshi tashkilotlar harakatlari faollashdi. Natijada A.Merkel ham mamlakatda ultra-radikal partiya va tashkilotlarning obro' va e'tiborlarining oshib ketishining oldini olish maqsadida bir qancha qochoq va migratsiyaga qarshi keskin choralar ko'ra boshladi.

A.Merkel ishga kirisharkan "Biz Germaniya va Yevropaga qochib kelayotgan odamlarning sonini 2015-yildagi vaziyat qayta takrorlanmasligi uchun barqaror va doimiy ravishda kamaytirishga harakat qilamiz. Biz buni kafolatlaymiz" deb bayonot beradi. Keyinchalik, yiliga 200 mingacha qochoq va boshpana so'rovchilarni qabul qilish kvotasini (limitini) belgilab qo'ydi [12]. Qochoqlar va boshpana istovchilarga nisbatan ham qat'iy choralar ko'rila boshladi. 2017-yil oktyabr-noyabr oylarida 19520 odam deportasiya qilingan bo'lsa, 8639 nafari o'z xohishiga ko'ra uylariga qaytib ketdi [13]. 2017-yil yanvar boshidan may oxirigacha 107 ming qochoqlar arizalari bekor qilingan.

Shulardan 32 ming ariza Afg'oniston fuqarolaridan kelib tushgan bo'lgan [14].

**Natijalar va muhokama.** Germaniyada migratsiya bo'yicha siyosati uch guruhga bo'lingan holda olib borildi. Birinchisi, etnik jihatdan nemis bo'lganlarni ona-vataniga qaytib kelishni ta'minlash va ularga keng imkoniyatlar berish siyosati. Ikkinchisi, ikkinchi jahon urushidan keyin iqtisodiy maqsadlarda chaqirtirilgan klassik ishchi migrantlar bilan bog'liq siyosat bo'lib, ularga 1980-yillargacha vaqtinchalik musofir ishchi deb qarab kelingan. Vaqt o'tishi bilan ularning qolishi aniq bo'lishi yangi turdagi Xorijliklar to'g'risidagi qonun, keyinchalik Fuqarolik to'g'risidagi qonun va nihoyat Migrantlar to'g'risidagi qonun bilan Germaniyada qolib ketgan migrantlarning (ayirmachilikka asoslangan bo'lsa-da) siyosiy-huquqiy maqomlari shakllantirildi.

Uchinchisi, bu bugungi kunda Germaniyaning eng katta muammosiga aylangan va ko'plab bahs-munozaralarga sababchi bo'lgan qochoqlar va boshpana so'rovchilarga yo'naltirilgan siyosati hisoblanadi. Bu masalada Germaniya ko'plab yutuq va tajribalarga ega bo'ldi hamda hal qilinmagan jiddiy muammolar qarshisida qoldi.

Shunday bo'lsa-da, Germaniya tomon qochoq va boshpana izlab boruvchilar sonini kamaytirmadi. Balki ular uchun Germaniya eng optimal variant bo'lib qoldi. Buning asosiy sababi, birinchidan, Germaniya iqtisodiy jihatdan tez va muvaffaqiyatli o'sib borayotganligi, ikkinchidan, Germaniya 1951-yil qabul qilingan "Qochoqlar va boshpana so'rovchilar to'g'ri-sida"gi Jeneva konvensiyasini shartlarini bajarish borasida yetarlicha ahamiyat qaratganligi bo'ldi.

BMT 2016-yilgi qochoqlar va migrantlar haqida Nyu-York deklaratsiyasida ko'rsati-lishicha, 2015-yilda dunyo bo'ylab taxminan 65 million odam o'z joylarini majburiy o'zgartirgan [15]. Bu o'z navbatida, Yevropa ayniqsa, Germaniyaning ichki va tashqi siyosatiga katta ta'sir qildi. Germaniya ushbu "to'lqin" oldida ichki mojarolarga to'lib ketdi va faol tashqi siyosiy diplomatiya yuritishga majbur bo'ldi.

Ichki mojarolar ikki guruhni tashkil qildi. Birinchi guruh vakillari qochoqlar borasidagi A.Merkelning "ochiq eshiklar" siyosatini tanqid qiluvchilar, ikkinchi guruh, tanqid qiluvchilarni vaziyatni "haddan tashqari mubolag'alashtiriyotganlikda" ayblayotganlar.

Birinchi guruh vakillari oxirgi paytda antimigratsiya, antiislom, Yevrospektiv ko'rinishi-dagi harakatlar va siyosiy partiyalar (AfD, PEGIDA va boshqalar) vakillari, ularni qo'llab-quvvatlovchilar.

Ikkinchi guruh vakillari, migratsiya to'lqinidagi vaziyatdan foydalangan holda o'z siyosiy karyeralarini mustahkamlashni maqsad qilganlarga qarshi fikr bildiruvchilar, A.Merkelni qo'llab-quvvatlovchilar yoki uni bu vaziyatda aybdor deb hisoblamaydiganlar edi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2015-2017-yillarda Germaniyaga 2 millionga yaqin qochoqlar va boshpana so'rovchilar kelgan. Kutilmaganda, rejasiz bunday miqdorda migrantlarning kirib kelishi ichki siyosiy barqarorlikka keskin ta'sir qildi. YouGov tadqiqot instituti 2018-yil 20-iyundan 4-iyulgacha Kansler A.Merkel va Ichki ishlar vaziri Xorst Zeexofer o'rtasida qochoqlar siyosati bo'yicha mojaro cho'qqiga chiqqan paytida o'tkazgan so'rovlarida 2040 ishtirokchi qatnashdi. Ishtirokchilarning 72 foizi Germaniya migratsiya siyosatini "juda e'tiborsiz" deb hisoblagan [16].

Nemislarning noroziligining ortishiga migrantlar sonining ko'payishi bilan jinoyatchilik va huquqbuzarlikni ortishi va qochoqlarga moliyaviy sarf-xarajatlarning ko'payib borayotganligi ta'sir qilgan. Jumladan, 2016-yilning birinchi olti oyida migrantlar tomonidan 142500 ta jinoyatlar sodir etilgan bo'lib, ular orasida jinsiy zo'ravonlikka aloqador og'ir jinoyatlar ham bo'lgan. Shuningdek, Germaniya moliya vaziri Olaf Sholsning 2018-yil 19-mayda Der Spiegel gazetasiga bergan intervyusida

Germaniya migratsiya siyosati uchun byudjetidan 2022-yilda (yani, 4 yil uchun) 78 mlrd yevro (bir yilda o'rtacha 20 mlrddan) sarflashini ma'lum qilgandi. Bu raqam Germaniyaning salkam yillik mudofaa tizimiga sarf-xarajatlar (o'rtacha 25-30 mlrd yevro) bilan yaqinligini ham bildirardi.

Germaniya hukumati qochoqlar borasida ichki siyosiy mashmashalari bilan shug'ullanish bilan birga YEI doirasida ham bir qancha chora-tadbirlarni ko'tarib chiqdi. Chunki 1999-yilda Tamperedda bo'lib o'tgan yig'ilishda YEIning boshpana va migratsiyaga bog'liq harakat rejasini rivojlantirish yo'lida qaror qabul qilishgandi.

Unga ko'ra, YEI davlatlari har qanday inqiroz paytida bir-birini qo'llab-quvvatlashi kerak edi. Ammo 2015-yil o'rtaga chiqqan qochoqlar inqirozida bunday bo'lmadi. Qochoq va boshpana so'rovchilarni yuzdan sakson foizi Germaniya gardaniga tushdi. A.Merkel YEI davlatlariga ushbu inqirozdan chiqib ketishda qo'llab-quvvatlashlarini bir necha bor ta'kidlab, migratsiya bo'yicha birodarlik siyosatlarini yuritish kerakligini ilgari surdi. Bu maqsadlarda Germaniya boshchiligida Yevrokomissiya 2015-yil mayda qochoqlarni YEIning 28 davlatiga ularning YIMdan va ishsizlik darajalaridan kelib chiqib bo'lish bo'yicha kvota tizimini taklif qildi [17]. Lekin, asosan, Sharqiy Yevropa davlatlari ushbu kvota tizimiga qarshi chiqdi. Shu yil 26-iyunda YEI Kengashi vazirlar uchrashuvida kvota g'oyasidan voz kechildi, uning o'rniga har bir davlat o'z xohishi bilan 40 mingdan qochoqlarni qabul qilishiga kelishib oldi.

Ammo o'sha yili 4-5 sentyabrda Lyuksemburgda Yevrokomissiyaning norasmiy uchrashuvida yana kvota tizimiga qaytish taklifi berildi. Bu gal 120 ming odamni qabul qilishi ta'kidlandi. 14-sentyabrda Bryusselda bo'lib o'tgan YEI Kengashi yig'ilishida kvota masalasi ko'tarilib unga Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Polsha, Ruminiya va Boltiqbo'yi davlatlari jiddiy qarshilik bildirdi [20].

YEI doirasida keyinchalik qochoqlar bo'yicha yagona yoki hamkorlikdagi dasturlarni ishlab chiqish besamara ketdi. Hatto Merkel Vengriya va Polshaga qochoqlarni mamlakatlariga kiritmayotganligi uchun jazolanishi mumkinligini ham bildirgandi. Ko'pgina Sharqiy Yevropa davlatlari qochoqlar bo'yicha Bryussel emas, Berlin qarorlar chiqarayotganligi uchun norozi bo'lmoqda [18].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Germaniya hukumati qochoqlar va boshpana so'rovchilar muammosini hal qilishga harakat qilmoqda. Yuqorida aytib o'tilganidek, 2022-yilgacha 78 mlrd yevro bu yo'nalishga sarflanishini bildirilgan. Shundan 31 mlrd yevro qochqinlar chiqib kelayotgan davlatda migratsiyaga sabab bo'layotgan muammolar bilan kurashga sarflanishi ta'kidlanmoqda. Bu Germaniyani qochoqlar va migratsiya bo'yicha bundan keyin ham faol tashqi siyosat olib borishni bildiradi. Boshqa tomondan ushbu masalada YEI doirasida Germaniya oxirgi paytlar yakkalanib qolmoqda.

Shuningdek, Germaniya migratsiya borasida ichki siyosiy qarama-qarshi kuchlar bilan ham murosaga kelishga majbur bo'lmoqda. Ko'pchilik ekspertlarning umumiy xulosasiga ko'ra, Germaniya mazkur qochoqlar inqirozidan "sog'-omon" chiqib ketishi va hatto iqtisodiy jihatdan o'ziga foyda bilan chiqishini ta'kidlamoqda.

Vaziyat iqtisodiy omillarga bog'liq bo'lmasa-da, siyosiy omillarga bog'liqligi Germaniyadagi ultra-radikal va millatchi siyosiy harakatlar va tashkilotlarning faollashuviga zamin yaratmoqda. Shu bois ham, A.Merkel ushbu qochoqlar inqirozidan "silliq" chiqib ketishi, turli radikal va millatchi siyosiy harakatlar va partiyalarning ham obro'sini pasaytirishga erishishi mumkinligini taxmin qilishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Корьякина Е. Ю., Особенности миграционной политики Германии на рубеже XX – XXI вв. // Внутренняя политика Европейских стран в Новейшее время. Вестник Кемеровского государственного университета. 2015, № 3 (63) Т. 2. –С.125.
2. Canefe N., “Citizens versus permanent guests: cultural memory and citizenship laws in a reunified Germany”, Citizenship Studies, 2(3), 1998, p.525.
3. Castles S., “How Nation-states Respond to Immigration and Ethnic Diversity,” New Community, 21(3): 1995, p.206.
4. Kanstroom D., “Wer Sind Wir Wieder? Laws of Asylum, Immigration and Citizenship in the Struggle for the Soul of the New Germany,” Yale Journal of International Law, 18 (1): 1993, p.160.
5. Zuwanderung gestalten // <https://www.tatsachen-ueber-deutschland.de/de/rubriken/gesellschaft/zuwanderung-gestalten>
6. Netzreportage - Die Green Card Diskussion im Überblick // <https://e-politik.de/alt-e-politik.de/beitragf167.html> Beitrag\_ID=602
7. Rückblick: Zuwanderungsgesetz 2005 // <https://www.bpb.de/gesellschaft/migration/dossier-migration/56351/zuwanderungsgesetz-2005?p=all>
8. Castles S. and Miller M. J., The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World (Forth edition), Palgrave-Macmillan: Basingstoke. 2008.
9. Германия vs мигранты: Меркель закрыла открытые двери // <https://news.rambler.ru/world/38116340-merkel-menyayet-politiku-v-otnoshenii-migrantov> 10 октября 2017
10. Батафсил маълумот учун: Расплата Меркель: что показал кризис власти в Германии // <https://ria.ru/world/20171120/1509183595.html?injs=1>
11. Германия vs мигранты: Меркель закрыла открытые двери // <https://news.rambler.ru/world/38116340-merkel-menyayet-politiku-v-otnoshenii-migrantov> 10 октября 2017
12. Миграционная политика Германии: конец культуры гостеприимства? // <https://www.dw.com/ru/миграционная-политика-германии-конец-культуры-гостеприимства/a-39794984> 07.09.2017
13. Die Welt: Германия лидирует в ЕС по рассмотрению заявок на убежище // <https://www.dw.com/ru/die-welt-германия-лидирует-в-ес-по-рассмотрению-заяв/a-41636752>
14. Генеральная Ассамблея ООН. Нью-Йоркская декларация о беженцах и мигрантах. 15 сентября 2016 года.
15. Манбаа: Миграционная политика Германии: конец культуры гостеприимства? // <https://www.dw.com/ru/миграционная-политика-германии-конец-культуры-гостеприимства/a-39794984> 07.09.2017
16. Иктибос манбаси: 72 % немцев недовольны миграционной политикой Германии // <https://aussiedlerbote.de/2018/07/migrazionnaya-politika-germanii-glasami-nemzev/> 11.07.2018
17. Миграционные проблемы Европы: тысячи погибших, новые границы и раскол ЕС // <https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/2259836>
18. Как мигранты изменили Германию? <https://www.bbc.com/russian/features-37177070>

**MADANIY MAKON – MADANIY BORLIQNING MAVJUDLIK SHAKLI****Sunatov Dilshod Hoshimovich,**

Qarshi davlat universiteti va Xalqaro innovatsion universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

[sunatov\\_d@bk.ru](mailto:sunatov_d@bk.ru)

ORCID: 0009-0003-8044-3687

UDK: 100.63(045)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, “borliq” tushunchasining genezisi, evolyutsiyasi va rivojlanishi tarixi, “borliq”ni ikkita katta guruhga: birinchidan, moddiy borliqqa; ikkinchidan, madaniy borliqqa ajratib, madaniy borliqning mazmun-mohiyati kengroq yoritilgan va tadqiqot masalasining optimal yechimini topish uchun “madaniyat” tushunchasi uch aspektda tahlil qilingan. Madaniy borliqqa insonning qo‘li va aql zakovati

bilan moddiy va ma'naviy boyliklarga ishlov berish, parvarishlash, tarbiyalash natijasida tabiat olami va kishilik jamiyatida yaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar natijasida muayyan tartib, ko'lam va miqyosga ega bo'lgan narsa va hodisalarning hosilasi sifatida ta'rif berilib, zamonaviy faylasuf olimlar tomonidan ilgari surilgan "borliq" tushunchasining tasniflash tamoyillariga ko'ra "madaniy borliq"ni ikki guruhga (obyektiv madaniy borliq, subyektiv madaniy borliq) bo'lib, o'rganish orqali: "madaniy borliq" qanday shaklda mavjud bo'lmasin, u o'zgaruvchanlik, rivojlanuvchanlik, takomillashuvchanlik, xullas, transformatsiyalashuv xususiyatlariga ega ekanligi, ular ko'pincha dialektik va ba'zi hollarda esa sinergetik tarzda harakatlanishi mumkinligi izohlangan. Shu bilan bir qatorda, madaniy makon madaniy borliqning mavjudlik shakli sifatida asoslantirilib, ba'zi xorij hamda o'zbek faylasuflarining madaniy borliq xususiyatlari to'g'risidagi ilmiy-falsafiy qarashlari va "borliq"ning fenomen sifatidagi tasniflari atroflicha ochiqdangan.

**Kalit so'zlar:** "fenomen", "dasiyn", borliq, madaniy borliq, obyektiv madaniy borliq, subyektiv madaniy borliq, madaniy makon, M.Xaydegger, A.G.Spirkin, J.Y. Yaxshilikov, N.E. Muhammadiyev, B.O. To'rayev, yo'qlik, makon va zamon.

### CULTURAL SPACE IS THE FORM OF EXISTENCE OF CULTURAL BEING

**Abstract:** In this article, the history of the Genesis, the Evolution and development of the concept of "being", and the concept of "culture" is analyzed in three aspects to distinguish "being" into two large groups: first, material being; second, Cultural being, to find the optimal solution to the issue of research. A Cultural being is defined as a derivative of something and phenomena with a certain order, scope and scale as a result of socio-economic, political-legal, spiritual-educational processes created in the world and Human Society of nature as a result of processing, maintaining, upbringing of material and spiritual assets by the hand and intelligence of man, dividing "Cultural being" into two groups (objective cultural being, subjective: it has been argued that whatever form the" Cultural being "exists in, it has the properties of volatility, developmental, refinement, cross-transformation, which can often move dialectically and in some cases synergistically. Alternatively, the cultural space is justified as a form of existence of Cultural being, and the scientific-philosophical views of some foreign and Uzbek philosophers about the properties of Cultural being and the classifications of "being" as a phenomenon are comprehensively disclosed.

**Key words:** "phenomenon", "dasiyn", being, Cultural being, objective cultural being, subjective Cultural being, cultural space, M.Xaydegger, A.G.Spirkin, J.Y. Yaxshilikov, N.E.Muhammadiyev, B.O.Turayev, absence, space and time.

**Kirish:** Inson hayotiy tajribasi, faoliyati, bilimi, ilmi, odob-axloqi, xatti-harakati bilan o'zining madaniy olamini boyitib boradi [1]. Madaniy faoliyat orqali amalga oshiriladigan turli jarayonlar va hodisalar (qadriyatlar, qoidalar, urf-odatlar, g'oyalar), insonlarning madaniy munosabatlari, bugungi davr sharoitida transformatsion o'zgarishlarga uchrab, o'z qiyofasini yangilab bormoqda. Yuz berayotgan turli hodisa va voqealar, o'z navbatida inson faoliyati hamda madaniy makonning ham ichki qurilishini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Madaniy makon madaniy faoliyat va madaniy birliklardan hosil bo'lishini hamda madaniy makon – madaniy borliqning mavjudlik shakli ekanligini inobatga olib, madaniy borliqqa subyektiv ta'sir etayotgan insonning madaniy faoliyatini tadqiq etish hamda madaniy borliqning tub mohiyatini falsafiy tahlil qilish, shu bilan birga uni madaniy faoliyat bilan aloqadorligini aniqlash ushbu muammolarning asosiy



yechimlaridan biri sifatida aniq tavsiyalarni berish imkonini beradi. Shuningdek, jahonda yuz berayotgan ommalashuv hodisalari madaniyatlar integratsiya-sini kuchaytirib, madaniy faoliyatning yangi ko‘rinishlarini vujudga keltirmoqda. Shu sababli, bu kabi muammolarning yechimini topish har qachongidan ham muhim sanaladi.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Tadqiqot davomida qo‘yilgan maqsadga erishish uchun natijani ideal, aqliy kutish, buning uchun ilmiy va kognitiv harakatlarni amalga oshirish talab etiladi. Odamzod tabiat olamida yashaydi va aqli mavjudod sifatida har tomonlama faoliyat yuritib madaniy borliqni kengaytirib boradi. Bu esa stixiyali tarzda emas, balki tartibli ravishda amalga oshiriladi. Xo‘sh, shunday ekan, madaniy borliq nima degan savol tug‘iladi. Bu savolga javob berishdan oldin “borliq” haqidagi tushunchaning mazmun-mohiya-tiga antiqlik kiritib, keyin madaniy borliq mohiyatini ochiqlash maqsadga muvofiqdir. Muammoning yechimini topishda ilmiy bilishning analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

**Natijalar va muhokama:** “Borliq” tushunchasining genezisi, evolyutsiyasi va rivojlanishi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu xususda turli xil, ya‘ni: mifologik, diniy, falsafiy, ilmiy-amaliy konsepsiyalar ilgari surilgan. Ularning barchasini tahlil qilish bizning tadqiqotimiz doirasiga kirmaganligi sababli bu haqda ba‘zi bir hozirgi zamon faylasuflarining fikrlarini keltirmoqchimiz.

Masalan, 1889–1976 yillarda yashab o‘tgan nemis faylasuf olimi M.Xaydegger falsafa ilmiga birinchi bo‘lib “fenomen” va “dasiyn” tushunchalarini kiritar ekan “Borliq va vaqt” nomli asarida: “Borliq o‘zining mohiyatidan ko‘ra, biron bir narsa mavjudligining mohiyatini ifodalaydi. Agar mavjudlikning mohiyati “nima bor?”, borliqning o‘zi esa “bu borliq nimani anglatadi?” degan savol bilan aniqlanadi. Borliq – bu Xudo ham va olamning asosi ham emas. Borliq – bu tosh, hayvon, san‘at asari, mashina, farishta yoki Xudodan ham insonga yaqin bo‘lgan narsadir. Bu insonning o‘zini o‘zi anglashi, ya‘ni inson borlig‘idir” [2]. Demak, M.Xaydegger borliq masalasini insonning mohiyatidan kelib chiqish orqali tushuntirishga uringan. Ungacha bu masala faylasuflar e‘tiboridan chetda qolib ketayotgan edi, desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Rossiyalik faylasuflardan A.G.Spirkin borliq masalasida: “Barcha mavjud narsalar borliqqa mansubdir. Ularga moddiy jismlar ham, barcha jarayonlar (fizik, ximik, geologik, biologik, ijtimoiy, psixologik, ma‘naviy) ham. Ularning xossalari, aloqalari va munosabatlari ham kiradi. Uchqur xayolotning mevasi bo‘lgan ertak va afsonalar, hatto bemorning xayolidagi alahsirashlar ham borliqning qismi bo‘lgan ma‘naviy reallik sifatida mavjuddir” [3], – degan holda uning ko‘lamini to‘g‘ri talqin qilgan edi.

O‘zbekistonlik faylasuf olimlardan Y.J.Yaxshilikov va N.E.Muhammadiyevlar: “Borliq – bu tabiat va jamiyatdagi xilma xil narsa, hodisa va jarayonlarni, alohida shaxs, ijtimoiy guruh va jamoalarni, inson ongining holati, darajasi va shakllarini mavjudlik belgilari asosida ifodalaydigan umumiy falsafiy kategoriyadir” [4], – degan ta‘rifni bergan bo‘lsa, ushbu ta‘rifni yanada to‘ldirgan B.O.To‘rayev: “Borliq – mavjudlikning barcha (moddiy va ma‘naviy) shakllarini, (real va noreal) turlarini va (o‘tmishdagi, hozirgi va kelajakdagi) ko‘rinishlarini o‘ziga qamrab oluvchi eng umumiy va universal falsafiy kategoriyadir” [5], – degan ta‘rifni keltiradi. Har ikkala ta‘rif ham to‘g‘ri bo‘lib, ularning biri tor ma‘nodagi, ikkinchisi esa keng ma‘nodagi ta‘rif hisoblanadi.

Barcha falsafiy adabiyotlarda borliqni: moddiy va ma‘naviy; aktual va potensial; real va virtual; tabiiy va ijtimoiy borliqqa ajratishadi. Shuningdek, tabiiy borliqni azaliy tabiiy borliq va “ikkilamchi tabiat” borlig‘iga ajratgan holda, “ikkilamchi tabiat” borlig‘ini: inson borlig‘i; ma‘naviy borliq; sotsial borliqqa ajratishgan bo‘lsa, vaqt oqimiga qarab esa “o‘tmishdagi borliq”, “hozirgi borliq”, “kelajakdagi borliq” kabi qismlarga ajratishadi [5].

Bizning nazarimizda “borliq”ning fenomen sifatidagi mazkur tasniflarida quyidagi holatga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Bunda “borliq”ni ikkita katta guruhga: birinchidan, moddiy borliqqa; ikkinchidan, madaniy borliqqa ajratish maqsadga muvofiqdir. Chunki har qanday “ikkilamchi tabiat” borlig‘i “madaniy borliq”dan boshqa narsa emas. Bunga asos qilib, insoniyat paydo bo‘lgan kundan boshlab, shu kungacha o‘z qo‘li va aql-zakovati bilan tabiat in’omlariga qayta ishlov berish orqali, ularni madaniylashtirib yaratgan “madaniy borliq”ni keltirish mumkin. Insonning mehnati tufayli tabiatdan o‘zini ajratib chiqish borasida yaratgan barcha mehnat qurollari, vositalar, zavodlar, fabrikalar, texnikalar, informatsion texnologiyalar, zamonaviy barcha qulayliklarga ega bo‘lgan uy-joylar, madaniyat maskanlari, adabiyotlar shular jumlasiga kiradi.

Madaniy borliq masalasini tadqiq qilgan S.O. Abduxaliqov: “Madaniy borliq jamiyat mavjudligi va rivojlanishining asosi hisoblanadi. Insonlar va ular tomonidan ishlov berib yaratilgan mavjudlik – madaniyat, ya’ni madaniy borliqning tarkibiy tomonlaridir” [6], –degan ta’rifni bergan edi. Aslida bu ta’rif masalaning tub mohiyatini ochib berishga qaratilgan bo‘lsa-da, ko‘zlangan maqsadga to‘lig‘icha erisholmagan.

Bizning fikrimizcha, bu masalaning optimal yechimini topish uchun “madaniyat” tushunchasiga oydinlik kiritish kerak bo‘ladi. Hozirgi kunda faylasuf olimlar “madaniyat” tushunchasini uch aspektida:

birinchidan, insonning o‘z qobiliyatini o‘zi erkin tarzda amalga oshirish, ya’ni erkin ijod qilishi;

ikkinchidan, voqelikka nisbatan qadriyatli munosabatda bo‘lishi;

uchinchidan, insonning o‘z qo‘li, aql-zakovati bilan yaratgan narsalarni aks ettiruvchi tushuncha sifatida talqin qilmoqdalar. Hozirga qadar “madaniyat” tushunchasiga berilgan ta’riflar 500 dan oshib ketgan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “Madaniyat [arabcha shaharlik, madinalik – sivilizatsiya] so‘zidan olingan bo‘lib, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmuyi” [7], –degan ta’rif berilgan. Shunga va yuqorida keltirilgan “borliq” tushunchasining tahlilidan kelib chiqqan holda “madaniy borliq” tushunchasiga quyidagicha falsafiy ta’rif berish mumkin.

*Madaniy borliq* – bu insonning qo‘li va aql zakovati bilan moddiy va ma’naviy boyliklarga ishlov berish, parvarishlash, tarbiyalash natijasida tabiat olami va kishilik jamiyatida yaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlar natijasida muayyan tartib, ko‘lam va miqyosga ega bo‘lgan narsa va hodisalarning hosilasidir.

Zamonaviy faylasuf olimlar tomonidan ilgari surilgan “borliq” tushunchasini tasniflash tamoyillariga ko‘ra “madaniy borliq”ni ham quyidagicha tasniflash mumkin.

1. *Obyektiv madaniy borliq* – bu ming yillar davomida inson tomonidan yaratilgan, hozirgi kunda uning ongiga bog‘liq bo‘lmagan realliklardan tashkil topgan borliq. Masalan, inshootlar, texnika va texnologiyalar, yaratilgan sun’iy suv havzalari, mutafakkirlar tomonidan yaratilgan yangiliklar va shunga o‘xshash boshqalar.

2. *Subyektiv madaniy borliq* – bu hozirgi kunda bevosita insonning ongiga bog‘liq bo‘lgan, g‘oyaviy, ma’naviy shakldagi borliq. Masalan, badiiy adabiyot, san’at, mafkura va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Bunda, shuni alohida e’tiborga olish zarurki, o‘zbek falsafasi nuqtayi nazaridan, ularni birini ikkinchisidan ajratish yoki ularni birini ikkinchisiga qarama-qarshi qo‘yish, birini ikkinchisidan ustun qo‘yish mumkin emas. Chunki ular bir-birlarini to‘ldirib turadi, biri ikkinchisiz mavjud bo‘lolmaydi, oqibatda reallik maqomiga erisha olmaydi.

Madaniy borliq qanday shaklda mavjud bo‘lmasin, u o‘zgaruvchanlik,

rivojlanuvchanlik, takomillashuvchanlik, xullas transformatsiyalashuv xususiyatlariga ega bo'lib, ular ko'pincha dialektik va ba'zi hollarda esa sinergetik tarzda harakatlanishi mumkin [8].

Madomiki, madaniy borliq insonning mehnati va aql-zakovati orqali moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlov berish natijasida hosil qilinarkan, uni aktual va potensial hamda real va virtual madaniy borliq sifatida ham tasniflash mumkin [5].

1991-yil sentabr oyida uzoq davom etgan ochiq va pinhona kurashlardan so'ng o'zining mustaqilligini qo'lga kiritgan o'zbek xalqi jahonning siyosiy xaritasida mustaqil davlat, ya'ni yangi madaniy borliq sifatida qaror topdi. O'tgan 30 yil ichida milliy tiklanish (1991-2016-yillar) yo'lini bosib o'tib, milliy yuksalish sari (2017-yildan boshlab) qadam qo'ydi. Uni madaniy borliq sifatida jahon ahli tan oldi.

O'zbekistonning mustaqil madaniy borliq sifatida mavjudligini, uning tezlikda makon va zamonda rivojlanib borayotganligini ko'rolmayotgan g'animlarimiz, u yo'q edi, uning "borligi" vaqtincha, undan keyin yana "yo'q" bo'lib ketadi, degan ma'naviy buzg'unchilikni tarannum etuvchi aksil mafkuraviy g'oyalarni ilgari surayotganligi hech kimga sir emas. Bu masalaning yechimini topish uchun esa "borliq" va "yo'qlik" tushunchalarining falsafiy ma'nosini chuqur anglamoq kerak.

Ma'lumki, tabiat va jamiyatning gultoji bo'lgan insoniyat timsolidagi inson foniy dunyoga keladi va vaqt o'tishi bilan boqiy dunyoga ravona bo'ladi. Shu davr ichida inson yashash uchun kurash olib boradi. Bu kurashda esa dunyo ichki qarama-qarshiliklardan, ziddiyatlardan iborat ekanligini bilib oladilar. Chunki uning atrofini o'rab turgan borliqdagi narsalar bir vaqtning o'zida ham o'zgaruvchan va ham o'zgarmasdir. Bu kim uchun borliq, yana kim uchun yo'qlikdir.

Bugungi kunda insoniyat yo "bor bo'lmoqlik (hayot); yoki yo'q bo'lib ketmoqlik (o'lim)" nima degan savolga javob qidirmoqda. Darhaqiqat, yadro falokati, ekologik bo'hronliklar, turli xil bedavo yuqumli kasalliklar (koronavirus pandemiyasi va shu kabilar) Yer sayyorasidagi million yillar bilan hisoblanadigan insoniyat mavjudligining tabiiy vaqtini o'nglab bo'lmaydigan darajada to'xtatib qo'yishi mumkin. Gap "bor bo'lmoqlik" yo "yo'q bo'lmoqlik" haqiqatan ham umumbashariy va mislsiz keskin masala bo'lib qolayotgan ekan, borliq va yo'qlik muammosini anglab olish ayniqsa muhimdir. Bunda uning oddiy hayotiy zaminlaridan tobora murakkabroq falsafiy mulohazalar va xulosalari tomon izchil siljib borish kerak bo'ladi.

"Borliq"qa aksil tushuncha sifatida "yo'qlik" tushunchasini ishlatishadi. Yo'qlik hech nimani, ya'ni nazarda tutilgan joyda hech nima mavjud emasligini anglatadi.

Yo'qlik esa nisbiy mazmundagi tushuncha bo'lib, qayerdadir yoki nimadadir, nimaningdir ayni paytda mavjud emasligini ifodalaydi. Masalan, yo'qlik deb o'tmishdagi va kelajakdagi hodisalarning hozirgi zamonda (ayni shu vaqtda) yo'qligini aytishadi. Bugungi hodisa kecha hali yo'q edi, ammo imkoniyatdagi borliq sifatida mavjud edi. Ertangi hodisa ham hozircha yo'qlik, ammo imkoniyatdagi borliqdir. Biz o'tmishni bugungi kunda qoldirgan iziga qarab, kelajakni esa bugungi hodisalardagi o'zgarish sur'ati va tendensiyalariga qarab baholaymiz. Bugungi voqelik ertaga yo'qlikka aylanadi, ko'pgina tirik jonivorlar ertaga o'lik bo'ladi, ya'ni hayot o'limga aylanadi. O'lim—bu hayotning yo'qligidir. Individning hayotiy borlig'i u o'lgach, yo'qlikka aylanadi. Ammo uning qoldiqlari, tanasi birdan yo'qolmasligi mumkin. Ular ham yo'qolgach, odamlar xotirasida uning siymosi qolishi mumkin. Xullas, mutlaq yo'qlikning o'zi yo'qdir. Yo'qlik shu ma'noda nisbiy mazmun kasb etadi.

Yo'qlikni bilish ma'nosida ham tushunish mumkin. Biz yo'q deb hisoblagan obyektlar hozircha bizning fikr bilish chegarasidan chetda qolgan bo'lishi ham mumkin. Voqelikning muayyan joyida ma'lum bir sinfga mansub obyektlar, olamning munosabat

va aloqadorliklarining uchramasligini ham yo'qlik deyish mumkin" [4].

**Xulosa va takliflar:** Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, madaniy makon falsafiy tadqiqotlar doirasida ko'p tizimli ammo birlashib ketmaydigan yagona umuminsoniy, madaniyatlararo makon sifatida talqin etiladi. Uning tarkibi g'oyat keng va murakkab bo'lib, o'zaro aloqador va uzviy bog'liq rivojlanib boradi. Butun borliq, moddiy va ma'naviy olam madaniy makonda mujassam topib madaniy borliq sifatida namoyon bo'ladi. Yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan insonlarning individual va jamoaviy madaniy faoliyati madaniy borliqni shakllantirdi [9].

Yo'qlik tushunchasi esa narsa va hodisalarning mavjud bo'lmaslik, yo'q bo'lish, haqiqiy bo'lmagan xususiyatlarini bildiradi. Yo'qlik–bu aslida mavjud bo'lmagan, hali paydo bo'lmagan yoki mavjudligini allaqachon to'xtatgan narsa. Borliqning namoyon bo'lish shakli bir narsadir, yo'qlik hech narsa emas. Yo'qlik–bu biron bir subyektning aniq faoliyat ko'rsatishi vaqtida real mavjud bo'lmagan narsalarni ifodalovchi umumiy falsafiy tushunchadir. Demak, mustaqil O'zbekiston madaniy makonda mavjud bo'lgan madaniy borliqdir. U mavjud, ayni kunda demokratik huquqiy davlatni bunyod etib fuqarolik jamiyatini shakllantirayotgan madaniy borliqdir. U o'ziga xos strukturaviy tuzilishga ega bo'lgan madaniy borliqning atributi bo'lmish makon va zamonda o'zgalardan ajralib turuvchi lokal shakldagi madaniy makondir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sunatov D.H. (2016). Commenting the concept of aptitude in the academic literature. In *Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives* (pp. 31-35).
2. Хайдеггер М. Бытие и время. – М.: Ad Marginem, 1997. Перевод с немецкого В.В. Бибихина. –С. 123.
3. Спиркин А.Г. Философия(учебник) – М.:«Высшая школа»,2000. –С. 243.
4. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev E.N. Falsafa. (darslik) – Samarqand: SamDU nashri, 2021. –B.58.
5. To'rayev B.O. Borliq (falsafiy tahlil). – Toshkent: IBXITM, 2022 – B. 9., 18.
6. Rustambayev M.X., Muhammadiyev N.E., Abduxalikov S.O. Milliy gvardiya xizmatchilari (xodimlari)ning kasb etikasi. Darslik.–Toshkent:“COMPLEX PRINT” nashriyoti, 2019. B. 21.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, Ж.П. 2008. – Б. 521.
8. Sunatov Dilshod Hoshimovich. (2022). Influence on Moral Consciousness in the National Cultural Space Factors. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 13, 31–34.
9. Sunatov D.H. Madaniy makon va axloqiy ong dialektik aloqadorligining falsafiy-konseptual tahlili. fal.fan.fal.dok. (PhD), ilmiy darajasini olish uchun yozilgan. – Samarqand: SamDU, 2022. – B. 52.

#### RAHBAR BOSHQARUV MADANIYATI MUAMMOSI: QO'L BOSHQARUVIMI YOKI TIZIMLI BOSHQARUV

**Rasulov Hakim Mamanovich**

Termiz davlat pedagogika instituti, kafedra mudiri,  
siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

[Rhm.1973@mail.ru](mailto:Rhm.1973@mail.ru)

ORCID: 0009-0003-6200-4664

UDK: 32 (332) 253.891

**Annotatsiya.** Maqolada rahbar boshqaruv madaniyati va uning ijro hokimiyati tizimidagi o'rni bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, davlat boshqaruv tizimida, xususan ijro hokimiyati tizimida qo'l boshqaruvi muhimmi yoki tizimli boshqaruvmi? degan muammo qiyosiy tahlil etiladi. Rahbar kadrlar faoliyatida siyosiy-huquqiy madaniyat darajalarining namoyon bo'lishi orqali boshqaruvning tizimliliigi ta'minlanishi asoslantirilgan. Shuningdek, rahbar kadrlar va jamoa faoliyatining

o‘zaro tinchlik va hamkorlik, bir-birini tushunish, o‘z kamchiligini ko‘ra bilish va o‘z o‘rnini anglab olish, mustaqil fikr va yaratuvchanlik faoliyati, rahbarlik faoliyati jarayonida shaxsiy manfaatlardan jamoa manfaatlarining ustuvorligi, boshqaruvning legitimligi kabi jihatlarning tahliliga ham e‘tibor qaratilib, uning ta‘minlanishida rahbar siyosiy va huquqiy madaniyatining darajasini o‘rganish maqsadi qo‘yilgan. Mamlakatimizda rahbar kadrlar faoliyatida siyosiy-huquqiy madaniyat darajalarining namoyon bo‘lishi orqali boshqaruvning tizimliliigi va legalligi ta‘minlanishi asoslantirilgan. Davlat hokimiyati tizimida “qo‘l boshqaruvdan – tizimli boshqaruvga” jarayoni yuz berishiga erishilish omillari tahlil etilib, tizimli boshqaruv ijro hokimiyatida amal qiladigan tartib-tamoyillarning siyosiy-huquqiy qadriyatiga aylanishi lozimligi ta‘kidlangan.

**Kalit so‘zlar:** Boshqaruv madaniyati, siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat, rahbar kadr, qo‘l boshqaruvi, tizimli boshqaruv, halolik vaksinasi, boshqaruvning tizimliliigi va legalligi.

### **CULTURE OF LEADERSHIP MANAGEMENT: MANUAL CONTROL OR SYSTEM MANAGEMENT**

**Abstract.** The article examines the problems associated with leadership culture and its place in the executive power system. Also, is manual control important in the public administration system, especially in the executive branch system or systematic management? the problem is comparatively analyzed. It is substantiated to ensure systematic management through the manifestation of levels of political and legal culture in the activities of management personnel. Also, mutual peace and cooperation, understanding each other, the ability to see one’s shortcomings and understand one’s place, independent thinking and creativity, prioritizing collective interests over personal ones in the process of leadership activities. Attention is paid to the analysis of aspects. such as the legitimacy of management, and set a goal to study the level of political and legal culture of the leader to ensure it. In our country, it is justified to ensure consistency and legality of management through the manifestation of the level of political and legal culture in the activities of leading personnel. The factors for achieving the process “from manual control to systemic management” in the system of government are analyzed and it is emphasized that systemic management should become the political and legal value of the procedures and principles applied in the executive branch.

**Keywords:** Management culture, political culture, legal culture, management personnel, manual control, systemic management, honesty vaccine, systematic and legal management.

**Kirish.** Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi davlat siyosiy-huquqiy tizimida siyosiy va huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda shu asosda boshqaruv madaniyatini demokratik qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishning ajralmas sharti sifatida qarashni taqozo etadi. O‘zbekistonda davlat va jamiyat taraqqiyoti xalqimiz hayotidagi tub o‘zgarishlar bilan bog‘liq amaliy jarayonlar bilan belgilanmoqda. Shu jihatdan, siyosiy-huquqiy madaniyat mamlakatimizda davlat va fuqarolik jamiyati butun tizimining faoliyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarning haqiqiy vositasiga aylanishi kerak. Ayniqsa, jamoatchilik nazorati va rahbar kadrlar faoliyatida siyosiy va huquqiy madaniyat muammolarini qiyosiy tahlil qilish, harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari konseptual tamoyil doirasidagi islohotlar zamirida jamoatchilik nazorat institutining shakllanishi, rahbar kadrlar siyosiy-huquqiy madaniyatining namoyon bo‘lish xususiyatlari, boshqaruv va kadrlar masalasini isloh qilish ustuvor masalalar hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ilmiy va siyosiy-huquqiy manbalarda davlat

boshqaruv tizimi qonunlarga asoslangan jamiyat demokratik, ijtimoiy munosabatlarda tenglik va qonun ustuvorligi ta'minlangan jamiyat sifatida ta'riflanadi. Qadimgi yunon mutafakkiri Aristotel "kimki qonun hokimiyat yuritsin, deb talab qilsa, bu go'yoki, faqat tafakkur va ilohiyot boshqaruvini so'raydi. Kimki inson hokimiyat yuritsin, deb talab qilsa, u o'z talabi bilan jamiyatga hayvoniy unurni olib kirishga uringan bo'ladi. Insonning his-tuyg'ularga berilishi hayvonlikdan o'zga narsa emas, hukmdorlarni ham g'azab to'g'ri yo'ldan ozdiradi. Qonun esa vazmin idrok demak" [1]. Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy boshqaruvning adolatli bo'lishligini quyidagicha izohlaydi: "... ba'zi shahar (mamlakat)lar bo'ladiki, ularda butun xalqning fikr-zikri, aql-idroki boylik to'plash, mol-dunyo orttirishga qaratilgan bo'ladi. Shu bois, erta-yu kech mol-dunyo to'plash harakatida yuradilar. Bunday rahbarlarning qo'li ostida ishlagan shahar xalqlarida turli buzuv odatlar shahvoniy nafs, bir-birini ko'rolmaslik, talash, dushmanlik, nizo-janjallar paydo bo'ladi. Ana shunday shahar xalqlaridan xislatlari, mayllari turlicha bo'lgan avlodlar tug'iladi" [2]. Abu Rayhon Beruniy adolatli, xalqparvar jamiyatni barpo etish uchun unga to'siq bo'luvchi ijtimoiy illatlardan qutilish kerak deydi: "Yovuzlikdan qutilish uchun inson tabiiy kuch ochko'zlikka hirs va g'azab ustidan hukmronlik qilishi darkor. Bular inson uchun eng kuchli va xavfli dushman. Mana shu ochko'zlik va g'azab ustidan aql va tafakkur kuchlari g'alaba qozonishi kerak" [3]. Yangilanayotgan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni ham shuni ko'rsatmoqdaki, "keyingi yillarda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan va tadrijiy tarzda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarishi bilan birga, boshqaruv ma'murlari va mulozimlarining ish uslublari, faoliyat yo'nalishlari ham yangicha sifat va zamonaviy mazmun kasb eta boshladi" [4]. Darhaqiqat, bugungi reallik ham shuni ko'rsatmoqdaki boshqaruvda qonun hukmron bo'lgan jamiyatlarda demokratiya, tenglik ta'minlanmoqda. Ilm-ma'rifatga, ma'naviyatga, adolatga, insof va diyonatga asoslangan, ochko'zlik, hirs va g'azab ustidan hukmronlikka erishgan jamiyatlarda rahbarlar odil va jamoatchilik e'tiborida bo'ladi. Huquq fanlari doktori A.Umirdinov ta'kidlaganidek, "siyosiy masalalardagi mansablarga tayyorlashda xoh rivojlangan davlat xoh oddiy davlat bo'lsin, ularga ma'lum darajada erkinlik beriladi. Bu konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan bo'lsa-da, davlat organlarining boshqaruv xizmatiga kim tanlanishidan qat'i nazar, ayniqsa, siyosatchilar millat va xalq oldida javobgar bo'lishadi" [5]. Shu jihatdan mamlakat taraqqiyotini ta'minlovchi islohotlar samaradorligining muhim omillardan biri-bu davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda boshqaruv kadrlarining jamoatchilik bilan hamjihatligining mavjudligiga bog'liq. "Mavjud vaziyat barcha darajalarda qaror qabul qilish jarayonida jamoatchilik fikrini yanada to'liqroq inobatga olishni talab etadi, negaki, odamlarning fikri o'zida boshlang'ich axborotni ifoda etib, boshqaruv tuzilmalariga jamoaviy ehtiyojlar, qiziqishlar, so'rovlar qadriyat yo'nalishlari, xulq-atvor tendensiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazish imkonini beradi" [6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani yozishda mantiqiy, siyosiy, huquqiy, qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi ilmiy bilish metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Mamlakatimizda bugungi amalga oshirilayotgan islohotlar rahbar va boshqaruv kadrlari siyosiy va huquqiy madaniyati bilan bog'liq bir qator talablarni qo'yimoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston xalqi va parlamentiga navbatdagi murojaatida "qo'l boshqaruvi"dan — aniq natijaga ishlaydigan tizimli boshqaruvga o'tish vaqti" [7] kelganligini aytgan bo'lsa, yana bir o'rinda "Vazirlarning Hukumat qabul qilayotgan qarorlarda, ta'bir joiz bo'lsa, "ovozi yo'q". Ya'ni, ularning ushbu qarorlarni tayyorlash va hayotga joriy etishdagi ishtiroki va

mas'uliyati yetarli emas" [7] ekanligiga e'tibor qaratib, boshqaruv tizimida yangicha islohotlar amalga oshirilishi lozimligini ta'kidlagan edi. Xo'sh "qo'l boshqaruvi" deyilganda nima tushiniladi? Uning tizimli boshqaruvdan farqi nimada?

Tadqiqotlarda "qo'l boshqaruvi"ning samaradorligi favqulodda vaziyatni boshqarish va barqarorlashtirish hamda salbiy oqibatlarni bartaraf etishda samarali nazorat qilish usuli sifatida qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Mazkur hodisa favqulodda boshqaruvni (ichki ishlar organlari faoliyatida, favqulodda vaziyat va harbiy sohalarda) tezkor amalga oshirish, jarayonlarni muvofiqlashtirish, jamoatchilikni birlashtirish, umumiy yetakchilikni ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda tadqiqotlarda "qo'l boshqaruvi" tushunchasi davlat boshqaruviga oid fanlarda, xususan, kratologiyada mavjud emasligi ham ta'kidlanadi [8].

"Qo'l boshqaruvi" iborasi tushuncha sifatida ilmiy jamoatchilik tomonidan tizimli o'rganilmagan bo'lsa-da, jarayon sifatida jamiyat va davlat boshqaruvida keng qo'llaniladigan hodisaga aylanib ulgiran. "Qo'l boshqaruvi" iborasi davlat rahbarining parlamentida tilga olingan, ommaviy axborot vositalarida ekspertlar va jamoat arboblari tomonida tahlil qilinayotgan bo'lsa-da, O'zbekiston ilmiy jamoatchiligida yetarlicha ilmiy tahlil qilinib, mazkur konsepsiyaning yaxlit umumlashgan ta'rifi ilgari surilmaganligini kuzatish mumkin. Boshqacha yondashadigan bo'lsak, tushuncha sifatida "qo'l boshqaruvi" iborasiga yagona ilmiy yondashuv ko'zga tashlanmaydi.

Mazkur tushunchalar tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "qo'l boshqaruvi" deganda davlat ijro hokimiyati tizimida mavjud qonun-qoidalar emas, asosan rahbar kadrlarning og'zaki topshiriq va ko'rsatmalari asosida boshqarish amalga oshirilishi tushiniladi. Bunda boshqaruv tizimida obyektiv emas, sub'ektiv omillar hal qiluvchi kuchga aylanadi. Boshqaruvda qonun-qoidalar emas, boshqaruv organlari va rahbar kadrlarning ko'rsatmalari (odatda mavjud qonun-qoidalar doirasidan tashqaridagi) ustuvorlik qiladi. Boshqaruv tizimi ishlaymay faqat "yuqoridan" ko'rsatma va topshiriq kelishi kutiladi. Boshqaruv tizimi vertikallashib, yuqoridan keladigan buyruqlarga qaram bo'lib boradi. Bunday holatlar davlat organlari faoliyatida qonun-qoidalar, ishlaymayotganligini ko'rsatadi. Natijada siyosiy institutlar faoliyatida tizimlilik buziladi. Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar nomukammal va o'zgaruvchan bo'lib qoladi. Qonun-qoidalarining qat'iyiligi buziladi.

Tizimli boshqaruv esa bir shaxs yoki yuqori turuvchi boshqaruv organiga bog'liq emas, balki xuddi ishlab chiqarish jarayonida bo'lgani kabi konveyer uslubida qat'iy tartib bo'yicha islohotlar jarayoni davom etishini ifoda etadi. "Tizim" – yunoncha "sistema" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zaro bog'langan va belgilangan yaxlitlik, birlikni tashkil qiluvchi qismlar yoki ko'pgina elementlardan tashkil topgan bir butunlikni bildiradi" [9]. Jamiyatning siyosiy tizimi davlat hokimiyati organlari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, jamoat tashkilotlari harakatlarini mujassamlashtiradi. Davlat boshqaruvida tizimli yondashuv hokimiyat tuzulmalari barcha bo'g'inlarining o'zaro bir-biri bilan bog'lanishda bo'ladi degan tezisga asoslanadi. Tizim bir-biriga bog'langan va bir-biriga bog'liq bo'lgan elementlardan iborat. Bunday tizim shakllangan, unda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ta'minlangan jamiyatlarda islohotlar qat'iy tartib bilan amalga oshiriladi. Davlatimiz rahbari mamlakat parlamentiga murojaatida ijro hokimiyati faoliyatida tizimli boshqaruv ta'minlanishiga jiddiy ta'sir qilayotgan korrupsiya muammosiga e'tibor qaratib, buning eng muhim yechimi sifatida "aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz", [10] deb ta'kidlagandi.

Bizningcha Davlat rahbari tomonidan o'rtaga tashlangan "qo'l boshqaruvi"dan – aniq natijaga ishlaydigan tizimli boshqaruvga o'tish" hamda "halollik vaksinasi" borasidagi tashabbuslari O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda bosh omil – inson omili, uning manfaatlari barcha narsadan ustunligi tamoyiligi asoslanganligi bilan farqlanadi. Shu bois bugungi islohotlar jarayoni boshqaruvda, ayniqsa, ijro hokimiyati tizimida rahbar kadrlarga xos quyidagi yangi talablarni ham vujudga keltirishni talab qilmoqda: 1) O'z ishini bilish va har qanday muammoli vaziyatga ratsional yondashish; 2) ish boshqarish va tashkilotchilikni uddalay olish; 3) o'zini jamoaning (jamiyatning) bir a'zosi deb bilgan holda o'z xizmat vazifasidan kelib chiqib boshqarish jarayonida jamoa manfaatlarini inobatga olish.

Demokratik jarayonlar, davlat va jamiyat qurilishini modernizatsiya qilish jarayoni rahbar kadrda boshqaruvning oqilona usulini tanlashni talab etadi. Boshqacha aytganda, davlat va jamiyat oldidagi vazifalarni (xususan, tegishli sohalarida) amalga oshirish jarayonida xususiy manfaatlari bilan jamiyat (jamo) manfaatlarini, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda umuminsoniy manfaatlar bilan o'zaro uyg'unlashtirishga xizmat qiladigan boshqaruv uslubiga tayanishni taqozo etadi.

Rahbar kadrlar va jamoa faoliyatida 1) o'zaro tinchlik va hamkorlik; 2) bir-birini tushi-nish; 3) o'z kamchiligini ko'ra bilish va o'z o'rnini anglab olish; 4) mustaqil fikr va yaratuvchanlik faoliyati; 5) rahbarlik faoliyati jarayonida inson manfaatlarining ustuvorligi; 6) boshqaruvning legitimligi kabi jihatlarning ta'minlanganligi rahbar siyosiy va huquqiy madaniyatining darajasini ifoda etadi. Boshqacha aytganda, bu tamoyillar rahbar madaniyati tushunchasida o'z ifodasini topadi, degan xulosani qilish mumkin. Shu ma'noda rahbarlik madaniyati tushunchasini – bu xodimlarning umumiy va individual ehtiyojlari, qiziqishlari va umidlarini qondirish sharti bilan jamoa oldidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan rahbarning bilimi, qobiliyati, tashkilotchiligi, axloqi va boshqaruv faoliyatini ifoda etadi deb ta'riflash mumkin. Ana shu kabi muhim omillardan kelib chiqib, mamlakatimizda rahbar kadrlar faoliyatida siyosiy-huquqiy madaniyat darajalarining namoyon bo'lishi orqali boshqaruvning tizimliliigi va legalligi ta'minlanib, birinchidan, shaxs – jamiyat – davlat manfaatlarining uyg'unligi va ustuvorligiga erishiladi. Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining takomillashishiga hamda davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati ta'minlanishi bilan birga, ijtimoiy hayotning barcha jabhalari va sohalarida amalga oshirilishiga erishiladi. Uchinchidan, nafaqat fuqarolik jamiyati institutlari, balki har bir fuqaro va fuqarolarning ma'lum bir guruhlari uchun bunday nazoratda ishtirok etish imkoniyati tug'iladi. To'rtinchidan, esa jamoatchilik nazoratini amalga oshirish jarayonida davlat hokimiyati organlari, mansabdor shaxslar, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga bevosita aralashmaslik ta'minlanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, rahbar va boshqaruv kadrlari siyosiy-huquqiy madaniyatining yuksalishi ularning jamoatchilik bilan aloqalarining tizimlashishiga, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining amaldagi qonunlarga qanchalik muvofiqligining ta'minlanishiga, shuningdek, mazkur jarayonlarning fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan muntazam nazorat qilib borilishiga imkoniyat yaratiladi. Bir so'z bilan aytganda, davlat hokimiyati tizimida "qo'l boshqaruvidan – tizimli boshqaruvga" jarayoni yuz berishiga erishiladi. Ijro hokimiyatida boshqaruvni tizimli tashkil qilish uning legitimligini ifodalaydi. Tizimli boshqaruv ijro hokimiyatida amal qiladigan tartib-tamoyillarning siyosiy-huquqiy qadriyatlarga aylanishga olib keldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – B. 186.



2. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. – Toshkent: Fan, 1965. – B. 104. Karimova M. Tizim tushunchasi va uning turli ta'riflari. <https://znanio.ru/media/tizim-tushunchasi-va-uning-turli-tariflari-2522643>
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, NMIU. 2021. – B.82
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. // <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 24.01.2020. // <https://president.uz/uz/lists/view/3324>
6. Rahimova N. 2021-yil yakunlari: baholar, yutuqlar, muammolar (jamoatchilik fikri so'rovlari natijasida) // Ijtimoiy fikr – inson huquqlari. №4. (96) 2021. – B.37.
7. Umirdinov A. Davlat fuqarolik xizmatchisi xalq va millat oldida javobgardir. // Jamiyat va boshqaruv, 2022. №4, (98). – B. 133.
8. Аристотель. Политика. Сочинения. В 4-х томах. – Москва: Мысл, 1983, – С. 481.
9. Громов М.А. “Ручное управление” в особых условиях: понятие, характеризующие признаки.// Труды Академии управления МВД России. 2014. № 2 (30) – С. 37.

### ABDURAU F FITRATNING “HIND SAYYOHI QISSASI” VA UNDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY QARASHLAR TAHLILI

**Rizayev Nodir Sobirovich**

Buxoro davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

[nodirbuxoriy9@mail.ru](mailto:nodirbuxoriy9@mail.ru)

ORCID: 0009-0006-5302-7559

UDK: 101.821:001:9.

**Annotatsiya:** Xalqlarimiz asrlar davomida yashab kelayotgan ulkan hududdagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning o'ziga xos tarixiy in'ikosi, o'sha davr ma'naviy hayotining fenomenal hodisasi bu – jadidlarning tarix sahnasiga kelishidir. Oxirgi yillarda jadidlar merosi va uning ahamiyatiga e'tibor tobora kuchayib borayotgani, jadidchilik harakati, uning g'oyasi, falsafasi va amaliyotiga alohida ahamiyat berilayotganini alohida qayd etib o'tish zarur. Davrlar taqozosi shuni ko'rsatmoqdaki, har bir xalqning yuksak darajadagi mustaqillik tafakkurining butun jamiyat ruhiyatida to'liq shakllanishi va mustahkamlanishi nisbatan uzoq davom etadigan, bu borada tizimli ishlarni amalga oshirishni talab qiladigan murakkab siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlar bilan bog'liq tadrijiy jarayondir. Shu asnda, O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi davrida jadid bobolarimiz merosiga nisbatan munosabatning yangi bosqichga ko'tarilayotgani ma'naviy hayotimizda ro'y berayotgan yangilanishlar jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Shu jihatdan Abdurauf Fitratning “Hind sayyohi qissasi” asarida bayon qilingan qarashlari, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotining muhim jihatlari ta'kidlanganligi ko'rib o'tishimiz mumkin. Bu orqali biz amirlik davri jamiyatning nuqsonlari va buni Fitrat qarashlarida tanqidiy bayon qilinganini ko'rib o'tamiz. Fitratning bu asari jadidchilik harakatining tub mohiyatini ochib beradi. Bu asardan jadidchilik harakati tom ma'noda ijtimoiy harakat ekanligini bilib olamiz. Jadidlar hayotning bir sohasini emas, butun hayotni, uni tebratib turgan ijtimoiy tuzumni o'zgartirishni, tubdan yangilashni maqsad qilib qo'ygan edilar. Bu asarda ana shu maqsadlarning ijtimoiy siyosiy ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Hind sayyohi, ijtimoiy-siyosiy qarash, eskilik, konservatizm, shaxs ma'naviyati.

#### ABDURAU F FITRAT'S "THE STORY OF AN INDIAN TRAVELER» AND ANALYSIS OF SOCIAL-POLITICAL VIEWS IN IT

**Annotation:** It should be noted that in recent years, the attention to the heritage of Jadidism and its importance has been increasing, and special importance has been attached

to the Jadidism movement, its idea, philosophy and practice. The need of the times shows that the full formation and strengthening of the high-level independence thinking of each nation in the psyche of the entire society is connected with complex political-economic and social-spiritual changes that will last a long time and require the implementation of systematic work in this regard. It is a gradual process. In this context, in the current period of Uzbekistan's development, the attitude towards the legacy of our ancestors is rising to a new level, which is inextricably linked with the process of renewal taking place in our spiritual life. In this article, we can see the views of Abdurauf Fitrat, expressed in "The Story of an Indian Traveler," on important aspects of the social and political life of that time. Through this, we will see the shortcomings of the society of the Emirate period and how it is critically expressed by the views of Fitrat. This work of Fitrat reveals the essence of the Jadidism movement. From this work, we can learn that the Jadidism movement is a social movement in the literal sense. Jadids aimed to change and fundamentally renew not only one area of life but the whole life, the social system that oscillates it. This work analyzes the social and political significance of these goals

**Key words:** Indian tourist, socio-political view, antiquity, conservatism, personal spirituality

**Kirish.** Oxirgi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, jadidlar merosini nafaqat adabiy jihatdan, balki boshqa sohalar nuqtayi nazaridan o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jadidchilik vujudga kelishida dastlab ular jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida e'tibor qaratuvchi ma'rifatparvarlar sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, keyinchalik bu harakat o'zining ma'naviy-ilmiy, huquqiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan muhim o'rganilish obyekti sifatida ko'rish mumkin. Afsuski, sho'rolar hukmronligi davrida jadidlarning milliy uyg'onish dasturiga jiddiy e'tibor qaratilmadi, aksincha, jadidchilik qatag'on qilindi, ular tomonidan yaratilgan ulkan ma'naviy meros kamsitildi, ularni o'rganish esa taqiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yilning 24-yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida jadidchilik ilmiy merosini o'rganish bo'yicha: "Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylukni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi", degan fikrlarni bayon qilgan edi [1].

Shu o'rinda o'zbek jadidshunos olimi Begali Qosimovning jadidlar ilmiy merosi haqida quyidagi fikrlarini bayon qilish o'rinli. "Jadidchilik, deydi B.Qosimov, – ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham madaniy harakatdir. Shuning uchun ijtimoiyki, u jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi, milliy uyg'onish ideologiyasi bo'lib xizmat qildi. Shuning uchun siyosiyki, u mustaqillik uchun kurash olib bordi... U madaniy harakat ham edi – adabiyotni yangiladi, matbuot va teatrlikni yo'lga qo'ydi, maorifda esa "yangi maktab konsepsiyasi" bilan chinakam inqilob yasadi. Eng muhimi, bularning barchasini ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab ko'rib chiqdi" [2].

Abdurauf Fitratni "Hind sayyohining qissasi" o'zining chuqur ijtimoiy-siyosiy qarashlari hamda ijtimoiy hayotni tanqidiy baholash mezonlari bilan o'sha davr nuqtayi nazaridan alohida o'rin tutadi.

"Hind sayyohi" 1912-yili Istambulda nashr etilgan. Asarda Buxoro amirligi hududidagi butun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy muammolar va kamchiliklar tilga olinadi. Biroq Buxoro davlatining madaniyati, tabobati, sanoati va hatto yerosti boyluklaridan xalq manfaati yo'lida foydalanish, o'lkaning ma'naviy va moddiy boyluklari

haqidagi qayg'urishlari uni o'quvchi ko'z o'ngida yuksaklikka ko'taradi [3]. Bu muammolarni vujudga keltirgan ijtimoiy ildizlarni tahlil etish barobarida uning yechimlari haqida ham to'xtalib o'tiladi.

Qissa Buxoroga kelgan hindistonlik musulmon sayyoh tilidan hikoya qilinadi. Aslida hind sayyohi – yozuvchining o'zi. Asar yozilish davrida Buxoroda ma'rifatparvar jadidlar harakati ancha kuchaygan edi. Asar muallifi Yaqin Sharqdagi hayotbaxsh o'zgarish va yangilanishlardan qattiq ta'sirlangani asarda yaqqol sezilib turadi.

“Hind sayyohi...” qissasida Fitrat Buxoro aholisini uch toifaga: ulamo, umaro va fuqaroga ajratadi. Bunda biz Turkistonni tanazzulga yuz tutayotgan omil ilm-u ma'rifat emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarida boshqaruvning to'liq izdan chiqqanligi hamda amaldor-u ulamolar o'zlarining eskilik boshqaruvlari, qarashlariga sodiq qolayotgan-liklarini ochiq-oydin bayon etadi [4]. Xuddi shu o'rinda F.Xo'jaev fikrlarini bayon qilib o'tish joiz: “Mavjud tuzumni qattiq tanqid qilgan, uning amirlik chirik sistemasini ochib bergan “Hind sayyohi...” asarini ahamiyatini qayd etmasdan o'tolmaymiz” [5]. Bundan ko'rinib turibdiki, asar ahamiyati o'sha davr ijtimoiy-siyosiy qarashlar nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada Abdurauf Fitratning “ Hind sayyohi qissasi” asarini ijtimoiy-siyosiy jihatlarini o'rganishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik usullaridan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** Fitrat “Hind sayyohining qissasi”da ma'rifat haqidagi fikrlari, mulohazalarini ilgari surar ekan, Buxoro amirligida sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni *tahlil etish, dalillarni qiyoslash, umumlashtirish* kabi usullardan foydalangan holda o'z qarashlarini bayon qilib boradi.

Masalan, u hind sayyohi tilidan Buxoroda tozalik, sog'liqni saqlash ishlari o'lda-jo'lda ekanligi haqida gapirar ekan, bu shaharda tibbiyotga oid oliy maktab – Dorush-shifo ochish zarurligini ta'kidlaydi. O'z mulohazalarini isbotlash uchun juda ko'p dalil va raqamlarni keltiradi, ushbu yumushni amirlik xazinasidan bir tanga ham olmasdan, faqat mudarris, ulamolar tomonidan o'zlashtirilayotgan vaqf pullarini o'z o'rnida sarflash hisobidan bajarish mumkin ekanligini isbotlab beradi [6].

Asardagi rus shifokori timsolida Fitrat dalillarni qiyoslashtirib jamiyat globallashtirish jarayonlaridan voqif bo'lishi hamda dunyoviy bilimlar asosida rivojlanishi ta'kidlab o'tadi. O'z yurtdoshlarini Yevropa mamlakatlaridagi kabi madaniy, pokiza va o'qimishli kishilar timsolida ko'rishdek oliyjanob niyatini yorqin ifodalaydi [7].

“Hind sayyohining qissasi” haqida gapirganda, muallif uslubiga xos muhim bir nuqtaga ham to'xtalish zarur. Fitratning boshqa tanqidiy mulohazadagi asarlari kabi, bu asarda ham islom dini falsafiy-axloqiy qarashlari, Muhammad (s.a.v) hadislari, “Qur'on”dan suralar va parchalar keltirib, o'z fikrlarini ta'kidlab beradi. Bunday badiiy bayon yo'li faqatgina Fitratga taalluqli bo'lmasdan, o'sha davrdagi ko'pchilik ma'rifatparvar yozuvchilarga xos edi. Masalan, Fitratning hammaslagi Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining 1913-yili yozgan “Ikki emas, to'rt til kerak” maqolasida Turkiston xalqlarining rus tilini o'rganishga targ'ib etish uchun tarixiy manbalarga murojaat etib, Muhammad (s.a.v) ham o'ziga g'oyaviy dushman bo'lgan yahudiylar tilini o'rganishga amr etganligini yozadi [8].

Bizningcha, bu holning sabablari quyidagicha:

*Birinchi*dan, Buxoro jadidchilik maktabi vakillari, shuningdek, Fitrat singari ma'rifatparvarlarda islom diniga e'tiqod kuchli edi.

*Ikkinchi*dan, ilg'or yozuvchi – islom dini ta'limoti hamda muqaddas kitoblardan inson axloqini tarbiyalash, ilm-fanni o'rganish, uni hayotga tatbiq etish niyatida muvofiq hadis-u iqtiboslar orqali o'zlarining ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surgan edi.

*Uchinchidan*, mavjud tuzumning ta'qibidan qochib ijtimoiy-siyosiy qarashlarni diniy-falsafiy mavzular asoslari bilan bayon qilgan edi.

Fitrat o'z g'oyalarini Qur'on ko'rsatmalariga asoslar ekan, u boshqa xalqlarning faqat boshqa dinga e'tiqod qilgani uchun yutuqlarini rad etishni ma'qullamaydi. Bu asarda Fitrat ijodi islom dinining falsafiy mazmunini yangicha mutolaa qilish, dunyoviy o'zgarishlarni to'g'ri tushunish hamda insonning bu dunyoda aziz ekanligi borasidagi falsafiy qarashlarini alohida qayd etish mumkin. Insonning vazifasi Qur'onda buyurilgan amrlarni bajarish bilan birgalikda o'z yurtini hamda o'z taqdirini o'zgartirish o'z qo'lida ekanligini ta'kidlab, – Fitrat muqaddas kitobni shunday talqin qiladi: “Inson Qur'on irodasi bilan oliy mavjudot, u yer va osmonni boshqarishi, ularni o'zgartirishi mumkin.” Agar tog'lar, temir, yer inson tomonidan o'zgartirilsa, nega u o'z hayotini o'zgartira olmaydi”. U Qur'on oyatlarini taqdirga bo'ysunishga da'vat sifatida emas, balki odamlarni o'z taqdirini o'zi hal qilishga da'vat sifatida talqin qiladi. Fitrat faylasuf sifatida insonlarga o'z hayotini aql-idrok bilan belgilash uchun Alloh taolo qanday ulkan imkoniyatlar berayotgani haqida fikr yuritadi. Bu o'rinda Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa ko'plab jadidlar singari Fitrat ham islom dinining mohiyatini anglashda islohotchi sifatida harakat qiladi va uni insonning ijodiy faoliyatini taqiqlash emas, balki unga da'vat sifatida qarash ekanligini talqin etadi [9]. Qolaversa, Fitratning hind sayyohi o'z kechinmalari bilan ifodalangan qarashlari ham Buxoro, ham Turkiston milliy ziyolilariga xos bo'lgan diniy va milliy bag'rikenglik ifodasidir [10].

Fitrat hind sayyohi orqali o'z tilidan ham moddiy, ham ma'naviy qashshoqlashib qolgan jamiyat holidan xabar berar ekan, ushbu xulosani asar qahramoni tilidan so'zlaydi: “Ilohiy qonun budir: modomiki, biron bir qavm o'zining ishlarini Olloh farmoyishi asosida olib bormas ekan, o'zining shaxsiy hayotini sharaf, saodat va farog'at, buyuklik bilan hamqadam bilib o'tkazmas ekan, tinchlik va osoyishtalik niyatlarini yo'qqa chiqarishga intilib, kibr va g'urur vodiysiga qadam qo'yar ekan, chin haq va adolat yo'lidan chiqar ekan, o'sha zahotiy oq shon-sharaflari yer bilan yakson bo'lib, osoyishtalıkları zahmatga, buyukliklari esa xorlikka aylanishi muqarrardir!..”

“Hind sayyohi...”da Fitrat Buxoro amirligida mang'itlar sulolasidan meros qolgan qoloqlik, boshqaruvda amaldorlarning eskicha qarashlari, dunyoviy bilimlardan orqada qolganligi, ijtimoiy-siyosiy jabhada ashaddiy an'anaviychilik kabi illatlarni asar qahramoni orqali tahlil qilib boradi [11].

Shu qatori, u Buxoro amirligiga qarashli yerlardan unumli foydalanish haqida jon kuydirib, “Agar shu Shahrisabz yerlari yapon elida bo'lganida edi, zar ekib, zar undirar edilar”, deb yozadi. Bu o'rinda “Hind sayyohi...”da ilgari surilgan masalalar shunchaki Movarounnahr doirasida emas, jahon miqyosida hal etilganligini ko'ramiz.

Hozirgi kunga kelib tabiatni asrash uning resurslaridan oqilona foydalanish dolzarb masalalardan, kezi kelganda davlat darajasidagi siyosatga aylangan, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Fitrat aynan ana shu dolzarb g'oyani o'sha paytdayoq ko'targan edi. “Bu boyliklardan fabrika va mashinalar yordamida, toza va ozoda holda foydalanish lozim”, deb ta'kidlaydi asarda.

**Xulosa.** Buxoro jadidchilik maktabining yetuk namoyandasi Abdurauf Fitratning “Hind sayyohi...” asarini tadqiq qilish jarayonida tarbiyaviy g'oyaviy fikrlari bilan birga, uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari nuqtayi nazardan shuni anglash mumkinki, qalbida yurt taqdiri, xalq istiqboli uchun qayg'urish, mas'uliyat va vatanparvarlik g'oya va fikrlari asosiy o'rinda turadi. Ana shunday shasht va sa'y-harakatlarni Fitratning har bir asarida ko'rishimiz mumkin. O'sha davr muhitini o'z qarashlarida ifodalashi va ijtimoiy-siyosiy tahlili samarasi o'laroq bu asarning qiymati bugungi kun uchun ham o'z amaliy ahamiyatini yo'qotgan emas. Bu o'rinda Fitrat merosini nafaqat adabiy tadqiq qilish bilan

birgalikda undagi ijtimoiy-siyosiy fikrlarni va harakatlarni talqin qilish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 29.01.2020 <https://uza.uz/uz/posts/milliy-marifatimiz-ustunlari-16-10-2020>.
2. Qosimov.B. Jadidchilik va jadid adabiyoti (Davra suhbat) // “Turkiston”, 1997-yil, 17-may.
3. Abdurauf Fitrat. Hind sayyohining qissasi. // “Sharq yulduzi” jurnali, 1991. – №8. – B.15 .
4. H. Boltaboyev. Abdurauf Fitrat. – Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 44.
5. Fayzulla Xo‘jaev. Buxoroda inqilob va O‘rta Osiyoning milliy chegaralanishiga doir/Tanlangan asarlar. Uch tomlik.1- tom. – Toshkent,1978. – B. 98-99.
6. Abdurashidov Z.Sh. Abdurauf Fitrat va Buxoroda jadidchilik. –Til va madaniyat 3: 30-53.
7. B.Nazarov. Fitrat ma’rifatining gultoji.// “Sarq yulduzi” jurnali,1991.8-son.
8. Behbudiy M. «Oyna» jurnali, 1913-yil, 1-son., - B.12-14.
9. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Toshkent: Universitet, 1999. – B 58.
10. Абдивоҳидов С.А. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий жиҳатлари ва ҳозирги замон: Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, СамДУ, 2020. – В 45.
11. Алимова Д. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Т., 1999. – В 36.

## JADID MA'RIFATPARVARLARNING IJTIMOYIY-FALSAFIY G'OYALARINING YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

**Sevara Asanbayevna Kurbonova**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

“Ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasida mustaqil izlanuvchi.

[Inyasevara89@gmail.com](mailto:Inyasevara89@gmail.com)

ORCID: 0000-0002-2527-2526

UDK: 1:001

**Annotatsiya:** Maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod etgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi jadidlarning ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarning Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga oid jihatlari tahlil qilindi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy jadidlarimiz yoshlarni dunyoviy ilmlardan bahramand bo‘lishlari uchun boshqa rivojlangan mamlakatlarda ta’lim olishi, zamonaviy ta’lim tizimlarini Turkistonda ham takomillashtirish, hamda zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislarini olib kelish zaruriyati o‘rganilgan. Ya’ni, jadidlarning ilmiy merosidan milliy taraqqiyotni yanada mustahkamlash, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarni ravnaq toptirish, jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichidagi belgilangan strategik vazifalarni amalga oshirishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi keltirilgan. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyotidagi jadid ma’rifatparvarlarining falsafiy fikrlari amaliyotda qo‘llanilishi va ularning ma’naviy-ijtimoiy ta’siri tahlil qilingan. Ijtimoiy hayotda ta’lim tizimida ma’rifatparvarlarining ilmiy g‘oyalari, axloqiy qarashlarining o‘rni va ahamiyati, milliy ta’lim-tarbiyani rivojlantirish masalalari, jadid-islohotchilarining boy merosi, ibrati hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi ularning falsafiy-ijtimoiy fikrlarni keltirilib, jadidchilik

ta'limoti vujudga kelishidagi ma'naviy omil ekanligi isbotlangan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-falsafiy g'oyalar, taraqqiyot, ma'rifat, savodxonlik, usuli jadid, tarbiya, gumanizm.

### **THE SIGNIFICANCE OF THE SOCIO-PHILOSOPHICAL IDEAS OF THE JADID ENLIGHTENERS IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN**

**Abstract:** The article explores the practical implementation of the philosophical ideas of the Jadid enlighteners in the development of New Uzbekistan, moreover, their spiritual and social consequences of Jadid enlighteners such as Mahmudhoja Behbudi, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloni, ( the end of the 19th century and the beginning of the 20th century) . The role and significance of scientific ideas and moral views of Jadid educators in public life have been explored. Mahmudhoja Behbudi, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloni, Jadid enlighteners, who had to study in other developed countries, to improve modern education systems in Turkestan, and to bring specialists with modern knowledge so that our youth could enjoy worldly sciences. . That is, the scientific heritage of the past can be used as a scientific resource for further strengthening of national development, development of modern socio-economic networks, implementation of strategic tasks at the new stage of development of the society. The practical application of the philosophical ideas of modern enlighteners in the development of new Uzbekistan and their spiritual and social impact are analyzed. The role and importance of the scientific ideas, moral views of the enlightened people in the social life, the issues of national education and upbringing development, the rich heritage and example of the reformers of the past have not lost their importance even now, their philosophical and social ideas are presented and it is proved that it is a spiritual factor in the formation of the doctrine of Jadidism.

**Key words:** socio-philosophical ideas, development, enlightenment, literacy, modernity, education, humanism.

**Kirish.** Mamlakatimizda ma'rifatparvarlarning ilmiy, ma'naviy merosida ilgari surilgan vatanparvarlik, sobitqadamlik, bag'rikenglik, ma'naviy ogohlik, gumanizm, shaxs kamoloti borasidagi qarashlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotining qadrini anglab yetadi" [1].

Jadid ma'rifatparvarlarning ijtimoiy-falsafiy g'oyalari bugungi Yangi O'zbekiston taraqqiyotida ham muhim o'rin tutadi. 2023-yil 11-12-dekabr kunlari Toshkentda «Jadidlar: milliy o'zlik, istiqbol va davlatchilik g'oyalari» mavzusidagi bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy konferensiyasi jadidchilik harakati g'oyalari bugun ham o'zining aktualigini yo'qotma-ganligining, jadidlar ilgari surgan taraqqiyot g'oyalari nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo ma'rifatparvar olimlarini e'tiborini tortayotganligining yaqqol timsolidir. Ushbu yirik amaliy anjumanda o'zbekistonlik olimlardan bilan bir qatorda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Vengriya, AQSH, Germaniya, Niderlandiya, Shvetsiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlardan kelgan taniqli olim va ekspertlar ishtirok etgan bo'lib, ushbu konferensiya o'z oldiga jadidchilik davrida xotin-qizlar faolligi masalalari, Turkiston jadidchiligining chet elda o'rganilishi, shuningdek, bugungi kunda jadidlar hayoti va faoliyatini o'rganishdagi istiqbolli rejalarni maqsad qilib qo'ygan. Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyev xalqaro ilmiy konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan murojaatida, ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmatini va ahamiyatini hamon yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini Turkiy tilli davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ'ib etish zarurligini ta'kidlab o'tgan. Shu boisdan, Yangi O'zbekiston taraqqiyotida jadid ma'rifatarparvarlari ilmiy-ma'naviy merosidan turli jabhalarda foydalanish, jumladan, jamiyatda xotin-qizlar o'rnini mustahkamlash, ularning ilm olishlariga e'tibor qaratish, jadidlarning hayot yo'li va ilmiy faoliyatini yoshlarga ibrat sifatida ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, jamiyatda innovatsion tafakkurni shakllantirishda o'zbek xalqi ilmiy merosi tarixida yosh avlod vakillari, bo'lajak intellektual salohiyatli mutaxassislar o'rganishi uchun arzigulik manbalar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaydiki, "...Behbudiy va Avloniy, Hamza va Munavvarqori, Fitrat va Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va Usmon Nosir kabi minglab jadid bobolarimizni uyg'otdi. Ularning xalq erkinligi va saodati yo'lidagi ezgu fikr va ezgu so'z va ezgu amallari uchun ulkan ma'naviy omil bo'ldi" [1] Shunday ilmiy meros, konseptual fikrlar majmuasiga jadidlarning ilmiy, falsafiy mazmun kasb etadigan asarlari, faoliyati misol bo'la oladi. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan o'zbekistonlik o'g'il-qizlar nafaqat Yevropaga, balki Amerika, Janubiy Koreya, Xitoy, Yaponiya, boshqa davlatlarga ham yuborilmoqda. O'zbekiston yoshlari uchun ingliz, nemis, fransuz, rus, xitoy – turli chet tillarini o'zlashtirish kun tartibidan alohida o'rin olgan. Bir so'z bilan aytganda, jadid namoyondalarimiz, ma'rifatparvar ajdodlarimizning asriy orzulari amalga oshmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Jadidlarning ijtimoiy-iqtisodiy g'oyalari va konseptual fikrlari ifodalangan merosini o'rganish, xususan, xorijiy olimlar amerikaliklar Adib Xolid, [4] E.Olvort, [5.] germaniyalik I.Baldauf [6], yaponiyalik Hisao Komatsu [7] kabi sharqshunos, tarixchi olimlar tomonidan olib borilgan. Jadidchilik harakatining namoyondalari ijodi, ularning ilmiy merosiga mansub asarlarning tadqiqi mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida R.Hodizoda, N.Gafarov kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ta'kidlash lozimki, yuqori-dagi mualliflar asosan jadidlarning badiiy, dramatik asarlari, jamiyat tarixiga bag'ishlangan risolalari, kitoblari va ijtimoiy-siyosiy faoliyati mazmunini tahlil qilaganlar. Shuningdek, O'zbekistonlik jamiyatshunos olimlardan Sh.Radjabov, [8] I.Mo'minov, [9] X.P.Vaxidov, [10] D.Alimova,[11] D.Ziyaeva, [13] SH.T.Rizaeyv, [14] B.Irzaeyvlarning ilmiy tadqiqot ishlarida jadidlarning ijtimoiy, ma'naviy hayot masallariga bag'ishlangan tadqiqotlari, o'zbek jamiya-tining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tanqidiy qarashlari asosida o'rganilgan. Shuningdek, D. Alimovning "Jadidchilik fenomeni" [12] kitobidan, A. Khalidning "Central Asia: A New History from the Imperial Conquests to the Present" [4] va Baldauf Ingeborgning "Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World" [5] asarlari tarjimalaridan jadidlarning jamiyat taraqqiyotiga yo'naltirilgan konseptual fikrlari mazmunini mustaqil yondoshuv orqali o'rganishda keng foydalanilgan.

**Metodlar.** Maqolani nashrga tayyorlashda, ilmiy manbalardan foydalanishda, materiallarni turkimlashtirishda va mustaqil xulosalarni umumlashtirish jarayonida falsafiy tadqiqotning tarixiylik, tanqidiylik, analiz, sintez metodlaridan foydalanildi. Maqolaning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari, Farmonlari, davlatimiz rahbarining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida bayon qilingan konseptual g'oyalar tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jadidlar merosini, milliy tariximiz, mamlakatimiz ma'naviy, ilmiy tarixidagi buyuk voqelik Birinchi, ikkinchi Renessans davridagi ilmiy yutuqlar, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga mansub dunyoviy bilimlar mualliflari asarlarini chuqur tahlil

qilish haqidagi tavsiyalari va uchinchi Renessans poydevorini yaratishga oid bag'ishlangan Qarorlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek jadidchilik harakati namoyondalarining iqtisodiy qarashlari, fikrlarini tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarish uchun, jadidizm mohiyatiga bag'ishlangan monografik tadqiqotlar, respublika masshtabida o'tkazilgan ilmiy amaliy konferensiyalar materiallari, ilmiy maqolalar, xorijlik olimlar asarlaridan foydalanildi. Jadidlarning qarashlarini umumimlashtirish maqsadida, ushbu tarixiy fenomen tadqiqiga bag'ishlangan, nufuzli jurnallarda e'lon qilingan maqolalar ilmiy manba sifatida olindi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotining yangi davrida ommaviy axborot vositalari, jumladan internetda e'lon qilinayotgan, jadidchilik harakatining turli qirralari mazmunini ochib berishga qaratilgan fikrlar, O'zbekistonlik va xorijdagi faylasuflar, tarix-chilarning mulohazalaridan foydalanildi.

**Olingan natijalar.** Ushbu maqolada ma'rifatparvarlik, jadidlarning vatanparvarlik, sobitqadamlik, bag'rikenglik, ma'naviy ogohlik, gumanizm, shaxs kamoloti borasidagi qarashlarini o'rganish bugungi Yangi O'zbekistonning taraqqiyotida muhim ahamiyatga egaligi ta'kidlangan. Shuningdek, jadid ma'rifatparvarlarning ijtimoiy-falsafiy g'oyalari bugungi taraqqiy etayotgan jamiyatimizning turli sohalarida dasturilamal sifatida foydalanilishi mumkinligi ko'rsatib berilgan. Xalqaro ilmiy konferensiyalarda O'zbekistonlik olimlar va xorijiy olimlar jadidchilik harakati g'oyalari haqida muntazam muzokaralar olib borishayotgani, jadidlarning fikrlarini turli ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etishayotganligi tahlil qilingan. O'zbekistonning taraqqiyotida jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy- ma'naviy merosi turli sohalar uchun ahamiyatga ega ekanligi, bir asr oldingi ishlab chiqilgan g'oyalar bugungi kunda amaliyotga tatbiq etilayotganligi asoslab berilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ma'rifatparvarlar Markaziy Osiyoda ma'rifatchilik harakatining asosiy parametrlarini aniqlab berganliklari, ular madaniyatimizning keyingi taraqqiyoti uchun ham zamin tayyorlaganliklari, ularning ma'rifiy tafakkurining o'ziga xosligi xalqimizning ma'naviy va tarixiy hamda milliy qadriyatlariga katta e'tibor qaratganliklarida namoyon bo'ladi. Bu natijalar, jadid ma'rifatparvarlarining o'zbek jamiyatida muhim ahamiyatga ega bo'lganliklari va ularning faoliyati hozirda ham muhim ibratli tajriba sifatida amaliyotda qo'llanilayotganligini ko'rsatadi.

**Muhokama.** Mahmudxo'ja Behbudiyning qarashlari ma'rifatparvarlikni shakllanishi va rivojida, shuningdek, tarbiya va ta'lim tizimini yangilashda muhim ahamiyat kasb etadi. M.Behbudiy aholining ma'rifati haqida orzu qildi, ularni zamonaviy ta'lim, pedagogika va ilm-fanning boshlang'ich asoslari bilan tanishtirishga, o'zbek, tojik, qirg'izlarga yangicha turmush tarzini singdirishga intildi. Mahmudxo'ja Behbudiy "Oyna" jurnaliga muharrirlik qilish bilan bir qatorda, o'z maqolalari bilan samarali ijod qildi (yana oddiy kishilar uchun yengil va tushunarli tilda) va hamisha Yevropaga, sivilizatsiyalashgan madaniyatga oid materiallarni berib bordi. Ma'rifatparvar shunday yozadi: Katta afsus bilan aytamanki, agar Turkiston va Eron xalqlarining hozirgi holatiga hushyor ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, ko'ramizki, mazkur ikkala xalq to'qnash kelgan bu dunyo madaniyati va ilm-fanidan orqada qolganlikning bari davr talabini tushunmaslikdan boshqa narsa emas. Bundan tashqari boshqa madaniyatlarga nisbatan beparvolik, boshqa xalqlar ilm-fani natijalaridan foydalana olmaslik oqibatidir. Basharti agar Turkiston o'zining ilgari qudratiga erishmoqchi bo'lsa, unda u boshqa xalqlar ilm-fani va bilimlariga murojaat qilmog'i lozim. [23] Tarixchi olimlarimiz D.Alimova va D.Rashidova ta'kidlaganlaridek, "Behbudiy Bayrutning nemis, fransuz, ingliz tillari o'qitiladigan, fransuz va ingliz domlari dars beradigan universitetlari va oliy o'quv yurtlari xususida havas bilan yozadi. Ularda kimyo laboratoriyalari, tibbiyotga oid "Dorulfunun"larda operatsiya xonalari ham mavjud. Keyinchalik u yangi usuldagi maktab



tashkil etganligi bejiz emas, bu yerda o'qitish ta'limning yevropacha va ruscha metodlari hamda tamoyillariga mo'ljallab olib borilgan. Uning Turkistonda masjiddan ko'ra ko'proq maktab ochish zarur, degan jasoratiga qoyil qolmasdan iloji yo'q" [11]. M.Behbudiyning yozishiga ko'ra, taraqqiy etgan mamlakatlar bilan yaqinlashish, yevropacha ilm-fan va texnikani egallash, hayotning barcha jabhalarida G'arb dunyosining ilmiy tajribasidan foydalanish uchun yoshlarni Yevropaga o'qishga yo'llash lozim. Millatga Yevropa tillari, shu jumladan, rus tilini ham biladigan olimlar, bilimdon mutaxassislar zarur. Boshqacha aytganda, Behbudiy tilga Yevropa mamlakatlarining madaniyati va ilm-fani bilan tanishishning, ular bilan yaqinlashishning samarali usuli sifatida qaragan. 1922-yilning may oyidan Toshkentda xorijda o'qish uchun talabalarni tanlash va ularni kerakli yo'nalishlar bo'yicha o'quv yurtlariga taqsimlash ishlari boshlab yuborilib, "Ko'mak" uyushmasiga g'oyaviy rahbarlikni Fitrat, Cho'lponlar amalga oshirgan [22].

M.Behbudiyning tilga munosabati masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, uningcha til madaniyatning muhim omili hisoblanadi. O'zining "Bizga ikkita emas, to'rtta til zarur" nomli maqolasida M.Behbudiy tilga faqat aql-idrokning quroli sifatidagina emas, balki turli millat va etnosga mansub ko'plab insonlarni bog'lovchi zanjir sifatida qaraydi. Jamiyatning uyg'unlashuvi jarayonida va odamlarni ma'rifatli qilishda til muhim rol o'ynaydi. Ma'rifatparvar bejiz bizga ikkita emas, to'rtta til (ya'ni turk, fors-tojik, arab, rus tillarini bilish) zarur deya da'vat etmaydi. Bizning baxtimiz shundaki, biz turkiy va forsiy tillarini, ularni maxsus o'rganmasdan turib ham bilamiz,-deya yozadi M.Behbudiy. Bundan tashqari, ko'plab tillarni bilish insoniyat jamiyatining olg'a siljishida, boshqa xalqlar madaniyatini anglab yetishda bosh omil hisoblanadi. M.Behbudiy millatlar taraqqiyig'a bir necha sabablar bo'lub, tub sababi ulamo ila ag'niyoning hamiyat va g'ayratlaridir. Taraqqiy qilg'on va yo' endi taraqqiy qilg'uvchi millatlar ahvolig'a diqqat qilinsa, mazkur ikki sinf muhtaramni o'z millatlarig'a so'z va oqcha ila xidmat etganlari favran zohir bo'lur, deb yozadi [21] Behbudiy xorij mamlakatlarga borib, u yerdagi ilm-ma'rifat va madaniyatni yanada chuqurroq o'rganishga harakat qilgan.

M.Behbudiyning "Padarkush" tragediyasi o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy fojia hisoblanadi. Insonning barcha kulfatlari, oilaviy baxtsizlik, vatandan va jigarlardan mosuvlik, baxtli hayotdan umid uzilganligi, hayotda aniq bir maqsad va kasb-korning mavjud emasligi va odamning bilimsizligi va jaholati bilan bog'langan. Gap shundaki, Mahmudxo'ja Behbudiy fojiviy vaziyatlar, voqealarni, xuddi jahon tragediya san'atida duch kelangani singari, falakning gardishi, sho'rpehona, achchiq qismat, azaliy tarixiy zarurat sifatida qaramaydi, balki insonning nodonligi bilan bog'laydi. Jaholat – xalqning ezilishi va azob-uqubatining bosh aybdori. Otaning qatli tabiat qonuni yoxud taqdiri azal tomonidan amr etilmaydi, balki bu kishining bilimsizligi, tarbiyasizligi mahsulidir.

"Padarkush" fojiasining qahramoni Domlaning so'zlariga quloq tutaylik, mana u nimalar deydi: "Onajon! Sizga sabrdan boshqa chora yo'q. Bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdur. Beilmlik va tarbiyasizlikdur. Uyingizni nodonlik buzdi. Sizni beilmlik xonavayron qildi. O'g'lingizni beilmlik Sibirga, joningizdan aziz farzandingizni tarbiyasizlik balosi sizdan umriy ajratdi. Bolangizni otasi tarbiya etmadi, o'qutmadi. Oxir baloga uchradi, yomon rafiqlar yo'ldan chiqardilarki, qurboni jaholat bo'ldingiz" [15].

Abdurauf Fitrat jadidchilik nazariyotchilaridan biri hisoblanadi. Jadidchilik rivojiga uning nafaqat publitsistikasi, balki dramaturgiyasi, proza va poeziyasi ham salmoqli hissa qo'shdi. O'z mohiyatiga ko'ra dasturiy xarakterga ega bo'lgan maqolalari, ocherklarida u jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyati va ularning ijtimoiy hayotdagi roliga doir o'z nuqtayi nazarini yetarli darajada yaqqol bayon etdi. Fitratning hayotga, jamiyatga, madaniyatga nisbatan qarashlari, bir tarafdin, islom ma'rifatparvarligi nazariyotchilari

(J.Afgʻoniy, M.Abdo, I.Gasprinskiy) taʼsiri ostida, boshqa tarafdin esa yevropa, rus va turk ijtimoiy-siyosiy va badiiy tafakkuri taʼsiri ostida shakllandi. U milliy, oʻziga xos madaniyatni saqlab qolish uchun kurashdi, shuning barobarida ikkala madaniyat – Gʻarb va Sharq madaniyatlarining oʻzaro hamkorligi, oʻzaro taʼsiri tarafdori ham edi. Biroq maʼrifatparvarlik nuqtayi nazaridan uning Yevropaga va yevropacha madaniyatga munosabati “Munozara” asarida oʻz ifodasini topgan. Asarning toʻliq nomi “Buxorolik muallim va bir yevropalik oʻrtasida Hindistonda yangi maktab haqida kechgan munozara” deb ataladi. “Munozara” A.Fitrat tomonidan 1909-yili Istanbulda fors tilida yozilgan hamda muallifning oʻz hisobidan chop etilgan, soʻngra esa Buxoro amirligida ham oddiy xalq orasida, ham ziyolilar orasida yashirin tarqatilgan. Voqea kechgan joyning tanlanishi tasodif emas, boisi barchaga maʼlumki, Hindiston yevropacha taʼlim tizimini va madaniyatini, davlat va siyosiy tuzilmasini qabul qilgan va yaqin paytlarga qadar musulmon madaniyati va taʼlim tizimi taʼsiri ostida boʻlgan Markaziy Osiyo bilan qiyoslaganda katta yutuqqa erishgan. 1909-yilda “Munozara” (“Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilgʻon munozarasi”) asari bosildi. “Munozara”day evropalik kishi bilimdon, maʼlumotli, donishmand, diniy, taʼlimiy va ilmiy xarakterdagi koʻplab murakkab muammolarni hal etadigan shaxs sifatida namoyon boʻladi, biroq u islom va uning taʼlim tizimining chinakam dushmani. Buxorolik muallim yevropalik kishi bilan boʻlgan munozara jarayonida, nafaqat shaxsan oʻzi uchun, balki mamlakati uchun ham koʻplab foydali va ibratli narsalarni bilib oladi. “Siz chindan ham bilimdon kishi ekansiz. Siz bizning Vatanimiz va xalqimizning barcha dardlarini yaxshi ilgʻay olibsiz va ulardan qutilishning yoʻllarini xayrixohlik bilan bayon etdingiz. Mohiyatan olganda, ilm-fan bizning birinchi xaloskorimiz ekanligi, bizning xatomiz yangi maktablarning mavjud emasligida va zamonaviy fanlarning oʻqitilmayotganligida ekanligi, biz ularni bartaraf qilishimiz lozimligi toʻgʻrisidagi fikrlarga qarshi emasmiz. Oʻrtamizda boʻlib oʻtgan munozaradan men katta qoniqish hosil qildim” [17].

Ushbu asarda Buxoro voqeligini, tarbiya va taʼlim, jamiyat hayotida ilm-fan va dinning roli va ularning oʻzaro munosabati, oilaviy va ijtimoiy turmushda ayollarning oʻrni singari muammolarni yevropacha va markaziy osiyocha tushunish, his etish ochiq-oydin bayon etilgan. Boshda suhbatdoshlarning qarashlari butkul qarma-qarshi, oxiriga borib esa yevropalik buxorolikni oʻzining haqligiga ishontiradi, natijada koʻplab masalalarda u muxolifi tarafiga oʻtadi. Muhimi shundaki, yevropalikning tilidan Fitrat yuqorida sanab oʻtilgan muammolar yuzasidan oʻzining shaxsiy mulohazalarini ham izhor etadi. Misol uchun, uning umuman ilm-fan, xususan, Yevropa ilm-fani ham bu barcha kulfatlardan xalos boʻlish vositasi ekanligiga hamda u din bilan qoʻlni-qoʻlga berib rivojlanishi lozimligiga ishonchi komil. Fitrat ilm-fan salbiy oqibatlariga ham olib kelishi, insonning jismoniy va maʼnaviy turmushini muammoli qilib qoʻyishi mumkinligi toʻgʻrisidagi fikrdan yiroq, garchi bu davrda bunday fikr Yevropada (J.Russo tarafdin) allaqachon bayon etilgan edi. Uning mamlakatining umidsizlarcha qoloqligi, hayotning past darajasi, yevropa dunyosidan uzilib qolganligi, aftidan, uning ilm-fanga notanqidiy munosabatining bosh sababi edi. U oʻzining hayotiy vazifasini faqat bir narsada koʻrdi, u ham boʻlsa, oʻz xalqi va mamlakatini oʻrta asr botqogʻidan olib chiqish. Jadidlar yangi madaniy elita sifatida yangi sharoitlarga dosh berish uchun meros qilib qoldirgan madaniy anʼanalarni oʻzgartirish zarur deb tahmin qilishdi [4]. Fitrat ijodiyotida fors, tojik va oʻzbek mumtoz adabiyoti gumanistik yoʻnalishining oʻziga xos va xarakterli xususiyatlaridan biri – mubohasadorlik (bahs) koʻzga tashlanadi. Fitrat nafaqat adabiy-falsafiy janr sifatida munozarani qayta jonlantirdi, balki uni maʼrifatparvarlik muloqoti va tafakkurining oʻziga xos uslubiga ham aylantirdi. Va hatto qatʼiy mantiqqa emas, balki

muloqot jarayonida haqiqatni izlashga, suhbatdoshlarni haqiqat qarshisida har qanday fikrga toqat qila olish tuyg‘usi bilan birlashtirishga asoslanuvchi ijodiy tamoyilga aylantirdi. Turkiston ma‘rifatparvarlari uchun haqiqat faqat bir tarafning aytgan fikridagina mavjud emas, u ko‘plab turli-tuman fikrlarda jamlangan. Fitrat munozara xarakteridagi “Munozara”, “Bedil” va boshqa dramatik asarlarida falsafiy munozara janrining ijobiy xarakteri to‘g‘risidagi fikrni asoslaydi. Fitrat o‘zining ma‘rifatparvarlik tamoyillarini qaror toptirish yo‘lida falsafiy va ma‘rifatparvarlik tafakkuri erkinligi masalasi nihoyatda muhim edi. Haqiqatga erkin fikrlar almashinuvisiz erishish mushkulligiga ma‘rifatparvarning ishonchi komil edi. U ziyoli insonga o‘z fikrlarini erkin bayon etish imkoni berilmaydigan vaziyatlarga qat‘iyan qarshi edi. Fitrat nafaqat ta‘limni isloh qilish yoki ulamolarning tanazzuliga qiziqish bildirdi. Fitratning falsafiy va badiiy faoliyatiga xos bo‘lgan mubohasadorlik unsurlari, turli-tuman ijtimoiy muammolarni tanqidiy tahlil etishga urinish, o‘tmish va hozirgi zamon madaniyatlari vorisiyligi va o‘zaro aloqasi amalga oshirilgan o‘sha muayyan tarixiy shakl sifatida bo‘y ko‘rsatdi. Uning suhbat tarziga qurilgan “Munozara”, “Bedil” nomli asarlari yuqoridagi fikrlarning yaqqol dalilidir.

Farzandlarimizning ma‘naviyatini yuksaltirishda Avloniy asarlari o‘ziga xos rag‘bat vazifasini o‘taydi. A.Avloniy ma‘rifat yo‘lida ko‘p ishlar qilgan. Uning asarlarida, ayniqsa, odob-axloqqa bag‘ishlangan asarlari yetakchi o‘rinni egallashga asos bo‘lgan. Avloniy ijodi bir qator an‘anaviy axloqiy tushunchalarni ma‘rifiy insonparvarlik ruhida izohlashga urinish bilan tavsiflanadi. Abdulla Avloniyning axloqiy ma‘rifatparvarlik faoliyati shunday sharoitda yuzaga keldiki, etika, axloq masalalari uning asarlarida yetakchi o‘rin egallaydi. Avloniy ijodida bir qator an‘anaviy ma‘naviy, axloqiy tushunchalarni ma‘rifiy gumanizm ruhida talqin qilishga urinish xarakterli. O‘z davrining ayrim muhim ijtimoiy muammolarini axloqiy tushunchalar yordamida asoslashga intilish jadid Avloniy falsafiy-ma‘rifiy ijodiyotining muhim xususiyatlaridan birini tashkil etadi. Uning ko‘p jihatdan original “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ma‘rifatparvar ushbu asarida Sa‘diy Sheroziyning (1203-1292) izidan borib, insonning axloqiy hayotining qimmatini ta‘kidlaydi, islomiy axloqiy qadriyatlarni rad etmagan holda, yerdagi hayotni oqlaydi. Mazkur asarida Avloniy odob, axloq, yaxshi xulq, yomon xulq, tarbiya, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya singari 65 dan ortiq axloqiy kategoriyalarni tahlil etadi [16].

A.Avloniy o‘ziga zamondosh bo‘lgan jamiyat tahliliga kirishar ekan, xuddi Ahmad Donish singari, nimaiki yuksak axloqiylik va osoyishtalikka to‘g‘ri kelmasa, barchasini izchillik bilan va astoydil qoralash yo‘lini tutadi. Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston...” asari insonni, ayniqsa, haqqoniy, amaliy, ijtimoiy foydali hayotga, bilimlarni egallashga, doimiy ma‘naviy va axloqiy kamolotga yo‘llaydi.

A.Avloniy o‘zining gazeta va jurnallardagi maqolalarida Yevropa madaniyati va uning Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi o‘rni masalasiga katta e‘tibor qaratdi. 1907-yili Abdulla Avloniy muharrirligi ostida “Shuhrat” gazetasi chiqa boshladi – u orqali, Avloniy – biz ilm-fanni, birlikni, ozodlikni, adolatni targ‘ib qilmoq istaymiz,-deydi. Gazeta ta‘lim tizimini yangilashga va Turkistondagi ijtimoiy hayotning ayrim jihatlariga katta e‘tibor qaratdi. Ta‘kidlash joizki, “Shuhrat” gazetasining atigi 10 ta soni chiqarildi, xolos. Gazeta nashri 1908-yil fevralda Turkiston general-gubernatorining farmoyishi bilan hukumatga qarshi yo‘l tutgan deb to‘xtatildi [10]. Avloniyning o‘z zamonidan jamiyat, xalq ahvoli haqidagi qarashlari tasodifiy, yuzaki emas edi. U o‘z vatanining sodiq farzandi sifatida jamiyatning ma‘naviy inqirozini, ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy illatlarni ko‘rib qayg‘urishi tabiiy edi.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy

Markaziy Osiyoda ma'rifatchilik harakatining asosiy parametrlarini aniqlab berdilar va bu bilan madaniyatimizning keyingi taraqqiyoti uchun ham zamin tayyorladilar. Ular ma'rifiy tafakkurining o'ziga xosligi xalqimizning ma'naviy va tarixiy hamda milliy qadriyatlariga katta e'tibor berishida namoyon bo'ladi.

Jadidlarning konseptual falsafiy g'oyalari hozirgi innovatsion o'zgarishlarning darakchisi, bugungi kundagi strategiya yo'nalishdagi demokratik islohotlarning genetik asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadigan g'oyalari, qarashlari umuminsoniy xususiyatlarni asosan erk, ozodlik, adolat, mustaqillik kabi g'oyalar uyg'unligidan iboratdir. Jamiyat taraqqiyotiga bunday innovatsion yondoshuv jadidchilik harakati namoyondalari mamlakatimiz mustaqillikka erishishiga g'oyaviy asos bo'lgan nazariyalarni ilgari surganligidan dalolatdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: “O'zbekiston”, 2021. – B.464.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// Xalq so'zi, 2020-yil 01-oktyabr, № 207 (7709) soni.
3. Turdiyev Sh. Ular Germaniyada o'qigan edilar. –Toshkent: Akadem - Xizmat, 2006. –B.34.
4. Adeeb Khalid. Central Asia: A New History from the Imperial Conquests to the Present. The USA. 2021. 576 pages.
5. Edward A. Allworth. Evading Reality: The Devices of 'Abdurauf Fitrat, Modern Central Asian Reformist. Boston.: Brill Leiden. 367 pages.
6. Baldauf Ingeborg. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World // Die Welt des Islams, New Ser. Vol.41, Issue 1. (Mar., 2001).
7. Komatsu Hisao. Revolutionary Central Asia: A Portrait of Abdurauf Fitrat], Tokyo: University of Tokyo Press, 312pp.
8. Radjabov Sh. Djadidizm v Turkestane (1905—1917 gg.). Tezisy na dissertatsii na sois. uch. st. kand. ist. nauk.-Leningrad, 1937.
9. Muminov I.M. Iz istorii razvitiya obshchestvenno-politicheskoy mysli v Uzbekistane kontsa XIX- nachalo XX vv. – Tashkent, 1957.
10. Vaxidov X. Prosvetitel'skayaideologiya v Turkestane. – Toshkent: Fan, 1979. – C.77.
11. Alimova D., Rashidova D. Maxmudxodja Bexbudiy i yego istoricheskiye vozzreniya. – T.: Ma'naviyat, 1998. – C.32-34.
12. Alimova D. Jadidchilik fenomeni. –Toshkent: “Akademnashr”, 2022. – B 272.
13. Ziyoyeva D. Turkiston milliy ozodlik harakati. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 2000. – B.175.
14. Rizayev Sh.T. O'zbek jadid dramaturgiyasining shakllanishi manbalari: fil. fan. nomzodi diss. Avtoref: - Toshkent, 1995. – B.28.
15. Behbudiy M. Padarkush yohud o'qimagan bolaning holi // Rizaev Sh. Jadiddramasi. – Toshkent.: Sharq, 1997. – B.146.
16. Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar. 2-jild – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – B.216-217.
17. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild. Hind sayyohi bayonoti.-Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
18. Ziyoyev X. Jadidlar harakatining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy zamini (XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asrning boshlari) // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent.: Universitet,1999. – B.18.
19. Alimova D.Xaqiqatning tutash manzili // Tafakkur.-Toshkent, 2000.-№ 2– B.55
20. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Biznikemirguvchi illatlar. -Toshkent: Ma'naviyat,1999. – B.189
21. Mahmudxo'ja Behbudiy. Millatlar qanday taraqqiy etarlar? // “Samarqand” gazetasi, 1913-yil, 30-iyul //https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/1913-6/.
22. Irzaev B. Turkiston jadidlarining “Ko'mak” tashkiloti. – Toshkent: Toshkent islom universiteti Nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016. – B.7.
23. Oyina jurnallari, 1913. – 7-son; 1914. – No 31, 1915. – No 10.

**ISLOM BIOETIKASIDA BIOTIBBIY AXLOQ ME'YORLARI****Isaxova Shaxlo Muxtarovna**

Guliston davlat pedagogika instituti, dotsent v.b.,

ORCID: 0000-0002-1114-2798

UDK: 181:577(575:1)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola islom biotibbiy axloqi, hamda musulmonlar hayot va umr davomiyligini ta'minlashda shariat qonunlari va bioetika meyorlariga rioya qilishi to'g'risida. Islom bioetikasi sohasini rivojlantirish barcha fan olimlarini bioetika masalalarining islomiy nuqtai nazariga o'z hissasini qo'shishga undaydi. Ushbu maqolada huquqshunos, ijtimoiy fanlar bo'yicha olimlardan tashqari turli unvon va tavsiflarga ega diniy xizmatchilar, imomlar, muftiylar shular qatoridan o'rin olish kerakligi ta'kidlanadi. Islomning yangiligini hisobga olgan holda biotibbiyot masalalariga axloqiy ta'sir, dolzarb biotibbiy mavzular bilan bog'liq adabiyotlar miqdori cheklangan. Musulmonlarda islom ta'limoti markazlashgani sababli, sog'liqni saqlash sohasidagi muammolarga javob beradigan standartlar va qoidalarga, biotibbiyot axloqini islomga asoslanib, mos keltirishga harakat qilinadi. Maqolada islom dini manbalari asosida islom axloqi, meyorlari ishlab chiqilgan va o'rnatilgan yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Islom tibbiy axloq, dilemma, bioetika, inson hayoti, inson huquqlari, umuminsoniy meyor.

**BIOMEDICAL ETHICAL STANDARDS IN ISLAMIC BIOETICS**

**Annotation.** This article focuses on Islamic biomedical ethics and how Muslims adhere to Sharia law and bioethics in ensuring life and longevity. The development of the fields of Islamic bioethics encourages all scholars to contribute to the Islamic perspective on bioethical issues. This article emphasizes that in addition to lawyers and sociologists, they should include religious figures with various titles and descriptions, imams and muftis. Given the newness of Islam, the literature regarding the ethical implications of biomedical issues and current biomedical topics is limited. Because of the central role of Islamic teachings among Muslims, efforts are being made to adapt standards and regulations to suit health concerns as well as biomedical ethics based on Islam. The article describes the development and approval of Islamic morality and norms based on the sources of the Islamic religion.

**Key words:** Islamic medical ethics, dilemma, bioethics, human life, human rights, universal norm.

**Kirish.** Islom amaliyotida musulmonlar hayot va umr davomiyligini ta'minlashda shariat qonunlariga va bioetika meyorlariga rioya qilishadi. Musulmonlarni shariat qonunlariga rioya qilishlari Islom uchun asos bo'lib, har qanday holatda bekor qilinishi, e'tiborsiz qoldirilishi mumkin emas. Shuning uchun Qur'onda ko'rsatilganidek, ushbu oyat quydagicha fikrni anglatadi. "Ey mo'minlar, Ollohga itoat qilingiz va payg'ambarga itoat qilingiz hamda o'zlaringizdan bo'lgan (musulmon) hokimlarga (bo'ysuningiz)! Bas, agar biron narsa haqida talashib qolsangizlar, - agar haqiqatdan, Ollohga va Ohirat Kuniga iymon keltirgan bo'lsangizlar – u narsa Ollohga va Payg'ambariga qaytaringiz! Mana shu eng yaxshi va eng chiroyli yechimdir" (4:59) [1]. Islom manbalarida an'anaviy Islom axloqi, meyorlari ishlab chiqilgan va o'rnatilgan. Islomiy bioetikaning ahamiyati bo'yicha ilmiy qarashlarning muhimligi ta'kidlanadi.

Islom bioetikasi ham islom dini muqaddas manbalariga asosan bioetika masalalariga o'z fikrlarini berishmoqda. Islom dini muqaddas manbasida: «Ey insonlar, ular sizlarning qaysilaringiz chiroyliroq, yaxshiroq amal qilguchi ekanligingizni imtihon qilish uchun

o'lim va hayotni yaratgan zotdir. U qudratli va mag'firatlidir» (67:2), [2]. O'lim mavjudligi aniq, lekin hayotni tibbiy sifatini ta'minlash tibbiy axloqiy masala hisoblanadi. Bunda bemor hayoti sifatini taminlash yoki tibbiy foydasizlikni belgilash, mutaxassis shifokorni bilim va kasbiy faoliyatidagi tanlov erkinligiga bog'liq bo'ladi. Shunda ham kasbiy tanlov erkinligi va qabul qilgan qarori bioetika prinsiplari hisoblangan «yaxshilik qil», «foйда keltirish», «xabardorlikka asoslangan rozilik» dan chetga chiqmasligi kerak. Chunki insonning hayoti abadiy qadriyat bo'lsa, o'limi ham insonni istaklari inobatga olingan so'ngi qadriyatidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Inson huquqlarining qonuniy asoslari islom diniy ta'motlari uchun muhimdir. Ko'plab musulmon olimlari va davlatlari inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tamoyillarni baynalmilallashtirishni rad etadi. G'arb qadriyatlari va yahudo-nasroniy, diniy-madaniy meroslari bu halqlarni aslini aks ettiradi. Yuneskonning Bioetika va inson huquqlari bo'yicha Umumjahon deklaratsiyasining moddalarini munozarali hisoblanadi. Yuneskonning Bioetika va inson huquqlari bo'yicha Umumjahon deklaratsiyasi islom qonunlari va islom an'anaviy ta'limotiga kiritilgan. Ushbu tamoyillarni islomga tatbiq etish uchun turli xil uslublarda murojaat qilinadi va bioetika tamoyillari asosida yondashiladi. Musulmonlar islom amaliyotida, hayotda va bioetika masalalarida shariat qonunlariga rioya qilishadi. Musulmonlarni shariat qonunlariga rioya qilishlari islom uchun asos bo'lib, har qanday holatda bekor qilinishi, e'tiborsiz qoldirilishi mumkin emas.

**Natijalar va muhokama.** Islom dini manbalari asosida islom axloqi, meyorlari ishlab chiqilgan va o'rnatilgan. Islom bioetikasining ahamiyati bo'yicha ilmiy qarashlarning muhimligi ta'kidlanadi. Abdullah Daar va Binsumit Alhitamiy ta'kidlashicha: «Islomda musulmonlar hayotni har bir jabhasida, shu jumladan sog'liq va davolanishda ham diniy vazifalarni bajarishlari shart» [3], deb yozadi. Fikrimizcha, buni muhimligini islomga asoslangan biotibbiy axloq meyorlari namoyish etadi. Biotibbiy amaliyotlarda diniy ta'limot va qonunlar asosida yashash, hamma jahon dinlari uchun xos yagona xususiyatdir. Musulmonlarda islom ta'limoti markazlashgani sababli, sog'liqni saqlash sohasidagi muammolarga javob beradigan standartlar va qoidalarga, biotibbiyot axloqini islomga asoslanib, mos keltirishga harakat qilinadi. Abdurahmon, S.Amine va Elkadi ta'kidlashicha: «Islom bioetikasi zamonaviy davrda axloqiy muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan mukammal axloqiy tamoyillar to'plamidir» [4], deb yozadi. Biotibbiy axloqqa nisbatan diniy ta'limotlarda o'ziga xos islomiy yondashuv mavjud. Islom mamlakatlari biotibbiyot va uning axloqiy mavzularida shariat aks etishi uchun ma'lumotlar to'plashadi. Buni uchun Tibbiyot fanlari islom tashkiloti IOMS [5], Islom konferensiyasi tashkiloti, Islom Fiqh akademiyasi, Islom yuridik kengashi va qo'shimcha ixtisoslashtirilgan tashkilotlar yig'ilishib, vaqti-vaqti bilan biotibbiyot axloqining dolzarb mavzularini muhokama qilishadi va shariat bo'yicha tushunchalar berishadi. Islom tibbiy axloq qoidalariga bag'ishlangan «Islom biotibbiy axloqi»ni yangi tartibi keyingi ishlarni muhokama qilishni boshladi. Samar Faraj fikriga ko'ra: «Islom tibbiy axloqi 1400-yil oldin paydo bo'lgan, galeno-islom bilan bog'liq tibbiyot fanining yunon tilidan tarjimasini bilan Arab va islomning mahalliy tillaridagi tibbiy bilim an'anasi ajralib turadi. Bu bilim Yunon tibbiy axloqining tabiiy davomi bo'lib, islom tibbiyot axloqi tabibning shaxsiy xususiyatlari, xulq-atvori va g'amxo'rliqi bilan bog'liq» [6]. Islom tibbiy axloqining kengayishi ilm manbai sifatida sifatida, shu bo'yicha yozilgan asarlarning o'rni kattadir. Yuzlab yillar davomida tibbiy axloq qoidalarini to'plashda, ko'plab musulmon tabiblar, shu jumladan, Abul Qosim az Zahraviy, Abu Bakr Ar-Roziy, Abu Sahl Masihiy, Abu Xair al-Hammar, Abu Abdulloh Iloqiy, Abu Mansur Qamariy, Abu Ali ibn Sino, Umar Chimgoniy, Ismoil Jurjoniy, Abu Hamid An Naxshiylar bu ishga o'z hissalarini

qo'shdilar. Ar-Ruhaviyning «Adab al-Tabib» asari Islom odob-axloq qoidalarini targ'ib qilish bo'yicha batafsil ma'lumot beradi. Biotibbiyot sohasidagi zamonaviy yutuqlar va unga bo'lgan axloqiy munosabatlar, dilemmalar tufayli, islomiy nuqtai nazarni biotibbiyotga qo'shish juda muhimdir.

XXI asrda islom bioetikasi tibbiy-axloqiy adabiyotlarini ommaviy nashr etish bilan katta yutuqlarga erishdi. Islom bioetikasi sohalarini rivojlantirish barcha fan olimlarini bioetika masalalarining islomiy nuqtai nazariga o'z hissasini qo'shishga undaydi. Huquqshunos, ijtimoiy fanlar bo'yicha olimlardan tashqari turli unvon va tavsiflarga ega diniy xizmatchilar, imomlar, muftiylar shular qatoridan o'rin olish kerakligi ta'kidlanadi. Islomning yangiligini hisobga olgan holda biotibbiyot masalalariga axloqiy ta'sir, dolzarb biotibbiy mavzular bilan bog'liq adabiyotlar miqdori cheklangan. Musulmon shariatida, inson Alloh bilan munosabatida haqni topishi va taqvoli hayot kechirishi demakdir. Islom muqaddas manbalari inson hayotining har bir sohasida, shu jumladan bioetikada tanqidiy fikrlashga yordam beradi. Islom shiati asosida bioetika bilan bog'liq bo'lgan masalalarni muhokama qilish, oqilona qaror qabul qilish amaliyotini shakllantiradi. Islom ta'limoti aqidalari haqlik va umuminsoniy axloq meyorlariga rioya qiladi. Bioetikaga tegishli masalalarni muhokama qilishda, bioetika meyorlariga ratsionallik va amaliylikni qo'llashni o'z ichiga oladi. Shuning uchun utilitarizm nazariyasi, prinsipialligi va boshqa tegishli qarashlar ma'lum darajada islom biotibbiy axloqiy meyorlar mohiyatiga o'xshaydi. Masalan: ko'plab G'arb mamlakatlari, dunyoviy davlatlar, davlat siyosati va sog'liqni saqlash sohalarida utilitarizm sxemasini qo'llaydilar. Sog'liqni saqlash resurslarini ta'minlash, oqilona taqsimlash, kamchiliklarini to'ldirish uchun ajratish muhimdir. Ushbu uslubiy yondashuvga o'xshab, islom jamiyatlarida adolatli taqsimotda oqilona hukmni qo'llab-quvvatlaydilar. Islomda Qur'on va Sunna huquqiy- axloqiy qonunchilikning asl manbaidir. Baderin tasniflaganidek Qur'on: «U turli xajmdagi axloqiy va dunyoviy masalalarga oid 6000 dan ortiq oyatlarni o'z ichiga oladi. Ba'zi oyatlar ota-onaga hurmat kabi axloqiy masalalarini qamrab olsa, ba'zilari esa savdo va jinoyatni qonuniy tartibga solish kabi masalalarni qamrab oladi» [7]. Islom dinining muqaddas manbasi hisoblangan Qur'on va hadisi shariflarda inson hayoti, sog'lig'i borasida qator oyat va hadislar kelgan. Qur'onning Baqara surasi 195 oyatida Alloh taolo insonlarni o'zlarini o'ldirishdan qaytaradi: «...o'z qo'llaringiz bilan o'zlarinigizni halokatga tashlamangiz!...». Bu oyatlarda inson joniga kelgan bemorlik, unga berilgan umr omonatligi, insonning joniga daxldorlik Yaratganga tegishliligi e'tirof etilgan. Bu oyatdagi so'zlar bioetikaning evtanaziya masalasiga tegishli bo'lib, evtanaziyani G'arb tibbiyoti bemorni kuchli og'riqlardan qutqarish maqsadida, insonning umri so'ngidagi istaklari va abadiy qadriyati, qonuniy huquqini ta'minlash deb yoqlasada, Sharq uni aksini ifodalaydi. Sharqda insonni umri va hayoti muqaddasligi, inson tanasi bilan umri unga Alloh tomonidan berilgan omonatligi ta'kidlanadi. Bir insonni boshqa bir inson hayoti, umriga daxl qilishi oyat va hadislarda qoralanadi. Abu Hurayra roziallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Nabiy sollalohu alayhi vasallam: «Musulmonga qay bir musibat – horg'inlikmi, bemorlikmi, ozormi, g'am- g'ussami, hattoki tikan kirishimi- yetadigan bo'lsa, albatta, Alloh ular ila uning xatolarini kafforot qilur», deyiladi. Har qanday vaziyatda ham dardga chidamli, og'ir vaziyatga sabrli bo'lishlik, musulmon kishida bo'lishi kerak bo'lgan fazilatlar ichidagi eng a'losidir. Agar kishilar bemorligida sabrsizlik qilsalar, dardiga dard qo'shilib, uning oqibati o'laroq shifo topishi kechikadi.

Bioetika masalalari bo'yicha shariat hukmini belgilashda, musulmon jamiyati fatvo chiqarishda ilohiy manbalarning islomiy iyerarxiyasi quydagilardir: Qur'on matni, payg'ambarimiz sunnati, ijmo va qiyosga tegishli tartibdir. Shuning uchun biotibbiyotga tegishli axloqiy masalalarni hal etishda va islomiy hukmlar chiqarishda yuqoridagi

manbalarga rioya etilishi shart. Islom dinining muqaddas manbasi hisoblangan Qur'on va hadisi shariflarda inson hayoti, sog'lig'i borasida qator oyat va hadislar kelgan. Qur'onning Baqara surasi 195 oyatida Alloh taolo insonlarni o'zlarini o'ldirishdan qaytaradi: «...o'z qo'llaringiz bilan o'zlarinigizni halokatga tashlamangiz!...» [8]. Bu oyatlarda inson joniga kelgan bemorlik, unga berilgan umr omonatligi, insonning joniga daxldorlik Yaratganga tegishligi e'tirof etilgan. Bu oyatdagi so'zlar bioetikaning evtanaziya masalasiga tegishli bo'lib, evtanaziyani G'arb tibbiyoti bemorni kuchli og'riqlardan qutqarish maqsadida, insonning umri so'ngidagi istaklari va abadiy qadriyati, qonuniy huquqini ta'minlash deb yoqlasada, Sharq uni aksini ifodalaydi. Sharqda insonni umri va hayoti muqaddasligi, inson tanasi bilan umri unga Alloh tomonidan berilgan omonatligi ta'kidlanadi. Bir insonni boshqa bir inson hayoti, umriga daxl qilishi oyat va hadislarda qoralanadi. Imom Buxoriy hadislarida ham axloqning yaxshi bo'lishi, jismning pokizaligi masalalariga katta e'tibor qaratilganini kuzatish mumkin [9].

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Nabiy sollalohu alayhi vasallam: «Musulmonga qay bir musibat – horg'inlikmi, bemorlikmi, ozormi, g'am-g'ussami, hattoki tikan kirishimi-yetadigan bo'lsa, albatta, Alloh ular ila uning xatolarini kafforot qilur» [10], deyiladi. Har qanday vaziyatda ham dardga chidamli, og'ir vaziyatga sabrli bo'lishlik, musulmon kishida bo'lishi kerak bo'lgan fazilatlar ichidagi eng a'losidir. Agar kishilar bemorligida sabrsizlik qilsalar, dardiga dard qo'shib, uning oqibati o'laroq shifo topishi kechikadi. Fikrimizcha, bu holatda musulmonlarning ma'naviy va amaliy harakatidagi huquqiy meyorlar, shuningdek axloqiylikni belgilashda ushbu manbalarning asosiyligini tushunish juda muhimdir. Shu sababli islom dini ta'limotlari, islom dinidagi bemorlarning huquqlarini himoyasida ko'pgina musulmon davlatlarida muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bioetika masalalariga nisbatan turli dinlar o'zining manbalariga tayangan xolda o'z munosabatini berganligini ko'rishimiz mumkin. Dinlar diniy ta'limotlar tarixi orqali u yoki bu bioetika masalalariga munosabat bildirmoqda. Bu masalalarga o'zlarini ma'lum cheklovlarni qo'ymoqda. An'ana, qadriyat insonni hayvondan ajratib turadi. Ilm-fanni, biotibbiy texnologiyalarni yaratuvchisi ham inson ekan o'z bilimini to'g'ri yo'lga yo'naltirish va butun tiriklikni asl holatda saqlanishiga hizmat qilishi kerak. Shundagina kelib chiqishi mumkin bo'lgan ijtimoiy oqibatlarni oldi olinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Shayx Alouddin Mansur , Qur'on azim muxtasar tavsiri – T: “Sharq” nashriyoti, 2020 yil, B-208
2. Shayx Allouddin Mansur. Qur'oni azim muxtasar tafsiri. -Toshkent: Sharq, 2020. -B. 572.
3. Abdullah Daar and Alkhitamy Binsumeit. Bioethics for Clinicians: 21 Islamic Bioethics// Canadian Medical Association Journal. – Canada.: 2001. №1. P. 60-63.
4. Amine and Elkadi. Islamic code of Medical Professional Ethics// Journal of the Islamic Medical Association of North Amerika. –USA.: 1981. Vol 13. №3. -P. 233-239.
5. Thomas Eich, Jonathan Brockopp. The Decision-Making Process among Modern Scholars. A Theory for Practice from Ethics in Muslim Medical. -Columbia: The University of South Carolina Press, 2008. -R. 63.
6. Samar Farage. The Ethics of the Physician in the Galeno- Islamic Tradition// in Muslim Medical Ethics from Theory to Practice, ed Jonathan Brockopp and Thomas Eich. -Columbia: The University of South Carolina Press, 2008. – P. 21-31.
7. Baderin. Understanding Islamic Law in Theory and Practice// Legal information Management. 2009. Volume 9. Issue 3. -P.186-190.
8. Islom ma'rifati va hozirgi zamon. -Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2017. -B. 118.
9. Imom Buxoriy. Al adab al mufrad. Toshkent 1990..B94
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yuuf. Hadis va hayot. 18 -juz. Tib va dam kitobi. -Toshkent: Hilol- Nashr, 2020. -B. 46.



## QASHQADARYO SHEVALARIDA CHORVANING BOSH TUZILISHIGA KO‘RA NOMLANISHI

**O‘rinova Olima Tog‘ayevna**

Qarshi DU dotsenti, f.f.n.

[olima.urinova@mail.ru](mailto:olima.urinova@mail.ru)

ORCID: 0009-0007-2514-0391

UDK: 636:413.164(045)

**Annotatsiya:** Cho‘ponlar eng qadimgi davrlardan to hozirgacha o‘z boqimidagi chorvaning sonini yaxshi bilgan va biladilar. Chunki u o‘z poda va otaridagi chorvalarni qabul qilayotganda, birinchi navbatda, ularni ko‘zdan kechirib chiqadi. Bunda cho‘pon o‘ziga berilgan har bir chorvaning tashqi va ichki belgilarini o‘rganib, uni o‘ziga ma‘lum tushuncha bilan ataydi. Bu tushunchalar esa tilda termin sifatida yuzaga chiqadi. Bu nom – terminlar asosida sonini aniqlash cho‘ponlar tilida “tugallash” deb aytiladi. O‘z boqimidagi chorvalarni bunday usulda tanib, parvarish qilish chorvachilikda ko‘pdan buyon katta ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra ham zamonamizning eng ilg‘or va tajribali cho‘ponlari qo‘yni bu tarzda taniy oldilar.

Jamiyatda ishlab chiqarish jarayonida biror yangi predmet vujudga keltirilsa, u albatta, biror usul bilan nomlanib tilda so‘z-termin sifatida o‘z aksini topadi. Chunki “kishilarning eng muhim aloqa vositasi” hisoblangan til kishi faoliyatining hamma sohasi bilan bevosita, chambarchas bog‘langan, undagi bo‘lgan har qanday o‘zgarishni, asosan, yangiliklarni o‘zida (leksikasida) tezda aks ettirib lug‘at tarkibini boyitib boradi. Shuningdek, sof terminlar ma‘lum sohaga oid konkret tushunchalarni ifodalovchi maxsus so‘zlar bo‘lib, soha vakillari nutqida faol qo‘llanilib keladi. Sohaga oid termin va terminologiya qaysi milliy tilga tegishli bo‘lsa, o‘sha milliy va mahalliy xalq tilining ichki taraqqiyot qonunlariga bo‘ysunadi, ya‘ni o‘sha milliy tilning kelishik qo‘shimchalari, tuslovchi affikslerini qabul qila oladi, ular yordami bilan shakl va mazmunini o‘zgartira oladi; nutq jarayonida ular gap ichida (tegishli sohalarda) faol ishtirok etadilar, gapning biror bo‘lagi, vazifasida kela oladilar, fonetik jihatdan ham terminlar qaysi milliy tilga tegishli bo‘lsa, o‘sha milliy til va tilning fonetik qonunlariga bo‘ysunadi.

**Kalit so‘zlar:** chorvachilik, tashqi va ichki belgi, sovliq, terminologiya

### NAME OF LIVESTOCK IN KASHKADARYA DIALECTS RELATING TO THE HEAD STRUCTURE

**Abstract:** Shepherds have known and know the number of cattle in their herd from the earliest times until now. Because when he receives the animals in his herd and herd, first of all he examines them. In this case, the shepherd studies the external and internal signs of each animal given to him, and names it according to his own understanding. These concepts appear as terms in the language. Determining the number based on this name-term is called "completion" in the language of shepherds. Recognizing and caring for livestock in one's own herd has long been of great importance in animal husbandry. Accordingly, the most advanced and experienced shepherds of our time were able to recognize the sheep in this way.

If a new object is created in the process of production in society, it will be named in a certain way and will be reflected in the language as a word-term. Because the language, which is considered "the most important communication tool of people", is directly and closely connected with all spheres of human activity, it enriches the vocabulary content by quickly reflecting any changes in it, mainly news. . Also, pure terms are special words that express concrete concepts related to a certain field, and are actively used in the speech of

representatives of the field.

The term and terminology related to the field, which belongs to the national language, is subject to the laws of internal development of that national and local vernacular language, that is, it can accept the conjugations and affixes of the national language, with the help of which can change its form and content; in the speech process, they take an active part in the sentence (in the relevant fields), can act as a part of the sentence, phonetically, the terms are subject to the phonetic laws of the national language to which the terms belong.

**Key words:** animal husbandry, external and internal signs, coolness, terminology.

**Kirish.** Respublikamizda chorvachilik tarmog‘i kundan kunga tobora rivojlanib bormoqda. Shu bois uning terminologik tizimini tadqiq etish o‘zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalarni belgilab beradi. Shunday ekan, o‘zbek tilshunosligida chorvachilik terminlarini o‘rganish, terminlarni tahlil qilish yuzasidan mulohazalarni bildirib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Respublikamizda xalq xo‘jaligining barcha sohaları bo‘yicha tubdan o‘zgarishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda. Bundan iqtisodiyotimizning yetakchi sohalaridan biri sanalgan chorvachilik sohasi ham mustasno emas. Ayni paytda chorvachilik leksikasi o‘zbek tilida eng qadim davrlardan boshlab shakllangan, rivojlangan va boyib borgan. Bu soha anchayin keng tarqalgan hududlarda, masalan, Qashqadaryo vohasidagi shevalarda chorvachilik bilan bog‘liq so‘zlar katta miqdorni tashkil etadi. Tegishli tushunchani eng nozik detallarigacha ifoda etadigan bunday sheva so‘zlari chorvachilik leksikasini boyitishning o‘ziga xos xaxirasidir. Shu bois, o‘zbek tilida, shuningdek, shevada chorvachilik terminlarining tahlilini o‘tkazish kechiktirib bo‘lmaydigan, dolzarb masalalardan biridir. Bugunga qadar tilshunoslikda tadqiq etilgan ba‘zi ishlarga to‘xtalib o‘tamiz. Masalan, T.O‘rinovning “O‘zbek tilida qo‘ychilik terminlari» [7], T.Xo‘jamberdiyevning “O‘zbek tilida chorvachilik leksikasi (Farg‘ona vodiysi materiallari asosida)” [9], M.Bo‘ronovning “Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida chorvachilik terminlari” [2], S.Usmonovning “Hozirgi o‘zbek tilining gippologik terminologiyasi” [8] singari olimlarning tadqiqot ishlari buning yaqqol dalili bo‘la oladi.

Mazkur ishimizda chorvachilik bilan bog‘liq terminlarning tarixiy-etimologik xususiyatlarini ochib berish uchun M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asariga, V.V.Radlov, N.A.Baskakov kabi olimlarning e‘tiborli asarlariga murojaat qilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qashqadaryo qipchoq shevalarining bir qismi hisoblangan chorvachiliklik nihoyatda o‘ziga xos lug‘at sostaviga ega: unda chorvachilikning bir qancha turiga oid xilma-xil tushunchalarni o‘zida aks ettiruvchi so‘z – terminlar mavjuddir. Chorvachilikka oid terminlarning ko‘pi o‘zbek milliy tili va dialektlarining asosiy lug‘ati fondi hisobida vujudga kelgan. Shunga ko‘ra ham prof. N.A.Baskakov shunday yozadi: “Tillarning yangi atamalar bilan boyitishning eng keng va boy manbasi milliy til va dialektlar lug‘atidir” [1].

**Tahlil va natijalar.** Chorva turlarining bu usulda nomlanganida, birinchi navbatda, bosh skeletining umumiy tuzilishi hisobga olinadi. Chunki har bir chorvaning bosh tuzilishi (ko‘rinishiga ko‘ra shakli) boshqasidan biror bir xususiyati bilan ajralib turadi. Bu shakllar va xususiyatlar o‘ziga xos nom-so‘z bilan ataladiki, u juda katta ahamiyatga egadir.

Ikkinchidan, bosh junining turli turlarga ega bo‘lishligiga ko‘ra ham alohida nomlar tanlangan.

Uchinchidan, ko‘zining tuzilishiga ko‘ra ham nom beriladi. Chunki tajribali cho‘pon

otaridagi har bir chorvaning koʻzini bir-biridan farqlaydi. Bu farq ularni bir-biriga qarama-qarshi qoʻyish yoʻli bilan aniqlanadi. Lekin ularning hammasi alohida terminlar bilan atalmaydi, faqat baʼzi bir holatdagina ularni termin bilan ataydilar.

Toʻrtinchidan, chorvaning qulogʻi ham turli koʻrinishga ega. Bunga koʻra ham ular turli nomlar bilan ataladi. Bu haqda quyiroqda alohida toʻxtalamiz.

Shunday qilib, chorva turlarining bosh tuzilishi va undagi turli belgilariga koʻra turli-tuman nomlarga egadir. Bular oʻziga xos terminlar bilan tilda aks etadi.

ALAVOSH – bosh junlari xilma-xil, yaʼni oq-qora yoki oq-koʻk va boshqa tusda boʻlgan chorva. Bu termin “ala” va “bosh” soʻzlarining birikuvidan hosil qilingan. Bunda ikkinchi komponentning “b” tovushi oʻzidan keyingi “o” ga akkomadatsion moslashib, “v”ga aylangan.

ALAKOʻZ – katta koʻzli va koʻzining oqi koʻproq boʻlgan chorva. Bunday qoʻyning koʻz qorachigʻi oqiga nisbatan kichikdek koʻrinadi, lekin u yaxshi koʻradi. Bu termin ham “ala” va “koʻz” soʻzlarining birikuvini natijasida hosil qilingan. Bu termin tarkibidagi “ala” soʻzi “alavosh” terminining birinchi komponenti – “ala”dan semantik jihatdan farq qiladi. Birinchi u oʻz maʼnosida kelgan. Ikkinchi termin tarkibida esa koʻzning oqini kuchaytirib koʻrsatuvchi subyektiv belgi maʼnosida qoʻllanilgan.

“GAHAR” – beti qizgʻish tusda va yuzi uzra qoramtir toʻgʻri “chiziqchalar” hosil boʻlgan qoʻy.

DONA SHOX (qoramol yoki qoʻy) - shoxi donaga oʻxshash chorva. Odatda qoramol yoki sovliqlarning asosiy koʻpchiligi shoxsiz boʻladi. Agar ularda shox hosil boʻlib qolsa, bu holat ularni bir-biridan ajratib turuvchi belgisiga aylanib qoladi. Shunga koʻra ham ular alohida termin bilan ataladi. Bu termin oʻsimlik urugʻi – donaga qiyos qilinishi natijasida hosil qilingan. Chunki bunday chorvaning shoxi ham shakl jihatidan donaga ancha oʻxshaydi.

KAL QOʻCHQOR – shoxsiz qoʻchqor. Odatda qoʻchqor shoxli boʻlishi kerak. Unda shoxning boʻlmasligi uning kamchiligi hisoblanadi. Shuning uchun ham bu termin kishilarga xos kasallikni bildiruvchi “kal” soʻzi yordami bilan yasalgan. Bunda “kal” soʻzining asl maʼnosi semantik jihatdan oʻzgargan, yaʼni kasallikni emas, balki kamchilikni bildirib kelgan.

Nima uchun shoxsiz qoʻchqorni “kal qoʻchqor” deb ataganlar? Bunda har ikki holat oʻrtasida maʼlum oʻxshashlik mavjud: agar kishi kasallanib, sochi chiqmay qolsa, uni “kal” deb yuritiladi. Xuddi shuningdek, qoʻchqorda shox boʻlishi shart. Unda shoxning boʻlmay qolishi odamda soch boʻlmasligi bilan qoʻchqorga “Kal qoʻchqor” deb nom berilgan.

XI asr tilshunosi M.Koshgʻariy shu maʼnoning boshqacha termin bilan atalganini, yaʼni *cykap koj* – shoxsiz qoʻy [16] tarzida qoʻllanganini koʻrsatadi. Bu oʻrinda shuni ham hisobga olmoq lozimki, u “qoʻy” deganida, umuman, shu turdagi hayvonlarni, yaʼni “qoʻchqor” tushunchasini ham nazarda tutgan.

Hozirgi zamon qoraqalpoq tilida bu termin *Tokai* [13] tarzida qoʻllaniladi.

KAMIYAK; Kam(i) yak – pastki jagʻi kalta chorva. Bu termin “kam” va “iyak” (“jag” maʼnosidagi) soʻzlarning sintaktik birikuvini natijasida hosil qilingan.

“KAMIYAK” terminining ikkinchi komponenti Qashqadaryo shevalariga oid soʻz boʻlib, u “engngay”, “engak”, “iyak” shakllarida qoʻllaniladi.

KAPA BOSH - burni baland, kallasi boshqa qoʻylarnikidan koʻra anchagina katta, ogʻir jussali histori qoʻy.

Bu termin “kapa” va “bosh” otlarining sintaktik birikuvini natijasida hosil qilib, koʻpincha substantivlashgan holda qoʻllaniladi.

“KAPA BOSH” terminining birinchi komponenti choʻponlarning yaylovda

yashaydigan uyi ma'nosini beradi. Uning to'garakligi bilan bunday qo'yning bosh tuzilishi rasman qiyos qilinadi va natijada oddiy o'xshatuv yo'li bilan bu termin hosil qilinadi.

**KOKILDOR** – boshida uzunroq qiltiqli juni, ya'ni yosh bolaning boshida qoldirilgan kokildek, juni bo'lgan qo'y.

Bu o'rinda shuni ham eslatib o'tmoq lozimki, "kokil" so'zining leksik-semantik ma'nosi biroz o'zgargan. Chunonchi, kokil eski urf-odatlariga ko'ra yosh bola boshida otananing ma'lum maqsadiga muvofiq qo'yilgan ozgina sochdir.

Qo'ylarga "kokildor" deb nom qo'yilganda, hech qanday maqsad ko'zda tutilmaydi, balki ulardagi tashqi o'xshashlik e'tiborga olinadi, xolos.

"Kokil" so'zi aslida forscha so'zdir, lekin ko'pgina turkiy xalqlarga to'la singib ketganligi uchun uni ichki manba hisobiga kiritdik.

"Kokil" so'zi V.Radlov lug'atida "kokyl" (xitoy va qalmiqlar boshidagi bir tutam *soch*) [13] tarzida izoh bilan berilgan. Xuddi shuningdek, V.Radlov bu so'zning (ka'hkyl) varianti ham [13] bor ekanligini qayd qiladi.

**MUNCHOQLI** – pastki jag'i ostida munchoqqa o'xshash bitta yoki ikkita bezi bo'lgan chorva.

Chorvadagi bu bezning bo'yinda osib yuriladigan munchoqqa qiyos qilinishi natijasida bu termin hosil qilingan. Bu ikki narsa (chorvaning pastki jag'i ostidagi osilib turgan bez bilan xotinlar bo'ynidagi zeb-munchoq) o'rtasida shakl jihatidan qisman o'xshashlik mavjud. Shu asosida ham chorvachilikka oid bu termin vujudga keltirilgan.

**MOYAVOSH** – boshining yuqorisida, ya'ni markazida tikka o'siqli juni bo'lgan chorva. Uning boshidagi jun erkak kishining tikka o'sgan sochiga o'xshaydi.

Bu termin ikki til – tojik va o'zbek tili elementlari ishtirokida, ya'ni tojikcha "mo'y" (soch, jun) va o'zbekcha "bosh" so'zlarining o'zaro sintaktik birikuv natijasida hosil qilingan. Bu ikki so'z izofat yordami bilan birikkan, izofat esa aniqlovchi qism – "mo'y" ga berilgan: **mo'y-i bosh**;

Shunisi ham qiziqki, bu holat to'la saqlanmay, u o'zbek tili qonunlariga bo'ysundirilib, izofat "A" tovushiga, birinchi komponentdagi "O" tovushi esa o'zidan keyingi unli ta'siriga berilib, "O" ga, ikkinchi komponentning boshida kelgan "B" tovushi "V" ga aylangan: **mo'yi bosh(moyavosh)**;

"MOYAVOSH" termini Qashqadaryoning G'uzor, Yakkabog' tumanlaridagi "J"lovchi shevalarida "sachli", "po'pidor", "po'pili" tarzida ham qo'llaydilar.

"SOCHLI" terminining qadimgi adabiyotlarda ham va eski o'zbek tilida ham qo'llanilganligini P.M. Melioranskiy eslatib o'tadi. Hatto u bu so'zning *сачлы, сачлы* [13] variantlari bor ekanligini ko'rsatgan.

Bu o'rinda shuni aytmoq lozimki, mashhur turkshunos bu so'zning odamlarga xos ekanligini ham ko'rsatadi. Haqiqatan ham bu so'z odamga xosdir. Lekin chorvadorlar chorvani "sochli" deganda, uning boshidagi junni odamning sochiga o'xshatgani holda shunday deb ataydi.

Bunday chorvani "po'pili" yoki "po'pidor" deganida esa, chorvaning boshida o'sib turgan bir tup tikka jun **po'pili qush (popishak)**ning boshidagi bir tup parga o'xshatiladi va shuning uchun ham unday chorva turlari shu nom bilan ataladi.

OQ KOKIL /OQ SHOX – shoxi o'rnidan oq tusli jun o'sib chiqqan sovliq.

OQ TUMSHUQ – burnining old qismi oq tusli bo'lgan chorva.

SAQAR – boshining ustida oq tusli bo'lgan chorva. Bu oq tus ikki shox va quloq o'rtaligida bo'ladi.

Bu termin eski o'zbek tilida *бауил/бауил қој* tarzida qo'llanilgan. [13].

**Saqar** termini peshonasida oqi bor otni bildirish uchun ham qo'llanilgan: Gaqar.

Xuddi shuningdek, gagauzlarda bu termin peshonasi qashqa sigirni bildiradi: sakar-

krowa biftymi plamaini na lbie [13]. Demak, *Saqar* termini faqatgina mayda chorvaga tegishli bo'lmagan, balki sigir va otga ham taalluqlidir. Shuni ham qiziqki, bu termin yuqoridagilardan qaysi biriga tegishli bo'lishiga qaramay, bir xil belgini bildiradi.

SEVAT BOSH - boshi katta va serjun chorva. Uning boshidagi o'siqroq jun, shaklan savatga o'xshaydi. Shuning uchun ham bu ikki predmet o'zaro qiyos qilinib, "*sevat*" va "*bosh*" so'zlarining birlashtirilishi natijasida yuqoridagi termin hosil qilingan.

SUPOQ – kallaning usti do'ng, bosh juni kaltagina va dumaloqqina bo'lib o'sib turgan qo'y. Uning boshidagi jun *Moyavosh* qo'ylarning boshidagi jundan ko'proq bo'ladi.

"SUPOQ" so'zi aslida "notekis" degan ma'noni bildiradi. Supoq qo'yning boshidagi jun ham notekis – bir qismi o'siq, ikkinchi qismi kalta bo'ladi. Shuning uchun ham bu so'z chorvachilikda termin sifatida o'z o'rnini topa olgan.

TEVAL – peshonasidan yuqoriroqda oqi bor chorva. Bu termin aslida "tepasi ala" birlashtirilgan qisqargan shaklidir.

Biz yuqorida boshining ustida, ya'ni o'rtasida oqi bo'lgan chorvani "*Saqar*" deb aytdik. Chorvadorlar oz bo'lsa ham undan ajralib turuvchi "*Teval*" deb nomlaganlar. Chunki "*Teval*"ning oqi "*Saqar*"ning oqidan pastroqda bo'ladi va "*Qashqa*"dan esa yuqoriroqda turadi. Ana shuning uchun ham tajribali cho'pon farqlaruvchi bu belgilarga ko'ra unga alohida-alohida nom tanlaganki, u chorvachilik terminologiyasi uchun katta ahamiyatga egadir.

TIK SHOX – shoxi tikka o'sgan chorva.

TUGMA SHOX – shoxi tugmaga o'xshash chorva. Bunday chorvaning shoxi juda kalta bo'lib, hatto bosh juni oralig'idan bazo'r ko'rinadi, uning shakli tugmaga o'xshash yapaloqqina ko'rinishga ega. Shuning uchun ham uning shoxi tugmaga qiyosan o'xshatilib, unga "*Tugma shox*" deb nom berilgan.

Bu o'rinda shuni ham qayd qilmoq lozimki, *tugma* bilan *shox* o'rtasida hech qanday funksional o'xshashlik yo'q, ammo ular faqatgina shakl jihatidan biroz o'xshashlikka egadir. Kam bo'lsa-da, bu o'xshashlikning mavjudligi shu so'z "*tugma*" va "*shox*"lar ishtirokida yangi ma'no beruvchi terminning vujudga kelishiga sababchi bo'lgan.

TO'RT SHOX – to'rt shoxli chorva. Bunday chorvaning shoxi ikki tomonga – orqa va oldinga qarab buralgan bo'ladi. Bu terminning vujudga kelishi juda ham oddiy, ya'ni "*to'rt*" va "*shox*" so'zlarining sintaktik birlashtirish natijasida yangi ma'no beruvchi so'z-termin hosil qilingan. Bu termin Qashqadaryoning Qarshi atrofidagi "Y"lovchi shevalarida "*torshax*" tarzida qo'llaniladi. Bunda birinchi komponent (to'rt) oxiridagi "T" undoshi ikkinchi komponentning qo'shilishi natijasida tushib qoladi: *to'rt* + *sha'x* = *to'rtsha'x* (*to'rsha'x*);

TO'RG'AY BOSH – boshi kichkina bo'lib, ustida ozgina juni tikka turgan histori qo'y. Qo'y bu nom bilan atalganda, uning bosh tuzilishi va bosh ustida ozgina junining tikka turganligi diqqat-e'tiborga olinib, bu holat kichkina po'pili qush – to'rg'ayning boshi va uning tojiga o'xshatiladi hamda shu qush nomi asosi yangi ma'no beruvchi termin hosil qilinadi. Bu aslida "*to'rg'ay boshli qo'y*" tarzida qo'llanilishi lozim edi. Ammo aniqlanmishning "*qo'y*" terminining tushib qolishi va qolgan qismining substantivlanishi natijasida u "*To'rg'ay bosh*" shaklini hosil qilgan.

"TO'XMOR SHOX" – kaltagina shoxli chorva. uning 5-10 sm. uzunlikda shoxi bo'lib, uchi dumaloq holda qotib qolgan bo'ladi. *To'xmor* deyilganda, bir uchi dumaloq shakliga ega bo'lgan tayoq tushuniladi. Uning uchi bilan chorvaning shoxi shaklan qiyos qilinadi. Ular o'rtasida qisman o'xshashlik mavjud bo'lganligi tufayli ham "*to'xmor*" va "*shox*" so'zlarining birlashtirilishi natijasida bu ma'nodagi termin yasalgan.

UCH SHOX – boshida uchta shoxi bo'lgan chorva. Buning shoxi aslida to'rtta bo'ladi. U ba'zi sabablarga ko'ra sinib, kasallanib tushib ketgan bo'ladi. Shuning uchun

ham unda uchta shox qolgan bo'ladi. Bu so'z-termin "*uch*" va "*shox*" so'zlarining birikuvi natijasida hosil qilingan. Bu ham substantivlashgandır.

CHAGIR – ko'z qorachig'i atrofida oq parda hosil bo'lib qolgan chorva. Bu termin faqat mayda chorvalargagina qo'llanilmay, balki umuman, chorva mollarning barchasida ishlatiladi. Masalan: *chag'ir, ot, chag'ir sigir, chag'ir buzoq, chag'ir echki* va boshqalar.

Bu o'rinda shuni ham eslatmoq lozimki, "*Chagir va Chag'ir*" Qashqadaryo viloyati shevalarida bab-baravar qo'llaniladi.

CHAYQAMA – boshini past yuqoriga silkib, sekin yuruvchi chorva. Bu termin umumxalq tiliga tegishli bo'lgan "*chayqamoq*" (silkimoq ma'nosida) fe'li asosida yasalgan. Bu fe'l chorvaning bosh harakatini aks ettiradi. Shu harakat chorvaga nom berilishi uchun asos bo'lganligi tufayli ham "*chayqamoq*" so'zining o'zagiga *-ma* affiksi qo'shilishi natijasida yangi ma'no beruvchi termin yasalgan. *Chayqa + ma = chayqama*;

CHALIQ – kallasini vertikal holda qimirlatib, tez yuruvchi chorva. *Chaliq* termini *Chayqamadan*, asosan, tez yurishi bilan farq qiladi. Shuning uchun ham ular alohida terminlar bilan atalgandır. "*Chaliq*" termini otga nisbatan ham ishlatiladi: Chaliq ot-boshini silkib yuruvchi yo'rg'a ot; Oyrot tilida ham bu so'z otga nisbatan qo'llaniladi: чалык – горячий /о лошады [13].

CHAMBAR SHOX - shoxi buralib, uning uchi oldinga qaragan chorva. *Chibor* – bet va boshqa joylarida qizil "xol"lari bo'lgan chorva. Bu termin tovuqlarga nisbatan qo'llanib, Qarshi atrofidagi "Y"lovchi shevalarda "*Chipor*" tarzida qo'llaniladi.

CHILIM BOSH – bo'yni uzun va tanasiga nisbatan boshi kichik hisor qo'y. Bunday qo'yning boshi juda kichik va dumaloqqina bo'ladi. Shuning uchun ham u *chilim* (tamaki chekadigan eski buyum)ga o'xshatiladi.

Bu termin zo'r o'xshatish natijasida yaratilgan: qo'yning tanasi chilimning "*gavdasi*" ga (suv solingan kadi qismiga) boshi va bo'yni esa, chilimning "*bo'yni*" va "*sarxonasiga*" o'xshatiladi.

Shuning uchun ham bunday histori qo'ylar "*Chilim bosh*" qo'y deb nomlanganlar.

"CHILIM BOSH" termini bir predmetdagi belgi bilan ikkinchi predmetdagi belgining to'la o'xshatilishi natijasida vujudga keltirilgan. SHOXDOR – umuman shoxli chorva. Bunday chorva shoxining qanday shaklda ekanligi hisobga olinmaydi, faqat boshida shoxi bo'lganligi uchun boshqalardan ajratilib, unga yuqoridagi nom berilgan.

O'R – ko'zi va quloq atroflarida "XOLI" bor chorva.

QAYIRMA SHOX – buralgan va orqaga qaytgan shoxli chorva. Uni ba'zan "*qayqi shox*" ham deb aytadilar. Bunday chorvaning shoxi kalta (kichik) va uzun (katta) bo'lishidan qat'i nazar uchi peshonaga qarab egilgan bo'ladi. Shunga ko'ra ham belgini bildiruvchi "*qayqi*" - "*egilgan*", "*bukilgan*" so'zlari yordami bilan hosil qilingan.

Yuqorida keltirilgan "*Qayirma shox*", "*Qayqi shox*" terminlari tarkibidagi *-ma, -qi* affikslari sifat yasaydi. Lekin ular substantivlashgan holda qo'llaniladi.

QASHQA – peshonasida burnining usti bo'ylab oq tusi bo'lgan chorva. Bu termin umumxalq o'zbek tili lug'at sostavida keng o'rin olgan. U faqatgina peshonasida oqi bo'lgan chorva mollarining shu tusdagilarini bildirish uchun ham qo'llaniladi: *qashqa sigir, qashqa ot* kabilar.

Xuddi shuningdek, bu holatni biz qadimgi va hozirgi lug'atlarda ham uchramiz. Masalan; M.Koshg'ariy o'z lug'atida - *қашқа қој* tarzida qo'yga nisbatan qo'llaydi [16]. K.Yudaxin 1927-yilda nashr qildirgan lug'atida – с белой отметиной на лбу, лысый (о животных) ma'nosida [13] qo'llanilganligini aytadi.

Bu termin qardosh qozoq tilida *қасқа* - лысый (о скоте) tarzida [7] qo'llaniladi. Demak, qozoq tilida ham bu termin chorva mollarining hammasiga nisbatan qo'llaniladi.

Shunisi ham qiziqki, prof. Yudaxin lug'atida ham va qisqacha qozoqcha-ruscha lug'atda "*qashqa*" so'z-terminini "*лысый*" deb tarjima qilingan. Bizningcha, u unchalik

to'g'ri bo'lmasa kerak. Bu termin umumxalq tilida ko'chma ma'noda odamga nisbatan (yuzida jarohati bo'lgan yoki masxarabozlik rovida yuzini har xil rang bilan bo'yagan kishiga nisbatan) ham qo'llaniladi: *qashqa odam*; *Uning yuzi qashqa bo'libdi* kabi.

Bunda u "*qashqa*" terminlik xususiyatidan ajralib umumxalq so'ziga aylanadi.

QUYON TEVAL – tevali kichkina qo'y. Uning tevali aylana shakldagi (qadimgi besh tiyinlik) hajmiga teng keladi. Quyonda ham xuddi shunday hajmda teval bo'ladi. Shuning uchun ham ikki hayvondagi bu holat (belgiga) o'zaro qiyos qilinib, yuqoridagi termin hosil qilingan.

QO'CHQOR KALLA – burni baland, kallasi katta sovliq. Odatda qo'chqorning kallasi sovliqnikidan katta bo'ladi. Ba'zan esa sovliqlar ichida ham xuddi shunday belgi bo'ladi. Shunga ko'ra ham unday sovliqni boshqalardan farqlash uchun uni "*qo'chqor kalla*" termini bilan ataydilar. Yuqorida bayon etilgan terminlar, asosan, o'zbek tili so'z boyligi asosida vujudga keltirilgan bo'lib, chorvachilik leksikasida tegishli o'rinni egallaydi.

**Xulosa va takliflar.** Chorvani tanish unga nom qo'yish, ya'ni biror termin bilan atash tajribali cho'ponlardan zukkolikni talab qiladi. Demak, bu holat xo'jalik jihatidan qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, ularni aks ettiruvchi terminlarni to'plash va unga lingvistik analiz berish tilshunoslik uchun ham shunchalik ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аширов П. Животноводческая лексика в Туркменском ССР: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ашхабад: 1971. – С. 23.
2. Базарова Д.Х. История формирования и развития зоологической терминологии узбекского языка (на материале названия птиц). – Ташкент: Фан, 1978. – С. 114.
3. Войнарович О.А., Канцев Ф.Ф., Коротков И.А. Альбом по бонитировке каракульских ягнят и товарной оценке шкур. – Алма-ата: Кайнар, 1980. – С. 172.
4. Баскаков М.А. Состав лексики каракалпакского языка и структуры слова; - «Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков», IY, Лексика, М., 1962.
5. Буранов М. Термины животноводства в узбекских говорах Каракалпаки: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: 1972. – С.31.
6. Девону луғотит турк. Индекс-луғат/ Ғ.Абдурахмонов ва С.Муталлибов иштироки ва таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967. – Б.550.
7. Джанабилов Ш. Скотоводческие термины в казахском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата: 1953. – С.19.
8. Зайончковский В. Терминология домашних животных у Гагаузов, –Кралов, 1953
9. Зокиров М., Хачатурова Л., Юсупов С., Чорвачилик терминларига оид русча-ўзбекча луғат. – Тошкент: Мехнат, 1990.
10. Икромов Т. Чорвачилик асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 248.
11. Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси (Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари чорвадорлари нутқи асосида). – Тошкент: Фан, 2008.
12. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий в 4-х томах. Санкт-Петербург., 1893. – С.494.
13. Урунов Т. Узбекская овцеводческая терминология (на материалах Кашкадарьинской области): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд: 1964. – С.19.
14. Усманов С. Гиппологическая терминология, современного узбекского языка: Автореф. дис. канл. филол. наук. – Т., 1988.
15. Словарь иностранных слов (Текст) – 18е изд., стер. – М.: Рус.яз., 1989. – С. 620.
16. Кошғарий М. Девону луғотит турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1960. Т. I. - 1960 . - 499 б. (278,389,401), Т. II. - 1961. - 222 б. (187), Т. III. - 1963. - 466 б.

**O‘ZBEKISTONDAGI QOZOQ DIASPORASI TILIDAGI DIALEKTAL XUSUSIYATLARNING TASNIFI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)****Kulatova G‘aziza Jinisbekovna**

Navoiy davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

[gazizakulatova@gmail.com](mailto:gazizakulatova@gmail.com)

ORCID: 0000-0001-1799-4332

UDK. 811.512.122.

**Annotatsiya:** Ming yillar davomida O‘rta Osiyoning bepoyon hududlarida azaldan yashab kelgan ikki qardosh xalq – o‘zbek va qozoq xalqlarining madaniyati, tarixi, tili hamisha bir-biriga chambarchas bog‘liq holda bir-birining rivojlanishi uchun xizmat qilgan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda yashab kelayotgan qozoq diasporasining til xususiyatlarini o‘rganish, tadqiq qilish ularning o‘xshash va farqli jihatlarini qiyosiy o‘rganish imkonini beradi. Jahon tilshunosligida terminologiya sohasining alohida yo‘nalish sifatida rivojlanishi turli tillardagi terminlarni qiyosiy o‘rganish ko‘lamining kengayishiga xizmat qildi. Taraqqiy etgan davlatlar tilshunosligida turli soha terminlarini qiyoslash orqali tadqiq etish, jumladan, qardosh va qo‘shni davlatlar tillarini o‘rganish masalalari soha mutaxassislarining doimiy e‘tiborida bo‘lib kelgan. Bugungi kunga qadar mazkur yo‘nalishda sohaning u yoki bu qismini tadqiq etishga qaratilgan ayrim tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Maqolada qozoq dialektologiyasining, O‘zbekistondagi, jumladan, Navoiy viloyatidagi qozoq diasporasining tilidagi dialektal xususiyatlarning tasnifi har tomonlama bayon etilgan. O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi qozoqlarning shevalari geografik joylashishiga ko‘ra ko‘proq Qozog‘istonning janubiy viloyatining shevasiga yaqin kelishi *paqta*, *gyrish*, *o‘yaq*, *auqat*, *darbaza*, *bəygi* \ *pəygi*, *qyish*, *kirpish*, *shəmbə*, *сырыға*, *kəpkir* va boshqa ko‘plab misollar yordamida qiyosiy tahlilga tortiladi.

**Kalit so‘zlar:** Tavsifiy shevashunoslik, tarixiy shevashunoslik, qozoq shevalarining tasnifi, mahalliy shevalar, ijtimoiy sheva.

**CLASSIFICATION OF DIALECTAL FEATURES IN THE LANGUAGE OF THE KAZAKH DIASPORA IN UZBEKISTAN (IN THE CASE OF NAVOI REGION)**

**ABSTRACT:** The culture, history, and language of Uzbek and Kazakh peoples, two brotherly peoples who have been living in the vast regions of Central Asia for thousands of years, have always been closely related to each other and served for each other's development. Studying and researching the language features of the Kazakh diaspora living in Uzbekistan today allows for a comparative study of their similarities and differences. The development of the field of terminology as a separate direction in world linguistics served to expand the scope of comparative study of terms in different languages. In the linguistics of developed countries, research by comparing different field terms, including the issues of learning the languages of sister and neighboring countries, have been in the constant attention of experts in the field. To date, some research works aimed at researching this or that part of the field have been carried out in this direction. The article comprehensively describes the classification of Kazakh dialectology, dialectal features in the language of the Kazakh diaspora in Uzbekistan, including the Navoi region. The dialects of the Kazakhs living in the Republic of Uzbekistan are closer to the dialect of the southern region of Kazakhstan due to their geographical location. will be *paqta*, *gyrish*, *o‘yaq*, *auqat*, *darbaza*, *bəygi* \ *pəygi*, *qyish*, *kirpish*, *shəmbə*, *сырыға*, *kəpkir* analyzed.



**Keywords:** Descriptive dialectology, Historical dialectology, classification of Kazakh dialects, local dialects or dialects and social dialect.

**Kirish.** Mahalliy shevalarni atroflicha va keng o'rganish uchun tadqiqotchilar oldidagi vazifalarning ayrimlari quyidagilardan iborat: Shevalarning o'zaro munosabati ularning adabiy til va qardosh (qozoq, qirg'iz, turkman) tillarga, shuningdek, uzoq yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda hayot kechirib kelgan qo'shni xalqlarning tillariga bo'lgan munosabatlarni belgilash. Chunki ko'pgina umumiste'mol so'zlarimiz bir xilda qo'llanilib kelmoqda. O'zbekistonning barcha zaminida, shuningdek, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Sibir, Xitoy va boshqa ko'pgina joylardagi qozoq shevalarini chuqur ilmiy asosda o'rganish va ulardagi ayrim xususiyatlarni hisobga olgan holda qozoq shevalarining mukammal ilmiy tasnifini ishlab chiqish.

Xalq tilidagi shevalarni yig'ib-terish, ularning paydo bo'lish tarixini va tarqalishini oydinlashtirish – shevashunoslikning vazifasidir. Shunga ko'ra shevashunoslik tavsifiy va tarixiy shevashunoslik bo'lib ajratiladi. Tavsifiy shevashunoslik o'z ichida leksik xususiyatlarga kiradigan muqobil va nomuqobil shevalarga ajratiladi. Muqobil shevalar bir narsa yoki hodisani har xil atashdan paydo bo'lgan so'zlar [1].

Tarixiy shevashunoslikning vazifasi – yozma yodgorliklardagi etnografik va tarixiy ma'lumotlarga tayangan holda shevalarning shakllanish tarixini va rivojlanishini ochish.

Tavsifiy shevashunoslikning vazifasi – lahja va shevalardagi xususiyatlarning mavjud holati bilan tarqalish me'yorini tushuntirish, adabiy tildan farqlanishini aniqlash. [2]. Shu bois tilshunoslikda shevalar mahalliy shevalar yoki govorlar va ijtimoiy sheva deb ikki guruhga ajratilib kelinmoqda. Mahalliy shevalar yoki govorlar bir hududning xalqiga xizmat qiluvchi fonetik, leksik, grammatik o'ziga xosligi mavjud umumxalq tilining bir qismidir [3].

Qozoq tilidagi dialektlar bilan govorlarning tasnifi masalasiga kelsak, asosan olganda ikki xil qarashlar mavjud. S.Amanjolov qozoq tilida uchta janubiy, g'arb va shimoliy sharq dialektlari mavjud deb hisoblaydi. N.Sauranbayev bilan J.Dosqarayev dialektlar bilan govorlarning janubiy sharq va shimoliy g'arb – ikki guruhi mavjud deb hisoblaydi. Qozoq tilining janubiy shevasini tadqiq qilgan olim S.Amanjolov unga qadimdan shu yerlarni makon qilgan uysin, qangli, dulat, jalayir yusin, qanly, dulat toifalarining tilini yotqizadi. Ular hozirgi Almaty, Taldyqorg'an, Jambyl, Janubiy Qozog'iston va Qizilo'rda viloyatini makon qilib, sharqdan – Sinszyan bilan (Шыңжаң), yyg'urlar bilan, shimoli-sharqida – nayman, kerey, qo'ngg'irat tofaalari bilan, shimoli-g'arbdan alshin toifalari bilan, janubda o'zbek, qirg'izlar bilan chegaradosh yashagan. Ularning qadimdan ijtimoiy, madaniy, chorvachilik markazlari bo'lganligi sababli toifalik tillari birikib, janubiy Qozog'istonning mahalliy shevalari shakllana boshlagan. Mazkur shevaning shakllanishiga, shuningdek, qo'shni o'zbek, uyg'ur, qirg'iz xalqlarining tili ham, tabiiyki, ta'sir qilgan. Ayniqsa, bu toifalarning XVII-XIX asrlarda Qo'qon va Xiva xonliklarining qo'l ostida qolishi o'zbek tilining ta'sirini yana ham kuchaytiradi.

S. Amanjolovning ushbu shevalardagi asosiy xususiyatlarini ko'rsatib qilgan tahlilida O'zbekistondagi qozoq diasporasi tilidagi fonetik, leksik, grammatik umumiyliklar kuzatiladi.

**Fonetik xususiyatlar: j bilan y almashuvi:** *б/р: пытырау — бытырау, pitiru — bitiru, pal — bal, pykteu — bykteu, pata — bata, pæyge — bæyge, pytin — s/sh: teksheru — tekseru, shamal — samal, shabaz — sabaz* *l: ol, sol, bʻyl ko'rsatish olmoshlari so'z birikmasi tarkibida kelsa, al, bol, qal, sol, ækel fe'llari shart mayli, ravishdosh, bo'lishsiz, istak mayl va buyruq mayl shakllarida kelganda tushib qoladi: so kisi — sol kisi, bʻyber — bu jer; S bilan t almashuvi: tygesu — tygetu, A bilan æ almashuvi: qayтыр — kæytip, yedæuir*

– *adavir*.

**Leksik xususiyatlar** dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilikka oid kasbiy soʻzlarda, kiyimlarning nomlarida, oshxonaga oid soʻzlarda koʻplab uchraydi: *sydiger, jyyek, aryiq, zambylsha aqyr* – molga xashak soladigan joy; *jadagʻay*– astarsiz yengil chopon; *ziyat* –artıyq, *arqada qalu* – artta qalu. Leksik xususiyatlarni S. Amanjolov mahalliy xalqning turmush tarziga oid narsalarning nomlariga qarab bir nechta turlarga ajratadi.

**Grammatik xususiyatlar.** 2-shaxs fe'lining buyruq mayli- g'yn, -gin, -qyn, -kin, -yn, -in qo'shimchalari bilan qo'llanilishi: *sug'yrig'yn* (suyr), *aytqyn* (ayt), *kelgin* (kel), *baryn* (bar), *korin* (kor). Istak maylining keladi, kelmaydi yordamchi fe'llari joq modal so'zi bilan qo'llanilishi: *barg'ym bar* – *barg'ym keledi*, *barg'ym joq*– *barg'ym kelmeydi*. *-tag'yny qo'shimchali fe'llarning* ishlatilishi: *bolattag'yny* —bolady hozirgi zamon fe'llarning *baratyrppyz* (bara jatyrmız), *kelatyrppyz* (kele jatyrmız) shaklida aytilishi. Buyruq maylining 2-shaxsda *-say/-sey* qo'shimchasi orqali yasalishi: *barsay* — bar, barsanshy, *jyrsey* -jyr, jyrseñshi;

Ayrim tovushlarning govorlarda soʻz oldidan qo'shib aytilishi, ya'ni proteza, yoki soʻz oxiridan qo'shilib aytilishi –epiteza holatlari ham kuzatiladi. Masalan: R: *əbirger*, G: *shyli -shylg'i, qyman -qymg'an*, G: *suret-sygiret* N: *beshpent*, K: *dəneçe –dəneçke, tızu –tızik* T: *qabyrg'a –qabyrtqa*, v.b. Reduksiyalanish holati: *qalmadı –qamadı, olay bolsa, olay bosa, kelseñ –keseñ, sata almay jyr –satamay jyr, kelmey qaldı –kemeı qaldı*. Metateza hodisalari: *qaqran –qarqan, aynalu –aylanu, sepkil –sekpil, jalañ ayaq –jañalayaq, jalañash –jañalash, megzey-meızey*.

Olim O.Naqisbekov janubiy va janubi-sharq hududlarda yashaydigan qozoqlarning shevalarini 6 guruhga ajratadi: 1) Jetisu govori – Almaty, Talдықorg'an viloyatlarining tumanlari; 2) Shu govori - Jambyl viloyatining tumanlari; 3) Shymkent govori. Janubiy Qozog'iston viloyati tumanlari; 4) Qyzyllorda govori. Qyzyllorda viloyatining sharq tarafida Turkistongacha va Sir bo'yini qamrab oladi; 5) Tashkent govori. O'zbekistonning Toshkent, Buxoro viloyati qozoqlarining shevalari kiradi; 6) Tojik govori. Tojikistonda yashaydigan qozoqlarning shevasi kiradi. Mustaqillikdan oldin Navoiy Buxoro viloyatiga qarashli bo'lganligi sababli O.Naqisbekovning tasnifidagi Tashkent govoriga Navoiy viloyati qozoqlarining shevalari ham kiradi. Yuqoridagi tasniflardan O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi qozoqlarning shevalari geografik joylashishiga ko'ra ko'proq. Qozog'istonning janubiy viloyatining shevasiga yaqin kelishi kuzatildi. Masalan, *aqlamaı, pitiru, paqta, gyrysh, oyaq, bxyaq, tygesu, auqat, pilik, darbaza, baygi* \parygi, *qxdag'ay, kəpshik, qayazu, qylua, qysh, kirpish, shəmbə, sypıra, kəpkir, tag'a, bədireñ, piyala* v.b. kabi ko'plab sheva so'zlari O'zbekistonda, jumladan, Navoiy viloyatining tumanlarida yashovchi qozoqlarning tilida ham qo'llaniladi.

Dialektolog olimlar Sh.Saribayev bilan O.Naqisbekovlarning mahalliy soʻzlarni progressiv dialektal leksika va regressiv dialektal kasbiy leksika deb ikkiga bo'lishi e'tiborga molikdir. Adabiy tilda muqobil varianti yo'q, uning tarkibiga kirib, adabiy tilni boyitish imkoniyatiga ega shevalar progressiv, adabiy tilda muqobili bor, ammo adabiy tilning me'yoriga salbiy ta'sir qiluvchi shevalar regressiv dialektal leksika deya tavsiflaydi [4].

O'zbekiston qozoqlarining tilidagi govorlarga oid leksik materiallarni dialektolog olim T.Aydarov bildiradigan ma'nosiga ko'ra guruhlarga ajratadi, bu yerda olimning maqsadi quyidagicha:

Birinchiidan, govorlarda uchraydigan soʻzlarning qanday chorvachilikni, qanday turmush tarzini qamrashi to'g'risida ma'lumot berish bo'lsa, ikkinchiidan, adabiy tilning leksikasini boyitishga yordami tegadigan soʻzlar bilan tanishtirish [6]. Chunki govorlarda adabiy tilda muqobil varianti mavjud emas, ammo adabiy tilda muomalaga yarashi

mumkin bo'lgan so'zlar juda ko'p. Shuningdek, turkiy tillardan qozoq tiliga etnik jihatdan ham yaqin bo'lgan o'zbek dialektologiyasining tasnifida ham eski turkiy tillar qatori qozoq tili dialektlarining elementlarini uchratishimiz mumkin. Masalan B.To'ychiboev va B.Hasanovlar fikricha, "Qipchoq lahjasining barchasida to'qqiz unillik tizimi amal qiladi. Bu jihatdan qipchoq lahjasi qipchoq guruhidagi (qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz kabi) boshqa turkiy tillar bilan umumiylik kasb etadi [7].

Navoiy viloyati qozoqlarining tilidagi dialektal xususiyatlar, birinchidan, lingvoareal tavsifi jihatidan, ya'ni qo'llanilish va tarqalish geografik o'rni va har bitta hudud shevalarining lingvistik xususiyatlari, ikkinchidan, muayyan sohalarda qo'llanilish xususiyatiga ko'ra tasnif qilinadi. Demak, birinchi, lingvoareal tavsifga ko'ra:

1. Navoiy viloyati Konimex va Nurota tumani qozoqlarining shevalari. 2. Tomdi, Uchquduq tumani va Zarafshon qozoqlarining shevalari Konimex va Nurota tumanlarida o'zbek, qozoq xalqlari aralash yashashi sababli bularning shevalarida umumiylik kuzatiladi. Chunki bu ikki tuman qozoqlarining tilida yaqin aralashib kelgan o'zbek tilining ta'siri sezilarli darajada ustundir. Masalan *bir, eki, -bitta, ikkita, ylken –katta, meni de, seni de –meniyam, seniyam* kabi so'zlar har ikkala tilning ham shevalarida uchraydi.

Tomdi tumani va unga yaqin Zarafshon hamda uning atrofidagi qozoqlarning tilidagi dialektal xususiyatlar Konimex va Nurota tumani qozoqlarining tilida nisbatan kamroq. Uchquduq tumani qozoqlarining tilidagi dialektal xususiyatlar ayrim leksik jihatlaridan bo'lmasa, fonetik va grammatik xususiyatlarida farq uncha katta emas.

Ikkinchi, xalqning turmush tarziga oid mavzular yuzasidan:

1. *Chorvachilikka oid dialektal xususiyatlar*: Qozoq adabiy tilidagi *otar* so'zi Navoiy viloyati qozoqlarining shevasida *atar* deb nomlanadi, *aqyir*—molga xashak soladigan joy, *aydau* – cho'l mollarining arqonsiz yaylovda, o'tloqda yurishi va qo'raga qamamasdan yaylovdan kelgan vaqtlardagina yemlashi ma'nolarida qo'llaniladi. *Bastyirma* —bir tomondagi devori ochiq, tepasi yopiq qo'ra, *alokpe* —molning o'pka kasalligi.

2. *O'simliklarga oid dilektizmlar*: *qo'nyirbas* – bo'yi past qumlik joylarda o'sadigan erta qurib qoladigan o'simlik. *Qoyansuyek* – qumlik joylarda o'sadigan tikanli, o'tinlik o'simlik, undan teri, jun bo'yashda ham foydalaniladi.

3. *Turmushda qo'llaniladigan uy buyumlariga oid dialektizmlar*: *Je'ise*— yengning ustidan tandirda non yopish uchun kiyiladigan yeng. O'zbekcha *yengcha; rapide* – non yasashga moslanib, qalin matodan yumaloq shaklda tikilgan buyum. 4. *Kiyim-kechaklar va zeb-u ziynatlarga oid dialektizmlar*: *Qarakespe* (Konimex, Nurota tumanlarida kekirekshe)—kalta kamzul. *Beshpent* —qozoqi naqsh solingan yengi uzun chopon. *Kypayke* ba'zi joylarda *pypayke* (Rus tilidagi fufayka so'zining o'zlashishi) – paxtasi qorilgan kalta tashqi kiyim.

5. *Tabiat hodisalari va fe'l-atvorga oid dialektizmlar*: *añazaq* (jazg'ıy jel)—yozgi shamol, *qag'u* (salqımdau)—salqin, *alasad* (boran, *daıyıl*) —*noqulay ob-havo*, qoralanu (sheñberlenu, ay qoralanırtı) tarzida tasniflanadi.

*Oshxonaga oid so'zlarda* ham Navoiy viloyati qozoqlarining shevaga xos xususiyatlarini ko'plab uchratishimiz mumkin: Qozoq adabiy tilidagi *shama* —(*quruq choy*) Navoiy viloyati qozoqlarining shevasida *shembe*.

*Uy-joy va xo'jalik buyumlari, asob-anjomlariga oid shevalar*.

Aytish joizki, qozoq xalqi azal-azaldan chorvachilikni kasb qilishi bois, yoz yoylovda, qish qishlovda molining yerini asrab, kigiz uyi bilan ko'chib yurgan ko'chmanchi xalq. *Kiygiz uy* Qozog'istonning har joyida har xil atalgani kabi O'zbekistonda ham, jumladan, Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Nurota, Konimex tumanlarining bir joylarida *qora uy*, bir joylarida *uy* deb qo'llanadi.

*Odamga, odamning fe'l-atvoriga oid Navoiy viloyati qozoqlarining shevalari: auan (aŋg'al)–sodda, bady–Konimex tumani qozoqlarining shevasiga xos so'z, o'zini ko'z-ko'z qiladigan maqtanchoq kishiga aytiladi, baquat (aldi)–o'ziga to'q, baqyl(kynshil) – hasadgo'y, ko'rolmaydigan odamlar, bedik, (мылжың) –gapdon.*

Til – xalqning asrlar mobaynida shakllangan bebaho hazinasidir. Uning tarixi, shajarasi xalqimiz hayotining aks-sadosi va izi. Tilidan uni yaratuvchi xalqning orzu, umidi, qayg'usi va quvonchi, butun ma'naviyatining ovozi eshitilib turadi. Shunday ekan, qanday til bo'lmasin, uning dialektal leksikasini yig'ib, o'rganishning ahamiyati katta. Birgina viloyat, birgina tuman doirasida qo'llaniladigan, ko'pchilikka noma'lum, ammo adabiy til terminologiyasini boyitishga xizmat qiladigan so'zlarni o'rganishning foydasi katta. Shunday ekan, O'zbekistondagi qozoq diasporasining, jumladan, Navoiy viloyatidagi qozoqlarning tilidagi dialektal xususiyatlarni har tomonlama tadqiq qilish va ularning qozoq adabiy tiliga va o'zbek tiliga munosabatini tahlil qilish – muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Murodova N. Allaberdiev A. "O'zbek dialektologiyasi" fani boyicha ma'ruzalar matni. – Navoiy, 2008. 3,7-b.
2. Сарыбаев Ш., Қалиев Ғ. Қазақ диалектологиясы. 2004. – В.13.
3. Исмакова Ғалия. Жергілікті аймақтарда диалект сөздердің қолданылу мәні. 2017.
4. Аманжолов С. Қазақ тілінің негізгі проблемалары. 1948. – В.143.
5. Сарыбаев Ш., Нақысбеков О. Қазақ тілінің аймақтық сөздігі. Алматы: 2005.
6. Айдаров Т. «Қазақ тілінің лексикалық ерекшеліктері» (Өзбекстандағы казак говорларының материалдары бойынша) 1975.
7. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Тошкент, А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. – 2004. -Б.5,6,38, 66.
8. Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (глагол). Л.: Наука, 1981.
9. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009.
10. Рафиев А. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўзбекистон. – Б. 52.

## TETRALOGIYADA TARIXIY OBRAZLAR TASVIRI VA QIYOFASINING IFODALANISHI

**Qo'yliyeva Gulchehra Nazarqulovna,**  
Guliston davlat universiteti (GulDU)  
doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent  
[kuylievaguli@gmail.com](mailto:kuylievaguli@gmail.com)  
ORCID: 0009-0003-9827-5482  
UDK: 821.512.133(09)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Muhammad Alining "Ulug' saltanat" roman-epopeyasi ko'plab boshqa tarixiy asarlari ichida eng oldinda turishi bilan ahamiyatlidir. Asar Amir Temur tirikligi vaqtida yaratilgan tarixiy asarlar qiyosida bitilgani bilan o'ziga xos xarakterga ega. Zamonaviy adabiy jarayonni kuzatish shuni tasdiqlaydiki, adabiy qahramon hamisha ham o'ziga qattiq ishongan, qandaydir jasoratlar ko'rsatib, fidoyiligi bilan ko'pchilikka o'rnatilgan va xalqni ergashtiradigan personaj bo'lishi shart emas. Biroq bu fikr "Ulug' saltanat" epopeyasi ijodiy konsepsiyaga daxldor emas. Adib

o'zining puxta va mukammal ijodiy konsepsiyasiga asoslanib asarning kompozitsion yaxlitligini ta'minlaydi. Roman epopeya markaziga Sohibqiron Amir Temur obrazini qo'yib, o'z fikr-g'oyalari bosh qahramon zimmasiga yuklaydi. Voqealar zanjirini ham yuqoridan quyiga qarab (personajlar ierarxiyasi asosida joylashtiradi). Tarixiy asarda insoniy xarakterlar tasvirining poetik ifoda ko'lami nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Amir Temur obrazining tetralogiyada tutgan o'rni, bosh qahramon obrazi sifatida uning siyosiy faoliyatigina emas, balki tasvirining o'ziga xos qirralari ham o'rganilgan. Tadqiqotda ilgari surilgan fikr-mulohazalar umumlashtirilgan.

Muhammad Ali ijodiy konsepsiyasining mukammalligi shundan iboratki, roman epopeya kompozitsion yaxlilikni ta'minlashda muhim omil bo'lgan.

Darhaqiqat, adib aksariyat qahramonlarini e'tiqod va iymon uyg'unligi, taqdiri azalga ishonch falsafasi, shukronalik tuyg'usi asosida tasvirlashga, ko'ngil tilaklari va real hayot ziddiyatlari fonida ochib berishga intilgan.

**Kalit so'zlar:** Roman, epopeya, bosh qahramon, ruhiy kechinma, poetik ifoda, tarixiy va badiiy haqiqat, tarixiy voqelik, poetik mahorat.

### DIFFERENT POETIC PERSPECTIVES DEPICTION OF CHARACTERS IN TETRALOGY

**Abstract:** In this article, Muhammad Ali's novel-epic "The Great Sultanate" is significant because it stands at the forefront of many other historical works written by him. The work has a unique character as it is written in comparison with the historical works created during the lifetime of Amir Temur. Observing the modern literary process confirms that a literary hero does not always have to be a person who is strongly confident in himself, shows some bravery, becomes an example to many with his selflessness, and follows the people. However, this idea does not apply to the creative concept of the epic "The Great Kingdom". Author ensures the compositional integrity of the work based on his thorough and perfect creative concept. He puts the image of Amir Temur in the center of the epic novel and imposes his ideas on the main character. It also arranges the chain of events from top to bottom (based on the hierarchy of characters). The historical work has been studied from the point of view of the poetic expression of the image of human characters. The role of Amir Temur in the tetralogy, not only his political activity as the protagonist, but also the unique aspects of his image are studied. The opinions expressed in the research are summarized.

The perfection of Muhammad Ali's creative concept was an important factor in ensuring the compositional integrity of the epic novel. In fact, the writer tried to depict most of his heroes based on the harmony of faith and faith, the philosophy of belief in destiny, the feeling of gratitude, the wishes of the heart and the conflicts of real life.

**Keywords:** Novel, epic, main character, spiritual experience, poetic expression, historical and artistic truth, historical reality, poetic skill.

**Kirish.** Muhammad Ali (Ahmedov Muhammadali) – iste'dodli shoir, yetuk nosir, mohir tarjimon va adabiyotshunos sifatidagi ko'plab ijod namunalari bilan bir qatorda "Boqiy dunyo", "Sarbadorlar", "Ulug' saltanat", "Kleopatra" singari salmoqli romanlarning muallifi. Yozuvchi-ning mazkur janrda yaratgan asarlari ichida xalqimiz tarixi va tarixiy shaxslar, xususan, Amir Temur va temuriylar davri qalamga olingan "Ulug' saltanat" tetralogiyasi alohida ajralib turadi. Shubhasiz, bu asar ham adibning ko'p yillik ijodiy izlanishlari, mavzuga bo'lgan mehr-muhabbati, badiiy tasvir mahorati tufayli yuzaga keldi. Bu boradagi izlanishlar keng ko'lamda kechgan va quyidagi omillar tetralogiyaning yuzaga kelishiga asos bo'lgan:

a) Mustaqillik davrida milliy tarix va tarixiy shaxslarga yangicha munosabatda

bo'lish va xolis badiiy tadqiq etish uchun yaratilgan imkonlar;

b) adibning tarixiy romanchilikda to'plagan tajribalari hamda ijodiy niyatning estetik idealga aylanib, ijodiy kayfiyatni hosil qilishi;

v) Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Mirkarim Osim, Jumaniyoz Sharipov, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Bo'riboy Ahmedov singari tarixiy roman mualliflari amaliy tajribalarini ijodiy o'zlashtirish;

g) xalq tarixi, folklori, etnografiyasi bilan yaqindan tanishish;

v) mumtoz adabiyot namunalari va e'tiqodiy manbalarga faol murojaat qilish;

g) jahon tarixiy romanchiligining ilg'or tajribalarini ijodiy o'zlashtirish.

**Metodlar.** Maqolaning xarakteridan kelib chiqib, unda tarixiylik va biografik metodlardan foydalanilgan.

**Natijalar.** M.Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasining yuzaga kelishi haqidagi xulosalar natijalari umumlashtirilgan holda, "...mamlakatimiz ma'naviy hayotida, xalqimiz tafakkurida yuz bergan umumiy jarayonlar hamda adib ijodiy fenomenining olam va odamni yangicha idrok etish hamda badiiy ifodalash yo'sini bilan chambarchas bog'liqdir. Tetralogiyaning paydo bo'lishini yangi tarixiy davr va millatning romaniy tafakkur miqyoslari kengayishi, milliy adolatning badiiy haqiqat tarzida qaror topishi sifatida izohlash lozim [8]. Yozuvchi M.Ali ko'plab tarixiy asarlar yaratdi va yaratmoqda, lekin adibning "Ulug' saltanat" tetralogiyasi sermahsulligi bilan barcha asarlari ichida dominantlik qilishi mustaqillik davri bergan katta imkoniyat natijasi hisoblanadi.

**Munozara.** Bizga ma'lumki, jahon va o'zbek romanchiligining namunalari bo'lmish bir qator asarlarda Sohibqiron Amir Temur va uning sarkardalik faoliyati, harbiy yurishlari tasvirlangan. Muhammad Ali tetralogiya bosh qahramonining badiiy obrazini yaratishda adabiy an'analarga ergashdi. Ammo ularning ta'sir doirasida qolib ketmadi. Bu tarixiy shaxsning oddiyligida ulug'vorlik, ulug'vorligida oddiyligni ko'ra oldi. Zotan Turonzaminni yagona tug' ostida birlashtirish, markazlashgan hokimiyat barpo etish va mamlakatda adolat, bunyodkorlik, xalqparvarlik, "tuzuklar"ga asoslanuvchi intizom o'rnatish, islomiy haqiqatlarni hayotga tadbiiq etish, zulm va zo'rlikka barham berish kabi hayotiy tamoyillar Amir Temur siymosining hayotiy hamda ishonchli chiqishini ta'minlagan. Shuning uchun ham tetralogiyada biz bosh qahramonni oilaviy muhit bilan bir qatorda, ulkan ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy jarayonlar tashab-buskori va ijrochisi, ona Vatanning sodiq farzandi va mas'ul fuqarosi, tarix zimmasiga yuklagan vazifani bajarishga burchli inson sifatida turfa qirralardan kuzata olamiz.

Nosir asarni qismlarga ajratishda ijtimoiy tarixning bosqichlarini emas, balki Amir Temur to'rtta o'g'lining nomlarini asos qilib oladi. Roman-tetralogiya "Jahongir Mirzo" [1], "Umarshayx Mirzo" [2], "Mironshoh Mirzo" [3], "Shohruh Mirzo"[4] tarzida ramziy nomlar bilan atalgan. Asarda bosh qahramon Amir Temur shaxsiyatidan tuyilgan hayrat, o'tmishda chuqur iz qoldirgan davlatchiligimizning davomchisi va uning yuksak cho'qqisi sifatida namoyon bo'lgan ulug' saltanatga bo'lgan ehtirom o'rin olgan.

Akademik B.Nazarov roman-epopeya va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida shunday deydi: "Ulug' saltanat" millat va O'rta Osiyo xalqlari tarixidagi ulkan davr va buyuk tarixiy shaxs hamda siymolar qiyofasini jahon adabiyoti talablari asosida realistlik aks ettirgan roman epopeya sifatida ilg'or tajribalarni o'zbek adabiyoti misolida O'rta Osiyo va umuman, Osiyo adabiyotida yangi manzilga olib chiqdi" [6], - deydi. Darhaqiqat, davrlar osha ulkan tarixiy shaxs siymosi, shaxsiyati va uning yurt obodligi, mamlakat tinchligi qayg'usidagi arbob haqida salmoqli epik asar yaratilishi - davr taqozosi edi.

Asarda Amir Temur necha bor murosaga chaqirib, boshini silashiga qaramay, yana ko'rnamaklik yo'lini tutgan To'xtamishxon obrazi bir jihatdan sohibqiron timsoliga

qiyosan, ikkinchi tomondan esa, qahramonning xayoliy kurashi fonida ochiladi (232-bet). U ichki tuyg‘u bilan Amir Temurdagi kuch-qudrat va iqtidorni tan oladi. Ammo, buni oshkora e‘tirof etmaydi. Achchiq haqiqatlardan saboq chiqarishdan ko‘ra o‘z izzat-nafsi va o‘rinsiz iddaolariga ergashgan sari g‘azab otiga mina boradi. Shu boisdan ham alamzadalik bilan ish ko‘rib, xiyla-nayrang yo‘lini tutadi. Aynan anashu tutumning o‘zidayoq, To‘xtamishxonning ochiq-oshkor kurashdan hayiqishi, ulug‘ saltanat bunyodkori sohibqironning esa murosasozlik tutumi namoyon bo‘ladi.

Buyuk ipak yo‘lini qo‘lda saqlab, tijoratni rivojlantirish Amir Temur bunyod etgan Turon saltanatining ulug‘ maqsadlaridan biri edi. Zotan muzaffariy hukmdorlarning o‘zaro taxt talashlariga barham berilsa, savdo ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkoni tug‘ilardi. Shu maqsadda Shoh Shujo‘ oilasi bilan quda-andachilik rishtalarini o‘rnatishga intiladi. Taassufki, bag‘ritosh va noqobil muzaffariy shahzodalar Shoh Shujo‘ va ukasi Shoh Mahmud o‘rtasidagi nizolar va nafs ilinjidagi evrilishlar padari buzrukvorlari bo‘lmish Amir Muboriziddin Muhammadning ko‘zlariga mil tortishi zindonband qilib o‘ldirib yuborish, onasi Zaynab Xotunning ajalidan oldin olamdan ko‘z yumushiga sabab bo‘ladi.

Darhaqiqat, romanda tasvirlangan sohibqiron obrazi olamlarni yaratgan qudratli zotning inoyati yuksakligi, karami kengligiga iymon keltirgan buyuk e‘tiqod kishisi. Olloh tomonidan azizu mukarram etilgan hukmdor, o‘z-o‘zini taftish etuvchi ko‘ngil kishisidir. Shuning uchun ham u o‘zini zarraning zarrasidan-da kichik tuyib, Yaratganga iltijo qiladi. Ayniqsa, sirdosh mulozimi Muhammad Churog‘a dodxoh bilan bo‘lib o‘tgan suhbat asnosida biz Amir Temur keksaygan sari ko‘ngli yumshab, uni zukkolik, donishmandlik fazilatlarini bezab borganligining guvohi bo‘lamiz. Ayni paytda, yurt sultonining-da erki o‘z qo‘lida emasligi, davr talablari va vaziyat taqozosi yetovida harakatlanishga majbur ekanligini anglaymiz. Zotan, dunyo qafasiga qamalgan bu “zanjirband arslon” ko‘ngli Samarqand Kesh bog‘larini sog‘ingani holda, Turon sari emas, balki Bag‘dod tomon yurishga majbur.

Sohibqiron Amir Temurning ulug‘ maqsadlari yurt tinchligi, el baxti, millat g‘ururini yuksaltirish, nainki mamlakat, balki jahon obodligini ta‘minlashdan iborat. Buning uchun saltanatda adolat ustuvor bo‘lmog‘i, insoniyat fikri musaffo, ko‘ngli pok, samimiyati xolis, o‘z nafsidan baland va fidoyi bo‘lmog‘i zarur. Demak sohibqiron aslida, jangu-muhorabalarga qarshi. Biroq, ayni paytda, chorasiz qolgan lahzalarida yuzaga kelgan muammolarni qilich qudrati bilan hal etishga ham majbur. Urushlarda mardlik va jasorat ko‘rsatishga qodir bo‘lsa-da, Turon Sultoni doim o‘z qahru-g‘azabini jilovlay oladi. Chunki u vayron qiluvchi emas, balki obod etuvchi hukmdordir. Shu bois sohibqiron kelgusi nasllargina emas, tongla qiyomat kunida parvardigor oldida ham, ulkan burchdor ekanligini teran anglaydi. Bevafo dunyoni to‘g‘ri izga solishga astoydil bel bog‘laganiga qaramay, ko‘ngil tilaklari ro‘yobi uchun zamon taloto‘mlari hamisha ham imkon bermagani, bunyodkorlikni xohlagani holda, ba‘zan vayron qilishga ham majbur bo‘lganidan behad afsus chekadi. Bir umr insoniyatni yomon xulqlar va illat-gunohlardan forig‘ qilib, xayrli amallarga, kamolotga chorlab kelgani, olamni osoyishtalik libosiga chulg‘ash, inson zotiga farog‘at ulashishga intilganidan ko‘ngli taskin topadi. Jahonni idora etmakni Alloh ko‘ngliga solgan Amir Temur haq yo‘ldan ozganlarni noo‘rin g‘urur va kibru-havodan xalos etmoqni tilaydi. Ammo hamon dunyo beqaror... Darhaqiqat, foni dunyoning turfa savollariga javob izlar ekan, Turon Sultoni bosib o‘tgan yo‘llarini sarhisob qilib, o‘z ko‘ngliga taskin bergulik sabablar topishga, ruhan xotirjam bo‘lishga urinadi.

Taassufki, u qanchalik sha‘n-shavkatu shukuhga, kuch-qudratu saltanatga ega bo‘lmasin, baribir, bandasining dasti qisqa ekanligini e‘tirof etishga majbur. U Muhammad Chorug‘a dodxohga qarata: “Men ham bir bandadurmen, bildingmu? Ne-ne

mamlakatlarni tasxir etg'on ersam ham, dasti uzun, qudrati cheksiz, ammo o'z farzandini baxtli qila olishga qurbi kelmag'on bir sho'rlikmen xalos! Sho'rlikmen! Bidingmu? Xudoning bir nogironu aftoda bandasi",- deydi (232-bet). Bu fikrlarni zinhor sohibqironning Yaratgan oldidagi noshukurligi deb tushunmaslik lozim. Chunki uning qalbida teran bir shukronalik tuyg'usi mujassam. Sohibqiron umr bo'yi jismi-joni ozurda bo'lgan, jahonni o'z ilgida tutgani holda, o'zi kimsaning yordamiga ehtiyojmand bir odam ekanligini teran anglaydi. Zotan, Allohning qudrati shunchalar beqiyoski, adolat tug'i aynan uning dastida, taxt esa o'sha nogiron kimsaning oyoqlari ostida. Parvardigor jumlai jahonnigina emas, balki o'z bandalarini ham uning qoshida hozir-u muhayyo etgan. Turfa mamlakatlargina emas, balki ne-ne hukmdor-u pahlavonlar ham uning farmoni oliysiga muntazir. Axir bu Yaratganning o'z bandasini azizu mukarram etganligi, ulug' martabalarga loyiq ko'rganligining yorqin belgisi emasmi?

Jahongir Mirzodan so'ng suyuqli shahzoda martabasiga erishgan Umarshayx Mirzodan Amir Temurning umidlari bisyor edi. Ammo "merganlarning mergani ovlab ketgan qarchig'ay" taqdiri sohibqiron ko'nglini junbushga keltiradi. Farzand dog'idan o'rtangan yurak hovrini zo'rg'a bosib, lashkarga sir boy bermaslikka intilayotgan sohibqironning bardoshi o'ksik nevaralar diyda giryoni oldida tugaydi. Ichki dardlari o'tli xo'rsiniq bo'lib tashqariga otiladi. Lashkar ko'zidan pinhon o'z chodiriga kirganida esa, butun vujudini to'ldirib kelgan g'am-g'ussa larzakor o'kirikka aylanadi. Bunday kechinma-holatlarni adib shunday ifoda etadi: "Sohibqiron ohista ortiga o'girildi, ko'zlariga to'lib, ana to'kilaman, mana to'kilaman, deb turgan yoshlar endi unga bo'ysunmay qo'yishdi. U hech kimga boqmay, shohchodirga kirdi... Lahza o'tmay, bir marta o'kragan ovoz eshitildi. Chamasi borliq-vujudini to'ldirib yuborgan g'ussa otilib chiqqandi" (277-bet). Amir Temur tashvishu musibatlarini biri kam dunyoning tutumigina emas, balki Tangrining o'z sevikli bandasiga yo'llagan navbatdagi sinovi deb bilib, shukr qiladi. Alloh kalomi - Qur'oni Karimga tayanib o'z ko'ngliga taskin topadi. Darhaqiqat, charxi dunning aylanishi abadiy ekanki, oradan ikki oycha o'tmasdan, Navro'z arafasida sohibqiron xonadonida Gavharshodbegimning o'g'li Ulug'bek dunyoga keladi. G'am-g'ussalar arib, shodon kunlar boshlanadi.

Yozuvchi romanda chigal hayotiy jumboqlar va murakkab tarixiy shaxslar taqdirini falsafiy-poetik tahlil etish yo'lidan boradi. Ko'pincha u hayotiy muammolarni ezgulik va razolat kurashi fonida ifodalaydi. Jumladan, romanda Sohibqiron hayoti intilish, umidvorlik, burchga sadoqat, halollik, adolat tantanasiga nekbin ishonch ruhida yoritilgan. "Jahongir Mirzo" romanida Xorazmning zabt etilishi haqida so'z yuritilar ekan, ko'p qon to'kilmagani aytiladi: "Amir Temurning niyati ham qon to'kmaslik edi, u hamisha shunga intiladi – davlat yumushlarining to'qqizini kengashga qo'yadi, birinigina qilichga qoldiradi" [1]. Bunda biz adolat va to'g'rilik bilan ish ko'radigan, el va xalq manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan ulug' siymo timsolini ko'ramiz. "Kengashli to'y tarqamas",- degan xalq hikmatiga amal qilib siyosat olib borishi natijasida ulug' saltanat barpo etgan sohibqiron doimo ezgulik tarafdori bo'lganiga ishonch hosil qilamiz.

Adabiyotshunos D.Quronov: "Agar badiiy asarni o'qish jarayonida kitobxon muallif bilan muloqotga kirishishini e'tiborga olsak, bu muloqotning amalga oshishi uchun lirik-subyektiv ibtidoning nechog'li katta ahamiyatga molik ekanligi anglashiladi", deb yozadi [9]. Darhaqiqat, Muhammad Ali o'quvchini asar voqeligi bilan tanishtirar ekan, lironomantik ruh uning ifoda usuli ekanligiga amin bo'lamiz. Bu usul tarixiy tetralogiyada voqelikka o'quvchini ishontirish bilan birgalikda tarixda bo'lib o'tgan voqelikni o'z ko'ngil ko'zi bilan ko'rishiga imkon yaratgan. Asardagi kechinma tarzida ifoda qilingan voqelik o'quvchi qalbiga tezda singishi va unga kuchli ta'sir qilishi, shubhasizdir.

Adib sohibqiron hayotiga nazar solganida uni mo'tabar va ardoqli xonadonning



boshchisi, qattiqqo‘l ota, mehribon bobo sifatida sharaflı umr kechirgan inson sifatida badiiy idrok etgan. Uning ayollarga bo‘lgan munosabati zaminida adib hurmat va ehtiromni, insof va pokdomonlikni ko‘rgan. Muhammad Ali bu fayziyob xonadonning katta malikasi – (“mahdi ulyo”) Saroymulxonim obrazini nafaqat suyuqli yor, balki dono maslahatgo‘y sifatida ham ifoda etgan. Amir Temur va Saroymulxonim o‘rtasida kechgan dilxush suhbatlarni liro-romantik yo‘sında tasvirlagan. Darhaqiqat, ular mamlakat tashvishlari, jang-u jadallar, saltanat tashvishlari, kengash-u mashvaratlar orasida bunday xushnud lahzalarni intiqlik bilan kutishadi va bunday kunlarni in‘om etgan Yaratganga shukronalar keltirishadi. M.Ali Amir Temur va Saroymulxonim yolg‘iz qolgan lahzalarni tasvirlar ekan shunday yozadi: “Bunday pallalarda ular o‘zlarini ozod-u baxtiyor sezishar, podsho xonadoni, farzandlar kamoli ahli haram va hokazolar haqida maroq bilan so‘z yuritardilar” [1]. Ko‘rinadiki, adib Amir Temurning oila va sevimli turmush o‘rtog‘i bilan o‘tkazgan dilhush lahzalarini tasvirlash orqali uning ulug‘vor insoniy sifatlarini ko‘rsatishga harakat qilgan.

Amir Temurning sevimli o‘g‘li – valiahd shahzoda Jahongir Mirzo vafot etganida bevasi – Xonzoda begimga bo‘lgan otalarcha munosabatida sohibqironning insoniy sifatleri yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Bu mehribonliklardan o‘ksib yig‘layotgan Xonzoda begimni bag‘riga bosgan sohibqiron shunday deydi:

“ – Sizni kelinim emas, qizim degandim... Endi... qizim emas, o‘g‘lim, deymen! O‘g‘lim o‘rnida o‘g‘lim!...” [1]. Bunday samimiy tasvirlarni o‘qir ekanmiz, taqdir yozig‘i oldida Amir Temur ham hamma qatori chorasiz banda ekanini ko‘ramiz. Ikkinchi jihatdan esa, sevimli kelinining sadoqatidan ko‘ngli to‘lgan Amir Temur uning o‘ksik ko‘nglini ko‘taradi. Mushkul damlarda darddosh bo‘ladi.

Adibni Sohibqiron hayotining barcha tafsilotlariga xos jihatlar emas, balki insoniy vaziyat-holatlar ko‘proq o‘ziga jalb etadi. Romanda qistirma epizod sifatida keltirilgan ibratli hikoyalar, afsona va rivoyatlar realistik nuqtayi nazardan yoritiladi. Natijada, insoniy taqdirler mohiyati haqqoniy tahlil etiladi. Roman-epopeyaning “Umarshayx mirzo” nomli ikkinchi kitobida Amir Temur barpo etgan Bog‘i Bihisht haqida so‘z yuritiladi. Yozuvchi Urgut tog‘lari yonbag‘rida barpo etilgan ushbu bog‘ sohibqironga manzur bo‘lishining ikkita sababini keltiradi. Birinchisi, bu so‘lim maskandan olis Urgut tog‘larining betakror manzarasini tomosha qilish mumkin. Ikkinchidan, bu bog‘ sevimli malikasi Tuman oqag‘a atab barpo etilgan. Adib Amir Temur saroydagi boshqa malikalarini ham sevishi, ammo Tuman oqani g‘oyatda ardoqlashini ta‘kidlaydi. Bu holning sababini izohlash uchun adib sohibqironning xotiralariga o‘rin ajratadi. Bosh qahramon Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalar tarixi, xususan, janobi payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo (S.A.V.) ning hayotleri, oilasi, ahli ayollari haqida qimmatli ma‘lumotlar beruvchi “Tarixi Tabariy” (“Tarix ar-rusul val-muluk”) kitobini esga oladi. Adib Amir Temur payg‘ambarimizning shaxsiy hayotlaridan ibrat olganini asoslash uchun “Payg‘ambarimiz bibi Oysha roziyallohu anhuga boshqa xotinlaridan ko‘ra ko‘proq mehr qo‘ygandilar. Ammo hamisha navbatga rioya qilib, adolatni qattiq tutishga tirishardilar”- deb yozadi. [2]. Anglashiladiki, Muhammad Ali Sohibqiron Amir Temur xarakterini shakllantirishda Muhammad Mustafo (S.A.V.) ning o‘z ayollariga adolatli munosabatlaridan ibratlanish kuzatilishiga diqqat qaratadi. Bu hol yozuvchining olamning yaratilishdan to 302/915-yilgacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga olgan “Tarixi Tabariy”ning turkiy tarjimalari, katta ehtimol bilan Muhammad Yusuf Bayoniy Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz taklifiga binoan o‘zbek tiliga o‘g‘irgan nusxa bilan tanishgan bo‘lishi mumkin.

Darhaqiqat, Muhammad Ali bir jihatdan tarixiy manbalarga tayansa, ikkinchi jihatdan, o‘z uchqur xayollarini tarixning uzoq sahifalariga safarga yo‘llaydi. Romanda

adib tarixiy haqiqatning aynan badiiy haqiqatga aylanishi emas, balki xarakter tabiatiga xos sifatlarni bir qadar bo'rttirib ifoda etishni muhim deb biladi. Chunki, yozuvchi bugungi kunimiz talabi, zamondoshimiz bo'lgan kitobxon real ehtiyoji va kayfiyatini nazarda tutib qalam tebratish orqali uning diqqatini hayot jumboqlariga jalb etishga muvaffaq bo'ladi. Akademik M.Qo'shjonov tarixiy shaxslar va ularning tarixiy voqelik bilan bog'liqligi haqida quyidagi to'xtalib: "Tarixni biror yirikroq o'zining shaxsiy va ijtimoiy xislatlari bilan ajralib turadigan shaxslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har bir tarixiy voqeaning o'z qahramonlari bor, o'sha qahramonlar tufayli biz o'sha davr hayoti haqida to'la tasavvur olamiz, ular bizga doimiy o'rnak bo'ladilar, boshqacha qilib aytganda, har taraflama "Yo'lchi yulduz" bo'lib turadilar" [10]. Shu ma'noda ushbu roman-epopeyadagi aksariyat tarixiy shaxslar xarakterini ijodkor tahayyulida yaralgan, badiiy tahlil etilgan murakkab insoniy taqdirlar deb qarash kerak.

Shubhasiz, Amir Temur XIV-XV asr ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotida katta o'rin tutgan ulug'vor siyomdir. Uni anglash va anglatish yozuvchiga katta mas'uliyat yuklagan. Shu ma'noda, Muhammad Alining keng ko'lamlil tetralogiya yozishdan ko'zlagan maqsadi bugungi kun kishisiga buyuk sohibqiron siyosiy irodasini ham yaqindan tanishtirishdir. Adib voqelikni to'rt o'g'il tabiatidan kelib chiqib, Sohibqironning mustahkam saltanat bunyod etish maqsad-muddaosiga chambarchas bog'laydi.

Romanda adib Amir Temur xarakterining turli qirralariga e'tibor qaratar ekan, uni ko'pincha personajlar nigohi bilan tasvirlaydi. Jumladan, piri murshid Mir Sayyid Baraka sohibqiron xursand yoxud xafa bo'lgan kezlarda o'zini qanday tutishini kuzatib, shunday xulosaga keladi: "Piri murshidga shu narsa ayon bo'ldiki, Temurbek ulkan daryo ekan, butun dolg'alari tubida pinhon, sirtidan esa limmo-lim to'lib oqayotgan Jayhun singari sokin... Unga birov tosh otsa parvo qilmaydi, tosh cho'kadi, ketadi. Birorta anhor yoki soy kelib qo'shilsa, g'urur tuyib to'lqinlanmaydi. Tepasidan taqdir bo'ronlari yelsalar, bo'ronlarning tugashini kutadi, unga qarshi junbushga tushmaydi, o'z yo'lida oqaveradi... Daryo yonida bo'lganlar uning saxovatidan bahramand..." [1]. Tanishganimizday, Muhammad Ali Amir Temur insoniy tiynatiga xos bir necha jihatlarni obrazli holda tasvir etadi. Piri murshid nigohi bilan sohibqironga ta'rif berar ekan, adib uni daryoga qiyoslaydi. Daryo tubida nima borligini hech kim bilmaganidek, Amir Temur ham ko'rinishda bosiq sokin, ammo uning qalbida qanchadan-qancha kechinmalar, g'alayonlar jamuljam. U taqdir yetovidagi inson sifatida qismatiga rizo. G'urur va kibru havoga berilmagan, saxovatpesha Amir Temur o'z yo'lini to'g'ri deb biladi va maqsadi sari dadil intiladi.

"Ulug' saltanat" romanida Amir Temur mas'ud damlar xotirasiga berilgan, bolalik damlarini yoxud ko'rgan-kechirganlarini xayolan eslar ekan, adib uning sertashvish, tahlikali onlari dramatzimini baxtiyor kunlari bilan qiyoslaydi. Ko'pincha u xayolga berilib, ota-onasini, ular bilan kechirgan baxtiyor damlarini eslaydi. Otasi Amir Tarag'ay, onasi Tekina xotun haqida xayol surar ekan, yozuvchi bunday kezlarda paydo bo'lgan kechinmalarni shunday moddiylashtiradi: "Temurbekni o'kinch hissi chulg'adi. Endi yelkasiga baxt qushi qo'nib, yurt boshiga kelay deb turganda belini bog'lab hurmat-xizmatini qiladigan qiblagohi otasi, bosgan izi jannat onasi yo'q..." [1]. Tasvirning bunday teran ruhiy tahlillarga yo'g'rilgan o'rinli bizning ko'z o'ngimizda oddiy, sodda va ilosiz bir bandani, ayni paytda donishmand insonni namoyon etadi. Muhimi shundaki, yozuvchi vaziyat-holatlardagi milliylikni, qahramon his-tuyg'ularidagi ulug'vorlikni ta'sirchan ifodalaydi. Tabiiyki, ushbu usul kitobxonda kayfiyat uyg'otish, uning tafakkuriga ta'sir etish, hayotini mushohada qilishga undashda ijobiy natijalar berishi aniq.

**Xulosa.** Umuman, yozuvchi roman-epopeyada ajdodlarimizning bizga o'rnak bo'la oladigan yorqin va betakror obrazlarini yaratish, yaxshi insonlarga xos olijanoblik, kurash

hamda jasoratni o'ziga xos tarzda tahlil etishga intilgan. Zero, asarda tasvirlangan obrazlar insoniy mehrga yo'g'rilganligi va inson taqdiriga astoydil kuyunchaklik tuyg'usi bilan sug'orilganligi boisi ham shundadir.

#### Foydalanilgan manbalar ro'yxati

1. Muhammad Ali. "Ulug' saltanat" – (Jahongir Mirzo) 1-kitob. Toshkent: "Navro'z", 2019.
2. Muhammad Ali. "Ulug' saltanat" – (Umarshayx Mirzo) 2-kitob. Toshkent: "Navro'z", 2019.
3. Muhammad Ali. "Ulug' saltanat" – (Mironshoh Mirzo) 3-kitob. Toshkent: "Navro'z", 2019.
4. Muhammad Ali. "Ulug' saltanat" – (Shohruh Mirzo) 4-kitob. Toshkent: "Navro'z", 2019.
5. Murodov G'. Tarixiy roman: mushtaraklik va o'ziga xosliklar uyg'unligi muammolari. DDA. – Toshkent: 2018
6. Nazarov B. Yuksak tarixiy e'tiqodga munosib samara / Ozod Vatan saodati. Besh jildlik. Beshinchi jild. Adabiy taqid. – Toshkent: Adib, 2013.
7. Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini. ("Yulduzli tunlar" romani misolida) f.f.d.dis. avtoref. – Toshkent: 1999.
8. Yoqubov I.A. Muhammad Ali ijodida tarixiy jarayon konsepsiyasi va liro-romantik talqin. Monografiya. – Toshkent: "Fan", 2007
9. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004.
10. Qo'shjonov M. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Sharq, 2019.

#### JADIDCHILIK VA HOZIRGI SIYOSIY-MA'RIFIY JARAYON

**Damin To'rayev**

filologiya fanlari doktori, professor (QarDU)

[daminturayev01@gmail.com](mailto:daminturayev01@gmail.com)

ORCID: 0009-0000-1532-0152

UDK: 8И-83

**Annotatsiya:** Milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi va kamol topishida tariximizdagi turli ijtimoiy-siyosiy harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday siyosiy harakatlardan biri jadidchilik harakatidir. Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining mazmun va mohiyati, maqsad va vazifalari ochib beriladi. Xususan, uning asosiy g'oyasini yurt mustaqilligi, xalq ozodligi, uning ma'rifati va madaniyatini yangi bosqichga olib chiqishdagi faoliyatiga urg'u berilgan. Maqolada jadidchilikning dastlabki faoliyatida qaysi yo'nalishlar yetakchilik qilgani, so'ngra madaniy-ma'rifiy jabhaning qaysi sohalarini qamrab olganligi haqida tahliliy fikr yuritiladi. Maqolaning asosiy qismida jadid g'oyalarining bugungi kunda Yangi O'zbekistonni bunyod etishimiz jarayonidagi o'rmini ko'rsatib berishga asosiy e'tibor qaratilgan. Jumladan, oradan yuz yil o'tgan, bu harakatga, uning olg'a surgan g'oyalariga Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan katta e'tibor qaratilayotgani bugungi jamiyatimizning taraqqiyot tamoyillari asosida izohlab beriladi. Muallif o'z mulohazalarini Prezidentimizning jadidchilik masalalariga bag'ishlangan xalqaro konferensiya qatnashchilariga yo'llagan tabrigi va Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi so'zlagan nutqida olg'a surilgan fikrlari asosida bayon qiladi. Maqolaning xulosa qismida, jadidlarning olg'a surgan g'oyalari bugungi kunda jamiyat va millat manfaatini himoya qilishda qanchalik dolzarb ahamiyati kasb etishi ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Jadid, jadidchi, jadidchilik, usuli jadid maorifi, matbuot, teatr, adabiyot, san'at, g'oya, jadid adabiyoti.

## MODERNITY AND THE CURRENT POLITICAL AND EDUCATIONAL PROCESS

**Abstract:** Various socio-political movements in our history are important in the formation and maturation of the idea of national independence. One of such kind of political movement is the jadidism. In this article written about the content and essence, goals and objectives of the jadids' a movement that arose in the Turkestan region in the late 19th and early 20th centuries. In particular, jadids' work in bringing enlightenment and culture to a new level, their main idea were emphasized by the independence of the land, the liberation of the people. In the article, the author provides an analytical idea of which directions led in the early activities of the jadidism, and then which areas of the cultural and educational front were covered. In the main part of the article, the main focus is on showing the place of jadids' ideas in the process of our construction of today - New Uzbekistan. In particular, a hundred years have passed, to this movement, to the ideas that it has advanced, our President Sh. The fact that great attention is paid by Mirziyoyev is explained on the basis of the principles of development of our today's society. The author describes his comments on the basis of the congratulations of our president to the participants of the International Conference on the issues of the jadidism and the views advanced in his speech at the expanded meeting of the Republican Council of spirituality and enlightenment. In the summary section of the article, the advanced ideas of the jadids show how relevant importance they have today in protecting the interests of society and the nation.

**Key words:** Jadid, jadids, jadidism, method of jadid education, press, theatre, literature, art, idea, jadid literature.

**Kirish. (Introduction):** Jadidchilik xalqimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi muhim siyosiy harakat hisoblanadi. Bu harakat mustamlaka Turkistonning yangi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bo'lgan ehtiyoji asosida XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida ulkan aql-zakovat va tafakkur egalari tomonidan yuzaga kelgan edi. Jadidchilik harakatining asosini yurt mustaqilligi, xalq ozodligi, uning ma'rifati ta'lim-tarbiyani va madaniyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish tashkil etar edi. Natijada xalqimiz so'zlashuv tilida "jadid", "usuli jadid" degan so'z va iboralar qo'llana boshladi. "Jadid" so'zi arabcha bo'lib – yangi, yangilik tarafdori ma'nosini anglatadi. Bog'chasaroylik qrim-tatar ziyolisi Ismoil G'aspirali asos solgan bu harakat dastavval maorifda, so'ngra matbuot va teatr, adabiyot va san'atda keng faoliyat ko'rsata boshladi. Darhaqiqat, Ismoil G'aspirali uning asosiy maqsadini "... boshqa bir o'quv, boshqa bir maktab demak dagil (emas)dir" deya ta'riflagan edi. Istiqloq sharofati bilan bu harakat faoliyatini o'rgangan mutaxassislar uni haqli ravishda "Milliy uyg'onish davri" deb atashadi.

XX asr boshlarida o'lkadagi eski maktablarda o'qitish usullari o'rniga yangi tartib va tarbiya usuli qo'llanila boshlandi. Jumladan, o'quvchilarning xat-savod chiqarishida hijo tizimi o'rniga tovush tizimi kiritildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin kabi fidoyilar sa'y-harakati bilan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qo'qon shaharlarida "usuli jadid" maktablari ochildi va ular tomonidan bu maktablar uchun turli fanlar bo'yicha darsliklar yaratildi.

Jadidlar tomonidan nashr etilgan "Oyina", "Samarqand", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona". "Al-isloh" kabi jurnallar matbuot taraqqiyotida va millat ongining uyg'onishida muhim rol o'ynadi. Ularda nashr etilgan maqolalar yangi o'zbek adabiy tilining shakllanishida asosiy omil bo'ldi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology):** Jadidchilik harakatining

asosiy g'oyasini yurt mustaqilligi, xalq ozodligi, uning ma'rifati va madaniyatini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish tashkil etar edi. Shuning uchun ham bu harakat faoliyati ko'rsatgan davrni "Milliy uyg'onish davri" deb atashadi. Jadidchilik dastavval maorifda, so'ngra matbuot va teatr, adabiyot va san'atda keng faoliyat ko'rsata boshladi. Umuman olganda, jadidchilik harakatini o'sha davr adabiy jarayonisiz tasavvur etish mumkin emas. Istiqlol va ozodlikni targ'ib qiluvchi adabiyot o'z navbatida "jadidchi", "jadid adabiyoti", "jadid adabiyotchisi" deb yuritila boshladi. M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, A.Avloniy, A.Fitrat, Hamza, A.Qodiriy, Cho'lpon kabi ijodkorlarimiz jadid adabiyotining atoqli namoyandalari sifatida tom ma'noda millatning uyg'oq ko'zlari edi. Chunki ular o'z asarlarida millat taqdiri, yurt mustaqilligi va ozodligi haqida qayg'urdilar. Ana shu maslakhlar, millat kelajagi yo'lida o'limga tik borishdi. Aytish mumkinki, bular yaratgan badiiy asarlarda olg'a surilgan va ulug'langan g'oyalar milliy istiqlol g'oyasining sarchashmalari hisoblanadi. Chunki ular o'z asarlarida kuylagan va olg'a surgan g'oyalar mamlakatimizning bugungi ma'naviy-iqtisodiy taraqqiyot tamoyillariga mos bo'lib hozirgi avlod orzu-intilishlariga hamohangdir.

Masalan, A.Fitratning ma'rifatparvarlik va milliy istiqlol tuyg'ulari, yurtning madaniyati va iqtisodiy ahvolini yaxshilash borasidagi qarashlarining badiiy ifodasi sifatida 1912-yilda Istambulda tojik tilida nashr etilgan "Hind sayyohi qissasi" e'tiborlidir, darhaqiqat, A.Fitratning mazkur asari yoshlarda yurtga milliy faxr-iftixor tuyg'ularini shakllantirish, ularni vatanparvarlik va millatga fidoyilik ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Kitobxon asar bosh qahramoni - sayyoh hikoyasi orqali XX asr boshlaridagi Qarshi vohasidagi mavjud Qarshi, Shahrisabz, Kitob shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan tanisha boradi. Voqealarning sayyoh (muallif) tilidan bayon qilinishi esa asar uslubining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, tasvirlangan voqealar va olg'a surilgan g'oyalar mohiyatini ochish hamda tushunishda, kitobxon bilan o'zaro aloqani "ushlab" turishda juda ham qo'l kelgan. Sayyoh Qarshi shahrida to'quvchi korxonasi bilan tanishar ekan, Qarshi alachalari nafis va chidamlilik borasida ruslarning matohlaridan ustun turishidan faxrlanadi. Va bu alachalarining bir paytlar Madinai munavvaragacha shuhrat topib Farangiston molini sindirganligini iftixor ila hikoya qilib beradi. U korxonaga egasining hunarmandchilik kelajagini o'ylamay ish tutishidan ranjiydi. O'z xalqining Ovropa xalqlari singari o'n yil, yigirma yil, hattoki yuz-ikki yuz yil keyingi rivojini ko'zda tutish lozimligini uqtiradi. Bu bilan muallif nafaqat o'z davri, balki kelajak avlod taqdiri va o'lka xalqining baxt-saodati to'g'risidagi g'oyalarini bayon qiladi.

Biz hozirda mustaqil yurtimizning ravnaqi, XXI asrdagi avlodning kelajak taqdiri, ularning farovon hayoti haqida o'ylayapmiz. Vaholanki, Fitrat XX asr boshlarida bu kabi muammolarni yechishda ilg'or xalqlar tajribasini o'rnatqilib ko'rsatib, uni tushuntirish asosida olg'a surgan edi. Muallifning o'lkamiz katta yerosti boyliklariga egaligi haqidagi bashorati to'g'riligi bugungi kunda Qashqa vohasidagi Muborak, Sho'rtan, Ko'kdumaloq kabi tabiiy yerosti konlarining kashf etilishi bilan isbotlandi. Muallif olg'a surgan g'oyalar yuzaga chiqib, mazkur boyliklar mustaqil mamlakatimizning istiqboli, xalq farovonligi yo'lida xizmat qilmoqda. A.Fitrat orzu qilgan g'oyalar Qashqa vohasida Yurtboshimiz rahbarligida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarining samarasi sifatida yuzaga kelgan Sho'rtangaz, Muborak va Ko'kdumaloqdagi neft va gaz korxonalarining mustaqil yurtimizning iqtisodiyoti rivojidadagi o'rni va jahon ilm-fan texnikasining murakkab va eng yuksak sifatli uskunalari asosida ishlayotgan zavodlarni boshqarayotgan davrimiz qahramonlari jasoratini mashhur adiblarimizdan Odil Yoqubov "Qashqadaryo gurunglari" nomli publitsistik asarida ehtiros bilan tasvirlab berdi.

XX asr o'zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri Cho'lpon o'z davri manzaralarini xalqqa tushuntirishda, uni erkka yetaklashda, ma'rifatli qilish va yurt

mustaqilligi uchun kurash tuyg'usini uyg'otishda adabiyotni asosiy vosita deb bildi: "Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, ... o'chgan, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlari-mizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkur yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladirg'on, chang va tuprog'lar to'lgan ko'zlarimizni artub tozalaydirg'on buloq suvi bo'lg'onlikdan bizga g'oyat kerakdir" [1]. Badiiy adabiyotning ana shunday qudratli kuchi tufayli adib o'z asarlarida mustamlakachilikning siyosiy mohiyati va imperiyaning qattol qiyofasini ochib berdi, vatanparvarlik va erkparvarlik g'oyalarini olg'a surdi.

**Natijalar va muhokama (Results and Discussions):** Badiiy adabiyotning taraqqiyot xususiyatlari o'z davri tamoyillari bilan bog'liq. Bunda adabiyot davrni harakatlantirib turuvchi milliy va umuminsoniy g'oyalarga xizmat qilishi kerak, albatta. Jadid yozuvchilarining asarlarida aynan ana shunday g'oyalar targ'ib qilingan, desak, xato bo'lmaydi. Jumladan, M.Behbudiyning "Padarkush", Fitratning "Munozara", "Hind sayyohi bayonoti", A.Qodiriyning "Baxtsiz kiyov", "Millatimga", "Ahvolimiz", Hamzaning "Yangi soadat" kabi asarlarida ma'rifatparvarlik, madaniy-ma'naviy, iqtisodiy, axloqiy-maishiy masalalar talqini orqali targ'ib qilingani fikrimiz dalilidir.

Badiiy adabiyotda milliy g'oyani targ'ib qilish haqida gap ketganda milliylik masalasini chetlab o'tib bo'lmaydi. Chunki adabiyotdagi milliylik undagi g'oya va milliy tafakkurni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardandir. Shuni eslash joizki, har bir milliy adabiyotda dastavval o'sha xalqning xarakteri, hayoti, urf-odatlarini yaratiladi. Milliy tasvir va milliy ruhdan mosuvo bo'lgan asarning badiiy kuchi ham yo'qdir. Zero, badiiy asardagi milliylik mahdudlik va fikriy qashshoqlikdan uzoq bo'lishi, tasvir va g'oyalarni o'zida tajassum etgan obrazlar umuminsoniy va dunyoviy mazmun kasb etishi kerak. A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarini ko'z oldimizga keltiraylik. Asarda o'zbek xalqi hayotining milliy manzaralarini ko'ramiz. Yusufbek hoji, O'zbek oyim, Mirzakarim qutidor, Oftob oyim, Otabek, Kumush obrazlari tasviri orqali faqat o'zbek xalqiga bo'lgan milliy tafakkur va milliy hayot nafasi ufurib turadi. Xalqimizda "Otasining bolasi" degan ibora bor. Bu ibora negizida farzand otasiga o'xshaydi, otasiga tortgan degan ma'no yotadi. Romanda muallif Otabek xarakterini tasvirlar ekan, uning fe'li-atvorida elning vallamati bo'lgan Yusufbek hojining fazilatlarini mujassam etganiga urg'u beradi. Buni kitobxon Otabekning marg'ilonlik nomdor kishilar bilan bo'lgan muloqotida ko'rishi ham mumkin:

–"Otaning bolasi-da, – deb Ziyoy shohichi mehmonlarga qarab qo'ydi.

–Umri uzoq bo'lsin, – dedi Akram hoji, – yigitlarimiz ichida eng aqlligi ekan... agar xon ko'tarish manim qo'limda bo'lsa edi, xon qilib Otabekni ko'tarar edim..."

Akademik M.Qo'shjonov iborasi bilan aytganda, yuksak madaniy saviyasi, umuminsoniy ma'nosi bilan Abdulla Qodiriy yaratgan obrazlar xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda katta xizmat qildi. Bugun ham, xususan, xalqimizning mustaqillikka erishgan davrida ham xizmatda bo'lajagi aniq.

Xo'sh, bugungi hayotimiz uchun, jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy hayotida jadidchilikning o'rnini qanday? Bugungi yoshlarimiz jadidchilikning millatimiz hayoti va jamiyat tarixidagi xizmatlarini anglashadimi? Nega endi jadidchilik harakati faoliyat ko'rsatgan davrdan bugungacha bir asrlik vaqt o'tgan bo'lsa-da, uning olg'a surgan g'oyalarini hayotga tatbiq etishga e'tibor berilmoqda. Ana shular haqida o'ylaganda davlatimiz rahbarining 2023-yil 11-12-dekabr kunlari poytaxtimizda o'tkazilgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigining nihoyatda dasturulamal ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Bu barcha ziyolilarimizning ko'nglidagi gap edi. Ushbu tabrikda Yurtboshimizning "Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-

siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasi" degan fikrlari o'z hayotiyli bilan birga, barcha ziyolilarni tahlikali zamonda jadid bobolarimizga xos faollik va tashabbus-korlikka undovchi, yoshlarimizni vatanparvar ruhida tarbiyalashga chorlovchi xususiyatlari bilan ham e'tiborlidir. Prezidentimiz o'z qarashlarida jadidchilik g'oyalarning umrboqiyli haqida ular ko'zlagan ezgu-niyatlar bilan bugungi istiqloq yillaridagi intilishlarimiz, orzu-istaklarimiz o'rtasida uzviylik mavjudligiga e'tiborini qaratmoqda.

Muhtaram Prezidentimizning Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat kengashining 2023-yil 22-dekabr kuni bo'lib o'gan kengaytirilgan yig'ilishida so'zlagan nutqida ham xalqimizni ozodlik va ilm-ma'rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizning xizmatlarini ulug'lab ularning g'oyalari jamiyatimiz rivoji uchun dasturulamal bo'layotganini alohida ta'kidladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations):** Bugungi ma'rifiy-ma'naviy hayoti-mizda faoliyat yuritayotgan millatimiz ziyolilari, adabiyot va san'atning yetuk vakillari Prezidentimizning fikrlaridan ruh va rag'bat olib jadidchilikning mazmun va mohiyatini, xususan, ular olg'a surgan g'oyalarning Yangi O'zbekistonni bunyod etish strategiyasi bilan vobastaligini yurtdoshlarimizning ong-u tafakkuriga singdirishda astoydil kirishganligi ham quvonarli holdir.

Xullas, jadidlar olg'a surgan g'oya – millatni ma'rifatli qilish orqali obod Vatan qurish g'oyasi bugungi avlod zimmasidagi muhim masalalardan hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan manbalar ro'yxati:**

1. Cho'lpon. Adabiyot nadir. Toshkent: Cho'lpon, 1994. –B 37.
2. Prezident Sh. Mirziyoyevning "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil 12-dekabr.
3. Mirziyoyev Sh. Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil 23-dekabr.
4. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidchilik harakatidan milliy mustaqillikka qadar. – Toshkent, 1998.
5. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. –Toshkent, 1999.
6. Jadidchilik va milliy istiqloq tantanasi. –Toshkent, 2002.
7. Cho'lpon. Asarlar. 1-3 jildlar. –Toshkent, 1994.
8. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. –Toshkent, 1999.
9. Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-2 jildlar. –Toshkent, 2000.

### **MUAMMO NAZARIY TALQINIDA MUNAQQID MAHORATI** *(Matyoqub Qo'shjonov asarlari misolida)*

**Yo'ldoshev Dilmurod Ne'mat o'g'li**  
Qarshi DU o'qituvchisi  
[kumushshamshir0404@gmail.com](mailto:kumushshamshir0404@gmail.com)  
ORCID: 0009-0008-4706-9634  
UDK: 894.375:8.09(045)

**Annotatsiya:** Adabiy tanqid asarning tuzilishi, uslubi, tili va mazmunini tushunishga yordam beradi. Adabiy tanqid asarlarni tahlil qiladi, ularning kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, badiiy fazilatlarini aniqlaydi. Adabiy tanqid kitobxonlarga asarni yaxshiroq tushunish va talqin qilishga yordam beradi. Chuqur ma'no, timsol va metaforalarni ochib beradi, asarga turli tomonlardan qarashimizga yordam beradi. Tanqidchilarning sharhlari o'quvchilarga obyektiv tanlov qilish va sifatli asarlarni topishga yordam beradi. Adabiyotshunoslar nafaqat tahlilchi, balki adabiy madaniyatning shakllanishiga hissa qo'shayotgan insonlardir. Ular asarlarga yangicha qarashga, adabiy

idrokimizni boyitishimizga yordam beradi. Ushbu maqolada o'zbek adabiy tanqidchiligida nazariy muammo talqini o'ziga xosligi, badiiy asar tahlilida munaqqid poetik mahorati, matnni estetik baholash mezonlari va ifoda uslubi tadriji akademik Matyoqub Qo'shjonov ijodi misolida umumlashtiriladi. Unda fakt va ijtimoiy-falsafiy umumlashma uyg'unligi, olim ilmiy pozitsiyasi va ijodiy munosabat yaxlitligi, farazni tekshirish usuli va adabiy ma'lumotni qo'llash iqtidori aloqasi xususida mushohada yuritiladi. Mohiyatan adabiyotshunos fenomeni ham badiiy asar, ham ijodkor fitratini idroklashdan mantiqiy sillogizmga yo'naltirishi bilan o'lchanadi.

**Tayanch so'zlar:** muammo, nazariy talqin, adabiy tanqidchilik, poetik mahorat, ifoda uslubi, mohiyat, matn, vazifa, ijod ruhiyati, tahlil, estetik baholash mezonlari.

### CRITICAL SKILL IN THEORETICAL INTERPRETATION OF THE PROBLEM (On the example of Matyakub Koshjanov's works)

**Abstract:** Literary criticism helps to understand the structure, style, language and content of a work. Literary criticism analyzes works, identifies their strengths and weaknesses, as well as artistic qualities. Literary criticism helps readers better understand and interpret the work. It reveals deep meaning, symbols and metaphors, helps us look at the work from different angles. Reviews of critics help readers make objective choices and find quality works. Literary critics are not only analysts, but also people who contribute to the formation of literary culture. They help us to look at the works in a new way, to enrich our literary perception. In this article, the originality of the interpretation of theoretical problems in Uzbek literary criticism, the poetic skill of the critic in the analysis of the artistic work, the criteria of aesthetic evaluation of the text and the method of expression are summarized on the example of academician Matyakub Koshjanov's work. It examines the relationship between fact and socio-philosophical generalization, scientific position of the scientist and integrity of creative attitude, method of hypothesis testing and the ability to use literary information. In essence, the phenomenon of the literary critic is measured by his ability to direct both the artistic work and the nature of the creator from perception to logical syllogism.

**Key words:** problem, theoretical interpretation, literary criticism, poetic skill, style of expression, essence, text, task, spirit of creativity, analysis, aesthetic evaluation criteria.

**Kirish.** XX asr o'zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida M.Qo'shjonov salmoqli o'rin egallaydi. Qariyb ellikka yaqin kitob, uch yuzdan ortiq ilmiy maqola, o'ndan ortiq tarixiy-biografik asarlar yozgan munaqqid millat madaniyati tarixiga munosib hissa qo'shdi. Binobarin, keskin va murosasiz chiqishlari, pozitiv va xolis ijodiy yondashuvlari bilan mashhur olim fenomeni o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Odatda, «halol, haqqoniy, chuqur tahlil haqida gap ketganda, badiiy ijod sehri, mohiyatini butun qalbi, vujudi bilan his qilib, idrok etib, uning o'sish-o'zgarishi, ravnaq topishiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgan peshqadam munaqqidlarimizdan biri – Matyoqub Qo'shjonov faoliyati, izlanish-intilishlari, tadqiqotlari esga tushadi» [1], - deb yozadi f.f.d., prof. N.Xudoyberganov. Ilmiy faoliyati, ijodiy jasorati va haqqoniy so'zi bilan ibrat bo'ladigan mutaxassis adabiy merosi joriy kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan, olim nazariy talqini xilma-xil muammolarni qamrab oladi: janr, adabiy tur, estetik kategoriya, shakl va mazmun, g'oya, mavzu, mezon, badiiyat! Uning dastlabki yirik fundamental tadqiqoti – “Mahorat sirlari” (1968) monografiyasi mantiqiy izchilligi, muammo tanlovi va tahlil quyuqligi bilan e'tiborni tortadi. Ayniqsa, A.Qahhor ijodiga bag'ishlangan “Hikoyanavis san'ati” fasli akademik uslub mukammalligini namoyon etadi, muallif joriy faslni kichik-kichik qismlarga ajratadi: Muvaffaqiyatning boshi, hayotiylik – mahorat mezoni, dalillash



san'ati, "gapning asosiysi"ga amal qilib, drammatizm, xarakter taqdiri, aniq pozitsiyada turib, musiqiylik, detallarni aniq tahlil qiladi. Shu tariqa munaqqid A.Qahhor hikoyalarining san'at rutbasiga ko'tarilish omillarini mantiqiy bog'lanishda yoritadi va hikoyanavis mahorati qirralarini umumlashtiradi: "Abdulla Qahhor hayot hodisalari ustida olib borgan ishlari bevosita xarakter yaratish, xarakterni tahlil etish bilan bog'liq. Hikoya uchun fakt tanlayotganda ham, faktni "tahrir" etayotganda ham, uni xayolan o'ylab chiqarayotganda ham, uning diqqat markazida hamisha odam obrazi turadi. Avtor hayotiy hodisalarni hikoyaga olib kirishda bir tomondan, ularning hayotiyligini, mantiq kuchini oshirish payida bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular xarakter mohiyatini ochishga, xarakter psixologiyasini tahlil etishga qulayligini o'ylaydi; avtor qayta va yangidan yaratgan situatsiyalar nihoyatda hayotiy bo'lish bilan barobar xarakterni ko'rsatish uchun behad qulaydek" [2].

Munaqqid ilmiy talqin mobaynida obraz, qahramon, xarakter o'zaro munosabatiga e'tibor qaratadi, ijodkor laboratoriyasida fakt va uning amaliy ishlanganlik darajasiga aniqlik kiritadi. Hayot hodisasi badiiy haqiqatga aylanishi mezon va me'yorga bog'liq, ruhiy jarayon tasvirini aniq belgilash hikoyanavis mahoratiga payvandlanadi. Vaholanki, kichik janrda xarakter tayyor holatda namoyon bo'ladi, uning yorqin va to'laqonli chiqishi xarakter iroda yo'nalishiga tutashadi. Inson psixologiyasiga teran kirib borish faqat va faqat har bir hikoyanavis poetik mahoratini taqozo etadi.

M.Qo'shjonov o'zining yana bir yirik fundamental tadqiqoti – "Qalb va qiyofa" (1978) asaridagi "She'riyatda jo'nlik – qusur, chigallikchi?" nomli maqolasida badiiy ijod jarayoni haqida gapirar ekan shunday deydi: "Poeziyaning tub mohiyati bo'lmish insoniylik tuyg'ulari, lirizm, hayotga tashnalik tasvirda yuksak publitsistik pafos bilan organik birikib, mazmun jihatidan chuqurlasha va konkretlasha boradi. Bir so'z bilan aytganda, she'riyatning asl, yuksak g'oyaviy-estetik yetukligi hamisha rivojlanishda va harakatda." Shoirlik hamisha oshiqlik demak. Ishq va armonning muttasil kurashlari, sog'inch istiroblari, hijron onlari ijodkor uchun asl ilhom manbayi. Ko'ngil bag'riga zalvor tashlab turgan ana shu behalovatlik his-tuyg'ular bulog'ining ko'z ochishiga sababchi bo'lsa ne ajab. Dunyoda hech bir narsa o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Hattoki eng kichik zarrachaning ham yaralishida nimadir turtki yoki ta'sir ko'rsatgan bo'lsa kerak, hoynahoy. Bu fikrni she'riyatga muqoyasa qilsak, ko'ngil tuyg'ularining yaralishi qalb-u shuurimizni junbushga kelarli darajada hayajonga solsa, tasavvurimizni boshqa – noma'lum bir olam sinoatlarining mantig'ini anglashga da'vat etsa, demak, ushbu hodisaga shoir o'z maqsadlarini to'liq singdira olganligi, ayni paytda, "xos ohang"ni tanlay bilganligi ayonlashadi. Shoir – so'z tanlaydi. So'zning ruhi va kishi ko'ngliga ta'sir etuvchi jihatlari rang-barang va serjilo bo'lgandagina haqiqiy she'r bo'la oladi. Negaki, she'r shoir anglagan, his qilgan olamning mevasi. Bu olamga kirib borish bizni nafaqat ijodkor olamiga yaqinlashtiradi, balki dunyoning sir-sinoatlarini tushunishga zamin hozirlaydi. Ruhiatning cheksiz imkoniyatlari borligidan ogoh etadi. Muhimi, uni qanday va qay tariqa ifodalay bilishdadir.

Adabiy jarayonda, xususan, she'riyatda kechayotgan janr va shakliy izlanishlar shunchaki ijodiy tajriba – poetik eksperiment namunalari bo'lib qolmaydi. Muttasil kechayotgan janr va shakliy izlanishlar shoirlarning yurak amriga, ma'naviy-intellektual ehtiyojiga aylangani sababli ham yaxshi natijalar beradi. Voqelikni tushunish, inson va jamiyat psixologiyasini tushuntirishda hayotiy mazmun bilan to'liqib boradi. "O'zbek she'riyati o'z taraqqiyot yo'lida jahon adabiyotidan nimalarnidir ijodiy o'zlashtirishga uringan bo'lsa bordir (hamkorlik, o'zaro o'rganish, ijodiy ta'sirlanish tabiiy jarayon, ammo buni taqlidchilikka aylantirmaslik lozim), lekin mohiyat e'tibori bilan bugungi yangilanayotgan o'zbek she'riyati suv ichayotgan buloq bu hayotning o'zi. Zero,

chinakam iste'dodli shoir yozayotgan she'ri ohangini qalbiga quloq tutib topadi. Qalb esa davrdagi o'zgarishlarni o'ta noziklik bilan ilg'ab boradigan barometr. Davr o'zgarayotgan bo'lsa, demak, bilingki, ertami-kechmi, adabiyotda ham yangilanish muqarrar. Buni G'arbdan yo'lis Amerikadan "import" qilish mutlaqo kerak ham emas. Inchunin, Gyote: "Nazariya quruqdir, do'stim, Lekin yashar hayot daraxti", degan. Shu ma'noda men, ayniqsa, yosh shoir do'stlarimga qarata: she'ringizni qurib, cho'pchakka aylangan har xil nazariyalarga emas, balki qaynab-toshib turgan ona-hayotga suyanib yarating, deya takror-takror aytgim keladi [3].

Munaqqid fikrlari sof shaxsiy kechinmalar tasviri bilan emas, balki zamonasining badiiy jihatdan muhim hodisalarini o'zining ilmiy qarashlari faktiga aylantira olishi bilan belgilanadi. Masalan, lirikada fikr va his-tuyg'u umuminsoniy ekanligini ta'kidlab, adabiyotshunos I. Sulton "lirik-qahramon lirik asarda kechinmalari tasvirlanayotgan kishi, shoirning ustun jihatlarini, ya'ni umumjamiyat uchun qimmatli his va fikrlarni tashuvchi shaxsdir, – degan xulosaga keladi, – u shoir shaxsi bilan estetik idealning quymasidir". Tabiiyki, zamon o'tgan sari badiiy saviyasi charxlanib boruvchi she'rxonni shakliyl go'zalliklar, umumiy tavsiflar, yaltiroq va dabdabali vasflar qoniqtirmay qo'yadi. Chin iste'dod sohibi bo'lgan ijodkor o'z qalbi va ruhiyatini lirik tadqiq qilish natijasida ruhiy-ma'naviy iqlimlarni zabt eta boradi va betakror uslubi bilan mumtoz she'riyatda o'z o'rnini topadi.

Bizning lirik merosimizda mumtoz adabiyotimiz namoyandalari va jahon klassiklarida bo'lganidek, inson qalbi tasviriga asosiy o'rin berganligi uning ustivor jihatidir. Bu hol shoirlarimiz ijodida ko'p bora ko'zga tashlanadi. Ulardagi she'riy mahorat inson obrazini, uning ichki va tashqi borlig'ini atroflicha, chuqur, badiiy gavdalantira bilishida namoyon bo'ladi. Lirik she'rlarimiz mavjud adabiy an'analarga rioya qilib, insonning haqiqiy qiyofasini aniq, ayniqsa, ma'shuqa obrazi vositasida keng tasvirlab berganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

M.Qo'shjonov 70-yillar adabiy tanqidchiligida muhim o'rin tutgan "Ma'no va mezon" monografiyasi 3-qismi mazmun va shakl birligi, obrazlilik masalalariga bag'ishlangan nazariy lavhalardan tashkil topgan. M.Qo'shjonov Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti tomonidan nashr ettirilgan "Adabiy turlar va janrlar (tarixi va nazariyasiga oid)" uch jildligida o'zbek romanchiligi rivojlanish bosqichlari va janr xususiyatlariga oid nazariy masalalarini ham ko'tarib chiqqan edi. Matyoqub Qo'shjonov adabiyot va san'atda alohida ahamiyat kasb etuvchi mazmun va shakl birligi masalasini mazkur asarida ham yanada nazariy fikrlar bilan rivojlantirishi 60–70-yillar adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida muhim o'rin tutdi. M.Qo'shjonov asar syujet va kompozitsiyasi ham mazmun shakldagi ko'rinishlaridan iboratligini ta'kidlarkan, shakl qay darajada faol, qay darajada muhim bo'lmasin, birlamchilik doimo mazmunda, degan nazariy fikrni ilgari surib, badiiy asarda shakl doimo mazmunga mos tushishi shart ekanligini ta'kidlaydi. Shakl va mazmun birligi muhim kategoriya, unda badiiy asar yaxlitligi aks etadi. Tasvir obyektini hamda ifoda subyektini bir-biriga o'tib turishi tabiiy hodisa, odatda, badiiy adabiyotni mazmun kategoriyasi sifatida ta'kidlash poetik shakl imkoniyatlarini chegaralaydi.

"Ularda olim (M.Qo'shjonov – ta'kid bizniki. D.Y.) Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Abdulla Oripov ijodini, shuningdek, obraz, kompozitsiya, syujet, kompozitsiya kabi adabiyot nazariyasi hamda adabiyotda estetik kategoriyalar kabi masalalarni tadqiq qildi... tahlil va talqin jarayonida o'z ilmiy konsepsiyasiga sadoqatan asarda mavjud bo'lmagan jihatlarini bo'rttirmaydi. San'at hodisasiga nomunosib epizodlarni ayab-xaspo'shlab o'tirmaydi; tanqidiy gapini lo'nda aytadi-qo'yadi. Ayni paytda asarning badiiyatiga, fazilatlariga, adabiyot tarixi yoki adabiy kechimdagi o'rniga

juda xolis baho beradi” [5], – deya ta’kidlaydi f.f.d., prof. Bahodir Karim. M.Qo’shjonov adabiy-estetik qarashlarini bezaydigan bir fazilat mavjud: olim har bir ijodkor fitrati va badiiy matn mohiyatini nazariy muammo tahlili yordamida ochib beradi, joriy holatda xolis va haqqoniy baho, mantiqiy izchil mushohada va ilmiy asoslangan fakt markazga chiqadi.

“Matyoqub Qo’shjonov usluban tarkibshunos munaqqid edi. O’zining e’tiroficha, “matn tahlili”, birinchidan, so’zning o’rni, vazifasi, ma’no yukini aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, matn mohiyatini anglash – yozuvchi kechinmalarini qayta his qilish. Uchinchidan, matndagi so’z, ohang, pafosni anglash – asar yutug’i, kamchiliklarini aniq-tiniq ko’rish”[6]ga yo’l ochadi. Badiiy asarni kompleks murakkab bog’lanishda tahlillashga mayl olim ifoda yo’siniga xos muhim jihat, tadqiqotchi tayanch-asos pishiqligi, fakt va dalolat quvvat-hofizasi hamda kitobxonni ishontirish san’ati tanqidchi faoliyati o’ziga xosligini belgilaydi. Mantiqiy izchillikka ixtisoslashgan yangi mushohada va muammo ilmiy talqini olim ifoda uslubini tayinlaydi.

M.Qo’shjonov mazmun va shakl birligi, obrazlilik masalalaridagi nazariy yondashuvlari Belinskiy, Chernishevskiy va Dobrolyubovlar badiiy adabiyotga oid nazariy qarashlari ta’siri samarali bo’lganligini alohida ta’kidlash lozim. Ayniqsa, M.Qo’shjonov obrazlilik masalasidagi nazariy qarashlarida V.Belinskiyning “San’at – bu hayotni bevosita anglash yoki obrazlar orqali fikr yuritish” degan ta’limotiga asoslanadi. “San’at va adabiyot hayot obrazli in’ikosidan iborat” deya M. Qo’shjonov Belinskiy fikrlariga yaqin boradi [6]. Adabiy talqinda hayotiy material badiiy haqiqat hosil qilishi murakkab jarayon, unda mazmun badiiy shakl yaratadi va obraz stixiyasi idrok sezgisini boshqaradi. Vaholanki, har bir poetik kashfiyotda uslub shakl va mazmunga yaqinlashadi, ifoda qay darajada muhim bo’lsa, tasvir ruhiyati ham shunchalik salmoqdor estetik yuk tashishga xizmat etadi.

Umuman, M.Qo’shjonov nazariy talqinida muammo kompleks yechimga yo’naltiriladi, munaqqid obraz, qahramon, syujet, konflikt, kompozitsiya, shakl va mazmun, mavzu va estetik ideal kabi masalalarni batafsil hamda to’laqonli tahlilga tortadi. Olim har bir faktga ham ilmiy, ham ijodiy yondashadi, faraz va uning mantiqiy aloqasi mustahkam bo’lishiga e’tibor qaratadi. O’zlashtirish, o’rganish va xolis baholash mutaxassis uslubiga xos zarif fazilat, u eng avvalo, badiiy matn “moya”(A.Rasulov)ga kirib borishga intiladi, asar va uning mazmun-mohiyatini sinchiklab tekshirish usuli M.Qo’shjonov tanqidchilik manerasini belgilaydi. Shu ma’noda, dalilni har tomonlama tavsiflash, tahlil malakasiga yo’naltirish hamda falsafiy-nazariy xulosa chiqarish muallif adabiy qarashlari mag’zini tashkil etadi.

#### Foydalanilgan manbalar ro’yxati

1. Qo’shjonov M. Saylanma. Ikki jildlik, 1-jild. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1982. – B. 3.
2. Qo’shjonov M. Mahorat sirlari. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1968. – B. 16.
3. Qo’shjonov M. Qalb va qiyofa. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1978. – B. 52.
4. Qo’shjonov M. Qalb va qiyofa. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1978. – B. 52.
5. Yo’ldoshev B. O’zbek adabiy tanqidi tarixi. – Toshkent: Fan, 2023. – B. 57.
6. Bahodir Karim. Ruhيات alifbosi. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2016. – B. 290-291.
7. Bursov B. I., Kritika kak literatura. L., 1976;
8. Nazarov B. O’zbek adabiy tanqidchiligi: g’oyaviylik, metod, qahramon, T., 1979;
9. O’zbek adabiy tanqidi tarixi, 1-2 jildlar, T., 1987.
10. Quronov D. Adabiyotshunoslik lugati / D.Kuronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. - Toshkent: Akademnashr, 2013.

**ЧЕРТЫ ЭТНОГРАФИЗМА В ОЧЕРКАХ А.П. ЧЕХОВА «ИЗ СИБИРИ»****Абдурауфова Камола Тулкинбек кизи**Шахрисабзкий государственный педагогический институт, преподаватель  
[kamola199407@gmail.com](mailto:kamola199407@gmail.com)

На основе рецензии Е.М. Каминской, д.ф.н., и.о. доц. кафедры русского литературоведения, факультета узбекской филологии НУУз

ORCID: 0009-0003-2519-5297

UDK: 82-94

**Аннотация.** Статья посвящена изучению очерков А.П. Чехова «Из Сибири», написанных уже более века назад, но до сих пор касающихся культурных и общественно-политических процессов России, происходящих в ней. Актуальность темы определяется также наступившей в России эпохой демократизации, которая предполагает обращение к нравственному опыту писателей-классиков девятнадцатого века, бывших для своего времени не только образцами творческих деятелей, но и своеобразными нравственными камертонами эпохи. Среди проблем, которые нашли отражение в очерках А.П. Чехова – это элементы народной культуры, соединение национального и инонационального, национальная картина мира и система ценностей (земля, родина, свобода), знакомство с природой и бытом народов, которые населяют эту местность. Творчество А.П. Чехова – одна из ярких страниц в русской литературе второй половины XIX века. Произведения этого писателя привлекают внимание как исследователей, так и читателей. Интерес со стороны ученых обусловлен богатством художественного мира А.П. Чехова, новаторскими принципами его поэтики. Даже хорошо изученные произведения раскрываются в новом художественно-теоретическом ракурсе. Ярким примером могут стать очерки А.П. Чехова. Сложный жизненный путь писателя и путь духовного поиска стали почвой для путешествий и создания таких произведений, как «Из Сибири».

**Ключевые слова:** жанр очерка, путевой очерк, А.П. Чехов «Из Сибири», этнографизм, этнография.

**A.P. CHEXOVNING «SIBIRDAN» OCHERKIDA ETNOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Maqola A.P. Chexovning «Sibirdan» ocherkini o'rganishga bag'ishlangan. «Sibirdan» asari bir asrdan ko'proq vaqt oldin yozilgan, lekin hali ham Rossiyada sodir bo'layotgan madaniy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog'liq. Mavzuning dolzarbligi, shuningdek, Rossiyaga kelgan demokratlashtirish davri bilan ham belgilanadi, bu o'z davri uchun nafaqat ijodiy arboblarning namunalari, balki noyob bo'lgan XIX asr klassik yozuvchilarining axloqiy tajribasiga murojaat qilishni o'z ichiga oladi. A.P. Chexov ocherklarida aks ettirilgan muammolar qatorida xalq madaniyati elementlari, milliy va xorijiy uyg'unlik, dunyoning milliy manzarasi va qadriyatlar tizimi (yer, vatan, ozodlik), yashaydigan xalqlarning tabiati va hayoti bilan tanishish kabi muammolar aks ettirilgan. A.P. Chexovning ijodi XIX asrning ikkinchi yarmi rus adabiyotining eng yorqin sahifalaridan biridir. Bu yozuvchining asarlari tadqiqotchilarning ham, kitobxonlarning ham diqqatini tortadi. Olimlarning qiziqishlari A.P. Chexovning badiiy olami va poetikasining boyligi bilan asoslangan. Hatto yaxshi o'rganilgan asarlar ham yangicha badiiy-nazariy nuqtai nazardan ochiladi. Bunga A.P. Chexovning ocherklari yorqin misol bo'lishi mumkin.. Yozuvchining mashaqqatli hayot yo'li va ma'naviy

izlanish yo'li sayohat qilish va «Sibirdan» kabi asarlarni yaratish uchun asos bo'ldi.

**Kalit so'zlar:** ocherk janri, sayohat ocherki, A.P. Chexov «Sibirdan», etnografiya, etnografizm.

### FEATURES OF ETHNOGRAPHY IN THE ESSAYS OF A.P. CHEKHOV «FROM SIBERIA»

**Abstract.** The article is devoted to the study of the essay by A.P. Chekhov's "From Siberia", written more than a century ago, but still relating to the cultural and socio-political processes of Russia taking place in it. The relevance of the topic is also determined by the period of democratization that came to Russia, which includes not only examples of creative figures, but also appeal to the moral experience of classical writers of the 19th century, who were unique for their time. Among the problems that reflected in the essays of A.P. Chekhov is elements of folk culture, a combination of national and foreign, a national picture of the world and a system of values (land, homeland, freedom), acquaintance with the nature and life of the peoples who inhabit this area. Creativity of A.P. Chekhov is one of the brightest pages in Russian literature of the second half of the 19th century. The works of this writer attract the attention of both researchers and readers. Interest on the part of scientists is due to the richness of the artistic world of A.P. Chekhov, the innovative principles of his poetics. Even well-studied works are revealed from a new artistic and theoretical perspective. A striking example can be the essays of A.P. Chekhov. The writer's difficult life path and the path of spiritual search became the basis for traveling and creating such works as «From Siberia».

**Key words:** genre essay, travel essay, A.P. Chekhov «From Siberia», ethnography.

**Введение.** Очерк «Из Сибири» был опубликован в 1890 году. Произведение состоит из девяти глав и первоначально было опубликовано под разными названиями. Первые главы носили название «Из Сибири», а последние – «По Сибири». Впоследствии сам писатель остановился на названии «Из Сибири», что отражало концепцию всего путешествия А.П. Чехова, глубину проникновения в проблемы и особенности изучаемого региона. Очерк печатался в газетах («Сибирский вестник», «Восточное обозрение»), а в жанровом отношении приближался автором к эпистолярным произведениям, выражающим личные впечатления путешественника. Очерк «Из Сибири» связан с жанром путешествия, к основным чертам которого относятся достоверные сведения об изучаемых странах, народах. Описание дается в различной форме. Это могут быть заметки или дневниковые записи, очерковые или мемуарные описания. Важно и то, что путешествие не ограничивается исключительно познавательными задачами. Исследователи отмечают в путешествии эстетические и философские аспекты. Не исключается постановки политических и публицистических задач [2]. Исследователи говорят, в частности, о том, что композиционно и содержательно путешествие обязательно подчиняется концепции писателя [7].

**Методы исследования.** Методы исследования подчинены решению поставленных задач, отражают биографический, историко-функциональный, культурно-исторический подходы и представляют собой сочетание сравнительно-исторического, структурного, семантико-стилистического анализа.

**Результаты.** Интерес к жанру литературного путешествия может быть обусловлен рядом факторов. Речь идет об общественно-политических, культурных или литературных изменениях. Отличительная черта путевого очерка – связь с наукой и искусством. Документальный и статистический материал входит в

художественный мир, соединяясь с такими его составляющими, как портрет, пейзаж, интерьер, рассказчик. Отметим мысль Л.Я. Гинзбург об «эстетической организованности» документального материала, что делает последний предметом искусства [1]. Ю. Лотман и Б. Успенский считают возможным рассмотрение очерка с учетом принципов, используемых по отношению к художественному тексту [4].

Исследователь В.М. Гуминский говорит об очерке, как о гибком жанре, склонном к жанровому синтезу [2]. Наличие в структуре очерка элементов разных жанров делает его художественно и концептуально целостным. Такой эстетический баланс достигается, прежде всего тем, что автор не делает различия между научными и художественными элементами. О.М. Скибина вводит понятие «жанровой свободы» [7]. Индивидуальное восприятие и впечатления соединяются с научной информацией и объективным изложением материала. Учитываются цель путешествия и роль путешественника, что определяет и специфику повествования, часто лаконичную, но сосредоточенную на деталях [5]. А.В. Сафронов говорит о том, что для художественной документалистики характерно соединение фактов и вымысла [5].

**Результаты и обсуждения.** Обратим внимание на название очерка – «Из Сибири», подчеркивающее интерес автора к внутреннему устройству региона и личную заинтересованность в происходящем. Название «По Сибири» имеет прямое отношение к жанру путешествия и фиксирует внимание читателя на процессе путешествия или передвижения по знаменитому сибирскому тракту.

Указание на то, что информация от путешественника поступает «из» Сибири усиливает документальность, настраивает не только на восприятие новой местности, но и на правдивое изображение существующих в изучаемом регионе проблем. Важно и то, что А.П. Чехов выступает в очерке и как путешественник, и как журналист, и как этнограф, обращающий пристальное внимание на быт, традиции и языковые особенности, встречаемых им людей. Для очерка характерна формула – «Сибирь↔человек↔Россия», где интерес к человеку, его судьбе уравнивает такие полярные миры, как Сибирь и Россия. А.В. Сафронов говорит о «сверхзадаче» очерка [5]. В случае с очерком А.П. Чехова – это связь с традициями русской классической литературы, мотивами и характерами Н.В. Гоголя, Н.С. Лескова, М.Е. Салтыкова-Щедрина.

На эстетическое качество автора-повествователя в очерке влияет многообразие его функций. Он – свидетель и наблюдатель, участник и комментатор событий, собеседник и репортер, внимательный слушатель своих героев, документалист и историк, краевед и этнограф [5]. Главное для очерка – это образ путешественника, который является участником событий, не просто наблюдающим за происходящим, но вживающимся в каждую ситуацию. «Самопрезентация» заменяется у А.П. Чехова проникновением и «растворением» в происходящем [6]. Для автора-повествователя характерна общность судьбы и чувств с людьми, которых он встречает во время путешествия, вживание в их мир.

Первая глава открывается противопоставлением России и Сибири. В России «зеленеют леса и заливаются соловьи, на юге давно уже цветут акация и сирень», а в Сибири «земля бурая, леса голые, на озерах матовый лед, на берегах и в оврагах лежит еще снег» [8]. Но писатель объективен в своих суждениях и сразу выражает положительное отношение к миру животных и птиц этого края, отмечая его богатство: «Зато никогда в жизни не видал я такого множества дичи. Я вижу, как дикие утки ходят по полю, как плавают они в лужах и придорожных канавах, как

вспархивают почти у самого возка и лениво летят в березняк. Писатель испытывает грусть, видя журавлей, издающих мелодичные крики. Все это навеивает поэтические мысли: белые лебеди сравниваются с белым снегом. Грусть писателя подчеркивается и таким выражением: «Стонут всюду кулики, плачут чайки». Будучи еще в самом начале пути, автор улавливает общую атмосферу данной географической местности. Чувства автора - это не только реакция на увиденный пейзаж, но и выражение его умения войти в новую для него обстановку. Через крики журавлей, плач чаек и белоснежных лебедей он словно попадает в Россию. Художественная функция мотива плача в том, что он настраивает на следующую сцену – встречу с переселенцами. Внимание автора привлекает «мужик, не похожий на других». В 13 строк умещается история всей жизни этого героя-музыканта (за спиной у него две скрипки, завернутые в платки). «Непутевый, не степенный, хворый, чувствительный к холоду, равнодушный к водочке, робкий, всю свою жизнь прожил он лишним, ненужным человеком сначала у отца, потом у брата. Его не отделяли, не женили... Настоящий человек!» [8]. Единственное, что умеет этот мужик – играть на скрипке, заставлять людей веселиться и грустить. «А когда придет на место, станет он зябнуть от сибирского холода, зачахнет и умрет тихо, молча, так что никто не заметит» – таков бесславный конец этого человека. Тот факт, что в начале и в конце произведения речь идет о судьбе творческой личности позволяет сделать вывод о лейтмотиве творчества, который представляет интерес для А.П. Чехова как писателя и активного участника литературной, культурной и общественной жизни своего времени. В процессе повествования писатель выступает и как наблюдатель, и как свидетель, объективно оценивающий увиденное. Его высказывания лишены однозначности в оценке. При описании полной трудностей жизни бродячего музыканта и его бесславного конца писатель восклицает «Настоящий человек!», но это больше выражение отношения к музыканту окружающих, прежде всего, его родственников. Отношение самого писателя к этому переселенцу отражается в восклицании, которое завершает данный фрагмент. Описана гибель музыканта и гибель скрипок: «а его скрипки... пойдут за двугривенный чужаку-писарю или ссыльному, ребята чужака оборвут струны, сломают кобылки, нальют в нутро воды...Вернись, дядя!» [8]. В этом крике писателя заложено искреннее сострадание, желание предотвратить неизбежную гибель творческой личности. Чужая сторона и чужаки не поймут таланта этого переселенца. Пригодность творчества в суровом сибирском краю несколько раз поднимается писателем, например, в 3-й главе. Видя других ссыльных, путешественник говорит о таком качестве, как смирение, которое в глазах мужика с русой бородой смешивается с иронией. Причем смирение показано не только как качество, а как черта лица: «Лицо его выражает: «Я уже смирился». В глазах ирония, но эта ирония устремлена вовнутрь, на свою душу, на всю прошедшую жизнь, которая так жестоко обманула». Обман, который вынуждает людей покидать родные места и коренным образом менять образ жизни, писатель не раскрывает как проблему русского общества, но ее в полной мере выражает описание детей в лапотках, которые лежат в лодке на мешках с домашним скарбом и «жмутся от холодного, резкого ветра, дующего с пустынного берега Камы». Сама переправа через реку неоднократно встречается в произведении и содержит, в том числе, мифологическое значение, перехода к другой жизни, вторжение в чужеродное пространство. Такой переход описывается всегда на фоне мотива противостояния тяжелым природным условиям. Переселенцы готовы к испытаниям, в диалоге

сочетаются терпение, вера в лучшее, принятие своего положения: «Хуже не будет! – говорит он и улыбается одной только верхней губой. В ответ ему молчишь и ни о чем не спрашиваешь, но через минуту он повторяет: – Хуже не будет!– Будет хуже! – говорит с другой скамьи какой-то рыжий мужичонка-непереселенец с острым взглядом. – Будет хуже!» [8]. Антитеза в утверждениях позволяет увидеть разные грани и в определенной географической местности, и в быту, и в особенностях мышления. Автор приходит к мысли о героизме людей, которые могут «порвать навсегда с жизнью, которая кажется ненормальной, пожертвовать для этого родным краем и родным гнездом». На такое способен только «необыкновенный человек».

Следующий эпизод – переправа на пароме, во время которого раскрывается одна из главных примет сибирской жизни – рев. Понятие глубокое, охватывающее разные стороны жизни и характера человека. Представлена его полная характеристика и приведен пример поговорки: «Кричать от боли, плакать, звать на помощь, вообще звать – здесь значит реветь, и потому в Сибири ревут не только медведи, но и воробьи и мыши». «Попалась кошке – и ревет, – говорят про мышь». Писатель ревет, вместе с дедом, чтобы докричаться до паромщика на другом берегу: «Начинаем реветь. Река широкая, в потемках не видно того берега... От речной сырости стынут ноги, потом все тело... Ревем мы полчаса, час, а парома все нет. Надоедают скоро и вода, и звезды, которыми усыпано небо, и эта тяжелая, гробовая тишина» [8]. Параллельно он узнает о жизни этого человека. У него 18 детей, его родители-раскольники еще живы, а он считается молодым и «позволяет себе побаловаться – курить» [8]. Главное же – это сведения о крае, полученные во время этого разговора: «Узнаю от него, что в этой темной, суровой реке водятся стерляди, нельмы, налимы, щуки, но что ловить их некому и нечем». Суровая, но богатая природа и при этом - отсутствие рыболовного промысла – красноречиво характеризуют сферы деятельности, среди которых преобладают административные формы. Отметим, что, говоря о природе, писатель всегда объективен и точно фиксирует свои наблюдения. Это относится и к другим сторонам жизни. К речи писатель подходит с большим вниманием, стараясь узнать происхождение непонятных слов. Сцена в ожидании парома связана со словом «язва». Характерные бранные фразы: «Уплыли на ту сторону, язви их душу!», «Эй ты, язвина, что стоишь, рот разинул?». «Самая мягкая и безобидная брань у гребцов – это «чтоб тебя уязвило» или «язвина тебе в рот» – делает наблюдение писатель. – «Какая здесь желается язва, я не понял, хотя и расспрашивал». Выяснить происхождение слова писателю не удастся, но он делает выводы на основании образа жизни этих людей, большинство из которых – ссыльные, «присланные... по приговорам обществ за порочную жизнь». В деревнях им скучно, к крестьянской жизни они не приспособлены: «Лица у них испытые, истасканные, битые. А какие выражения на лицах!». Писатель с пониманием относится к озлобленности, которая является лишь последствием невыносимых и практически нечеловеческих условий при этапировании. Чтобы это понять и прочувствовать, он вглядывается в их лица, «читает по лицам». А.П. Чехов в своих наблюдениях движется от частного к общему, от мельчайших подробностей или деталей к проблемам региона и проблемам общечеловеческого характера: «А какие выражения на этих лицах! Видно, что эти люди, пока плыли сюда на арестантских баржах, скованные попарно наручниками, и пока шли этапом по тракту, ночуя в избах, где их тело невыносимо жгли клопы, одеревенели до мозга костей; а теперь, болтаясь день и ночь в холодной воде и не видя ничего, кроме голых берегов, навсегда утратили все тепло,



какое имели...»[8]. Одеревенели, утратили все тепло, превратились из людей в зверей – это все последствия холода, голода, неустроенного быта.

**Выводы.** Художественная целостность очерка может быть выражена формулой «Россия – народный умелец или философ из народа (человек) – Сибирь», благодаря которой становятся очевидными как общие черты регионов, так и ключевой ориентир для развития и возрождения Сибири.

«Из Сибири» сочетает в себе элементы художественного, путевого и этнографического очерков. Тема творчества представлена в аспекте особенностей национального характера. Речь идет о народных умельцах, труд и талант которых могут прославить государство (традиции «Левши» Н.С. Лескова), философах-самоучках и юродивых. Пейзаж в очерке играет значительную роль, так как посредством него раскрывается комплекс мифологических представлений, система отношений «человек-природа-история».

### Список использованной литературы

1. Белова, Н.М. Художественное изображение народа в русской литературе середины XIX века. / Н.М. Белова. – Саратов: Изд-во Саратовского ун-та, 1969. – С 86.
2. Гинзбург, Л.Я. О психологической прозе. /Л.Я. Гинзбург – Л., 1977. – С. 450.
3. Гуминский, В.М. Открытие мира, или Путешественники и странники. /В.М. Гуминский – М., 1987. – С. 284.
4. Гуминский В.М. Путешествие // Литературный энциклопедический словарь. – М., 1987. – С. 314-315.
5. Лотман, Ю., Успенский, Б., «Письма русского путешественника» Карамзина и их место в развитии русской культуры /Ю. Лотман, Б. Успенский // Карамзин Н. Письма русского путешественника. – Л., 1984. – С. 567.
6. Сафронов, А.В. Жанровое своеобразие русской художественной документалистики (очерк, мемуары, «лагерная» проза). /А.В. Сафронов. – Рязань, 2012. – С.127.
7. Скибина, О.М. Путевые очерки Чехова в контексте массовой литературы: проблема взаимовлияния/ О.М. Скибина /О.М. Скибина // Вопросы теории и практики журналистики. – 2015. – №4. – С. 386.
8. Скибина, О.М. Жанр путевого очерка на страницах периодики 80-90-х годов XIX века. Там же. – С. 134.
9. Чеботарева, Е.Г. Народническая беллетристика в литературном процессе 70-80-х гг. XIX века: генезис, типология: дис. ...канд. филол. наук: 10.01.01 / Чеботарева Елена Геннадьевна. – Киров, 2009. – С 26.
10. Чехов, А.П. Из Сибири / Чехов А.П. Остров Сахалин. Из путевых записок./А.П. Чехов. – Владивосток-Южно-Сахалинск, 2010. – С. 340.

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI FAOLIYATINING BARQARORLIGINI  
TA'MINLASHDA RAG'BATLANTIRISH TIZIMINING O'RNI****Axmedov Anvar Toirovich**

IIV SHXBB Bo'lim boshligi

[mcanic020@gmail.com](mailto:mcanic020@gmail.com)

ORCID: 0009-0005-5595-4797

UDK: 342.5.331.97(045)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xodimlar faoliyatining barqarorligini ta'minlashda rag'batlantirish usullaridan foydalanishning ahamiyati va bu bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy muammolar tahlil etilgan va ularning yechimi bilan bog'liq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ya'ni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri sifatida ijro etuvchi hokimiyat faoliyatining ochiqligini ta'minlash, fuqarolarimizning mazkur faoliyatga doir tegishli ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lish hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, fuqarolarimiz uchun ichki ishlar organlari faoliyatiga doir ma'lumotlarning ham ochiqligi ta'minlanishi lozim. Ichki ishlar organlari uchun nomzodlarni xizmatga tanlab olish masalasi avvaldan dolzarb hisoblangan. O'tgan vaqt davomida kadrlarni tanlash tizimida yo'l qo'yilayotgan xatolardan qilingan xulosalar hamda orttirilgan tajribalar asosida ushbu faoliyatda inson omilini imkon qadar kamaytirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan va takomillashtirishga e'tibor qaratilganligi bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** kadrlar, rag'batlantirish, ish yuklamasi, kadrlar barqarorligi, ijtimoiy himoya.

**THE ROLE OF THE INCENTIVE SYSTEM IN ENSURING THE  
STABILITY OF THE ACTIVITY OF THE EMPLOYEES OF THE INTERNAL  
AFFAIRS BODIES**

**Annotation:** In this article, the importance of the use of incentive methods in ensuring the stability of the activities of employees serving in the interior organization of the Republic of Uzbekistan and the organizational and legal problems related to this are analyzed, and suggestions and recommendations related to their solution are made. That is, one of the main goals of the reforms implemented in our country is to ensure the openness of the activities of the executive power, to have the opportunity for our citizens to receive relevant information about these activities. Consequently, it is necessary to ensure openness of information on the activities of interior organizations for our citizens. The issue of selection of candidates for interior organizations was considered urgent from the beginning. Based on the conclusions made from the mistakes made in the personnel selection system during the past time and on the basis of the gained experience, a number of normative and legal documents aimed at reducing the human factor in this activity as much as possible have been developed and it is stated that attention is focused on improvement.

**Keywords:** personnel, incentives, workload, personnel stability, social protection.

**Kirish.** Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: "Kadrlar masalasi bizning kelajagimiz, bizning ertangi kunimiz"[1], – deb bejiz ta'kidlamagan.

Haqiqatdan ham, mamlakatimizni jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, ertangi kunimiz, kelajagimiz bugun kadrlar siyosatining qay darajada to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga bog'liqdir.

Zero, kadrlarning to‘g‘ri tanlanilishi va joy-joyiga qo‘yilishi ishlab chiqarishni (amaliyotni) samarali faoliyat yuritishining kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Ichki ishlar organlari uchun nomzodlarni xizmatga tanlab olish masalasi avvaldan dolzarb hisoblangan. O‘tgan vaqt davomida kadrlarni tanlash tizimida yo‘l qo‘yilayotgan xatolardan qilingan xulosalar hamda orttirilgan tajribalar asosida ushbu faoliyatda inson omilini imkon qadar kamaytirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda va takomillashtirilib borilmoqda.

Kadrlarni tanlash bosqichi nomzodlarni har tomonlama o‘rganish jarayoni bo‘lib, ularni vazifaviy majburiyatlarni ma‘lum lavozimlarda bajarishga layoqatliligini aniqlashdan iboratdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri sifatida ijro etuvchi hokimiyat faoliyatining ochiqligini ta‘minlash, fuqarolarimizning mazkur faoliyatga doir tegishli ma‘lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo‘lish hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, fuqarolarimiz uchun ichki ishlar organlari faoliyatiga doir ma‘lumotlarning ham ochiqligi ta‘minlanishi lozim. Mazkur masalada A.M.Bobrovning “Fuqarolar nomzodlarga qo‘yiladigan talablar, huquqiy va ijtimoiy jihatdan qay darajada kafolatlar borligi haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lishi kerak”[2], – degan fikrni ta‘kidlash joiz, nazarimizda.

N.I.Razuvayeva esa kadrlarni tanlash jarayoni murakkab jarayon ekanligini va nomzodlarni quyidagi bosqichlarga bo‘lgan holda tanlash kerakligi haqida o‘zining o‘rinli fikrini bildirgan:

- 1) nomzodlarni qidirish;
- 2) nomzodlarni o‘rganish, ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini baholash;
- 3) o‘rganish natijalariga ko‘ra, nomzodlarni lavozimga tayinlash yoki ularni tanlovda ishtirok etish masalasini ko‘rib chiqish;
- 4) eng munosib nomzodlarni aniqlash uchun tanlov o‘tkazish [3].

Darhaqiqat, munosib nomzodlar, avvalo, namunali oilalardan, mahalla, o‘quv muassasalari va davlat tashkilotlaridan qidiriladi, ular har tomonlama o‘rganilgandan so‘nggina, o‘tkaziladigan tegishli tanlov mezonlariga muvofiq, kelgusida ichki ishlar organlarida xizmat o‘tashga loyiq yoki loyiq emasligi bo‘yicha xulosa qilinadi. Shu bois, ichki ishlar organlari xizmatiga nomzodlarni muvaffaqiyatli tanlab olish tanlangan izlash usuliga ham bog‘liq bo‘ladi.

Odatda ichki ishlar organlari xizmatiga nomzodlar, asosan, ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlarida berilgan e‘lonlar, tegishli davlat tashkilotlari, muassasa va korxonalarda hamda fuqarolik oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilar orasida o‘tkazilayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish orqali yoki boshqa sabablar (qarindoshlarining ichki ishlar organlarida xizmat qilishi, yoshligidan xizmat kiyimini kiyishga havas qilishi, barqaror oylik maoshi bilan ta‘minlanishi) tufayli o‘z ixtiyori bilan murojaat qilishadi.

Ichki ishlar organlarida xizmat o‘tashga tanlab qabul qilingan nomzodlar ichki ishlar organlarining xodimlari sifatida xizmatni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3413-son Qarori [4] bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq amalga oshirishadi. Mazkur Nizom 12-bob, 164-banddan iborat bo‘lib, unda ichki ishlar organlarida xizmatga qabul qilish, maxsus unvonlarni berish va ulardan mahrum qilish, lavozimga tayinlash, lavozimdan ozod etish va rotatsiya, xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xodimning boshqa davlat organlari va tashkilotlariga saylanganida (tayinlanganida, safarbar etilganida) xizmat

o'tashi, attestatsiya o'tkazish, ta'tillar, huquqiy va ijtimoiy himoya, xizmat o'tash rejimi, xizmat muddatini uzaytirish, xizmatdan bo'shatish va xizmatga tiklash va yakunlovchi qoidalar o'z ifodasini topgan.

Bizningcha, ichki ishlar organlariga tanlab olingan va xizmat o'tab kelayotgan xodimlarning faoliyatini baholovchi tegishli mezonlarni hamda ularni xizmatiga qarab rag'batlantirib borish, ularning pog'onama-pog'ona xizmat pillapoyasida ko'tarilib borishi mexanizmini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, 2021-yilda ichki ishlar organlariga xizmatga qabul qilinganlar soni 2018-yilga nisbatan ikk yarim barobar oshgan.

Mazkur ko'rsatkich aynan qaysi omillar bilan bog'liqligini aniqlash zarur. Masalan, aholi sonini oshishi, xizmat vazifalarning ko'payishi tufayli qo'shimcha ish o'rinlarining yaratilishi yoki xizmatdan bo'sh holatlarining ko'payganligi va h.k.

2018-2021-yillarda ichki ishlar organlaridan bo'shatilgan xodimlar bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilganda esa, deyarli o'zgarish yo'qligini kuzatish mumkin. Lekin, 2018-yilda ichki ishlar organlari xizmatidan bo'shatilganlar soni xizmatga qabul qilinganlarga nisbatan 58 foizga ko'p bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib esa aksincha, ichki ishlar organlariga xizmatga qabul qilinganlar soni xizmatdan bo'shatilganlarga nisbatan deyarli ikki barobarga ko'payganligini kuzatishimiz mumkin.

2021-yilda ichki ishlar organlaridan salbiy sabablarga ko'ra bo'shatilgan safdor, serjant va ofitserlar miqdori esa 2018-yilga nisbatan deyarli bir barobarga kamayganligini kuzatish mumkin.

2021-yilda ichki ishlar organlaridan shaxsiy iltimosiga ko'ra bo'shatilgan xodimlar miqdori 2018-yilga nisbatan salkam ikki barobarga ko'pligi biroz tashvishlidir.

Ichki ishlar organlarida mavjud bo'sh lavozimlarni (vakansiya) tahlil qiladigan bo'lsak, 2021-yilda bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan deyarli 10 foizga oshganligini kuzatishimiz mumkin va bu ham bizningcha biroz tashvishli masala hisoblanadi.

Shaxsiy iltimosiga ko'ra ichki ishlar organlaridan bo'shagan xodimlar ishdan bo'sh sababi sifatida quyidagilarni ko'rsatishgan:

– ichki ishlar organlari xodimlarining ish vaqti chegeralanmaganligi (O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunning 30-moddasida "Ichki ishlar organlari xodimlari ish vaqtining davomiyligi haftasiga qirq soatdan oshishi mumkin emas" deb belgilab qo'yilgan);

– xodimlar ish hajmining me'yordan oshib ketayotganligi, xizmat vazifalarining teng taqsimlanmaganligi, ularni xizmat vazifalariga kirmaydigan ishlarga ham jalb etilayotganligi (haddan ziyod xizmat safarlari, me'yoridan ortiq ishchi guruhlar tarkibida qatnashishi, daladagi mavsumiy ishlar, mahallalardagi obodonlashtirish ishlari va h.k.);

– xodimlarni xizmatiga qarab rag'batlantirish yoki jazolashning aniq mezonlari yo'qligi tufayli ayrim rahbarlarning bu borada subyektiv yondashuvi asosida noto'g'ri qarorlar qabul qilishi;

– xodim bilan rahbar o'rtasida individual psixologik muloqot yetarlicha o'rnatilmayotganligi (o'zaro kelishmovchilik);

– xizmat qilib, sog'lig'i yomonlashganligi tufayli yoki oylik maoshi yashash uchun (oila ro'zg'origa) yetarli bo'lmayotganligi va h.k.

Ichki ishlar organlarida xodimlarni barqaror tarzda xizmat olib borishlari uchun yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish bilan birga, mavjud tegishli normativ-hujjatlardagi xodimlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-qo'vvatlash kafolatlariga doir rag'batlantiruvchi qoidalarni ham amalda to'liq qo'llanishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

**Xulosa** o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ichki ishlar organlariga professional kadrlarni

tayyorlash uchun avvalo, munosib kadrlarni tanlash va sifatli tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning xizmat faoliyati barqarorligini ta'minlashda esa rag'batlantirish mexanizmlarining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi muhim hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. URL:<https://sof.uz/post/shavkat-mirziyoyev-o'zbekistonda-malakali-kadrlar-yetishmasligi-haqida-ma'lum-qildi> (Murojaat etilgan sana: 05.12.2023)
2. Bobrov A.M. Nekotoriye aspekti obespecheniya dostupa k informatsii o deyatelnosti organov vnutrennix del Rossiyskoy Federatsii // Administrativnoye pravo i protsess. 2011. № 10. S. 27.
3. Razuvayeva N.I. Podbor i attestatsiya kadrov organov vnutrennix del (administrativno-pravoviy i organizatsionniye aspekti). dis. kand. yurid. nauk Voronej, 2014. – 215 str., Upravleniye personalom : uchebnik dlya vuzov / Pod red. T.Y. Bazarova, B.L. Yeremina, 2002. S. 213.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3413-son Qarori // URL: <https://lex.uz> (Murojaat etilgan sana: 10.12.2023)
5. Ichki ishlar vazirligi ma'lumotnomasi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son Qarori bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi nizom // URL: [https://nrm.uz/contentf?doc.527509\\_&products.1\\_vse\\_zakonodatelstvo\\_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc.527509_&products.1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana) Murojaat etilgan sana: 10.12.2023).
7. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/acts/-3027843> (Murojaat etilgan sana: 10.12.2023).
8. T.S.Jumanov // Problemi podbora i rasstanovki kandidatov na slujbu v organax vnutrennix del i obespecheniye kadrovoy stabilnosti. Obshestvo i innovatsii. 4, 5/S (iyun. 2023), 128–135. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss5/S-pp128-135>.
9. O'zbekiston Respublikasining asosiy demografik ko'rsatkichlari –O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik ma'lumotlari // URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2> (Murojaat etilgan sana: 10.12.2023).
10. O'zbekiston Respublikasida bandlik va ishsizlik darajasi ko'rsatkichlari –O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik ma'lumotlari // URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2> (Murojaat etilgan sana: 10.12.2023).

## ВАЖНОСТЬ КОМПЕТЕНЦИЙ В ЛИНГВО-КОУЧИНГОВОМ ПОДХОДЕ

**Жураева Гулхаё**

PhD, старший преподаватель

Туринский политехнический университет г. Ташкента

Кафедра менеджмента, экономики и гуманитарных дисциплин,

[gjuraeva77@gmail.com](mailto:gjuraeva77@gmail.com)

ORCID: 0009-0000-9194-571X

УДК: 378.1:811.111.

**Аннотация.** В статье подчеркивается важность компетентности учителя, которая охватывает знания, навыки и умения для эффективного преподавания. Компетентный учитель обладает не только профессиональными знаниями в своей предметной области, но и способностью адаптировать инструкции под разнообразные потребности студентов. Также отмечается, что компетентность выходит за рамки аудитории и включает постоянное профессиональное развитие, сильные навыки управления аудиторией, а также эффективное общение со

студентами и другими заинтересованными сторонами. Компетентность включает в себя знания в предметной области, педагогические знания, стратегии обучения, навыки управления классом, методы оценки, коммуникативные навыки, адаптивность, культурную восприимчивость и способность создавать позитивную учебную среду. Термин означает совокупность личностных качеств людей, обусловленных опытом их деятельности в определенной социальной сфере. Статья также затрагивает тему критического мышления и мотивации как способности делать логические выводы и принимать обоснованные решения в процессе анализа и оценки информации. Кроме того, включение лингво-коучинга в групповую работу также может быть полезным, способствуя созданию благоприятной учебной атмосферы.

**Ключевые слова:** компетентность учителя, сопротивление, мотивация, решение проблем.

### THE IMPORTANCE OF COMPETENCE IN LINGUA-COACHING APPROACH

**Abstract:** The article highlights the importance of teacher competence, which encompasses knowledge, skills, and abilities for effective teaching. A competent teacher has not only professional knowledge in his subject area, but also the ability to adapt instructions to the diverse needs of students. It is also noted that competence goes beyond the classroom and includes continuous professional development, strong classroom management skills, as well as effective communication with students and other stakeholders. Competence includes domain knowledge, pedagogical knowledge, learning strategies, classroom management skills, assessment methods, communication skills, adaptability, cultural sensitivity and the ability to create a positive learning environment. The term means a set of personal qualities of people determined by their experience in a certain social sphere. The article also touches on the topic of critical thinking and motivation as the ability to draw logical conclusions and make informed decisions in the process of analyzing and evaluating information. In addition, the inclusion of language coaching in group work can also be useful, contributing to the creation of a favorable learning atmosphere.

**Key words:** teacher competence, resistance, motivation, problem solving, critical thinking.

**Введение.** Компетенции подчеркивают то, чего должны достичь инструкции во время занятий. Термин «компетентность» происходит от латинского «competentia», что означает совокупность личностных качеств людей, обусловленных опытом их деятельности в определенной социальной сфере.

Компетентность учителя относится к знаниям, навыкам и умениям, которыми должны обладать учителя для эффективного выполнения своих преподавательских обязанностей. Она охватывает широкий спектр качеств и компетенций, необходимых для успешного преподавания, в частности, знания в предметной области, педагогические знания, стратегии обучения, навыки управления классом, методы оценки, навыки общения и межличностного общения, адаптивность и гибкость, культурную восприимчивость и способность создавать позитивную среду обучения.

Компетентный преподаватель не только хорошо разбирается в своей предметной области, но и обладает способностью эффективно передавать эти знания учащимся, используя соответствующие методы обучения. Он понимает, как студенты учатся лучше всего, и способен адаптировать свои инструкции для

удовлетворения разнообразных потребностей в обучении. Кроме того, компетентный учитель обладает сильными навыками управления аудиторией для поддержания упорядоченной и продуктивной учебной среды.

Компетентность также выходит за рамки аудитории. Компетентный учитель стремится к постоянному профессиональному развитию, оставаясь в курсе текущих исследований и лучших практик в области образования. Это, например, рефлексивные практики, при помощи которых он постоянно оценивает и совершенствует свои методы обучения на основе отзывов учащихся и данных об успеваемости.

Кроме того, компетентность учителя включает в себя эффективное общение со студентами, с родителями, коллегами и другими заинтересованными сторонами, вовлеченными в образовательный процесс.

Первые исследования термина «компетентность», указанного в словаре Вебстера, появились примерно в 1956 году. Обычно под ним понимается «способность делать что-либо успешно и результативно» [1]. Однако период его применения от теории к практике в образовании относительно невелик. Термин «компетентность» был заменен термином «грамотность», который использовался в течение длительного времени, хотя это понятие определялось и интерпретировалось по-разному. В результате ограниченное понимание грамотности было признано концепцией, которая включает в себя только умение читать и писать. Во многих случаях грамотность стала соотноситься с понятием «базовых навыков», включающих аудирование, разговорную речь, чтение, письмо, навыки в математике, работе с информацией и т.д.

Считается, что термин «компетентность» был первоначально введен R.White в 1959 году в статье «Мотивация пересмотрена: Концепция компетентности» [2]. Несколько ученых пытались с различных точек зрения определить термин «компетентность», первоначально в области бизнеса. Согласно Tracey Weiss, лидеры, как правило, безуспешно борются не потому, что у них отсутствуют технические способности или знания своей работы, а скорее из-за недостатка компетентности [3].

*Критическое мышление.* Согласно D. Halpern в книге «Психология критического мышления», критическое мышление - это способность делать логические выводы и принимать единодушные решения. Более того, оно рассматривается как процесс, а не только как результат [4]. Критическое мышление остается пассивным, когда осуществляется деятельность по восприятию новых концепций, данных другими в процессе обучения. Критическое мышление будет активным, когда лингво-коуч начнет анализировать, изучать или оценивать вновь принятые концепции.

Другие ученые, такие как Richard Paul, Linda Edler, интерпретируют критическое мышление как «придание новой формы мышлению путем понимания его сильных и слабых сторон; способность и желание объективно оценивать основу хорошо доказанных причин и продолжать думать, несмотря ни на что, критическое мышление - это не чисто негативное мышление». Следовательно, критическое мышление - это система отчета или идея, в центре которой находятся выводы и оценки на основе анализа происходящих событий.

*Решение проблем* - один из утомительных и трудоемких навыков в компетенции учителей. Согласно D. Jonassen, проблема определяется как «неизвестная сущность в некоторой ситуации; поиск или решение для неизвестного должно иметь некоторую социальную, культурную или интеллектуальную ценность» [5]. А решение проблем - это целенаправленный шаг, который включает в

себя манипулирование и создание проблем в качестве мысленного примера. Кроме того, решение проблем может включать в себя решение таких вопросов, как грамматика, произношение, словарный запас, культурные различия или другие факторы, которые могут повлиять на уровень владения языком.

Необходимой частью решения проблем для преподавателей является умение определить и представить проблему и предложить ее решения. Например, исследователь С. Verkenkotter утверждает: «Писатель - это специалист по решению проблем определенного рода. «Решения» писателей будут определяться тем, как они формулируют свои проблемы, целями, которые они ставят перед собой, и средствами или планами, которые они принимают для достижения этих целей» [6]. Таким образом, в лингво-коучинге преподаватели должны помогать своим студентам в понимании и исследовании своей области, создавая короткие статьи и проводя их через практику риторических приемов. Эти действия предоставляют обучающимся различные возможности для уточнения своих навыков письма.

**Методология исследования.** *Мотивация* в лингво-коучинге играет доминирующую роль. Лингво-коуч располагает инструментами, которые помогают сделать английский язык частью жизни студента и сформировать позитивное отношение к нему. Изучение английского не должно ограничиваться сессиями, уроками или консультациями. Коуч может вдохновить студента на самостоятельный поиск информации по языку, просмотр телепередач, обучающих видеороликов, чтение статей, а затем поделиться этим с преподавателем. В мотивации важно выделить *моральную поддержку, время и контроль* как часть компетенции лингво-коуча.

*Моральная поддержка.* Функции лингво-коуча не ограничиваются простым объяснением учебного материала. На самом деле, ограниченные убеждения и психологические блоки студента вызывают трудности в понимании и применении иностранного языка. Задача коуча - помочь студенту проработать их и преодолеть. Моральная поддержка имеет решающее значение для мотивации, потому что она помогает людям чувствовать себя ободренными и признанными. Когда кто-то чувствует, что его ценят и поддерживают, он с большей вероятностью сохранит мотивацию и сосредоточится на своих целях. Лингво-коуч, который может оказать моральную поддержку, являясь позитивным образцом для подражания, предлагая похвалу и конструктивную обратную связь, может помочь людям сохранить свою мотивацию.

*Время.* Время также является важным аспектом мотивации, потому что люди часто с трудом находят время для достижения своих целей. Лингво-коуч, который понимает важность тайм-менеджмента, может помочь людям расставить приоритеты в своих задачах и найти способы выделить время для изучения языка. Однако обычно студенты жалуются на нехватку времени и лень в изучении английского языка. Действительно, у них есть время, но нет желания. Таким образом, лингво-коуч помогает найти внутреннюю мотивацию и вдохновение для использования английского языка в своей повседневной жизни.

*Контроль.* Контроль - еще один важный фактор мотивации, потому что люди должны чувствовать, что у них есть некоторый контроль над процессом. В лингво-коучинге контроль - это один из способов позитивной мотивации. Как гласит пословица, «никогда не поднимался, никогда не падал» [7], мы учимся на своих ошибках. Совершать ошибки необходимо и нормально. Задача тренера состоит в том, чтобы анализировать ошибки тех, кто работает над собой, и помогать им работать над основами самоконтроля [8].



**Обсуждения и результаты.** Компетентность учителя - это комплексное сочетание знаний, навыков, установок и поведения, которые позволяют учителям эффективно способствовать обучению и росту студентов. Она играет центральную роль в обеспечении высококачественного образования и положительно влияет на успеваемость студентов и общее развитие. Лингво-коучинг был определен как «отражение меняющихся отношений между преподавателем и учащимися» [9]. Очевидно, что лингво-коучинг может быть элементом урока, например, при постановке цели или возникновении кризисных ситуаций, включая фрустрацию или отсутствие мотивации. Перечисленные выше компетенции профессионального лингво-коуча можно рассматривать как рекомендации по выстраиванию взаимодействия со студентами, которые полностью укладываются в рамки личностно-ориентированного подхода к обучению. Более того, компетенции позволяют индивидуализировать педагогический и воспитательный процесс [10]. Следовательно, лингво-коучинг как педагогическая технология широко востребована в рамках индивидуальных занятий.

**Выводы и предложения.** Компетентность преподавателя имеет решающее значение для успешной реализации подхода лингво-коучинга. Преподаватели, обладающие глубокими теоретическими знаниями этого подхода в сочетании с отличным знанием языка, навыками межличностного общения и рефлексивной практикой, могут создать эффективную учебную среду, в которой студенты могут развивать свою коммуникативную компетентность посредством аутентичного взаимодействия с другими людьми. Кроме того, включение лингво-коучинга в групповую работу может оказаться полезным. Лингво-коуч может способствовать групповым беседам, мотивировать к активному участию и предлагать индивидуальную помощь каждому студенту. Такая методика преподавания способствует созданию благоприятной учебной атмосферы, в которой студенты чувствуют себя непринужденно и уверены в своих способностях.

#### Список использованной литературы

1. <https://www.lexico.com/definition/competence>
2. White R. W. Motivation reconsideration: The concept of competence // *Psychology Review*, V.3, No 3, 1959. –P.297.
3. Weiss T. Coaching competencies and corporate leadership. -New York: St. Lucie Press, 2003, p. 29
4. Miller W.R., Rollnick S. Motivational interviewing: Helping people change (3 rd ed.). - New York: Guilford Press, 2013. - p.33
5. Jonassen D. H. Toward a design theory of problem solving. // New York: Springer, 2000, p. 65
6. Berkenkotter C. Aspekte der Syntax-Theorie. –Frankfurt: Press,1969. –P.158.
7. Goleman D. Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ. -New York: Bantam Dell, 1995. –P. 102.
8. Nilson L. Teaching at its best: A Research-Based Resource for College Instructors. –New York: Jossey - Bass, 2010. –P. 195.
9. McMillan J., Hearn J. Student self-assessment: The key to stronger student motivation and higher achievement. // *Educational Horizons*, 2008, V. 1, 985 p. [10] Umrzokova G., Pardaeva Sh. Deve-losing teachers' professional competence and critical thinking is a key factor of increasing the quality of education // *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, V 4, № 2, 2020. –P. 70.

## MALAKALI FUTBOLCHILARNING JISMONIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH

**Ochilov Rufat**

Qarshi davlat universiteti, katta o'qituvchi  
[rufat\\_ochilov@gmail.com](mailto:rufat_ochilov@gmail.com)

ORCID: 0006-0001-7251-3576

UDK: 796.332(021)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada futbolchilarning turli yosh doirasida alohidalash usuli orqali yoshiga qarab organizmining jismoniy rivojlanish darajasi antropometrik, total va parsial o'lchovlar asosida o'rganildi hamda tizimli tahlil qilindi. O'tkazilgan tadqiqot jarayonida sportchi tana tuzilishining morfologik hamda fiziologik xususiyatlari ko'p yoki kamroq miqdorda jismoniy xususiyatlarning namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatishi va sportda eng yuqori ko'rsatkichlarga erishish borasida esa g'alabani ta'minlash uchun hal qiluvchi omil vazifasini bajarishi ham aniqlandi. Shu sababli sport mutaxassislari sportchining individual, ko'pincha, yoshiga bog'liq xususiyatlari, va tanlangan sport turiga bog'liq holda sportchini ratsional hamda individual maqsadga muvofiq holda tayyorlanishiga ahamiyat beradilar. Tadqiqot jarayonida yosh futbolchilarni mashg'ulotlarning umumiy va maxsus vositalari yordamida kasbiy ko'nikmalarini, jismoniy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, har tomonlama yetuk, sog'lom, sportchi bo'lib yetishishlarida futbol sport turining ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** futbol, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, antropometrik o'lchovlar, tananing parsial va total o'lchovlari, kasbiy ko'nikmalar.

## EVALUATION OF PHYSICAL DEVELOPMENT LEVEL OF SKILLED FOOTBALL PLAYERS

**Abstract:** In this article, the level of physical development of the players' bodies depending on their age was studied on the basis of anthropometric, total and partial measurements and systematically analyzed by the method of separating them into different age groups. In the course of the research, the morphological and physiological characteristics of the athlete's body structure have a greater or lesser effect on the manifestation of physical characteristics and are a decisive factor for achieving the highest performance in sports. It was also determined that it will perform its task. Therefore, sports experts attach importance to the rational and individual training of the athlete, depending on the individual, often age-related characteristics, and the chosen sport. In the course of the research, information is given about the importance of football in helping young football players to develop their professional skills, physical and personal qualities, and to become mature, healthy, sportsmen with the help of general and special means of training.

**Key words:** football, physical development, physical fitness, physical qualities, anthropometric measurements, partial and total measurements of the body, professional skills.

**Kirish.** Jahonda futbol bilan shug'ullanuvchi sportchilarni tayyorlash va ularni saralab olish tizimini yangi innovatsion yondashuvlar asosida zamon talablariga moslashtirish yuzasidan keng ko'lamlı tadqiqot ishlari amalga oshirilmogda. Xalqaro futbol federatsiyasi tomonidan o'yin qoidalariga kiritilgan yangiliklar asosida futbolchilarni tayyorgarlik turlari bo'yicha saralashning yangi talablarini ishlab chiqish, jismoniy va texnik imkoniyatlarini takomillash-tirish, oliy sport yutuqlariga erishishgacha

bo'lgan barcha bosqichlarni boshqarishning tashkiliy va uslubiy jihatdan samaradorligini oshirish bilan bog'liq izlanishlar olib borilmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, futbolchilarni saralab olishda ularning jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash hamda tayyorgarlik tizimini rivojlantirishga qaratilgan muammolar ilmiy asoslangan yondashuvlarni talab qilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan Respublikamiz ta'lim tizimida yuqori malakali mutaxas-sislarni tayyorlashda ularning asosiy kasbiy faoliyati turlari tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish vazifalari ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab berilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi zamonaviy har tomonlama rivojlangan futbol mashg'ulot jarayonida yuklamalarni hajmi va intensivligi oshib borishi va raqobatbardoshlikni kuchayishi bilan tavsiflanadi, bu esa yuqori darajadagi stresslarga olib keladi, natijada, oliy yutuqlarni "qiymati" ko'pincha salomatlik darajasi me'yor holatdan patologik holatga o'tishi bilan o'lchanadi. Shuni hisobga olgan holda, sportchining raqobatbardoshlik qobiliyatini yuqori darajada saqlay olishi uchun sportchilarning ruhiy-funksional tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Sportchilarning hozirgi zamon funksional tayyorgarligi nafaqat o'zining xilma-xilligi, hajmi, intensivligi bilan, balki katta hajmdagi jismoniy yuklamalarni o'zgaruvchanligi va qo'llaniladigan uslublari bilan ham farqlanadi. To'g'ri tashkil etilgan funksional tayyorlovda, birinchi navbatda futbolchi va jamoaning individual xususiyatlari, texnik tayyorlovining zaif va yetakchi tomonlari hisobga olinadi [1].

Asosiy masalalardan biri bu funksional tayyorgarlikning turli tarkibiy qismlarining maqbul darajasi va mos nisbatini aniqlash – uning struktura masalasidir. Bu tayyorgarlik jarayonida barcha tomonlarning rivojlanishini maksimal darajada oshirish uchun harakat qilishning hojati yo'qligini tushunish bilan belgilanadi. Optimallashtirish o'yin talablarining o'ziga xos xususiyatlariga (o'yinning ixtisosligini albatta hisobga olgan holda) va individual xususiyatlarga, futbolchilarni tayyorgarligining u yoki bu tomonini ishlatishga moyilligiga asoslangan bo'lishi mumkin [2]. Futbolda oliy liga jamoalari uchun yosh zaxiralarni tayyorlash dolzarb muammo bo'lib, ilmiy tasdiqlangan tizimga asoslanishi lozim. Malakali futbolchilarni tayyorlashda nafaqat tajriba dasturlarni ishlab chiqarish, balki tayyorgarlikning har tomonlama nazorat etuvchi dasturlarni ishlab chiqarish va aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish – asosiy muammodir [4].

Bir qator mutaxassis olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra sportchining jismoniy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omillar qo'yidagilardir: tana tuzilishi, bir qator morfologik belgilar, energetik imkoniyatlar, tezkorlik va kuchlilik sifat ko'rsatkichlari, nasliy belgilar, sport tanlovi va boshqalarni sanab o'tgan [1].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, yosh futbolchilarning tayyorlash sifatini sport ixtisosligi vositalari yordamida oshirish kam o'rganilgan muammolardan biri bo'lib qolmoqda: ularning o'quv faoliyati natijadorligini belgilab beruvchi ustuvor ko'nikma va malakalarni, shaxsiy sifatlarini shakllantirish, harakat va texnik tayyorgarlik darajasini oshirish masalalari yetarlicha to'liq yoritilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Biz o'tkazgan tadqiqotda adabiyotlar tahlili, pedagog kuzatuv, jismoniy tayyorgarlikni pedagogik testlash, pedagogik tajriba, antropometriya hamda matematik statistika usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishning maqsad va vazifalarining amaliy hamda ilmiy asoslanganligi, muallifning dastlabki uslubiy pozitsiyalarining mantiqiyliqi, pedagogik tadqiqotlarning turli usullari yordamida olingan ma'lumotlarning qiyosiy tahlili, haqiqiy amaliy faoliyatning maqsadli tahlil qilinganligi, gipotezaning aniq nazariy va amaliy natijalar bilan tasdiqlanganligi,

natijalarning ishonchliligi empirik ma'lumotlarni olishning fanda qabul qilingan usullaridan, natijalarni qayta ishlashning umume'tirof etilgan statistik usullaridan foydalanganlik va tanlovning kengligi bilan ta'minlangan.

**Tahlil va natijalar.** Futbol sohasida sport tayyorgarligining mukammallashib borishi tufayli yutuqlar darajasi va rivojlanishning jadal ravishda o'sib borishi sportchilar bilan mash-g'ulot olib borishning yangidan-yangi samarali uslublarini izlash va yaratishni talab qilmoqda. Futbolchilarning rivojlanishida asosiy o'rinni morfo-funksional ko'rsatkichlar egallaydi, ular 80% hollarda nasliy jihatdan belgilangan bo'lib, sportda ishchanlikni va qator jismoniy xususiyatlarning ro'yobga chiqishi chegaralarini belgilaydi. Sportchi tana tuzilishining morfologik xususiyatlari ko'p yoki kamroq miqdorda jismoniy xususiyatlarning namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi va sportda eng yuqori ko'rsatkichlarga erishish borasida esa g'alabani ta'minlash uchun hal qiluvchi omil vazifasini bajaradi. Shu sababli sport mutaxassislari sportchining individual, ko'pincha, yoshiga bog'liq xususiyatlari, va tanlangan sport turiga bog'liq holda sportchini ratsional (maqsadga muvofiq holda) tayyorlanishiga ahamiyat beradilar. Yuqorida qayd qilinganlar asosida xulosa qilish mumkinki, erta "tanlovni" amalga oshirish yangidan-yangi tadqiqotlar o'tkazilishini taqozo etadi, yangi tadqiqotlar bolalar va o'smirlarning tanlangan sport turida yuqori ko'rsatkichlarga erishishini ta'minlaydigan kompleks baholash uslublarini yaratib borishni talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz malakali 15-17 yoshli futbolchilarning jismoniy rivojlanganlik darajasini o'rganib chiqdik.

Tadqiqot obyekti sifatida 36 nafar malakali futbolchilar tanlab olindi. Yosh futbolchilarning jismoniy rivojlanganlik darajasi ular tanasining total va parsial o'lchamlarini o'z ichiga olgan antropometrik uslub asosida baholandi. Tadqiqotlar 2022-yilning oktabr oyida Qarshi «Nasaf» futbol akademiyasida amalga oshirildi.

Quyidagi 1-jadvalda futbolchilarning tana uzunligi va vaznining o'sish dinamikasi vazn – bo'yi ideksi (VBI) bilan tasdiqlanadi.

1-jadval

**15-17 yoshli futbolchilarning antropometrik ko'rsatkichlarining rivojlanish darajasi**

(«Nasaf» futbol akademiyasi (n=36))

№	Antropometrik parametrlar	15 yosh (n=12)	16 yosh (n=12)	O'sishi % da	17 yosh (n=12)	O'sishi % da
1.	Vazn/bo'yi indeksi (sm/kg)	345,74±37,19	366,39±40,27	5,97	386,49±30,35	5,48
2.	Ko'krak qafasining aylanasi sm.	81,9±4,77	84,9±4,15	3,66	87,3±5,7	2,82
3.	Qo'l uzunligi	75,8±3,83	77,4±4,71	2,11	81,2±2,84	4,94
4.	Oyoq uzunligi	93,0±4,62	94,8±7,63	1,91	98,6±4,48	4,12
5.	Son uzunligi	46,13±2,85	48,4±4,36	4,94	49,43±3,65	2,11
6.	Boldir uzunligi	41,7±2,08	42,0±3,01	0,73	45,1±2,73	7,42
7.	Yelka kengligi	36,2±2,79	37,0±2,39	2,24	37,7±4,67	1,90
8.	Tos kengligi	26,8±1,28	26,9±2,19	0,43	29,2±1,62	8,55
9.	Ko'krak qafasining ko'ndalang o'rtaligi (sm)	27,0±1,86	27,2±1,16	0,72	28,4±1,89	4,43
10.	Yelka aylanasi	26,15±2,45	28,2±2,07	7,81	28,6±3,7	1,41
11.	Yelka oldi aylanasi	23,9±2,12	25,1±1,71	5,34	25,91±2,38	3,27
12.	Son aylanasi	49,8±3,37	52,15±3,5	4,73	52,91±4,32	1,40
13.	Boldir aylanasi	33,7±2,49	35,5±2,03	5,31	36,01±2,39	1,42
14.	Qorindaga yog'ning o'rtacha qatlamining qalinligi	5,3±2,24	6,7±2,64	6,43	5,5±2,62	-7,91

Futbolchilarda 15 yoshga kelib VBI 345,74±37,19 ko'rsatkichga teng bo'lsa, 16

yoshda  $366,39 \pm 40,27$  ni, 17 yoshda esa  $386,49 \pm 30,35$  ni tashkil qiladi va jadvalda individual rivojlanish jarayonida ko'rsatkichlarning o'sish darajasi keltirilgan. Tananing parsial ko'rsatkichlari orasida tanlangan sport mutaxassisliga xos ravishda oyoqlar segmentlarining uzunlik o'lchovlari ahamiyatlidir, chunki futbolda aksentlashgan yuklamalar aynan shu segmentlariga tushadi. 15 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan davrda oyoqlarning uzunligi 1,91% ga ortsa, 16 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan davrda esa bu o'sish 4,12% ni tashkil qiladi. Qo'llarning uzunligi 15 yoshdan va 16 yoshgacha davrda aylana belgilarda yuqori darajali o'sish kuzatildi. Masalan, yelka aylanasi – 7,81% yelka oldi aylanasi 5,34%, boldir aylanasi 5,31%, yog' qatlamni ortishi 6,43% tashkil etdi. Yog'ni ortishi – salbiy belgi bo'lib futbolchilarda 15 va 16 yosh orasida ortadi, 16 va 17 yosh oralig'ida esa aksincha – 7,91% kamayadi. Sonlarning aylanma o'lchovlari ham shunga o'xshash: 16 yoshga kelib 4,73% ni, 17 yoshga kelib esa 1,40% ni tashkil qildi. Boldirlarning aylanma o'lchovlari ko'rsatkichlarining kattalashishi 16 yoshga kelib 5,31% ni tashkil qilsa, 17 yoshga kelib 1,42% ga kamaygani ko'rildi. Tos suyagining ko'ndalang o'lchamining o'sishi, ayniqsa, diqqatga sazovordir: 16 yoshga kelib ko'rsatkich – 0,43% ga ortsa, 17 yoshga kelib uning o'sishi 8,55% ni tashkil qildi. Ko'krakning ko'ndalang o'lchovining ko'rsatkichi 16 yoshga kelib atigi 0,72% ga ortgan, 17 yoshga kelib esa ko'rsatkichning ortishi 4,43% ni tashkil qilgan.

Umuman aytganda, 15 yosh bilan 16 yosh orasida yelkaning aylanma o'lchovi ko'rsatkichining ortishi 16 yoshga kelib 7,81% tashkil qilgan bo'lsa, 17 yoshga chiqqanda esa ko'rsatkichning biroz pasayishi aniqlandi. 16 yoshdan 17 yoshga chiqqanda qorindagi yog' qatlamining qalinligi (-7,91% ) kamayishi kuzatildi. Bu ijobiy ko'rsatkich bo'lib, futbolchilar-ning jismoniy rivojlanishi yetuk darajaga yetishgani haqida dalolat beradi. Jismoniy rivojlanish dinamikasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, futbol bilan shug'ullanuvchi 15-16 yoshli o'spirin sportchilarning antropometrik ko'rsatkichlari ular bilan bir xil sharoitda bo'lgan va sportchi bo'lmagan tengdoshlarinikidan sezilarli yuqori ekan. Yosh kattalashgan sari bu farq ham yuqoriroq bo'lib boradi.

Izlanishlar natijalariga ko'ra futbolchilarning tana og'irligi va tana uzunligi kabi antropometrik ko'rsatkichlari mashg'ulotlar ta'siri ostida o'zgaruvchan bo'lib, har bir sportchining maxsuslashgan xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Maktab bolalarinikidan farqli yosh futbolchilarda antropometrik ko'rsatkichlarning jadal o'sish jarayoni ancha oldin boshlanishi tadqiqotda aniqlandi. Yosh futbolchilarda tana massasining eng ko'p oshishi 16 va 17 yoshlarga to'g'ri keladi, bu esa o'g'il bolalar vaznining ikkinchi keskin o'sishiga mos keladi.

Futbolchilarda 15 yoshdan 16 yoshgacha tana uzunligining ortish ko'rsatkichi yiliga turg'un holda 3-4 sm.ni tashkil qiladi. Agar 15 yoshli maktab o'quvchilarining tana uzunligi 165 sm.ni tashkil qilsa, bu yoshli yosh futbolchilarda bu ko'rsatkich  $169,5 \pm 5,74$  sm.ni, 16 yoshda esa  $172,5 \pm 9,37$  sm.ni va 17 yoshda  $180,8 \pm 8,53$  sm.ni tashkil qiladi. Pubertat davridagi tana uzunligining keskin o'sishi tana massasining keskin o'sishiga hamohang bo'ladi: bu borada ham keskin o'sish kuzatiladi – 15 yoshda tana massasi  $59,7 \pm 7,38$  kg.ni, 16 yoshda –  $63,9 \pm 9,92$  kg.ni tashkil qilsa, 17 yoshda esa  $69,7 \pm 7,83$  kg.ga yetadi. Keltirilgan ko'rsatkichlar o'sish jarayonining va skeletning morfologik yangilanishi nasliy belgilanganligini ko'rsatadi, bu holat B.A. Nikityuk tomonidan 1989-yilda olingan tajribaviy ko'rsatkichlarga mos keladi. Mualliflarning ilmiy adabiyotlarda keltirilgan dalillariga ko'ra o'g'il bolalarda o'spirinlik davrida endi jinsiy yetilish davri boshlansa, qiz bolalarda esa bu jarayon oldingi davrda boshlangan bo'ladi. Bu davrga kelib tana barcha o'lchovlarining o'sishi davom etib "pubertat sakrash" tusini oladi. O'sish tezligi, ayniqsa, o'g'il bolalarda tez ro'y beradi va o'spirinlik davrida o'lchovlar oxirgi davrdagining 90-97% ni tashkil qiladi.

Tadqiqot natijasida aniqlanishiga ko'ra, antropometrik ko'rsatkichlardan bo'lmish tananing vazni va uzunligi ko'proq mashqlar ta'sirida o'zgaruvchanlikka ega va har bir sportchining spetsifik xususiyatlarini belgilaydi. Yosh futbolchilarda asosiy antropometrik ko'rsatkichlar intensiv o'sish davriga kirishib, shu bilan maktab o'quvchilaridan farqlanadilar. Biz o'tkazgan tadqiqotlarda aniqlanishicha, futbolchilar vaznining maksimal ortishi 16 va 17 yoshli davrga to'g'ri keladi, bu o'g'il bolalarda vaqtiga binoan ikkinchi "sakrab" o'sish davriga to'g'ri keladi, qiz bolalarda esa "sakrab" o'sish 15 va 16 yoshlarga to'g'ri keladi. Tana vaznining o'sish davri tana uzunligining o'sish davriga mos keladi. Maktabda o'quvchi 15 yoshli bolalarning bo'yi 165 sm tashkil qilsa, shu yoshdagi futbolchilarning bo'yi  $169,5 \pm 5,74$  sm.ga yetadi, 16 yoshli futbolchilarning bo'yi  $172,5 \pm 9,37$  sm.ga yetadi. Sportchilarning bo'yida yuz beradigan pubertat sakrab o'sish tana vaznida ham bir xil tendensiyani saqlaydi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, sportchilarning morfologik ko'rsatkichlari sportchilar tayyorlash tizimini boshqarishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi, sportchilarning umumiy morfologik belgilarini aniqlashda quyidagi belgilardan foydalanilsa bo'ladi: tananing vazni va uzunligi, vazn-bo'yi indeksi – bular birgalikda sportchilarning tana tuzilishini baholashga asos bo'ladi. 15-17 yoshli sportchilarda muhim morfofunksional tizimlarning shakllanish jarayoni asosan tugatilishini inobatga olib, shu yoshli sportchilarda antropometrik izlanishlarni to'liq me'yorda o'tkazdik, ko'rsatkichlarni tananing total o'lchamlari bilan bir qatorda parsial belgilar asosida ham tahlil qilib o'tdik. Bu barcha belgilar nafaqat futbol sport turida, balki boshqa sport turlarining mashg'ulot jarayonida qo'llanilganda ham sportchilarning rivojlanish darajasini aniqlashga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Тюленьков С.Ю. Теоретико-методические аспекты управления подготовкой высококвалифицированных футболистов: автореф. дис. д-ра пед. наук. М., 1996. – С.54.
2. Пшибыльски, В. Требования к физической подготовленности футболистов, определяемые современными тенденциями развития футбола / В. Пшибыльски // Актуальные проблемы физической культуры и спорта. – 2004. – № 4. – С.46–52.
3. Сучилин А.А. – Система подготовки футбольного резерва. Волгоград, 1981. –С. 122-126.
4. Ro'ziqulov B. B. Turli o'yin amplusiga qarab yosh futbolchilarni antropogenetik mezonlari va jismoniy tayyorgarligi asosida istiqbolini bashoratlash. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)...diss.avtoref.-Chirchiq: "IMPRESS MEDIA" MCHJ bosmaxonasi, 2023. –B. 64.
5. Pulatov A.A. Yosh voleybolchilar tezkorlik-kuch sifatlarini shakllantirish uslubiyati. // Uslubiy qo'llanma. –T., 2008. – B.38.
6. Шамардин А.И. Функциональная подготовка футболистов. М., 2000. –С. 152.
7. Шамардин А.И. Оптимизация функциональной подготовленности футболистов. М., 2000. – С.276.
8. Сафарова Д.Д. Спортивная морфология.Тошкент:"Илмий техника ахборот пресс нашриёти", 2021. – С.248.

## O'QITUVCHILARNING INFOKOMMUNIKATSION FAOLIYATINI OSHIRISHDA GOOGLE DRIVE NING IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

**Kurbonov Zafar Mamanazarovich**

Qarshi davlat universiteti, dotsent

[zafar-kurbanov-72@mail.ru](mailto:zafar-kurbanov-72@mail.ru)

ORCID: 0000-0002-0690-3206

UDK: 681.142.37

**Annotatsiya:** Bulutli texnologiya barcha rivojlangan mamlakatlarda faol qo'llaniladi. Ular biznes, boshqaruv, ta'lim va tadqiqot uchun mutlaqo yangi, tejamkor imkoniyatlarni taklif etadi. Hozirgi vaqtda axborotning tez o'zgarishi bilim, shaxsning o'sishi va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun asos yaratadi. Shu bois, bugungi kunda bulutli texnologiyalarni o'rganish va ishimizda qo'llash juda muhim hisoblanadi. Ta'limda yangi axborot texnologiyalarini qo'llashning dolzarbligi shundaki, ular nafaqat individual pedagogik muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan vositalar, balki o'rganish uchun sifat jihatidan yangi imkoniyatlar yaratadi. Mustaqil ta'lim faoliyati ko'nikmalarini shakllantiradi, rag'batlantiradi. Didaktika va metodlarni ishlab chiqish, ta'lim va tarbiyaning yangi shakllarini yaratishga hissa qo'shish funksiyalarini bajaradi. Mavzuni yoritish davomida o'qituvchi va talabalar uchun, umuman, ta'lim sohasida bulut texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini ham, o'qituvchining ish sur'atini ham, talabaning bilim saviyasini ham oshirishga xizmat qilishini yoritib berishga harakat qildik.

**Kalit so'zlar:** bulutli texnologiyalar, bulutli hisoblashlar, infokommunikatsiya, IaaS, PaaS, SaaS, Google Disk

## USING THE OPPORTUNITIES OF GOOGLE DRIVE IN IMPROVING THE INFOCOMMUNICATION ACTIVITY OF TEACHERS

**Abstract:** Cloud technology is actively used in all developed countries. They offer completely new, cost-effective opportunities for business, management, education and research. Currently, the rapid change of information creates a basis for knowledge, personal growth and successful implementation of professional activity. Therefore, today it is very important to learn cloud technologies and use them in our work. The relevance of using new information technologies in education lies in the fact that they are not only tools for solving individual pedagogical problems, but also create qualitatively new learning opportunities. Forms and stimulates skills of independent learning activities. It performs the functions of developing didactics and methodology, contributing to the creation of new forms of training and education. While covering the topic, we tried to clarify that the use of cloud technologies in education for teachers and students in general serves to improve the quality of education, the pace of the teacher's work and the level of knowledge of students.

**Keywords:** cloud technologies, cloud computing, info communication, IaaS, PaaS, SaaS, Google Drive.

**Kirish (Introduction).** Maqolamizning asosiy qismini boshlashdan oldin Infokommunikatsiya tushunchasiga to'xtalib o'tsak. Infokommunikatsiya – bu iqtisodiyotning yangi tarmog'i bo'lib, u butun axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari sifatida rivojlanmoqda. Axborot kommunikatsiyalarida aloqa texnologiyalari har xil xarakterdagi axborotni ixtiyoriy masofalarga uzatish vositasi sifatida qo'llaniladi.

Ilgari telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari alohida, bir-biridan mustaqil ravishda rivojlangan. Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish o'z biznesini ovoqli

trafikni sotish asosida qurgan aloqa operatorlari deb ataladigan tashkilotlar bilan uzviy bog‘liq edi. Axborot texnologiyalari, o‘z navbatida, mustaqil ravishda rivojlandi va dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish bilan bog‘liq edi.

Biroq, raqamli texnologiyalarning bosqichma-bosqich rivojlanishi ma‘lumotlarni tezkor almashish uchun kompyuterlarni kichik lokal tarmoqlarga birlashtira boshlashga olib keldi. Ularda ixtisoslashgan kuchli kompyuterlar paydo bo‘la boshladi. Ya‘ni, tarmoq kompyuterlari segmentlana boshladi, hal qilinadigan vazifalar doirasi kengaydi. Bu, o‘z navbatida, tarmoq texnologiyalarining rivojlanishiga yordam berdi, chunki ishonchli yuqori tezlikda uzatish tizimlariga ehtiyoj ortdi [1].

Telekommunikatsiyaning kelajagi tarmoq ilovalari asosida qurilgan xizmatlarning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Eng ilg‘or aloqa kompaniyalari – uyali aloqa operatorlari o‘z bizneslarida dasturiy echimlardan keng foydalanmoqdalar. Bu ularga ko‘rsatilayotgan xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va foydani oshirish imkonini beradi.


Telekommunikatsiya va axborot texnologiyalarini yagona tarmoq – infokommunikatsiyalar tarmog‘iga integratsiyalashuvi telekommunikatsiya tarmog‘ini rivojlantirishga va uning negizida global axborot xizmatlari sonini kengaytirishga yo‘naltirilgan global tendensiyadir.

Kelgusi yillarda infokommunikatsiyalar atamasi keng tarqalgan bo‘lib qoladi, chunki teleko-mmunikatsiya va axborot texnologiyalari biznesning asosini tashkil etuvchi har qanday miqyosdagi hududlarni qamrab oladigan tarmoq xizmatlarini ko‘rsatishga yo‘naltirilgan kompaniyalar soni ortadi [2].

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonining har bir tarkibiy qismi zarur va ta‘lim standartida talab qilinadigan qoidalarga muvofiq bo‘lishi kerakligini tushunish juda muhimdir. O‘qituvchi va talaba darsning asosini tashkil etuvchi ajralmas ishtirokchilardir. An‘anaviy ta‘lim o‘qituv-chining bilim manbayi, barcha o‘quvchilarga ibrat bo‘lganligini anglatadi. Ammo, endi o‘qituv-chilarning roli o‘zgardi, ular katta hajmdagi ma‘lumotlar orasida koordinatorga aylanishdi [2].

Zamonaviy o‘qituvchi – bu talabalarga hamkorlik qilish, yuzaga keladigan muammolarni hal qilish, o‘rganish ko‘nikmalarini egallash uchun AKT vositalaridan foydalanishga yordam beradigan o‘qituvchidir. Shu munosabat bilan o‘qituvchilarning o‘zlari davlat ta‘lim standartida aks ettirilgan AKT kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlariga ega bo‘lishi kerak. O‘qituvchining infokommunikatsion faoliyatini oshirishda bulutli texnologiyalarning roli beqiyos hisoblanadi. Biz bu maqolamizda o‘qituvchining infokommunikatsion faoliyatini oshirishda Google Drivening ba‘zi bir imkoniyatlari haqida ma‘lumotlar berishga harakat qilamiz [4].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Google Drive yordamida Bulutli texnologiyalar mavzusi haqida ma‘lumotlar beruvchi sayt yaratishga harakat qilamiz. Buning uchun Veb brovzer orqali <https://drive.google.com> ushbu saytga kiramiz [4].




Natijada quyidagi oyna hosil bo‘ladi:




Bu oynadan **Try Drive for Work** tugmasini bosamiz. Hosil bo‘lgan oynadan “Sites” bo‘limini tanlaymiz.

Keyingi ochilgan oynadan “Get started” tugmachasini bosamiz.



Ushbu oynaga ma'lumotlarni o'zimizning talablarimizdan kelib chiqqan holda to'ldiramiz. Misol uchun 1- nom, 2-o'ziz uchun bo'ladigan bo'lsa “Just you”ni aks holda pastdagilardan birini tanlaymiz.


Tizimga kirgandan so'ng “New” bo'limni tanlaymiz va ro'yxat chiqadi. Ro'yxatdan “More” ni tanlasangiz yana bir ro'yxat paydo bo'ladi, undan Google Sites tanlanadi. Shundan so'ng bizga ishchi oynasi ochiladi. Ko'rib turganingizdek, o'rtada biz yaratmoqchi bo'lgan site ko'rinishi uning o'ng tarafida biz foydalanishimiz mumkin bo'lgan panel bor.



Bu yerda:

1. 1.Siz yaratgan saytlar bo'limiga o'tish.
2. 2.Sayt dokument nomi.
3. Sayt nomi va uning logosi qo'yiladigan joy.
4. 1 qadam ortga qaytish.
5. 1 qadam oldinga.
6. Saytni turli xil qurilmalarda ko'rinishini tekshirish.
7. Sayt manzilini boshqalarga ulashish.
8. Ushbu ish oynasiga boshqalarni taklif qilish.
9. Sozlamalar bo'limi.

Navigation orqali sahifamizni header menyu qismini rangini o'zgartirish va ko'rinish turini o'zgartirishimiz mumkin.




Brand images orqali icon va logotiplarni o'zgartirishimiz mumkin.

Custom domain orqali saytimizga o'zimizda mavjud domainni biriktirish amalga oshiriladi. Publish saytimizni boshqalar ko'ra oladigan qilish imkonini beradi.

Biz yuqoridagilar orqali sayt yaratish bo'yicha ba'zi bir tushunchalar bilan tanishtirib chiqdik. Endi loyihani boshlaymiz [6].

1. Biz saytmizni titlega "Infocommunication" deb yozish uchun ko'rsatilgandek tahrirlash yetarli.

2. Sayt nomini yozish va unga logotip yuklash uchun quyidagi rasmda ko'rsatilgan qismga murojaat qilish kerak.




Sahifani yuqori qismiga testlar menyusini qo'shishimiz uchun pages bo'limiga o'tib + belgini ustiga bosamiz.


Bizda testlar bir nechta bo'lgani uchun "New menu section" ni tanlaymiz.

Asosiy sahifamizning titlega matn yozamiz buning uchun titleni ustiga bosib hohlagan matnni yozish yetarli. Matn yuqorisiga qarasangiz matnni o'zizga hohlagandek tahrirlashingiz mumkin, huddi wordda matnlarni tahrirlagandek ularni tahrirlasangiz

bo'ladı.



Shuningdek biz bu yerdagi rasmni ham o'zgartirishimiz mumkin. Rasmni o'zimizning tanlovimizdan kelib chiqqan holda kompyuterimizdan yoki [drive.google.com](https://drive.google.com) dagi rasmlarimizdan yuklashimiz mumkin.



Biz yuqoridagi ko'rsatib o'tigan Text box, Images, Embed, Drive, Content blocks kabilardan foydalangan holda o'z sahifamizni tahrirlashimiz mumkin. Text box sahifaga matn kiritish

Images rasmlar yuklash


Embed turli xil html kodlaridan foydalanishimiz

Drive biz foydalanayotgan google cloud servislaridan foydalanishimiz Content blocks esa o'zingiz ko'rib turganingizdek bizga turli xil bloklarni hosil qilishimiz uchun xizmat qiladi.

Text box orqali "Bulutli texnologiyalarning tasnifi" matnini sahifamizga kiritamiz. Buning uchun biz Text box ni ustiga bosishimiz orqali bizga matn kiritishimiz uchun joy ochiladi va unga kerakli matn kiritamiz.


Biz keyinchalik ham bu matnni tahrirlashimiz mumkin. Buning uchun shunchaki o'sha matn ustiga bosish yetarli va o'zimiz xohlagan matnni kiritamiz.

Yuqorida ko'rsatilgan uskunalar orqali matnning ko'rinishini, shriftini, o'lchamlarini, joylashuvini va shu kabi bir qancha amallarni bajarishingiz mumkin. Bu qismni olib tashlash kerak bo'lsa, delete tugmasini bosish orqali matn bo'limini olib tashlashimiz mumkin.



Content boxdan foydalangan holda sahifamizga blok joylaymiz. Buning uchun o'ng tomondagi paneldan Content box bo'limida ko'rsatib o'tilgan shakllardan o'zimizga ma'qul bo'lgan variantni tanlab ustiga bosamiz va u sahifamizga o'tadi, uning rasm qismiga rasm, sarlavha qismiga sarlavha matnini va ma'lumot kiritiladigan matn qismiga matn kiritamiz.


Har bir sahifada Foter qism bo'lganidek biz ham sahifamizga footer qism qo'shamiz. Buning uchun biz sichqonchani sahifaning pastki qismiga tushirish orqali "Add Foter" topamiz va uning ustiga bosamiz.





Uning ustiga bosishimiz orqali bizga yangi oyna ochiladi. Bu yerga kerakli matn kiritamiz.



Content blockdan foydalangan holda sahifaga ma'lumotlar qo'shamiz.



Sahifaga ma'lumotlar kiritishimiz kerak. Buning uchun biz tayyor shablonlardan foydalanamiz. Buning uchun Content blocks dan o'zimizga kerakli shablonni tanlaymiz va ma'lumotlar bilan to'ldiramiz.




Uchta qatlamni tasvirlash uchun yuqoridagi rasmdagi kabi, content blockdan kerakli bo'limni tanlab rasm qismini olib tashlaymiz va kerakli ma'lumotlar bilan to'ldiramiz.

<p><b>Infratuzilma xizmat sifatida (IaaS)</b></p> <p>Ijara uchun infratuzilma. Foydalanuvchiga noyob IP-manzil yoki manzillar to'plami va saqlash tizimining bir qismi bo'lgan virtual serverning "toza" nusxasi taqdim etiladi. Parametrlarni boshqarish, ushbu misolni ishga tushirish va to'xtatish uchun provayder foydalanuvchiga dasturlash interfeysi (API) beradi.</p>	<p><b>Platforma xizmat sifatida (PaaS)</b></p> <p>PaaSni operatsion tizimlar va maxsus ilovalar o'rnatilgan bir yoki bir nechta virtual serverlardan tashkil topgan kalit topshirilgan virtual platforma sifatida ko'rish mumkin. Aksariyat bulutli provayderlar foydalanuvchiga turli xil foydalanishga tayyor bulutli muhitlarni tanlashni taklif qiladi.</p>	<p><b>Xizmat sifatida dasturiy ta'minot (SaaS)</b></p> <p>SaaS kontseptsiyasi dasturiy ta'minotdan xizmat sifatida foydalanish va uni Internet orqali masofadan turib amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ushbu yondashuv sizga dasturiy mahsulot sotib olmaslik, balki zarurat tug'ilganda uni vaqtincha ishlatish imkonini beradi.</p>
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Har bir test sahifalari uchun testlarni qo'shamiz. Buning uchun biron test sahifasiga o'tamiz va qo'shishimiz kerak bo'lgan joyga sichqonchani chap tugmasini ikki marta bossak, yoki o'ng tomondagi uskunalar panelida drive bo'limini tanlashimiz orqali biz

tayyorlagan google formdagi testni qo'shishimiz mumkin.

Pastdagi rasmdagi kabi formlar chiqadi. Bulardan kerakligisini tanlaysiz.



Insertni bosganimizdan so'ng sahifangizda forma paydo bo'ladi.

**Natijalar va muhokama (Results and Discussions).** Qolgan testlarni ham shu ketma-ketlikda qo'shib olamiz. Natijada o'qituvchilarning talabalarga beradigan mavzularini to'liq ochib berish, mavzuni to'liq tushunish, mavzuga oid ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim qilish masalalari yechiladi. Bundan tashqari mavzuga oid topshiriqlarni, mustaqil ishlarni, testlarni ixtiyoriy masofadan turib bajarish imkoniyatlarini beradi. Biz yuqorida bulut texnologiyasi mavzusini ochib beruvchi saytni yaratdik. O'qituvchilarimiz o'z fanlariga tegishli mavzularni ochib beruvchi saytlarni Google Drive ning imkoniyatlaridan foydalangan holda biz ko'rsatgan ketma-ketliklardan foydalanib yoritib berishlari mumkin.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Hozirgi kunda o'qituvchilarning AKT sohasini bilishlari, o'z bilimlarini oshirishda tinimsiz harakat qilishlari dolzarb hisoblanadi. Yuqoridagi amallarni bajarish, bunday saytlar yaratish, umuman bulutli texnologiyalardan o'qituvchilarning infokommunikatsion faoliyatini oshirishda foydalanish ta'lim sifatini oshirishning asosiy yo'llaridan biri hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Газейкина А.И., Кувина А.С. Облачные технологии в образовании применение//информационно-коммуникационные технологии: сб. науч. ст. – Екатеринбург: Прогресс, 2018. – С 55-59.
2. Кононюк А.Е. Облачные технологии.Фундаментальная теория облачных технологий. Книга1.Киев, 2018.
3. Леонов, В. Google Docs, Windows Live и другие облачные технологии / – М.: Издательство "Эксмо" ООО, 2017. – С. 304.
4. Курбанов З.М.. Облачные технологии: обзор и применение.Вестник науки и образования. Журнал №4 (58) Российская Федерация 2019 г. Часть 1.
- 5.Kurbonov Z., Qurbonova R. Oliy ta'lim muassasalarida bulut texnologiyalarining afzalliklari.Qarshi DU axborotnomasi 2019 yil. №2 son.
6. Kurbonov Z.M., Qurbonova R.Z. Ilmiy tadqiqot faoliyati sifatini oshirishda bulutli hisoblashlarning ahamiyati. Qar DU xabarlari 2(1) 2023 y.139-144 betlar.
7. Kurbanov Z.M. Important factors affecting modern Cloud technologies using in education. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. -1587-1594, 2021-yil. DOI: 10.47750/cibg.2021.27.02.168

8. Kurbanov Z.M. The role of Cloud technologies in life. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. -881-890, 2020-yil. 10.5958/2249-7137.2020.00675.8
9. Kurbonov Z.M. My Drivedan amaliy ishlarda foydalanish. TEXNIKA FANLARI. -47-52, 2020-yil. Doi Journal 10.26739/2181-9696
10. <https://docs.google.com/presentation/d/1E362WUgBtwS4T9d3svW7YjEGQsGOYcXfM5IFvVvELiQ/edit> - Облачные технологии в образовании

## ZAMONAVIY MAKTAB MENEJERI FAOLIYATINING TUZILMAVIY TARKIBI

**Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Alfraganus universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası dotsent v.b.

[nargizazuraeva053@gmail.com](mailto:nargizazuraeva053@gmail.com)

ORCID: 0000-0001-9294-6191

UDK: 371.11(045)

**Annotatsiya.** Bugungi kunda jamiyatimizning har bir sohasida bo'layotgan o'zgarish va rivojlanishlar ta'lim tizimidan ham zamonaviylikni talab qilmoqda. Bu o'z navbatida, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim mazmuni va o'qitish texnologiyalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi STEAM o'qitish metodikalarini, shuningdek, professional korpusini yaratish orqali ta'lim sifatini oshirish va uni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi. Ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish bugungi kun talabidir. Shundan kelib chiqib, maktab ta'limining sifati davlat xavfsizligi, global barqarorlik, uzoq muddatli rivojlanish farovonlikning asosi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada zamonaviy umumiy o'rta ta'lim va maktab menejeri faoliyatining tuzilmaviy tarkibi, zamonaviy maktabni boshqarishning qonuniyatlari, boshqaruv uslublari, samarali menejmentning barcha tuzilmaviy darajalari, zamonaviy maktab faoliyati xususiyatlari, zamonaviy umumiy o'rta ta'lim jarayonini boshqaruv faoliyati komponentlarining mazmuni, mohiyati va bu tushuncha borasida ilmiy tadqiqot-chilarning qarashlariga tahliliy yondashilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy maktab, boshqaruv uslublari, maktab menejeri, boshqaruv texnologiyasi, sifat menejmenti.

## STRUCTURAL COMPOSITION OF MODERN SCHOOL MANAGER'S ACTIVITY

**Abstract.** Today, the changes and developments taking place in every sphere of our society demand modernity in the education system. This, in turn, improves the content of education and teaching technologies in general secondary schools based on a competence approach, improves the quality of education and introduces modern mechanisms of its management by creating STEAM teaching methods, which serve to develop the skills of critical thinking, independent search and analysis of information in students, as well as the creation of a professional frame that creates the need for implementation. Development of general secondary education, which is the main link of education, is contemporary demand. Based on this, the quality of school education serves as the basis of national security, global stability, long-term development and well-being. In this article, the structural composition of modern general secondary education and the activities of the

school manager, the laws and regulations of modern school management, management methods, all structural levels of effective management, the characteristics of modern school activities, the content and essence of the components of modern general secondary education, and the views of scientific researchers on this concept is investigated through analytical approach.

**Key words:** modern school, management styles, school manager, management technology, quality management.

**Kirish.** Sifatli umumiy ta'lim aholining yuqori turmush darajasi ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, gender tenglikni ta'minlash sharti, ijtimoiy va madaniy uyg'unlik va iqtisodiy o'sishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu nuqtayi nazardan kelib chiqib maktab ta'limini rivojlantirish, pedagogik jamoada sog'lom muhitni tarkib toptirish, maktab boshqaruvi va ta'lim sifati menejmentini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktab ta'limi, ilm-fan, madaniyat va aholining intellektual salohiyati sifatining darajasi sezilarli darajada zamonaviy jamiyatning yanada rivojlanishini belgilaydi, tamaddunga o'zining doimiy mavjudligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatimizda inson resurslariga investitsiyalar hajmini oshirish, yosh avlod uchun keng imkoniyatlarni ta'minlash jarayonini takomillashtirish, ta'lim, jumladan, maktab ta'limi samaradorligi ko'rsatkichlariga e'tiborni sezilarli darajada oshirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu ularning yuqori sifatli umumiy o'rta ta'lim olishlari bilan bog'liq bo'lib, asosan, maktab ta'limini sifatli boshqarishning tashkiliy va pedagogik sharoitlariga bog'liq.

Respublikamizda bugungi kunda menejmentning maktab ichidagi darajasida o'quvchi-larga, pedagogik va ota-onalar jamoalariga uzoq muddatli hamda bevosita ta'sir ko'rsatish jarayoniga doir muammolar qator ilmiy ishlarda asosiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmoqda.

Ta'lim tizimidagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, aksariyat tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, zamonaviy umumta'lim maktabi – bu fuqarolarning umumiy o'rta ta'limga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishni ta'minlovchi ta'lim muassasasidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Umumta'lim maktabi barcha o'quvchilarni sifat jihatdan yangi ta'limga yetaklashni amalga oshirishi kerak. Bu narsa hayotiy o'ylangan va kasbiy tanlov uchun zarur bo'lgan dunyoqarashni, qadriyatlarni, mustaqil o'rgana olish qobiliyatini, tanqidiy fikrlashni, axborot texnologiyalardan foydalana olishni, ijodiy faoliyatning turli ko'rinishlarida shaxsiyatini anglash va o'zini namoyon qilishni shakllantiruvchi o'quv mazmuni va metodika-lariga asosiy e'tiborni qaratishni talab etadi. Shu bilan birga ta'limni rivojlanish sharoitida o'quv muassasalarining tashkiliy tuzilmalarini, vazifa va funksional majburiyatlarni taqsimlashning jarayoni va mazmunini mukammallashtirish, menejmentning tashkiliy pedagogik faoliyatini yangilashni tadqiq qilish muammosi dolzarflik kasb etadi. Bu masalalarning barchasi menejmentning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lgan – ta'lim-tarbiya jarayonini va boshqaruv faoliyatini tashkil qilishni amalga oshirish bilan bog'liq. Boshqaruv faoliyatiga o'quv muassasasi ta'lim faoliyatining sharoiti va jarayonini ta'minlash kabi muhim harakat taalluqlidir. Agar boshqaruv, ma'lum qonuniyatlarga tayanadigan bo'lsa, natijaviy hisoblanadi [1].

T.A.Shalina zamonaviy maktabning umumiy ta'lim faoliyatining xususiyatlarini menejmentning tegishli qonuniyatlari orqali ochib beradi, bu bilan u tizim obyektlari, jarayonlari, hodisalarida mavjud bo'lgan nisbatan barqaror sabab-oqibat munosabatlarini tushunishni taklif qiladi.

Tizimli yondashuv o'zaklariga asoslanib, olim zamonaviy maktabni boshqarishning



quyidagi qonuniyatlari guruhlarini belgilaydi:

1. Zamonaviy maktablarda umumiyroq darajadagi tizim ta'siridan kelib chiqadigan boshqaruv shakllari, ya'ni:

zamonaviy maktablardagi maqsadlar, menejment texnologiyalari davlat tuzilishining ideologiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, menejmentning umumiy uslubiga bog'liqligi;

zamonaviy maktablarda ta'lim va menejment sohasida umumiy darajadagi tizimlarning hal qiluvchi ta'siri;

ta'lim muassasalarida hududiy-mahalliy sharoitlar bilan moslashuvchanlik va turli tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

2. Zamonaviy maktabni bevosita boshqarish jarayonlarining mohiyati bilan belgilanadigan qonuniyatlari:

bosqichlarning va ularga tegishli boshqaruv funksiyalarning davriyligi;

boshqaruv tendensiyalarining birligi;

menejment ichki tuzilmasining maqsadi va zamonaviy maktab faoliyatining muvofiqligi;

sifat menejmentning tashxislash va kelgusi faoliyatni modellashtirishning darajasiga bog'liqligi;

menejmentning tuzilmaviy elementlari o'rtasidagi sifatli o'zaro bog'liqlik;

sifat menejmentning o'zaro to'g'ridan-to'g'ri va teskari yo'nalgan muvozanati va to'liqligiga to'g'ri proporsional bog'liqligi;

menejment subyekt va obyektlarining operativligi, aniqligi va natijaviyligiga funksional ma'lumligi ta'sirining qonuniyati;

zamonaviy maktab menejmenti jarayonida buzuvchi faktorlarning va doimiy ta'sir ko'rsatish zaruriyatining mavjudligi;

samarali menejmentning barcha tuzilmaviy darajalarda bevosita rahbarlikka bog'liqligi.

3. Ijtimoiy-psixologik omillar bilan shartlangan zamonaviy maktab boshqaruvining qonuniyatlari:

o'qituvchilarning mehnat motivatsiyasining madaniyat va boshqaruv uslubiga, faoliyat sharoitlariga, moddiy ta'minotiga bog'liqligi;

jamoaning birdamligi rahbariyatning ishiga va mos ruhiy iqlim yaratilishiga bog'liqligi;

pedagogik jamoa ijodiy faoliyati rivojlanishining kasbiy erkinlik va boshqaruvni demokratlashtirish darajasiga bog'liqligi;

mehnat natijalaridan qoniqishning obyektiv baholash va o'z vaqtida rag'batlantirishga bog'liqligi;

mehnat natijalaridan qoniqishning obyektiv baholash va o'z vaqtidagi qo'llab-quvvatlashga bog'liqligi;

zamonaviy maktab menejmenti samaradorligi rahbariyatning kompetentligi, uslubi va kasbiy sifatlariga bog'liqligi [3].

O.V.Arakelyan, V.I.Maksakova va boshqalar asarlarida bugungi sharoitda zamonaviy maktabning umumiy ta'lim faoliyati o'rtacha emas, balki ta'lim sifati haqida kerakli, ishonchli va obyektiv ma'lumotni o'z vaqtida olishni ta'minlashi kerak, ammo bu har bir o'quvchining ilm-fan asoslarini o'zlashtirishiga yordam berishning shaxsiy xususiyatini aks ettiradi. Zamonaviy maktabning ta'lim sifatiga erishishi ta'limni boshqarish jarayoni deb hisoblanishi mumkin va boshqaruv subyektlari nafaqat ta'lim menejerlari, balki pedagogik kadrlar, ta'lim oluvchilar ham bo'lishi kerak. Zamonaviy maktabda o'qitish jarayoni, asosan, o'quv-tarbiyaviy vazifalarni hal etishga qaratilgan bo'lib, ularning har biri didaktik xususiyatga ega. Ushbu jarayonning majburiy

komponenti – bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish, ya‘ni ishlashni tekshirish, shuningdek, o‘quv yutuqlarini tuzatishni nazorat qilish. O‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini batafsil tahlil qilish pedagog kadrlarning kasbiy mahoratining bilim va diagnostikasini nazorat qilishning yagona tizimi asosida amalga oshirilishi mumkin, bu zamonaviy maktabning umumiy ta‘lim faoliyatining barcha ishtirokchilariga zarur ma‘lumotlarni olish imkonini beradi [4].

Umumiy ta‘limning faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishining qonuniyatlarini aniqlash nuqtayi nazaridan eng to‘liq tahlil A.A.Logvinov tomonidan amalga oshirilgan. Demak, muallif qonuniyatlarni ikki guruhga ajratadi: boshqaruv quyi tuzilmasining asosini ochib beruvchi va boshqaruv quyi tuzilmasining rivojlanishining ishlash xususiyatlarini ochib beruvchi.

Olim qonuniyatlarning birinchi guruhiga quyidagilarni kiritadi:

umumiy o‘rta ta‘limni boshqarish ijtimoiy boshqaruv qonuniyatlari bilan belgilanadi;

umumiy o‘rta ta‘limni boshqarishning umumiy qonuniyatlari boshqaruv darajasidan qat‘i nazar, xolisona mavjud bo‘lib, tashqi va ichki rag‘batlantiruvchi ta‘sirlar bilan umumiy o‘rta ta‘lim boshqaruv quyi tuzilmasi reaksiyasi o‘rtasidagi o‘rnatilgan aloqalarni ochib beradi;

boshqaruvning har bir darajasidagi qonuniyatlar obyektiv mavjud bo‘lib, ular ushbu darajani boshqaruvning quyi tizimi va atrof-muhit komponentlarining xususiyatlari orasidagi xos bo‘lgan aloqalarni ochib berish orqali aks ettiradi;

boshqaruvning umumiy funksiyalari boshqaruv jarayoni qonuniyatlari bilan belgilangan;

aniq bir darajadagi boshqaruv tuzilmalarining maqsadli funksiyalari ushbu tuzilmaning qo‘yilish va qonuniyatlari bilan belgilangan;

boshqaruvning samaradorligi real vaziyatni hisobga olgan holda boshqaruvning barcha subyektlari maqsadlarini muvofiqlashtirish orqali ta‘minlanadi;

boshqaruv quyi tizimi statistik va dinamik tuzilmalari boshqaruv subyektlari va ular o‘zaro bog‘liqligi aloqasining tartibi bilan to‘ldiriladi;

boshqaruv faoliyatining samaradorligi boshqaruvchi va boshqariluvchi quyi tizimlarning muvofiqlik darajasiga bog‘liq;

boshqaruv texnologiyasi qo‘yilgan maqsadlarga erishish faoliyatining yo‘nalishi mexanizmi bilan ta‘minlaydi va maqsadning, harakatlar ketma-ketligining, boshqaruv subyektlari o‘rtasidagi erkinlik darajasini taqsimlashning o‘zaro bog‘liqligini ochib beradi;

boshqaruvning natijaviyligi boshqaruv subyektlarining o‘zaro aloqasi, erkinlik me‘yorining darajasi va soni, oraliq va yakuniy natijalar mezoniy modelining borligi hamda maqsadga erishish faoliyatiga yo‘naltirilganlik uchun o‘zaro aloqalarni o‘rnatishning davriyligiga bog‘liq.

Qonuniyatlarning ikkinchi guruhiga, muallif boshqaruv quyi tuzilmasi faoliyatining xususiyatlarini ochib beruvchilarni kiritadi:

umumiy o‘rta ta‘limni boshqarish tizimining belgilab qo‘yilgan parametrlar va natija mezonlarining xususiyatiga qarab mazmuni, tuzilishi, boshqaruv texnologiyasining sifat va miqdoriy o‘zgarishlari bilan tavsiflanadi;

boshqaruv tizimining tashqi va ichki sharoitlarga moslashishi, ishlashi, tizimni rivojlan-tirishga qaratilgan va boshqaruv jarayonining barcha subyektlari bilan aloqa qilish tartibi hamda maqsadli funksiyalarining joriy moslashuviga bog‘liq;

boshqaruv subyektlari o‘rtasidagi aloqa tartibi vazifalarning tabiati, boshqaruv shakllari va usullari, ijrochilarning malakasi, imkoniyatlari bilan bog‘liq;

erkinlik darajasining miqdorini oshirish o‘z-o‘zini tashkil etish jarayonlarini

kuchaytiradi, bu esa ijrochilarning motivatsiyasini oshiradi;

boshqarish kommunikativ asosga ega, shuning uchun boshqaruvning maqsadga muvofiqligi boshqaruv subyektlari o'rtasida tartibga solish asoslari sifatida kommunikativ aloqalarni o'rnatish chastotasiga bog'liq;

boshqaruv sifati natija mezonining ishlab chiqish darajasiga, jarayonning ushbu natijaga yo'naltirilganligi darajasiga, ishlab chiqilgan modelning natijasiga muvofiqligi darajasiga bog'liq [6].

E.A.Seytxalilov nazariy tahlil natijalariga ko'ra, zamonaviy maktabning umumiy ta'lim faoliyatini qurishning barcha konsepsiyalari o'qitilgan mustaqillikni rivojlantirishga, o'qitishda shaxsiy yo'naltirilgan yondashuvni qo'llashga, birgalikda ishlashga, jamoaviy fikrni rivojlantirishga va boshqalarga yo'naltirilganligini ta'kidlaydi. Shundan kelib chiqqan holda, muallif zamonaviy maktabning umumiy ta'lim faoliyatini rivojlantirish jarayonini joriy konseptual qo'llab-quvvatlash ta'lim faoliyati, nazorat qilish, o'z-o'zini nazorat qilish, tuzatish va shu kabi qisman tarkibiy qismlarga urg'u bermasligini ta'kidlaydi [7].

R.G.Mullaxmetova, A.N.Djurinskiylarning fikrlariga ko'ra, zamonaviy davlatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy jihatdan rivojlanishida ta'lim ustuvor soha sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim tizimida eng muhim rol muallimga tegishlidir. Aynan ushbu toifadagi mutaxassislar faoliyati orqali yosh avlodni intellektual va ma'naviy salohiyatini mustahkamlashga, ilm-fan va texnikani rivojlantirishga, madaniy merosni saqlash va oshirishga qaratilgan davlat siyosati amalga oshiriladi. Bunda, eng muhimi bilim ko'lami emas, balki o'z bilimlarini mustaqil bajarish qobiliyati, o'zi-o'zini ta'minlay olishi, yetuklikka intilishda doimiy faollik ko'rsatib borishidir. O'z mohiyatiga ko'ra, ta'lim kelajakka xizmat qilib, jamiyatning kelgusi o'zgarish-lariga poydevor hisoblanadi va istiqbolni progressivligi yoki aksincha, regressiv yo'nalishda rivojlanishini belgilab beradi.

**Tahlil va muhokama.** Zamonaviy umumiy o'rta ta'lim jarayonini boshqaruv faoliyati komponentlari sifatidagi elementlar ustida to'xtalib o'tamiz.

Maktab menejeri umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarish jarayonida quyidagi boshqaruv uslublaridan foydalanadi:

Avtoritar boshqaruv uslubi – ijtimoiy boshqaruvning avtoritar uslubi rahbarning yakkaho-kimligini ifodalaydi. Ya'ni jamoa rahbarning ko'rsatmalari, buyruqlari asosida boshqariladi. Afzalligi – jamoada qat'iy tartib-intizom hukm suradi. Barcha topshiriqlar so'zsiz boshqariladi. Ushbu uslub favqulodda va muammoli vaziyatlarda juda qulay. Kamchiligi – jamoada erkinlik va mustaqillik bo'lmaydi. Rahbar o'z faoliyatini to'xtatsa, butun jamoada ish to'xtaydi yoki izdan chiqadi.

Demokratik boshqaruv uslubi – demokratik tamoyillar asosida ish tashkil etiladi. Ya'ni ko'pchilik bilan kelishilgan va maslahat qilingan holda jamoa faoliyati yo'lga qo'yiladi. Rahbar muammolarni maslahat, kengash tarzida hal qiladi. Afzalligi – barcha a'zolar mustaqil faoliyat yuritadi, tartib-intizom, shaxsiy tashabbus kuzatiladi. Ko'pchilik fikri inobatga olinadi. Kamchiligi – favqulodda vaziyatlarda muammolarni hal etish uchun vaqt va imkoniyatlar boy berib quyilishi mumkin.

Liberal boshqaruv uslubi – jamoa a'zolari erkin faoliyat yuritadi. Jamoada tinchlik va osoyishta muhit hukmronlik qiladi. Afzalligi – munosabatlar o'zaro hurmatga asoslanadi, jamoa faoliyati bir xil sur'atda rivojlanadi. Kamchiligi – jamoa a'zolari shaxsiy tashabbus ko'rsat-maydilar, rivojlanish o'ta sekin. Keyinchalik jamoa a'zolarida loqaydlik ham paydo bo'lishi mumkin.

Maktab menejeri boshqaruv jarayonini quyidagi yondashuvlar asosida amalga oshiradi:

Boshqaruvga iyerarxik yondashuv – boshqaruvga bunday yondashuv jamoada yuqori boshqaruv organlaridan toki quyi qismgacha yetib boradi. Topshiriqlarning har bir tabaqada o‘ziga tegishli qismi bajarilib o‘tib, quyi pog‘onagacha boradi va bajariladi. O‘z navbatida topshiriqlarning bajarilishini nazorati ham iyerarxik tartibda amalga oshiriladi.

Boshqaruvga tizimli yondashuv – jamoa faoliyati, a‘zolar va rahbarning faoliyati ma‘lum bir tizimga asosan rejalashtiriladi. Jamoa faoliyati yaxlit bir butun tizim sifatida tartibga solinadi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Boshqaruvga vaziyatli yondashuv – jamoa faoliyatida turli xildagi favqulodda yoki muammoli vaziyatlarni hal qilishda vaziyatli yondashuvdan foydalaniladi. Bunda har bir vaziyatda o‘ziga xos metodlar va shakllar qo‘llaniladi.

Maktab menejeri o‘z faoliyati davomida quyidagi boshqaruv metodlaridan foydalanishi mumkin:

Tashkiliy-adminstrativ boshqaruv metodlari – tashkilot faoliyatini markazlashgan boshqaruv bo‘lib, jamoa a‘zolari faoliyati rahbar tomonidan koordinatsiya qilib turiladi.

Ijtimoiy-psixologik boshqaruv metodlari – ta‘lim muassasasini boshqarishda jamoa a‘zolarini ishontrish usuli orqali ma‘naviyatiga ta‘sir etadigan va motivatsiya uyg‘otadigan holda boshqarish metodi hisoblanib, bunday boshqaruv metodi jamoada ijobiy ijtimoiy muhitni tarkib toptirishga yordam beradi.

Iqtisodiy boshqaruv metodlari – ta‘lim muassasasini va uning a‘zolari qiziqishlarini qonunchilikka tayangan holda moliyaviy vositalar yordamida boshqarish metodlari ushbu guruhga kiradi.

Vaqtli boshqarish metodlari – jamoa faoliyatini va rahbar o‘z faoliyatini tashkil etishda vaqtdan unumli va samarali foydalanish, ish faoliyatini aniq vaqt imkoniyatlarini hisobga olgan holda boshqarish metodlari kiradi.

Maktab menejeri quyidagi yo‘nalishlarda o‘z faoliyatini amalga oshirishi ko‘zda tutiladi:

O‘quv-tarbiyaviy jarayon – maktab menejeri boshqaruvining bu yo‘nalishi ta‘lim sohasining asosiy maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Ya‘ni bu yo‘nalishda menejer darslarning taqsimoti, o‘quv jarayoning o‘quv-me‘yoriy hujjatlarga mosligi, ta‘lim sifati, samaradorligi kabi vazifalar ijrosi va natijasi boshqariladi.

Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat – ta‘lim muassasasidagi o‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy sohadagi ishlarni boshqarish ham maktab menejeri vazifasiga kirib, ushbu yo‘nalishdagi ishlar sirasiga har bir o‘quvchi, o‘qituvchi hamda jamoa bilan ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, ommaviy va individual tadbirlar o‘tkazish, ularning natijasini nazorat qilish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Pedagogik jamoa faoliyati – maktab menejeri pedagogik jamoa faoliyatini bevosita tashkil etadi, boshqaradi va ish natijalarini nazorat qiladi. Shu nuqtayi nazardan pedagogik jamoa bilan turli yo‘nalishlardagi tadbirlarni tashkil etadi, ularning pedagogik faoliyatini nazorat qiladi.

Moddiy texnik bazani mustahkamlash – ta‘lim muassasasida turli yo‘nalishlarda samarali faoliyatni tashkil etish uchun maktab menejeri moddiy-texnik baza ta‘minotini ham tashkil etishi va boshqarishi lozim bo‘ladi.

Ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik – ta‘lim muassasasi o‘z faoliyati davomida oila, mahalla va boshqa ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. Ushbu hamkorlikda maktab asosiy va yetakchi zveno vazifasini bajaradi. Ya‘ni bu o‘rinda maktab menejeri ijtimoiy institutlarning ta‘lim sohasidagi hamkorliklarini tashkil etadi, muvofiqlashtiradi, boshqaradi.

Jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit – jamoadagi muhit mehnat faoliyatining

samarasiga bevosita ta'sir o'tkazadi. Shu sababli maktab menejeri jamoadagi muhitni doimiy ravishda o'rganib turishi va sog'lom raqobatni hamda muhitni tarkib toptirish borasida izlanishi lozim bo'ladi.

Rahbarning o'z shaxsiy faoliyatini boshqarish – jamoani boshqarish samaradorligida maktab menejerining o'z shaxsiy faoliyatini to'g'ri va rejali tashkil etishi muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, maktab menejeri o'z serqirra faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishi, vaqtdan unumli foydalana bilishi hamda o'z salomatligini nazorat qilishida shaxsiy faoliyatini boshqaruv ko'nikmasining shakllanganlik darajasi muhim ahamiyatga egadir.

**Xulosa.** Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, zamonaviy maktab umumta'lim faoliyatining asosiy tarkibiy tuzilishlarini uchta umumlashtirilgan ko'rinishda taqdim qilish maqsadga muvofiqdir. Birinchi komponent, asosan, rejalashtirish, moddiy-texnik ta'minlash, sinflar tarmog'i, kadrlar bilan ta'minlashni o'z ichiga oluvchi ta'lim faoliyatining sharoitlarini aks ettiradi. Ikkinchi tuzilmaviy komponent, o'z mohiyatiga ko'ra, ta'lim faoliyati jarayonining o'zini qamrab oladi, bu narsa o'quv-tarbiyaviy jarayonini amalga oshirishni, rahbarning kasbiy sifatlarini, boshqaruv faoliyatini nazarda tutadi. So'nggi komponent ta'lim oluvchilarning, pedagoglarning, rahbarlarning mos yutuqlarida, zamonaviy maktabning imidjida ochib beriluvchi ta'lim faoliyatining natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Azimov N.SH. O'qituvchi bilan talabalar hamkorlik faoliyatining dinamikasi: Dis. ... psixol. fan. nomzodi. – Toshkent: «O'zMU», 1996. – B.137.
2. Зиновьев Т.И. Современная начальная школа и подготовка учителя. – М.: Московский городской педагогический университет, 2006. – С.218.
3. Шалина Т.А. Закономерности менеджмента современной школы. // Научный поиск в воспитании: парадигмы, стратегии, практика: материалы 2-й Международной научно-практической конференции. – М.: Школьная книга, 2010. – С.661-663.
4. Аракелян О.В. Политкультурная школа-новая модель в системе образования. // Воспитание школьников: теоретический и научно-методический журнал. – 2010. – №3. – С.11-17.
5. Максакова В.И. Воспитание как явление противоречивое. // Отечественная и зарубежная педагогика. – 2017. - № 1. – С.26-31.
6. Логвинов А.А. Закономерности функционирования и развития современного общего образования. // Педагогика: Научно-теоретический журнал. – 2009. - №4. – С.76-82.
7. Сейтхалилов Э.А. Педагогические основы оздоровительной направленности учебно-воспитательного процесса в общеобразовательных школах: Автореф. дис. ... доктора педагогич. наук. – Ташкент: УзНИИПН им. Т.Н.Кары-Ниязова, 2000. – С.60.
8. Абдукадиров А.А. Теория и практика интенсификации подготовки учителей физико-математических дисциплин. Аспект использования компьютерных средств в учебно-воспитательном процессе: Автореферат дис. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 1990. – С.39.
9. Азаров В.Н., Беллабарра А. и др. Управление качеством в образовании. – М.: Фонд «Качество», 2002. – С.94.
10. Azimov N.SH. O'qituvchi bilan talabalar hamkorlik faoliyatining dinamikasi: Dis. ... psixol. fan. nomzodi. – Toshkent: «O'zMU», 1996. – B.137.

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARNING TEXNOLOGIK TA‘LIM VOSITASIDA IJODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH****Nabiyeva M.S.**

Nizomiy nomidagi Toshkentdavlat pedagogika universiteti

[nabievamarzona33@gmail.com](mailto:nabievamarzona33@gmail.com)

ORCID: 0009-0002-4352-1108

UDK: 371.126:42

**Annotatsiya:** Mazkur maqola bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik zaruriyati va chet tilini texnologik ta‘lim vositasida o‘quv predmeti mazmunini takomillashtirish va amaliyotga uni tatbiq etish borasida zamonaviy muammolarini hal etishga bag‘ishlanib, talabalarning texnologik ta‘limga oid bilimlarini nazorat qilishga yo‘naltirilgan ijodiy topshiriqlar majmuyi ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qiladi. Bunday metodikalar asosan mustaqil ta‘limga oid yoki til o‘rganish to‘garaklari mashg‘ulotlarida qo‘llanilgan. Biz o‘z kuzatishlarimiz va tavsiyalarimizni amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llashga harakat qildik. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning kreativ yondashuv asosida texnologik ta‘limga oid bilimlarini rivojlantirishda kreativlikka bag‘ishlangan pedagogik-psixologik xarakterdagi ilmiy yondashuvlardan samarali foydalanishga harakat qilingan. Talabalarda kreativlikni rivojlantirish yo‘nalishidagi tadqiqotlarning natijalarini o‘rganish asosida to‘rtta muhim yo‘nalish aniqlashtirildi. Shuningdek, maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ yondashuv asosida texnologik ta‘limga oid bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo‘nalishlarini ajratish; bo‘lajak o‘qituvchilarda texnologik ta‘limga oid bilimlarni shakllantirish imkonini beradigan kreativ texnologiyalarni qo‘llash; kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda texnologik ta‘limga oid bilimlarni taqdim etishning TRIZ texnologiyalaridan foydalanish haqida aytib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ta‘lim mazmuni, kasbiy tayyorgarlik, kreativ tayyorgarlik, o‘rganish bosqichlari, ijodiy fikrlash, transformatsiyalash metodi.

**DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS**

**Abstract:** This article is devoted to the social pedagogical necessity of developing creative thinking in future English language teachers and to solving the modern problems of improving the content of the subject and implementing it in practice through the means of technological education of a foreign language.

Also, the set of creative tasks aimed at controlling students' knowledge of technological education serves to develop and improve their knowledge, skills and abilities. Such methods are mainly used in independent education or language learning clubs. We tried to effectively use pedagogical and psychological scientific approaches dedicated to creativity in the development of knowledge of technological education of future English language teachers based on a creative approach. Based on the study of the results of research on the development of creativity in students, four important directions were determined. Also, in the article, the pedagogical-psychological directions of developing knowledge of technological education in future teachers based on a creative approach are distinguished; use of creative technologies that will allow future teachers to form knowledge about technological education; it was mentioned about the use of TRIZ technologies for providing knowledge about technological education to future teachers based on a creative approach

**Key words:** Educational content, professional training, creative training, stages of learning, creative thinking, transformation method.

**Kirish.** Shaxsning kreativligini rivojlantirish jamiyat hayotining barcha bosqichlarida o'z dolzarbligini namoyon etmoqda. Bunda shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi bilan bog'liq turli-tuman holatlar nazarda tutiladi. Shaxsning kreativligini rivojlantirishga oid yondashuvlar dastlab xorijlik olimlar tomonidan ilgari surilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish muammosi O.V.Sorokina [3] tomonidan batafsil ishlab chiqilgan. Uning ta'biricha, bo'lajak mutaxassislarda kreativlikni rivojlantirishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: talabalar oldida turgan kognitiv mazmundagi muammolarni emotsional muammolarga transformatsiyalash; talabalarning hissiy holatlarini baholamasdan qabul qilish hamda ularning hissiy holatlarini qo'llab-quvvatlash; talabalarning hissiy ta'sirlari va holatlari bilan bog'liq vaziyatlarda dialog va o'quv jarayonini individuallashtirish metodlaridan foydalanish.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglar va psixologlarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga bag'ishlangan E.V.Dvoretzkayaning [2] tadqiqotlari ham mutaxassislarning e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Ushbu tadqiqotda talabalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari aniqlangan. Mazkur tadqiqotda talabalarning kasbiy muammolar doirasida kreativlik haqida chuqur o'ylashlari pedagogik-psixologik jihatdan asoslab berilgan. Jumladan, tafakkurning assotsiativligi, tashabbuskorligi, metaforistik xarakterga egaligi, betakror yechimlarning vujudga kelishiga asos bo'ladi. Ruhij jarayonlarning faollashuvi shaxs tafakkuri va xulq-atvorida ruhiy inersiyalarning bartaraf etilishiga ko'maklashadi.

Y.Y.Sherbakovaning "Kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarning kreativligini rivojlantirish" [5] mavzusidagi tadqiqotida pedagogik kreativlikning mavjud jihatlari asoslangan. Bunda kommunikativ va didaktik kreativlik uyg'un holda tahlil qilingan. Talabalarda o'z-o'zini ijodiy his etishning ko'rsatkichlari tizimli yondashuv asosida ochib berilgan. O'z-o'zini boshqarish va nazorat qilish, hissiy barqarorlik, irodaviy sifatlar, quvonch hissi, ishchanlik darajasi, atrofdagilarga nisbatan mehr va rahmdillik bilan yondashish, shuningdek, ijodiy layoqat ko'rsatkichlari, topqirlik, uyg'unlashtirish layoqati, divergent tafakkur, vizual ijodkorlik, assotsiatsiyalash layoqati kabilar pedagogik kreativlikning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Y.R.Varlakova o'zining "Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativlikni shakllantirish" [1] nomli asarida kreativlikning rivojlanishi quyidagilar uchun imkoniyat yaratishini asoslab bergan: ta'lim mazmunini shaxsiy-ijtimoiy tajriba va amaliy faoliyat natijalari bilan boyitish, hayotiy vaziyatlarning yaxlitligini tavsiflash, muammolilik va kontekst bilan bog'liqlikni ta'minlash; talabalarni kasbiy vazifalarni yechish bilan bog'liq faoliyatga jalb etish, kuzatish jarayonini tashkillashtirish, tanlangan kasb kontekstida mavjud tajribalar haqida o'ylash hamda kreativlikka munosabatni namoyon etish; ta'lim jarayonining muammolilik xarakterini ta'minlash kabilar.

Bunda bo'lajak o'qituvchilarning kreativligi shakllanish jarayoniga nisbatan layoqatlilik sifatida tushuniladi. Bu esa talabaning o'z-o'zini namoyon etish, pedagogik va dizayn sohasidagi bilimlarni o'zlashtirish, bo'lajak kasbiy faoliyatda ijodiy natijalarga erishish uchun nostandart va kasbiy g'oyalarni tezkor generatsiyalash imkonini beradi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kreativ yondashuv asosida texnologik ta'limga oid bilimlarni rivojlantirishda biz kreativlikka bag'ishlangan pedagogik-psixologik xarakterdagi ilmiy yondashuvlardan samarali foydalanishga harakat qildik. Talabalarda kreativlikni rivojlantirish yo'nalishidagi tadqiqotlarning natijalarini o'rganish asosida to'rtta muhim yo'nalish aniqlastirildi:

1. Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ yondashuv asosida texnologik ta'limga oid bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlarini ajratish.
2. Bo'lajak o'qituvchilarda texnologik ta'limga oid bilimlarni shakllantirish imkonini beradigan kreativ texnologiyalarni qo'llash.
3. Kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda texnologik ta'limga oid bilimlarni taqdim etishning TRIZ texnologiyalaridan foydalanish.
4. Kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning texnologik ta'limga oid bilimlarini rivojlantirish samaradorligini TRIZ texnologiyasi vositasida rivojlantirish vositalari va usullarining samaradorligini muayyan mezonlar yordamida asoslash.

Talabalar darsdan tashqari vaqtlarida o'z kreativliklari va texnologik ta'limga oid bilimlarini rivojlantirish uchun turli ko'rgazmalar, tanlovlar, ijodiy kechalarda ishtirok etadilar. O'quv faoliyati esa guruhli ish asosida amalga oshiriladi. Bunda professor-o'qituvchilarning o'qitishning faol metodlari va texnologiyalaridan foydalanishlari nazarda tutiladi.

I.V.Shovgurovaning [4] ilmiy tadqiqoti mutaxassislarda alohida qiziqish uyg'otgan. Unda gumanitar yondashuv doirasida etnomadaniy an'analarni o'rganish asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchisining kreativligini shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Ushbu tadqiqotda kreativlik ilk bor bo'lajak o'qituvchining tayanch kasbiy layoqati sifatida hamda egallanayotgan kasbiy faoliyatni etnomadaniy qadriyatlar bilan integratsiyalash asosida tadqiq etilgan. Bunda etnomadaniy an'alar bilan talabaning shaxsiy madaniyatini integratsiyalash asosida kreativ faoliyatni shakllantirish ham nazarda tutilgan. Mazkur faoliyatning o'ziga xos jihatlari texnologiya o'quv fani misolida ko'rsatib berilgan.

Etnomadaniy an'analarni bo'lajak o'qituvchining kasbiy madaniyati bilan uyg'unlashtirgan holda tadqiq etish alohida ahamiyatga ega.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini ta'minlash konsepsiyasi doirasida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Chunki bo'lajak o'qituvchining ijodkorligi uning kasbiy mobilligini ta'minlaydi. Bu talabalarning shaxsiy kreativligi va kasbiy faoliyati orasidagi mutanosiblikni ta'minlash imkonini beradi. Bo'lajak o'qituvchilar texnologik ta'limga oid bilimlarni o'zlashtirish natijasida shaxsiy kreativliklarini rivojlantirib, istiqbolda o'z o'quvchilarining ijodiy faolligini ta'minlashga harakat qiladilar.

Auditoriyadan tashqari o'quv modullari doirasida talabalar bilan ularning texnologik ta'limga oid bilimlarini boyitish maqsadida turli tanlovlar, tadqiqotchilik loyihalari tashkil etiladi. Texnologik ta'limga oid o'quv modullarining o'ziga xos jihatlari "Kreativ loyihalar", portfolioni tadbiiq qilish, turli o'quv predmetlari mazmuniga texnologik ta'limga oid bilimlarni singdirish, konkurslarning ko'lamini kengaytirish orqali amalga oshiriladi.

Texnologik ta'limga oid bilimlar madaniyatshunoslik siklidagi o'quv predmetlari mazmuniga singdirilib, talabalarning ijodiy madaniy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Bo'lajak o'qituvchining kreativligini texnologik ta'limga oid bilimlar yordamida rivojlantirish quyidagilarda o'z ifodasini topadi: loyiha metodikasi, ishchan o'yinlar, assotsiativ texnikalar, tanlovlar, viktorinalar, ijodiy topshiriqlar tizimi yordamida amalga oshiriladi.

Faoliyatli, insoniy-shaxsiy hamda sinergetik yondashuvlar negizida talabalarning texnologik ta'limga oid bilimlarini boyitish orqali kreativliklarini ta'minlashning konseptual asoslarini ishlab chiqish o'z yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kiradi. Ushbu konseptual asoslar yangi tipdagi texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash, ularning kreativliklarini rivojlantirish, istiqbolda o'quvchilar bilan ijodiy ishlash




kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilishi lozim. Mazkur yo'nalishda nafaqat kasbiy vazifalarni yechish, balki ma'naviy-axloqiy layoqatlarini ham rivojlantirish nazarda tutiladi.

**Natijalar va muhokama.** Bo'lajak ingliz tili o'qituvchining texnologiya ta'limiga oid bilimlarini rivojlantirish asosida ularning ijodiy fikrlashini tarkib toptirish ham muhim masalalardan biri hisoblanadi. Agar o'quv fanlari mazmuni qadriyatli-fikriy, muammoli loyihaga asoslangan bilimlar bilan boyitilsa, ushbu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning samaradorligi ta'minlanadi. Mazkur jarayonda bo'lajak dizayner o'qituvchining individual o'quv yo'nalishi shakllantiriladi, bo'lajak o'qituvchining kreativ imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik ta'minot yaratiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini o'quv tasviriy faoliyati orqali rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'quv tasviriy faoliyat bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak dizayner o'qituvchilar uchun verbal hamda tasviriy kreativlik muhim ahamiyatga ega. O'quv tasviriy faoliyat jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari o'zlarining kreativliklarini namoyon etadilar.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariining kreativliklarini rivojlantirish sharoitlari quyidagilarda namoyon bo'ladi (1-rasm):



Bo'lajak o'qituvchilarning texnologik ta'limga oid bilimlarini kreativ yondashuv asosida boyitish quyidagilarni ta'minlash imkonini beradi: bo'lajak o'qituvchilarning hissiy holatlarini anglash va qabul qilish, muammoli vaziyatlarni hosil qilish, bo'lajak o'qituvchining hissiy ta'sirlar va holatlarga munosabatini baholash, tizimli tarzda tahliliy faoliyatni amalga oshirish, ta'lim mazmunini shaxsiy-ijtimoiy tajriba bilan boyitish, amaliy faoliyat tajribasini o'quv jarayoniga singdirish kabilar.

Texnologik ta'limga oid bilimlar vositasida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning kreativligini rivojlantirish uchun umumlashgan ilg'or texnologiyalardan foydalanish talab qilinadi. Bunda kreativlik pedagogikasiga oid nazariy qarashlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Bo'lajak o'qituvchilar kreativ pedagog hamda kreativ dars nazariyasi bilan yaqindan tanishtirilishlari lozim. Ushbu yondashuv doirasida kreativlikni nazariy jihatdan asoslash va kreativ texnologiyalarni tasniflash nazarda tutiladi. Kreativ texnologiyalarni rang-barang asoslarga tayangan holda tasniflash va pedagogik ta'lim jarayonida qo'llash bo'lajak o'qituvchilarda kreativ faoliyat tajribasini hosil qilishga ko'maklashadi. Chunonchi:

- g'oyalar maydonini yaratish texnologiyasi;
- rivojlantiruvchi va muammoli ta'lim texnologiyasi;
- rekonstruksiyalash, yangi g'oyalarni yaratish texnologiyasi;
- shaxsning hissiy sohasi, axloqiy tanlov texnologiyasi;
- g'oyalarni amalga oshirish layoqatini rivojlantirish texnologiyalari;
- vizual kreativ texnologiyasi;
- ijodiy layoqatlilikni yuksaltirish texnologiyasi.

Pedagogikada axborot-informatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida muayyan tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini berdi.

Kreativlikning muhim belgilari bo'lajak o'qituvchida bilish motivatsiyasining shakllanishi, o'qish va ijod qilish; kreativlik va uni diagnostika qilish; ijodiy topshiriqlarni yechish metodlarini qo'llash; kreativ pedagogikaning muhim belgisi sifatida o'z-o'zini shaxsiy-kasbiy rivojlantirish; kreativ pedagogikaning muhim elementi sifatida didaktik o'yinlardan foydalanish; kreativ xarakterdagi pedagogik-psixologik texnologiyalarning kelib chiqishini aniqlash kabilar bo'lajak o'qituvchida texnologik ta'limga oid bilimlar vositasida kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mutaxassislarning ko'rsatishlaricha, talabalarda kreativlikni shakllantirish uchun chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqish talab qilinadi. Shuningdek, chet tilni o'rganuvchi talabalarda kreativlik didaktik vositalar, usullar va metodlar hamda nazorat mexanizmlarini tizimli tarzda qo'llash natijasida rivojlanadi. Amaliy ingliz tili yo'nalishidagi talabalarning kreativliklarini nazorat qilish jarayonini tashkil etish va unda tegishli metodikalarni qo'llash tizimli tarzda amalga oshiriladi. Nazorat jarayonini tashkil etish metodikasi kompleks tarzda talabalarning texnologik ta'limga oid bilimlarini boyitish va nazorat qilishga yo'naltiriladi.

**Xulosa va takliflar.** Talabalarning texnologik ta'limga oid bilimlarini nazorat qilishga yo'naltirilgan ijodiy topshiriqlar majmuyi ularning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qiladi. Bunday metodikalar, asosan, mustaqil ta'limga oid yoki til o'rganish to'garaklari mashg'ulotlarida qo'llaniladi. Biz o'z kuzatishlarimiz va tavsiyalarimizni amaliy mashg'ulotlarda qo'llashga harakat qildik. Amaliy ingliz tili yo'nalishidagi talabalarda kreativlikni rivojlantirishga oid g'oyalarni har bir mashg'ulotda tadbiq etishga e'tibor qaratdik. Bunda biz etnik, milliy, gender, shaxsga yo'naltirilgan, madaniy-estetik yonda-shuvlarga tayandik. Shuni alohida ta'kidlash kerakki ushbu yondashuvlar talabalarda kreativlikni rivojlantirish bilan bir qatorda ularning milliy-estetik va madaniy-estetik dunyoqarashini shakllantirishga ko'maklashadi. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda ijodkorlikni rivojlantirishga oid topshiriqlarni ishlab chiqish zaruriyati kuchaymoqda. Talabalarda ijod psixologiyasi va texnologik ta'limga oid tasavvurlarni kengaytirishda TRIZ (Ixtirochilik topshiriqlarini yechish nazariyasi) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur texnologiyaning asosiy vazifalaridan biri ijodkorlikka oid topshiriqlarni yechishga talabalarni yo'naltirishdan iborat. TRIZning asosiy funksiyalari:

- topshiriqlarning murakkablik darajasi, yo'nalishlarini hisobga olish;
- topshiriqlarning texnik tizimi rivojlanishini bashorat qilish;
- ijodkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida talabalarning tabiiy iqtidorlari va layoqatlarini ro'yobga chiqarish. Bunda birinchi navbatda talabaning obrazli idroki va tizimli tafakkurini rivojlantirish;

- talabalarning ijodiy jamoalarini shakllantirish va ular faoliyatini takomillashtirish, ularning g'oyalarini qo'yilgan maqsad sari yo'naltirish nazarda tutiladi.

TRIZ texnikasi rus muhandisi Genrix Altxsuller tomonidan ixtiro qilingan va tuzilgan. TRIZ atamasi rus qisqartmasidan kelib chiqadi. "Теория решения изобретательских задач", ingliz tilida "Muammolarni ixtiro qilish nazariyasi". Bu muammoni yechishga yo'naltirilgan innovatsion g'oyani yaratish nazariyasi. Talabalarning kasbiy bilimlari, ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa (Lesson plan, syllabus, curriculum) mashgulot dizayni sohasidagi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda TRIZ texnologiyalari alohida o'rin egallaydi. TRIZ texnologiyasi doirasida ijodkorlik topshiriqlarini yechish talabalarning texnologik ta'limga

oid bilimlarini boyitishga xizmat qiladi. TRIZ texnologiyasi muammoli vaziyatlarni taqozo qilib, uning yechimi talabalardan tizimli fikrlashni talab qiladi. Professor-o'qituvchilardan esa TRIZ texnologiyalarini qo'llashga oid maxsus bilim, ko'nikma va malakani talab etadi. Shu bilan bir qatorda TRIZ texnologiyalari o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy topshiriqlarni yechishni kafolatlamaydi.

Xulosa qilganda, bo'lajak pedagoglarda ijodiy faoliyatni amalga oshirish uchun to'sqinlik qiladigan holatlarni ko'ra olish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiyalardan o'rinli va samarali foydalanish zarur. Shu bilan bir qatorda, talabalarda tizimli ijodiy faoliyat ko'rsatish, ijodiy ish jarayonida vujudga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bo'lajak pedagoglarning kreativ bilimlari va ijodkorlik layoqatlarini rivojlantirishdan iborat.

### Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Варлакова Ю.Р. Развитие креативности будущих бакалавров педагогического образования в вузе: Дисс.... на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Красноярск, 2013. – В. 208.

2. Дворецкая Е. В. ART&SCIENCE: Инновации в образовании проблемы педагогической инноватики в профессиональном образовании. Первые Макаренские чтения: Материалы XVIII Международной научно-практической конференции/ – СПб.:РГПУ им. А.И. Герцена, 2017. – С. 498., С. 59–64.

3. Сорокина О.В. Развитие креативности как профессионально-значимого качества личности у студентов-психологовтема. Дисс.... кандидат психологических наук. – Москва, 2010. – С.157.

4. Шовгурова И.В. Формирование креативности будущего учителя технологии на основе гуманитарного изучения этнокультурных традиций: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук : 13.00.08. – Астрахань, 2010. – С. 19.

5. Щербакова Е.Е. Педагогическая креативность как фактор профессионального развития студентов: дис. . д-ра пед. наук: 13.00.08. Чебоксары, 2006. – С. 548.

6. Adilbekovna R. D. Challenges in Teaching English as a Specific Purpose //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 93-97.

7. Shariyevna, K., & Israilova, A. (2020). The importance of listening in foreign language learning. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(09), 643-646.

8. Maksudova G. O. et al. Research of Modern Technologies of Education //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – С. 2483-2485.

9. Karimova Jamila Shariyevna, & Abdujabbarova Oynisaxon Zaxriddin qizi. (2022).

10. INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISHDA

QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR. Conference Zone, 307–310. Retrieved from

<https://conferencezone.org/index.php/cz/article/view/590>

11. Nabiyeva M. S., (2023). FORMATION OF FOREIGN LANGUAGE LEXICAL SKILLS. *Confrencea*, 5(05), 66–72. Retrieved from <https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/599>

12. Qizi, E. D. B., & Khayatovna, A. M. (2023). Expressing Wish at the Lexical Level of the English and Uzbek Languages. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 2(3), 27-30.

13. Karimova, J. S. (2022). Characteristics of Phraseological Units Related to Floronym in Languages (In the Example of English-Russian-Uzbek Languages). *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 1(4), 40-43.

## O'QITUVCHINI KASBIY FAOLIYATGA PSIXOLOGIK TAYYORLASHGA DOIR NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUVLAR

**Ag'ayeva Diyora Zikrilloevna**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
NTM "Pedagogika va o'qitish metodikasi"  
kafedrası o'qituvchisi mustaqil tadqiqotchi

[diyora.agayeva.89@mail.ru](mailto:diyora.agayeva.89@mail.ru)

ORCID: 0009-0001-2987-8664

UDK: 371.11(045)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'qituvchini kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlashga doir nazariy-metodologik yondashuvlar, kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarlikni shakllantirish xususiyatlari izchil ilmiy tahlil qilingan. Mazkur mavzuning dolzarbligi – bugungi kunda yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi, mehnat bozorida mutaxassislarning raqobatbardoshligi muammosi bilan belgilanadi. Tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolar sharoitida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy malakasi asosiy hisoblanadi. Mutaxassisning kasbiy faoliyati kundan kunga murakkablashib borayotganini ko'ramiz, har kuni xodimga yangi talablar qo'yilmoqda. Shu bois, oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga prinsipial jihatdan yangi talablar shakllantirilmoqda. Talabalarning oliy ta'lim muassasalaridagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish muammosi zamonaviy jamiyatdagi eng muhim muammolardan biridir. Universitet bitiruvchilarining ma'lum bir ish joyiga ko'nikishlari uchun hali ham ko'p vaqt talab qilinmoqda. Shuning uchun yosh mutaxassisning kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarligi (psixologik tayyor bo'lishi) xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Kalit so'zlari:** o'qituvchi, oliy ta'lim muassasasi, psixologik tayyorgarlik, kognitiv, motivatsion, irodaviy va hissiy jarayonlar, motiv, temperament tipi, xarakter xususiyatlari.

### THEORETICAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF THE TEACHER FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

**Abstract:** In this article, the theoretical-methodological approaches to the psychological preparation of the teacher for professional activity, the features of the formation of psychological preparation for professional activity are consistently scientifically analyzed. The relevance of this topic is determined by the increasing need for highly qualified specialists today and the problem of competitiveness of specialists in the labor market. In the conditions of rapidly changing social, economic and political problems, the professional qualification of future specialists is the main one. We see that the professional activity of a specialist is becoming more complicated every day, new demands are placed on the employee every day. Therefore, fundamentally new requirements are being formed for the activities of higher education institutions. The problem of developing students' readiness for professional activity in higher education institutions is one of the most important problems in modern society. University graduates still need a lot of time to get used to a certain job. Therefore, it is important to study the psychological readiness of a young specialist for professional activity.

**Key words:** teacher, higher education institution, psychological training, cognitive, motivational, volitional and emotional processes, motive, temperament type, character traits.

**Kirish.** Tadqiqotimizning dolzarbligi bugungi kunda yuqori malakali mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi, mehnat bozorida mutaxassislarning raqobatbardoshligi muammosi bilan belgilanadi. Shu bilan bog‘liq holda, talabalar – bo‘lajak o‘qituvchilarni univerversitetda o‘qitishning yakuniy bosqichida zarurat sifatida o‘rganildi. Tez o‘zgarib borayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolar sharoitida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy malakasi asosiy hisoblanadi. Mutaxassisning kasbiy faoliyati kundan kunga murakkablashib borayotganini ko‘ramiz, har kuni xodimga yangi talablar qo‘yilmoqda. Shu bois, oliy ta‘lim muassasalari faoliyatiga prinsipial jihatdan yangi talablar shakllantirilmoqda.

Talabalarning oliy ta‘lim muassasalaridagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish muammosi zamonaviy jamiyatdagi eng muhim muammolardan biridir. Universitet bitiruvchilarining ma‘lum bir ish joyiga ko‘nikishlari uchun hali ham ko‘p vaqt talab qilinadi. Shu sababdan yosh mutaxassisning kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarligi (psixologik tayyor bo‘lishi) xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Pedagogika lug‘atida mutaxassisning ichki tayyorgarligi “shaxsning, jamoaning kognitiv, motivatsion, irodaviy va hissiy jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi kelgusi faoliyatning muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. Bu bo‘lajak faoliyatga adekvat munosabat, motivatsiya va aqliy resurslarni safarbar qilishdir” [8]. Kasbiy faoliyatning o‘ziga xos tuzilishiga qarab, ishlashga jismoniy va psixologik tayyorlik ko‘rish, deb baholanadi.

Psixolog olimlardan Y.L. Kolominskiy tayyorlik hodisasini shaxs rivojlanishining ma‘lum bir natijasi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qildi [4]. L.V.Lejnina tayyorlikni mutaxassisga ma‘lum bir mehnat funksiyalari to‘plamini bajarishga imkon beradigan shakllangan munosabatlar majmuyi sifatida belgilaydi [7]. O.B. Dmitriyeva kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlikni bitiruvchiga o‘z kasbiy faoliyatini fan va texnikaning zamonaviy talablari darajasida amalga oshirish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi sifatida tushunadi [1]. Tayyorlik fenomeni keng ma‘noda kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti bo‘lib, u shaxsning o‘zi tomonidan, shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimi tomonidan takomillashtiriladi va shakllanadi. Kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlik tushunchasi harakat va mehnatga psixologik tayyorlik tushunchasi bilan bog‘liq. S.L. Rubinshteyn insonning har qanday faoliyati shaxs sifatida va ushbu faoliyatning subyektivi sifatida undan kelib chiqadi, deb yozgan. U faoliyatning birligi, uning dastlabki motivlari va yakuniy maqsadlari bilan faoliyatning o‘zi shaxsning motiv va maqsadlariga aylanadi, deb hisoblaydi. Biz S.L.Rubinshteynning nuqtayi nazariga amal qilamiz, u faoliyatning psixologik tomonini o‘rganish orqali biz faoliyat jarayonida shaxsning psixologik mohiyatini o‘rganamiz, deb ta‘kidlaydi [9].

Yuqoridagi taniqli olimlarning nazariy tahlillariga asoslanib, biz har qanday ish uchun umumiy psixologik tayyorgarlik va ma‘lum bir ish turiga, ya‘ni ma‘lum bir kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlik tushunchalarini farqlash mavjudligini aytish mumkin deb hisoblaymiz. Kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarlikning muhim parametrlari funksional, shaxsiy va shaxsiy-faollik yondashuvlari nuqtayi nazaridan asoslanishi mumkin. T.B. Kryukova psixologik tayyorgarlikni muhim natijalarga erishishga yordam beradigan holat sifatida tushunadi (funktional yondashuv) [5]. Shaxsiy yondashuvda tayyorlik ma‘lum bir shaxsga xos xususiyat yoki fazilat sifatida belgilanadi. Shaxsiy faoliyat yondashuvi tarafdorlari uni o‘rganilayotgan hodisalarning xususiyatlari va jarayonlar nuqtayi nazaridan talqin qilish sintezi sifatida tushunadilar. T.B. Kryukovanning pozitsiyasida turib qaraganimizda, unga ko‘ra funksional yondashuv doirasidagi faoliyatga

tayyorlik ma'lum bir faoliyatda yuqori darajadagi muvaffaqiyatni ta'minlaydigan ma'lum bir ruhiy holat sifatida belgilanadi.

V.F. Jukovanning ta'kidlashicha, faoliyatga psixologik tayyorgarlik insonga mavjud bilim, ko'nikma va qobiliyatlardan foydalangan holda, shaxsiy fazilatlarini faollashtirib o'z kasbiy vazifalarini samarali va sifatli bajarish imkoniyatini beradi [3]. Shu munosabat bilan XXI asrning boshlanishidan boshlab har xil turdagi faoliyatga psixologik tayyorgarlik muammosi jahon psixologiyada dolzarb bo'lib qoldi. Ushbu sohada bugungi kunda faoliyatga psixologik tayyorlik tushunchasining bir xil mazmun-ma'noni anglatuvchi talqini ham, qabul qilingan yagona ta'rifi ham mavjud emas.

Faoliyatga tayyorlikni shaxsning ruhiy holati deb ta'riflagan olimlardan biri N.D. Levitovdir. U faoliyatga tayyorlikni aqliy jarayonlar va shaxsiy xususiyatlar o'rtasidagi oraliq pozitsiya deb tushunadi. Ushbu jarayonlar samarali kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan umumiy funksional darajani ta'minlaydi. E.P. Ilin psixologik tayyorgarlikni funksional holat orqali belgilaydi, bu mehnat qobiliyatining uzoq muddatli saqlanishi, optimal holatning barqarorligi, rivojlanishning eng yuqori tezligi va kuchning tiklanishi, maksimal funksiyalarning yuqori barqarorligi, tashqi ta'sirlarga reaksiyalarning adekvatligi bilan ifodalanadi [2].

L.A. Kandibovich va M.I. Dyachenkolar faoliyatga tayyorlikni "shaxsning e'tiqodlari, qarashlari, munosabati, motivlari, his-tuyg'ulari, irodaviy va intellektual fazilatlarini, bilimlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari, munosabatlari, muayyan xatti-harakatlarga kayfiyatini birlashti-radigan maqsadli ifodasi" deb tushunadilar va psixologik tayyorlikni shaxsning murakkab, maqsadli ko'rinishi sifatida ifodalaydilar.

R.D. Sanjayeva dissertatsion tadqiqotida faoliyat konsepsiyasi orqali tayyorlikni shakllantirish mexanizmlarini belgilaydi [10]. U psixologik tayyorgarlikni murakkab dinamik shakllanish kontekstida ko'rib chiqadi, bu uning ikkita asosiy xususiyati: hissiy-psixologik holat va shaxsning psixologik xususiyatlari o'zaro ta'sirini ta'minlaydi. Ular, o'z navbatida, birining ikkinchisi bilan muvozanatida namoyon bo'ladi. Ko'nikmalar, kognitiv shakllanishlar, barqaror reaksiyalar ko'rinishidagi hissiy tamoyillar, e'tiqodlar va xatti-harakatlar to'plami insonning ma'lum bir faoliyatga psixologik tayyorgarligini shakllantirish ifodasidir.

A.A. Derkach va D.A. Vodopyanovlar shaxsiy yondashuv tarafdorlari bo'lib, kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlikni mazmunga ega bo'lgan ajralmas shaxsiy ta'lim deb bilishadi.

Tayyorlikni ruhiy holat sifatida talqin qilgan A.K. Markovanning pozitsiyasini qiziqarli deb hisoblaymiz. Unga ko'ra, "Ish faoliyatiga kirishdan oldin", o'z maqsadlari, ularga erishishning mumkin bo'lgan usullari va amalga oshirish shartlarini tahlil qilish to'g'risida xabardor bo'lish-dir [7]. Aynan shu uch parametrning mavjudligi bo'lajak bitiruvchiga kerakli kompetensiyalarni egallash va kasbiy faoliyat sharoitlariga moslashish imkonini beradi.

Psixologik tayyorgarlikni shaxsiy-faoliyat yondashuvi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqqan A.O. Murugova va I.S. Morozovlar tanlovga psixologik tayyorgarlikni psixologik holat sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladilar. Faoliyatga tayyorlik va uning subyektiv baholangan vaziyatini tahlil qilish asosida qaror qabul qilish faktini belgilaydigan murakkab ko'p komponentli tabiatini anglashdir. Tayyorlikni shakllantirish uning barcha bosqichlarida faoliyatni amalga oshirish uchun zaruriy shartdir.

O'rta maktab o'quvchilarining kelajakdagi kasbiy faoliyatni tanlashga tayyorligini muhokama qilib, Z.V. Kresan va E.V. Morozovlar hayotiy tajribani idrok etish imkoniyatlariga tayanib javob variantlarini tahlil qilish va qaror qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydigan tarkibiy qismlarni asoslash nuqtayi nazaridan

tayyorgarlikning muhim xususiyatlarini tavsiflaydilar.

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilish murakkab tuzilishga ega bo'lgan ko'p o'lchovli tizimli shakllanish sifatidagi kasbiy faoliyatga tayyorlik haqida gapirish imkonini beradi. Biz V.A. Slastenin va L.S. Podimovanning nuqtayi nazariga yaqinmiz, ular shaxsning asosiy xususiyatlaridan biri uning kasbiy faoliyatga tayyorligi ekanligini yozgan. Tayyorlik – bu yaxlit mexanizm bo'lib, uning markazida shaxsning faoliyatga amaliy tayyorligi yotadi [11].

Aksariyat mualliflar kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlikni shaxsning faoliyatga umumiy tayyorgarligining tarkibiy qismlaridan biri deb bilishadi va psixologik omillar bilan belgilaydi: shaxsiy xususiyatlari (temperament tipi, xarakter xususiyatlari va boshqalar), bilim, ko'nikma, tayyorgarlik darajasi, hodisalar va ularning oqibatlaridan umumiy xabardorlik va boshqalar. Talabalik davrida kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarlikni shakllantirish xususiyatlariga biz quyidagilarni kiritishimiz mumkin: hayotda o'z o'rnini topish istagi va hayotiy maqsadlar va rejalarni shakllantirish; yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash; individual o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini rivojlantirish; faoliyatga tayyorlik va boshqalar.

O'quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini murakkab hodisa sifatida ko'rib chiqish zarur, ya'ni insonning kasb ma'nosini, shu kasbda o'zini anglashini, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashini, kasbiy faoliyat sohasida muhim fazilatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy kasb-hunar ta'limi talaba shaxsini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi va uning hayoti va kasbiy yo'nalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda umumiy va ta'lim psixologiyasida talabani oliy o'quv yurtida kasbiy faoliyatga tayyorlash, uning psixologik tayyorgarligi, kasbiy va shaxsiy sifat va malakalarini shakllantirish muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Xulosa** qilib aytganda, talabalarning kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarligi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish, o'z bilimlari, ko'nikmalari, shuningdek, shaxsiy fazilatlari, tajribasidan samarali foydalanish, o'zini o'zi boshqarish va kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelganda faoliyatini qayta qurish yo'lidagi asosiy tarkibiy qismdir. Psixologik tayyorgarlik – bu mutaxassisning ma'lum bir faoliyatni darhol yoki uzoq muddatli bajarish uchun resurslarini safarbar qilish sifatida tavsiflangan ruhiy holat. Kasbiy faoliyat ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat bo'lib, uni amalga oshirish maxsus bilim, ko'nikma va malakalarni talab qiladi, biz shaxsning psixologik tayyorgarligining mazmunli xususiyatlarini hisobga olishni zarur deb hisoblaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Дмитриева О.Б. Формирование психологической готовности молодых специалистов к профессиональной деятельности: дис. ... канд. пси. наук. – М., 1997. – С 188.
2. Ильин Е.П. Дифференциальная психология профессиональной деятельности. СПб.: Питер, 2008. – С 428.
3. Жукова В.Ф. Психолого-педагогический анализ категории «психологическая готовность» // Известия Томского политехнического университета. 2012. Т. 320. № 6. – С. 117–121.
4. Коломинский Я.Л. Исследование закономерностей онтогенеза личности в белорусской социально-психологической традиции // Современное дошкольное образование. Теория и практика. 2013. № 9. – С. 40–45.
5. Крюкова Т.Б. Современные подходы к исследованию проблемы психологической готовности к деятельности в электроэнергетической сфере // Вестник ИГЭУ. 2011. № 1. – С. 155–160.

6. Лежнина Л.В. Готовность психолога образования к профессиональной деятельности: этапы, механизмы, технологии формирования: дис. ... д-ра психол. наук. –М., 2010. – С.473.
7. Маркова А.К. Психология профессионализма. М.: Междунар. гуманитар. фонд «Знание», 1996. – С.308.
8. Педагогиканинг замонавий луғати / комп. Э.С. Рапацевич. Мн.: Замонавий сўз, 2001. – В 64.
9. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб Питер, – С.720.
10. Санжаева Р.Д. Психологические механизмы формирования готовности человека к деятельности: дис. ... д-ра психол. наук. –Новосибирск, 1997. – С.354.
11. Слостенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. –М.: Магистр, 1997. – С.223.

### **BOJXONA XIZMATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PROFAYLINGDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI**

**Abdiazizov Elyor Ixtiyor o'g'li**  
O'zbekiston Respublikasi  
Strategik tahlil va istiqbolni belgilash  
oliy maktabi tinglovchisi,  
[eabdiazizov@gmail.com](mailto:eabdiazizov@gmail.com)  
ORCID: 0009-0002-5040-8453  
*UDK: 159.9*

**Annotatsiya:** Hozirgi global dunyoda xavf-xatarlarning turi va o'lchami ham kengaymoqda, tahdidlarning transchegaraviylik qiymati yo'qolib bormoqda. Ularni bartaraf etishda zamon talablariga xos usul va metodlarni ishlab chiqish, rivojlantirish davr talabidir. Ushbu xavf-xatarlarga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan, bojxona organlari ham zamon talablariga mos ravishda ish olib borishi, psixologik bilimlarni bilishi hamda ularni amaliyotda qo'llay olishi juda ahamiyatlidir. Profayling usuli xodimlarga jinoyatlarni oldindan aniqlash, subyekt haqida ma'lumot berish, xavfni oldindan bashorat qilish imkoniyatini beradi. Hozirgi kunda dunyo huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida xavflarni tahlil etish uchun psixologiya usullaridan biri bo'lgan profaylingdan keng foydalanilmoqda.

Ushbu maqolada bojxona xizmatining samaradorligini oshirishda profaylingdan foydalanish istiqbollari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, statistik ma'lumotlar bilan foydalanish samaradorligining yuqoriligi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** profayling, bojxona xizmati, bojxonachi, samaradorlik, psixologik bilimlar.

### **PROSPECTS OF USING PROFILING IN IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE CUSTOMS SERVICE**

**Abstract:** In today's global world, the type and size of threats are expanding, and the cross-border value of threats is disappearing. To eliminate them, it is the demand of the contemporary society to develop specific methods of the requirements of it. In combating these dangers, it is very important for law enforcement agencies, in particular, customs authorities, to work in accordance with the requirements of the contemporary society, to know psychological knowledge and to be able to apply it in practice. The profiling method allows employees to detect crimes in advance, provide information about the subject, and predict the risk in advance. Currently, profiling, one of the psychological methods for risk analysis, is widely used in the activities of law enforcement agencies around the world.



This article illustrates about the prospects of using profiling to improve the efficiency of the customs service. Also, the high efficiency of statistical data use has been depicted.

**Key words:** profiling, customs service, customs officer, efficiency, psychological knowledge.

**Kirish.** Bugun bojxona xizmati har tomonlama “aqlli” texnologiyalar bilan qurollanmoqda, avtomatlashmoqda, onlayn rejimda ishlashga bosqichma-bosqich o'tmoqda. Maqsad aniq – bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish orqali yo'lovchilar va TIF ishtirok-chilariga ishlash hamda chegara orqali qisqa vaqt ichida O'zbekiston Respublikasiga kirishda va chiqishda, ularning bojxona postlarida ortiqcha vaqt sarflab turib qolishlariga yo'l qo'ymaslik.

Keyingi yillarda qabul qilinayotgan qonun hujjatlari ham ana shu maqsadga qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi va Prezidentning “O'zbekiston Respublikasi bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoniga (27.04.2022-yildagi PF-122-son) muvofiq fuqarolarni bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazish sharoitlarini jahon standartlariga muvofiqlashtirish, bojxona rasmiyatchiligini soddalashtirish, nazoratning samarali usullarini qo'llash, shuningdek, turizmni rivojlantirish uchun yanada qulay sharoitlarni yaratish maqsadida qabul qilingan edi. Bu sa'y-harakatlar postdan o'tuvchilar uchun har qancha yengillik yaratmasin, lekin xavfsizlik borasida bojxonachilardan ko'proq mas'uliyat va sergaklikni talab qiladi. Minglab postdan o'tuvchilar orasidan ayni jinoyatchini topish bojxona xodimidan inson ruhiyati, psixologiyasini bilishni taqozo etadi. Bojxona xodimi yangi sharoitlarda bojxona chegarasini kesib o'tayotgan fuqarolarni tanlab, shubhali xatti-harakatlarni amalga oshirayotganlarni bojxona nazoratidan o'tkazishi, ular bilan muloqotga kirishishi, muloqot samaradorligiga erishishi, fuqarolarni so'rab-surishtirishi va shu jarayonda huquqbuzarlik holatlarini aniqlashi lozimdir.

Yuqoridagi holatlar, bojxona xodimlari kasbiy faoliyatida profayling (shaxs to'g'risida axborot beruvchi belgilar, tashqi qiyofa va o'zini tutish tavsiflari tahlili asosida insonning o'zini tutishini baholash va bashorat qilishning uslub va uslubiyotlari majmuasi) texnologiyasidan foydalanishning o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatadi. Aynan profayling texnologiyasi orqali bojxonachilar shaxsning verbal va noverbal xatti-harakatlari orqali uning xulq-atvorini tahlil qila olishlari mumkin. Hozirda profaylingdan bojxonachilarning kasbiy faoliyatida foydalanish va uni keng tadbiiq etish eng ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Profayling usuli XX asrning 70-yillarida Isroildagi “El-Al” aviakompaniyasi tomonidan qo'llanila boshlagan. U yo'lovchilarni havo transportida tashish bilan bog'liq xatarlar ehtimolini pasaytirishga yo'naltirilgan va uchishdan oldingi tekshiruv vaqtida qo'llanilar edi. Odatda, bu yo'lovchilarning oddiy bo'lib tuyuluvchi savollarga nostandart reaksiyalarini aniqlashga qaratilgan savollar majmuasi bo'lgan [1].

Keyinchalik, 1984-yilda ushbu usul, ICTS kompaniyasi tomonidan ingliz tilidagi variantda “modellashtirildi” va ko'pgina Yevropa davlatlari hamda AQSHdagi aviatsion xavfsizlik xizmatlari tomonidan qo'llanila boshlandi. Shu bilan parallel tarzda Pol Ekman Grupp kompaniyasi (amerikalik psixolog Pol Ekman tomonidan tashkil etilgan va emotsional ekspressiyalarni o'rganish bilan shug'ullangan) odamning emotsional holatini o'qish imkonini beruvchi bir qator kompyuter dasturlarini ishlab chiqdi. Pol Ekman tomonidan yaratilgan maxsus dasturlarni, nafaqat AQSH aeroportlarida, balki, davlat xavfsizligi bilan shug'ullanuvchi boshqa tuzilmalarda ham faol qo'llay boshlashdi [2].

Profayling usulining o'rganishning ildizlari Shimoliy Amerika va G'arbiy Yevropaning psixologik maktablariga boradi va asosan bixevioristik yondashuvlarga tayanadi. Profayling usulini o'tgan asrning 80-, 90-yillarida P. Ekman, O. Fray, D. Matsumoto, D. Morris, R. Plutchik, Dj. Xesset, D. Efron, L. Laundes, V.F. Birkenbil, M. Nepp, D. Xoll, K. Izard, F. Farelli, D. Brandsma, D. Navarro, M. Karlins [3] kabi psixologlar tomonidan AQSH va Yevropa davlatlarida tadqiq etilganligini ushbu olimlarning ilmiy asarlarida ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, rus psixologlari profaylingni amaliy jihatdan o'rganib, shaxsning hissiy-emotsional holatini baholash va ularning xatti-harakatlaridagi farqli jihatlarni qiyosiy tahlil qilganlar (A.Y. Brodetskiy, A.P. Yegides, Y.P. Ilin, A.R. Luriya, V.V. Ponomarenko, P.V. Simonov, Y.V. Sherbatix va boshqalar).

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shu o'rinda qayd etish kerakki, profayling tizimiga oid yondashuvlarning turlicha ekanligi, uni tashkiliy-huquqiy jihatdan tartibga solish jarayonlarini murakkabligi, joriy holatda respublikamizda bu tizimning institutsional va normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'zlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarida ushbu texnologiyani qo'llashga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, bojxona xizmati xodimlari ushbu yo'nalishda sezilarli natijalarga erishmoqdalar. Ko'plab statistik ma'lumotlarni tahlil qilganimizda bojxona nazorati samaradorligini so'nggi vaqtlarda sezilarli ravishda oshganligini ko'rishimiz mumkin.

**Natijalar va muhokama.** Biz bojxona xizmati xodimlarini profaylingga oid bo'lgan kasbiy kompetensiyalar bilan doimiy ravishda ta'minlab turishimiz darkor. Chunki yildan yilga xavf darajasi oshib bormoqda. Quyidagi statistik ma'lumotlardan ham ayon bo'ladiki (1-jadval), 2021-yilga qaraganda 2023-yilda sezilarli tarzda bojxona qonun buzilish holatlari ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Yoki bo'lmasa, ayol huquqbuzarlik ham yildan yilga oshib bormoqda va shu bilan birga xorijiy davlat fuqarolarining ham qoidabuzarlik sodir etayotganligi statistikasi ko'tarilmoqda. Bu bojxona uchun ijobiy natija bo'lishi mumkin, chunki qonunbuzarlik holatlari aniqlanmoqda. Xodimlarning profaylingga oid bo'lgan bilimlari iloji boricha bilim va malakasi oshirilmoqda.

*1-jadval*

Umumiy huquqbuzarlik sodir etgan fuqarolar soni

Yil	Umumiy huquqbuzarlik sodir etganlar soni	Shulardan (jins)		Shulardan (fuqaroligi)	
		erkak	ayol	o'zbek	xorijiy
2023	22 610	19 213	3 397	21 398	1 212
2022	17 673	14 606	3 086	16 657	1 035
2021	11 673	10 407	1 266	10 952	721
Jami	51 956	44 226	7 749	49 007	2 968

Agar aeroportlardan aniqlanayotgan holatlarni ham tahlil qilsak, natijalar ko'tarilayotganligini ko'rishimiz mumkin (2-jadval). Bu, albatta, so'nggi paytlarda aeroportlarga o'rnatilayotgan aqlli kameralar va xodimlarning ularni aniqlashga oid ko'nikmalari oshayotganligidan darak berishi mumkin.

*2-jadval*

Umumiy huquqbuzarlik sodir etgan fuqarolar soni

Yil	Umumiy huquqbuzarliklar soni	Shulardan	
		Yashil yo'lakda	Qizil yo'lakda
2023	2 396	1 769	601
2022	2 429	1 960	469

2021	1 652	1 311	341
Jami	6 477	5 040	1 411

Yuqoridagi jadvaldan ham ayonki, qoidabuzarliklarning deyarli 70 % yashil yo‘lakda aniqlangan. “Yashil” yo‘lak – kirib kelish va chiqib ketish joylarida maxsus belgilangan, jismoniy shaxslarning notijorat maqsadlardagi qo‘l yuki va kuzatib borilayotgan bagajidagi tovarlarini bojxona chegarasidan olib o‘tishi uchun mo‘ljallangan joy hisoblanadi. Jismoniy shaxsning “yashil” yo‘lak orqali o‘tishi bojxona maqsadlari uchun ushbu shaxsda yozma ravishda deklaratsiyalanishi lozim bo‘lgan tovarlar yo‘qligini bojxona organiga ma‘lum qilish deb qaraladi. “Yashil” yo‘lakdan harakatlanayotgan jismoniy shaxslarning aksariyati bojxona qoidalarini buzmaydigan yo‘lovchilardan iborat. Biroq, yashil yo‘lak orqali giyohvandlik vositalari, qurol-yarog‘ va bojxona chegarasi orqali erkin harakatlanishi taqiqlangan predmet-larni olib o‘tishga urinadigan shaxslar ham yo‘q emas.

2023-yilgi statistik ma‘lumotlarga kelsak, umumiy hisobda 480 ta holatda kontrabanda ashyosi sifatida giyohvandlik vositalari aniqlanib, tegishli tartibda javobgarlikka tortilgan.

**Xulosa va takliflar.** Bojxona xizmati xodimlari samaradorligini oshirishda profaylingga oid bo‘lgan kasbiy kompetensiyalari sifatlarini shakllantirishda psixologik tayyorgarligiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Psixologik tayyorgarlik xodimlar kasb mahoratining kompleks tarkibiy qismidir. U xodimning shakllangan va rivojlangan psixologik xususiyatlari majmuasi bo‘lib, operativ xizmat faoliyatining o‘ziga xos va muhim psixologik xususiyatlariga javob beradi va uni amalga oshirishning zarur shart-sharoitlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. U to‘rt guruhga kiruvchi tarkibiy qismlardan iborat:

- xodimning kasbiy psixologik mo‘ljallari va his-tuyg‘ulari (o‘zi ishlayotgan vaziyatlarni psixologik jihatlarini va kishilarni tushunishga intilishi, qiziqishlari va ularni tushuna olishi);

- xodimning kasbiy harakatlar va taktikaning samaradorligiga oid psixologik jihatlar bo‘yicha tayyorgarligi. Ushbu tayyorgarlik kasbiy harakatlar samaradorligining psixologik sharoitlarini tushunishda va ularni yarata olishda; kasbiy (nutqiy va nutqsiz) harakatlarni amalga oshirishning psixologik vositalaridan mahorat bilan foydalanish, operativ xizmat vazifalarining samaraliroq hal etilishini ta‘minlovchi psixologik usullarning butun kompleksini mohirlik bilan qo‘llay olishda namoyon bo‘ladi;

- xodimning rivojlangan kasbiy kuzatuvchanligi va xotirasi (kasbiy kuzatish samaradorligini oshirish uchun psixologik asoslangan usul va qoidalarni qo‘llash mahoratini o‘z ichiga oladi), rivojlangan kasbiy diqqatlilik, sezgi va tasavvur organlarining mashq orqali rivojlanganligi, hal etilishi kerak bo‘lgan vazifalar uchun muhim bo‘lgan ma‘lumotlarni tez, to‘liq va aniq esda olib qolish, xotirada yaxshi saqlash va to‘g‘ri bayon etish bo‘yicha mashq qilganlik;

- psixologik barqarorlik (xodimning operativ xizmat faoliyatining psixologik jihatdan murakkab, hissiy jihatdan tarang, xavfli va mas‘uliyatli vaziyatlarda xotirjam va ishonch bilan harakat qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi).

Profayling usuli bojxona xizmati tizimining barcha sohalarida unumli foydalansa bo‘ladigan usuldir. U odamlarning o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-ma‘naviy munosabatlari, aloqalarining yig‘indisidan tashkil topadi. Bu usulning asosida kuzatish, verbal va noverbal mulqot shakllari, mantiqiy fikrlash, muomala madaniyati va boshqa jihatlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Qodirov M.S., Shomirzayev S.A. Bojxona profaylingi. Uslubiy qo‘llanma. – T.: BH, 2019. – B. 65.

2. Статный В.М, Кудин В.А. Профайлинг в деятельности органов внутренних дел: от теории и методологии к практике. Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. 2013. — № 3 (59). — С.6.

3. Qodirov M.S., Bojxona xizmati xodimlari kasbiy faoliyatida profayling texnologiyasini rivojlantirish masalalari. Sovremennoye obrazovaniye. (Uzbekistan). 2019(11 (84)):34-41.

## IJTIMOYIY-MADANIY SOHADAGI BOSHQARUV FAOLIYATINING GENDER XUSUSIYATLARI

**Maxatova Nozima Ismatillo qizi**

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti,

[shahboz\\_01011991@mail.ru](mailto:shahboz_01011991@mail.ru)

ORCID: 0000-0002-4116-9799

UDK: 159.9

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy-madaniy sohadagi boshqaruv faoliyatining gender xususiyatlari, millatning intellektual salohiyati va jamiyatning ma'naviy hayotini shakllantirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ijtimoiy-madaniy sohada hamda ayollar yetakchiligining samaradorligi tahlil qilingan.

Ijtimoiy munosabatlarni modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish jarayonida ijtimoiy-madaniy soha alohida ahamiyatga ega, chunki aynan unda millatning intellektual salohiyatini shakllantirish va jamiyatning ma'naviy hayotini yuksaltirish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo'ladi. Shu sababli, ushbu sohani boshqarish imkoniyatlari sotsiolog va psixologlar tomonidan e'tibordan chetda qolishi mumkin emas. Ayollar yetakchiligi tushunchasi atrofida qanday bahs-munozaralar bo'lmasin, ayollar yetakchiligi fenomenining ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Ayolning yetakchi bo'lish imkoniyati emas, balki ayollarning yetakchilik fazilatlarini qanday qilib eng samarali amalga oshirish ilmiy qiziqish uyg'otadi. Muallif mavzu doirasidagi ilmiy bahslarga tayanib, ijtimoiy-madaniy sohadagi boshqaruv faoliyatining gender xususiyatlariga (ayollar yetakchiligiga) doir ilmiy xulosa va tavsiyalarini ilgari sura olgan.

**Kalit so'zlar:** gender, erkak, ayol, rahbar, jamiyat, xizmat ko'rsatish, biologik jins, ayol rahbar, fenomen, gender boshqaruv, gender tafovutlar, ambitsiyalar.

## GENDER CHARACTERISTICS OF ADMINISTRATIVE ACTIVITY IN THE SOCIO-CULTURAL FIELD

**Abstract:** This article analyzes the gender characteristics of management activities in the socio-cultural sphere, the conditions created for the formation of the intellectual potential of the nation and the spiritual life of the society, the effectiveness of women's leadership in the socio-cultural sphere.

In the process of modernization and rapid development of social relations, the socio-cultural sphere is of particular importance, because it is in it that the necessary conditions exist for the formation of the intellectual potential of the nation and the improvement of the spiritual life of the society. Therefore, sociologists and psychologists cannot ignore the possibilities of managing this field. Regardless of the debate surrounding the concept of women's leadership, the importance of the phenomenon of women's leadership cannot be ignored. It is not a woman's opportunity to become a leader, but how to most effectively implement women's leadership qualities that arouses scientific interest. The author was able to put forward scientific conclusions and recommendations on the gender characteristics of management activities in the socio-cultural sphere (women's leadership) based on scientific debates within the topic.

**Key words:** gender, male, female, leader, society, service delivery, biological sex, female leader, phenomenon, gender management, gender differences, ambitions.

**Kirish.** Ijtimoiy munosabatlarni modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish jarayonida ijtimoiy-madaniy soha alohida ahamiyatga ega, chunki aynan unda millatning intellektual salohiyatini shakllantirish va jamiyatning ma'naviy hayotini yuksaltirish uchun shart-sharoitlar yaratilgan [5]. Shu sababli, ushbu sohani boshqarish imkoniyatlari sotsiolog va psixologlar tomonidan e'tibordan chetda qolishi mumkin emas. Ayollar yetakchiligi tushunchasi atrofida qanday bahs-munozaralar bo'lmasin, ayollar yetakchiligi fenomenining ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Ayolning yetakchi bo'lish imkoniyati emas, balki ayollarning yetakchilik fazilatlarini qanday qilib eng samarali amalga oshirish ilmiy qiziqish uyg'otadi [4]. Xoh biznesda, xoh korporatsiyada yoki davlat sektorida, ayollar o'zlarining yetakchilik va samarali yetakchilik qobiliyatini isbotlab kelmoqdalar. Ayol menejerlar muvaffaqiyatga erkaklar boshqaruv uslubiga taqlid qilish natijasida emas, balki o'z qobiliyatlaridan ijodiy foydalanish orqali erishadilar.

Xizmat ko'rsatish sohasi an'anaviy ravishda ayol xodimlarning vakolati bo'lib kelgan. Milliy iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish iqtisodiyotiga aylanishi bilan bu hodisa aks-sado berdi. T.D. Burmenko, N.N. Danilenko va T.A. Turenkoning so'zlariga ko'ra, agar sanoat iqtisodiyotida erkaklik prinsipi ustun bo'lsa, xizmat ko'rsatish iqtisodiyotida ayollarga ustunlik beriladi [2]. Shunday qilib, restoran va mehmonxona sanoatida ayol o'choq qo'riqchisining madaniy o'rnatilgan (yuksalgan) rolini bajaradi. Ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalarda ham deyarli shunday holat kuzatilmoqda.

Ayollarning xizmatga ijodiy yondashishi erkaklarnikiga nisbatan ancha yorqin namoyon bo'layotganini alohida ta'kidlamochimiz. Ichki makon yoki "xizmat ko'rsatish landshafti" masalasi ayollar tomonidan ancha samarali hal qilinadi [9]. Aynan ular xizmat ko'rsatish korxonalarida ishonchli uy muhitini yaratishga muvaffaq bo'lishadi, bu esa mijozlarni jalb qilishga ta'sir qilmaydi. Qulay ichki makon, ayniqsa, psixologik yengillik elementi bo'lgan dam olish korxonalarida muhimdir.

Ayollarning xizmat ko'rsatish sohasini "zabt etish" istagi va ularning kuchli yarmiga nisbatan an'anaviy "hayratlanishlari" o'rtasida qarama-qarshilik mavjud. Ushbu qarama-qarshilik ijrochi va mijoz tomonidan xizmat ko'rsatishga bo'lgan yondashuvlar o'rtasidagi klassik nomutanosiblik bilan bog'liq. Uning mohiyati shundaki, ijrochi, birinchi navbatda, umumiy qabul qilingan standartlarga, mijoz esa o'zining va uning atrofida gilarning iste'mol tajribasiga e'tibor beradi. Bundan tashqari, ayol muhitida bu qarama-qarshilik ayniqsa keskin.

Turli boshqaruv vaziyatlarini tahlil qilish ayol tabiatining xilma-xilligi tufayli ayol boshqaruv uslubi o'zining namoyon bo'lishiga ancha boy ekanligini tasdiqlovchi bir qator xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Boshqaruvning eski modellaridan uzoqlashish ayollarni boshqaruv sohasiga jalb qilishni nazarda tutadi. Gender boshqaruvining mazmuni va tamoyillarini ochib berish, yetakchilik funksiyalarini amalga oshirish samaradorligi ikkala jins vakillarining yetakchilik xatti-harakatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali namoyon bo'ladi. Shunday qilib, rus psixologi T.V. Bendas turli xorijiy tadqiqotlar davomida uch turdagi empirik ma'lumotlar olinganligini ta'kidlaydi: 1) ayol rahbarlar na yetakchilik uslubida, na faoliyatining samaradorligida, na og'zaki dirijyorlikda erkak liderlardan farq qilmagan; 2) turli jinsdagi rahbarlar o'rtasidagi farqlar umumiy gender farqlarining aksi edi; 3) ayol rahbarlar erkaklarnikidan farq qiladi, lekin kutilgan gender farqlariga qarama-qarshi yo'nalishda [1].

Xo'sh, ayolning yetakchilik uslubi va erkaklarniki o'rtasidagi farq nima? Ayollarning boshqaruvga yondashuvi insonparvar boshqaruv bilan bog'liq. Bunday

menejmentning mohiyati tashqi muhitning doimiy o'zgaruvchan talablariga va yuqori raqobatga nisbatan ko'proq ochiqlik va moslashuvchanlikka o'tishdir (bu turizm va restoran biznesi uchun muhimdir).

Shuni ta'kidlash kerakki, ayollar muvaffaqiyatli boshqaruv texnologiyalarini o'zlashtirishda nafaqat erkaklar bilan birga, balki o'z tamoyillarini ham ishlab chiqdilar. Xotin-qizlar boshqaruvining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ayollar kamroq ambitsiyalarga ega emaslar, lekin ular hokimiyat uchun hokimiyatga da'vo qilmaydilar, shuning uchun ular qattiq iyerarxiyaga ega tashkilotlar bilan tavsiflanmaydi;

- ayollar zarar bermaslikka intiladilar, nizolar hal qilingan taqdirda ular tinch natijaga erishishga imkon beradi, ma'naviy va psixologik ta'sir choralari murojaat qiladi. Shu bilan birga, ayollar qo'l ostidagilar bilan hamkorlik turiga, har bir shaxsning hissasi va ahamiyatini tan olishga ko'ra munosabatlarni o'rnatishga moyildirlar;

- kompaniyadagi iyerarxiya o'rindan qat'i nazar, har bir xodimning o'rni va qiymatini bilish, e'tibor belgilarini ta'minlash uchun texnologiyadan foydalanish. Ayollar o'z kuchlarini tashkilotdagi rasmiy maqom bilan emas, balki shaxsiy xususiyatlar bilan bog'lashadi; ular qo'l ostidagilar bilan o'zaro munosabatlarda qulay muhit yaratishga, ularning ishlarda ishtirokini rag'batlantirishga, kuch va ma'lumot almashishga, bo'ysunuvchilarning qobiliyatlarini oshkor qilishni rag'batlantirishga harakat qilishadi [3].

Ayol rahbarlar vazifaga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin, erkak rahbarlar esa guruh ichidagi munosabatlarga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin, bu shaxsiy xususiyatlar yoki vaziyat talablari bilan bog'liq bo'lishi mumkin, lekin gender xususiyatlarga bog'liq emas. A.Chirikovaning qayd etishicha, xususiy tadbirkorlar bilan olib borilgan tadqiqotlar ayol va erkak yetakchiligining o'ziga xos xususiyatlarini bo'rttirib ko'rsatmaslik kerak. Yetakchilik fazilatlarini umumiy xususiyatga ega bo'lib, bevosita jinsdagi farqlarga bog'liq emas. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, erkak va ayol direktorlarning nisbatan bir-biriga mos keladigan fazilatlarini quyidagilardir: nizo va xavf tahdidi sharoitida harakat qilish qobiliyati, o'zgarishlarga doimo tayyor bo'lish, innovatsiya qilish qobiliyati, ko'nikmalardan samarali foydalanish qobiliyati, boshqa odamlarning qobiliyatlariga e'tibor, bosim va bosimga qarshi turish, o'z pozitsiyasini himoya qilish qobiliyati [8]. Bu shuni anglatadiki, erkaklar ham, ayollar ham boshqarish uchun deyarli teng imkoniyatlarga ega.

Shuningdek, ayol boshchiligidagi guruh tomonidan maqsadlarga erishish uning o'ziga xos boshqaruv uslubi tufayli kamroq samarali deb hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, yetakchi ayollar erkaklar kabi natijalarga erishishga qaratilgan, shaxslararo munosabatlarga e'tibor qaratish samarali strategiyadir, chunki u bo'ysunuvchilarni tegishli motivatsiyaga olib keladi va maqsadga erishish uchun ularning qobiliyatlarini va ko'nikmalarini to'liqroq ochib beradi. Ayol lider sifatida jamoadagi munosabatlarni chuqurroq his qiladi, boshqa odamlarning xatti-harakatlarini intuitiv ravishda baholaydi, odamlar o'rtasidagi munosabatlarga va o'ziga nisbatan sezgirroqdir.

Ayol rahbar muvaffaqiyatga erkakcha uslubni qo'llash orqali emas, balki boshqaruvning o'ziga xos "ayol uslubi"ni yaratish va rivojlantirish orqali erishadi. Menejer ayollar o'zlarining xarakter xususiyatlari va xulq-atvor xususiyatlari tufayli yaxshi natijalarga erishadilar. Mutaxassislar fikricha, ayollar zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lsa, har qanday darajadagi kompaniyalarni boshqarishga qodir. G'arb tadqiqotchilari ayollarning biznesda yetakchi o'rinlarni egallashlari va tegishli ta'lim darajasi uchun zarur bo'lgan shartlarga ishora qiladilar. V.Nayserning fikricha, ta'lim insonga harakatning ko'proq muqobil imkoniyatlarini ko'rish imkonini beradi.

Uning ta'kidlashicha, oliy ma'lumotli menejerlar ko'proq original va mustaqil qarorlar qabul qilishadi [6].

Xalqaro xotin-qizlar forumi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, erkak va ayol yetakchilik uslublari o'rtasida farq va o'xshashliklar bor. Xususan, asosiy farq ayollar va erkaklar o'zlarining yetakchiliklariga beradigan baholaridadir. Misol uchun, ayol menejerlar o'zlarining yutuqlariga ko'proq ijobiy munosabatda bo'lishadi. Ular o'z oldiga qo'ygan ishlarining ko'pchiligida muvaffaqiyatga erishganiga amin. Ayol menejerlar yutuqlarni baholashda shaxsiy yutuqlarga e'tibor berishadi. Biroq kompaniyaning yutug'i ularga qoniqish hissi tug'dirmaydi. Obyektiv ravishda muvaffaqiyatli deb tasniflanishi mumkin bo'lgan erkaklar o'z faoliyatini tavsiflashda "muvaffaqiyatsiz" vazifalarga e'tibor qaratishgan, bu umuman firma faoliyatiga taalluqli emas [7].

**Xulosa.** Bizning fikrimizcha, ba'zi yetakchilik uslubi yaxshiroq deb bahslashish mumkin emas. Xulq-atvorning "erkak" va "ayol" uslublaridan ongli ravishda foydalanish qobiliyatiga ega bo'lgan har bir rahbar o'z muhiti bilan ziddiyatsiz munosabatda bo'lishi mumkin. Zero, aynan barkamol munosabatlar kompaniyalarni haqiqiy natijalarga va real samaradorlikka yetaklaydi.

Turli tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, muvaffaqiyatli yetakchining jinsi yo'q. Samarali va omilkor rahbarlar, jinsidan qat'i nazar, aralash turdagi yetakchilikni namoyish etadilar. Erkaklar ham, ayollar ham tashkilotga rahbarlik qilish uchun teng imkoniyatlarga ega va gender xususiyatlari samarali yetakchilik uchun cheklov bo'la olmaydi.

Shunday qilib, liderning roli an'anaviy ravishda erkak sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun, o'tmishda ayol rahbarga nisbatan ichki va tashqi ziddiyatni shakllantiradigan rollarning mos kelmasligi holati mavjud edi. Biroq bugungi kunda bu muammo o'z dolzarbligini yo'qotdi va ayol yetakchilik fenomeni, ayniqsa, ijtimoiy-madaniy sohada kuchayib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Бендас Т.В. Гендерные исследования лидерства // Вопросы психологии. 2000. № 1, – С. 87.
2. Бурменко Т.Д., Даниленко Н.Н., Туренко Т.А. Сфера услуг: экономика. – М.: КНОРУС, 2007. – С. 328.
3. Гвоздева Е.С. Штрихи к портрету женщин-менеджеров // Социологические исследования. 2000. № 3. – С.43.
4. Данилова Н.И. Содержание и принципы гендерного управления. <http://cyberleninka.ru/article/n/soderzhanie-i-printsipy-gendernogo-upravleniya>
5. Михеева Н.А. Социально-культурная сфера в системе социального управления. <http://cyberleninka.ru/article/n/sotsialno-kulturnaya-sfera-v-sisteme-sotsialnogo-upravleniya>
6. Найссер У. Познание и реальность. М.: Прогресс, 1981. – С.121.
7. Силласте Г.Г. Социально-психологический облик россиянок: доклад на 3-й Международной гендерной конференции «Мужчина и женщина: меняющиеся роли и образы». 14–16 октября 1997. М., 1997. – С.65.
8. Чирикова А.Е. Мужчина и женщина как топ-менеджеры российских компаний // Социологические исследования. 2003. № 1.
9. Bitner M.J. Service scapes: The Impact of Physical Surroundings on Customers and Employees. // Journal of Marketing, 1992, – С. 60.

# **QarDU XABARLARI**

**Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal**

**Qarshi davlat universiteti kichik bosmaxonasida chop etildi.**

*Manzil: 180003, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17.*

**Indeks: 4071**

Terishga 26.03.2024 yilda berildi.

Bosishga 01.04.2024 yilda ruxsat etildi.

03.04.2024 yilda bosildi.

Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84, 1/8.

Times New Roman garniturasida. Nashriyot hisob tabog‘i 24,25.

Buyurtma raqami: № 15.

Adadi 100 nusxa. Erkin narxda.